Tadqiqot.uz

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

2020

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

doi Crossref

iD

№14

31 март

conferences.uz

"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР" МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 14-КЎП ТАРМОҚЛИ ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ
3-ҚИСМ

МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ 14-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-3

MATERIALS OF THE REPUBLICAN 14-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-3

ТОШКЕНТ-2020

УЎК 323(575.1)(063)
КБК 66.3(5Ў)я43
Й-18

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2020]

"**Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар**" мавзусидаги республика 14-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 март 2020 йил. - Тошкент: Tadqiqot, 2020. - 290 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Маъсул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши -
Юсувалиева Рахима, профессор в.б.,ю.ф.н. (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)
2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар -
Норматова Дилдора Эсоналиевна, доцент (Фарғона давлат университети)
3.Тарих саҳифаларидаги изланишлар -
Чариев Турсун Хуваевич, доцент (Ўзбекистон давлат консерваторияси)
4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни-
Уринбоев Хошимжон Бунатович, доцент (Наманган мухандислик-қурилиш институти)
5Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни -
Вохидова Мехри Хасанова, PhD (Тошкент давлат шарқшунослик институти)
6.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар -
Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)
7.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар -
Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна, PhD (Тошкент Молия институти)
8.Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши -
Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)
9.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши -
Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)
10.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар -
Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич, доцент (Наманган мухандислик-қурилиш институти)
11.Физика-математика фанлари ютуқлари -
Сохадалиев Абдурашид Мамадалиевич, доцент (Наманган мухандислик-технология институти)
12.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар -
Маматова Нодира Мухтаровна, т.ф.д., доцент (Тошкент давлат стоматология институти)
13.Кимё фанлари ютуқлари -
Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)
14.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар -
Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)
15.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари -
Сувонов Боймурод Ўралович, доцент
(Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)
16.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар -
Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович, PhD, доцент (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси
© Tadqiqot.uz

ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

1. Po'latova Mahliyo,
FE'L SO'Z TURKUMINING MORFOLOGIK BELGI XUSUSIYATLARI.....12
2. Qazoqova Dilfuza,
MAQOLLARDA HAYOT HIKMATLARINING AKS ETTIRILISHI.....14
3.Qirg`izova Muqaddas Odilovna
ALISHER NAVOIYNING SO'Z QO'LLASH MAHORATI.....16
4. Qo'ldosheva Dilnoza Ahmedovna
TASVIRIY SAN'AT DARSLARINING O'QUVCHILARDA ESTETIK VA BADIIY TARBIYANI RIVOJLANTIRISHNING ROLI.....19
5. Qo'shmonova Gulchehra, Nishonova Umida
HAMID OLIMJON IJODIDA BADIIY TAKRORLARNING QO'LLANILISHI..20
6.Qobulova Nodira Bahodirovna
ERKIN A'ZAM ASARLARIDA XARAKTERLAR MUSHTARAKLIGI.....22
7. Qosimova Nigora,
ENCOURAGING PUPILS' SPEAKING SKILLS WITH WARM UP ACTIVITIES.....24
8. Qosimova Obida,
ONA TILI TA'LIMINING MAZMUN-MOHIYATI.....26
9. Murodova Muqaddas, Qurbonova Dilnura
MORFOLOGIYA VA UNING O'RGANISH OBYEKTI.....28
10. Rahimova Zilola Bahramovna, Qilichova Gulnoza Quvondiqovna
O'ZBEK TILIDA BOG'LOVCHILAR VA UNI O'QITISH MASALALARI.....30
11. Rahmatova Feruza
ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNI XALQ OG'ZAKI IJODI BILAN TANISHTIRISH.....32
12. Rajabova Sayyora,
O'QUVCHILARNING SO'Z BOYLIGINI OSHIRISH NOAN'ANAVIY USULLARI.....33
13. Rasulova Dildora,
METAFORANING BADIIY MATNDAGI VAZIFALARI VA USLUBIY XUSUSIYATLARI.....35
14. RASULOVA MARZIYA JURAKULOVNA
G'AFUR G'ULOM HIKOYALARIDA MILLIY QADRIYATLARIMIZNI TASVIRLANISHI.....37
15. RASULOVA OLIYA DJURAQULOVNA
SADOQAT KUYCHISI.....39
16. Rasulova O'lmasoy,
KITOBGA MEHR - USTOZGA, OTA-ONAGA, VATANGA MUHABBATNING KALITI.....40
17. RAVSHANOVA LATOFAT ISOMIDDINOVNA
BILIM QAYDA BO'LSA, BUYUKLIK BO'LAR.....42
18. Dilafruz Raxmatullayeva
ABDULLA QAHHOR SHAXSIYATIGA NAZAR.....43

19. Raxmonova Sevaraxon Solijonovna,
O'QUVCHILARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH....45
20. Ro'ziyeva Gulbahor,
TA'LIM JARAYONIDA KREATIV FIKRLOVCHI YOSH AVLODNI TARBIYALASH.....47
21. Ro'ziyeva Zarina,
MAKTABDA QO'SHMA GAP VA UNING TURLARINI O'RGANISH.....49
22. Ruzmatova Dilnoza Maxmudova, Jumaniyozova Gulnoza Davronboy qizi
CHET TILI PREDMETINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA TA'LIM SHAROITI TUSHUNCHASINING TAVSIFI.....51
23. Sadikova Madina Djabirxanovna,
DEVELOPMENT OF SPEAKING SKILLS IN ENGLISH LESSONS.....53
24.Saidakbarova Malika Boydedayevna,
PROVERBS AND SAYINGS AS AN EFFECTIVE ELEMENT IN THE SYSTEM OF TEACHING A FOREIGN LANGUAGE.....55
25. Saidova Xurshida,
O'QUVCHILARDA MILLIY RUHNI TARBIYALASHDA MUTAFAKKIR IJODINI O'RGANISH.....57
26. Saloydinova Nazokat,
BADIIY ASARLARDAGI MILLIY RUHNI O'RGANISH.....59
27. Shahnoza Saitkulova
WAYS OF USEFUL OBSERVATION IN CLASSROOMS.....61
28. Sharopova Zuxro, Muhammedova Saltanat
OSHLANG`ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSI VA O`QITISHNING TURLI SHAKLLARI.....63
29.Nigora Shermatova
PROVERBS WITH PROPER NAMES IN THE LANGUAGE.....64
30. Shirinova Xursheda,
BADIIY MATNDA METAFORANING AHAMIYATI.....66
31. SHODMONOVA LUTFIYA RAXMATULLAYEVNA
"O'TKAN KUNLAR" ASARIDAGI QAHRAMONLAR TALQINI.....68
32. Shohidova Aziza Qobiljon qizi,
WAYS OF IMPROVING PRONUNCIATION IN ENGLISH.....69
33. Shomurodova Sanobar,
YOZMA ISHLARDAGI XATOLARNI ANIQLASH VA ULARNI TASNIFI.....71
34. SHUKUROVA SHAHNOZA FATULLAYEVNA
ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA DAVR TASVIRI.....73
35. Sobirova Dilnoza Rasulovna, Radjabquliyeva Marjona Anvar qizi
ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA TAKRORLARNING QO'LLANISHI....74
36. Sotvoldiyeva Irodaxon Yoqubjonovna,
LEARNING VOCABULARY WITH THE USE OF ICT.....76
37. Temirova Amina,
ADABIYOT DARSLARIDA KO'RGAZMALI QUROLLARDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....78
38. Teshaboyeva Bibiroziya
TIL VA JAMIYAT.....80

39. To'xtayeva Nargis Hikmatullayevna
MAKTABDA INGLIZ TILI DARSLARINI O'TISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI : MUAMMO VA YECHIM.....81
40. Ortiqov Eldor, To`xtayeva Dilobar
FRAZEOLOGIYA SOHASI, FRAZEMALARNING USLUBIY MA`NOSI VA MA`NO KOMPONENTLARI.....83
41. To`rayeva Umida Shuxratovna
FEATURES OF THE LEGAL TEXT IN FOREIGN LANGUAGE.....85
42. Tolibova Dilnora
ZAMONGA MOS ZAMONAVIY DARS O'YINLARI.....87
43. Tolipova Feruza Abdulboqi qizi,
USING GAMES TO LEARN ENGLISH.....89
44. Toshova Muharram,
ETNONIMGA ASOSLANGAN TOPONIMLARINING ETIMOLOGIK TADQIQI.....91
45.Toshpo'latova Zarnigor
MALAY TILIDA SANSKRIT O'ZLASHMALARINING FONETIK XUSUSIYATLARI.....93
46. Dilnoza Toshtemirova, Bahoroy Shermatova
ATOQLI OTLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA TARJIMADA BERISH USULLARI.....95
47. Turg'unova Nargiza,
USING GAMES AT ENGLISH LESSONS.....97
48. Turganbaeva Sharipa Esenbaevna
THE SIGNIFICANCE OF MOTIVATION IN TEACHING ENGLISH.....99
49. Tursunova Gulbahor Dedashboyevna,
ADABIYOT DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOSLIGI.....101
50. Tursunova Nodirabegim,
INGLIZ VA O`ZBEK TILLARDAGI FRAZEOLOGIK IBORALARNING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI MASALASI.....103
51. Umarova Dilafruz Xusanjon qizi
DAS PROBEM DER ENTLEHNUNGEN IM WORTBILDUNGSSYSTEM DER DEUTSCHEN SPRACHE.....105
52. Umrzaqova Gulmira Tursunovna,
ONA TILI DARSLARIDA TA'LIMNING INTERFAOL USULLARIDAN FOYDALANISH.....107
53. Umrzoqova Shoxsanam Akbo'tayevna, Yaxyayeva Malika To'ychiboyevna
O'QUVCHILARNING ONATILI DARSLARIDA IMLOVIY BILIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....109
54. Dilbar Usarova, Bahoroy Shermatova
SLIYATNING PRAGMATIK VA STILISTIK XUSUSIYATLARNI TARJIMADA AKS ETTIRILISHI.....112
55. Usmanova Saidaxon Ikromjonovna,
COMMUNICATION GAMES IN ENGLISH LESSONS.....114
56. Usmonova Dildora Komiljonovna,
WITHOUT LISTENING, SPEAKING CANNOT BE NORMAL.....116

57.Valiyeva Dilorom Turg'unpo'latovna
ALISHER NAVOIYNING O'ZBEK TILSHUNOSLIGIGA QO'SHGAN HISSASI.....118
58. Xakimova Umida Nosirjonovna,
THE IMPORTANT ROLE OF SPEAKING SKILLS IN TEACHING ENGLISH.....120
59. Xalilova Dilorom,
ADABIYOT DARSLIGINING SAMARADORLIGI MILLIY QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISHDA.....122
60. Xolmuratova Nasiba Egamberganovna,
HET TILI DARSLARIDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR: PEDAGOGIK MAHORAT - TA'LIMGA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV.....124
61.Dilbar Xalmuratova, Sevara Jumamuratova
FONETIKA BO'LIMINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR.....127
62.Hamidova Nigora Urinovna, Mardonov Akmal Ahatovich
O'ZBEKISTONDA XALQ O'YINLARINING NOMLANISHIDA ONOMASTIK QONUNIYATLARNING O'RNI VA AHAMIYATI.....129
63. Xamrayeva Munisa,
INSON KAMOLOTINI TA'MINLOVCHI ENG YAQIN DO'ST.....130
64.Xamroqulova Maxmudaxon Yunusaliyevna, Mamatqulova Rahima Abdug'aniyevna
TIL O'RGANISHDA ZAMON TALABLARIGA MOS TEXNOLOGIYALARDAN OQILONA FOYDALANISH.....132
65. Xamroyeva Maftuna
TA'LIM TIZIMIDA INTEGRATSIYALASHGAN DARSLARINI TASHKIL ETISH.....134
66.Xasanova Nozima Nasimjanovna,
ENGLISH PRONUNCIATION IS EXTREMELY DIFFICULT.....136
67. Khidirova Mukhlisa Alisher qizi
THE DOCUMENTARY FEATURES OF THE NOVELS BY NORMAN MAILER AND TRUMAN CAPOTE.....138
68. Xojimurodova Nigora Anvar qizi, Jo'raboyeva Mahfuza Salimqulovna
CHET TILLARNI O'QITISHDA KOMPYUTER TEXNOLIGIYALARDAN FOYDALANISH.....140
69. Ortiqov Eldor, Xolliyeva Aziza
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA FRAZEOLOGIZMLARNING SEMANTIK-GRAMMATIK VA USLUBIY XUSUSIYATLARI.....143
70.Dildora Xolmirzayeva
TOHIR MALIK ASARLARIDA ARGO HAMDA JARGON SO'ZLAR.....145
71.Xo'jayeva Malika
ZULFIYA ISROILOVA HAYOTI VA IJOD YO'LI.....147
72. Aqmoral Xudayberdiyeva
BANK VA MOLIYA SOHASIDAGI TERMINLARINING KELIB CHIQISHI..149
73. Xudayberganova Gavhar Jumanazarovna
JAHON TILLARI QAYSILAR:INGLIZMI YO FARANG?.....150

74. Hakimova Mastura, Xurramova Matluba
O'ZBEK TILI SHEVALARINING FARQLANISHI. XORAZM VA QASHQADARYO SHEVALARI MISOLIDA.....152
75. Xusenova Munira,
ADABIYOT DARS MASHG'ULOTLARIDA DIDAKTIK VOSITALARDAN FOYDALANISH.....155
76. Yangiboyeva Jumagul Sharofitdinovna
"DEVONU LUG'OTIT TURK" ASARIDA QO'LLANGAN MAQOLLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI".....157
77.Yerejepova Zamira Duzelbayevna
T.QAYÍPBERGENOVTIŃ "MAMAN BIY ÁPSANASÍ" ROMANÍNDAǴÍ FRAZEOLOGIZMLERDIŃ SINTAKSISLIK XÍZMETI HAQQÍNDA.....158
78. Yoqubova Maftuna
YAPONI TILIDAGI SON BILAN BOG'LIQ 4 IEROGLIFLI IBORALAR VA ULARNING TUTGAN O'RNI.....160
79. Yuldasheva Nilufar No'monjonovna,
THE ROLE OF ICT IN TEACHING ENGLISH.....162
80. Yusupova Marg'uba Tursunpo'latovna,
EDUCATIONAL GAMES IN ENGLISH LESSONS IN PRIMARY CLASSES..164
81. Zikrillayeva Gulbahor,
MILLIY ONGNI SHAKLLANTIRISHDA XALQ OG'ZAKI IJODIYOTINING O'RNI.....166
82.Zokirova Guljaxon
TIL HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT.....168
83. Абдулбориева Замира Абдурауфовна,
РАЗГОВОРНАЯ РЕЧЬ В ПРЕПОДАВАНИИ ЯЗЫКА НА УРОКЕ.....170
84. Абдуллаева Рохила Юсуфжон қизи
ЎЗБЕК ТИЛИДА ТЕМПЕРАМЕНТ КЎРСАТГИЧЛИ СЎЗЛАР.....172
85. Алдабергенова А.А.
ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ УЧАЩИХСЯ
НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА.....175
86. Бектурдиев Гайрат Рузибаевич, Аллаберганов Бахтиёр Азадович
ПРОБЛЕМЫ СОВРЕМЕННОГО РУССКОГО ЯЗЫКА.....177
87. Амонова Замира Ибадиллаевна,
СИНТАКСИС, КАК РАЗДЕЛ ЯЗЫКА.....179
88.Ахмат-Охунова Ш.И.
ФРАЗЕОЛОГИЗМЫ С ВАРЬИРУЕМЫМИ КОМПОНЕНТАМИ.....181
89. Бердиева Хосият Азимовна,
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ МЕТОДИКИ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ.....183
90. Бозорова Нигора Хакимовна
НОВЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА.....185
91.Валиева Захидахон Турсуналиевна,
НОВЫЕ ФОРМЫ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ УЧЕБНОЙ ИНФОРМАЦИИ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК СРЕДСТВО САМОСТОЯТЕЛЬНОГО РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ.....187

92. G.Shomuratova, N. Bekturdiyeva
SINFDAN TASHQARI ISHLARNING SHAXS TARBIYASIDAGI AHAMIYATI.....189
93. Гулямова Зиеда
К ВОПРОСУ "ПОРОЧНЫХ КРУГОВ" ГЛАГОЛОВ ГОВОРЕНИЯ ПО ДАННЫМ TÜRKÇE SÖZLÜK (ANKARA, 2005. 2244 SAYFA).....191
94. Есимова Ойгул,
ФОРМИРОВАНИЕ МАТЕМАТИЧЕСКИХ ПОНЯТИЙ НА УРОКАХ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ.....195
95. Зоирова Диёра Абдужалиловна
ИСАЖОН СУЛТОН ҲИКОЯЛАРИДА ИЖОДКОР УСЛУБИНИНГ АЙРИМ ЖИҲАТЛАРИ.....197
96. Ибрагимова Нагина
БЛОГЕРСТВО КАК СРЕДСТВО САМОВЫРАЖЕНИЯ.....200
97. Исаева Гулчехра
РОЛЬ ВНЕКЛАССНЫХ МЕРОПРИЯТИЙ ПО РУССКОМУ ЯЗЫКУ И ЛИТЕРАТУРЕ.....202
98. Исакжанова Зульхумор Аббасовна
"ДВУХЧАСТНЫЙ ДНЕВНИК" ПРИЕМ ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ КАК ОДИН ИЗ СОВРЕМЕННЫХ ИННОВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ В МЕТОДИКЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ЛИТЕРАТУРНОГО ЧТЕНИЯ.....204
99. Азамжон Ихтиёров,
ГРАДУОНИМИЯНИНГ ЛЕКСЕМА ВА ФРАЗЕМАЛАР СИНОНИМИК ПАРАДИГМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШИ.....206
100. Казакова Гулчехра Абдусаламовна,
РАЗВИТИЕ КУЛЬТУРЫ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ КАК МЕТОД РАБОТЫ ПО РУССКОМУ ЯЗЫКУ.....209
101. Карабаева Ҳилола
НАВОИЙ "ХАМСА"СИ ВА УНИНГ ҚЎЛЁЗМАЛАРИНИ ЎРГАНИЛИШИ211
102. Каюмова Сабина, Асланова Ирода
IRREALITY AND ITS EXPRESSIONS IN ENGLISH SENTENCE.....213
103. Каюмова М.Х.
ИГРОВЫЕ ЗАДАНИЯ, НАПРАВЛЕННЫЕ НА ОТРАБОТКУ ОРФОЭПИЧЕСКИХ НОРМ.....215
104. Ковригина Юлия,
METHODS FOR CORRECTING ERRORS IN THE PROCESS OF LEARNING ENGLISH.....217
105. Лещенко Инна,
СОВРЕМЕННЫЕ ФОРМЫ ОРГАНИЗАЦИИ ВНЕУРОЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ С МЛАДШИМИ ШКОЛЬНИКАМИ ПО ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМУ ИСКУССТВУ.....219
106. Махкамов Улугбек Хакимович,
СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В АСПЕКТЕ ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННОГО ПОДХОДА В ОБУЧЕНИИ.....221
107. Murodova Mo'tabar Ibodullayevna, Norqobilov Akbarali Baxtiyorovich
XATLAR TARJIMASIDA USLUBIY VOSITALARNING QO'LLANILISHI.....223

108. Нарзуллаева Хилола Нусратуллаена,
РЕАЛИЗАЦИЯ ПРОБЛЕМНОГО ОБУЧЕНИЯ
В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ.....226
109. Нигматуллаева Мукаддас Иркинжоновна,
КАК И ЗАЧЕМ ОБУЧАТЬ ДЕТЕЙ ГРАММАТИКЕ С ПОМОЩЬЮ ИГР....228
110.Ортикова Севара,
USING INTERESTING GAMES IN TEACHING ENGLISH IN PRIMARY CLASSES.....230
111. Мукаррам Отамуродова
ЖУРНАЛИСТИКА ТАЪЛИМИДА ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ЎҚИТИШНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ.....232
112. ОЧИЛОВА АЙГУЛ ХУДАЙБЕРДИЕВНА
ЖЕЙМС ЖОЙС ПРОЗАСИДА МИФОЛОГИЯЛАР МАСАЛАСИ.....235
113. Расулова Сурайё,
ПРОБЛЕМЫ МОТИВАЦИИ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ.....237
114. Саидова Мохира, Бахронова Комила, Бабамурадова Лола
МЕТОДИКА ИЗУЧЕНИЯ ДЕЕПРИЧАСТИЙ.....239
115. Салихова Замира Аминовна
МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА ДЛЯ ИНОСТРАННЫХ СТУДЕНТОВ.....242
116. Салохиддинова Г.И.
РАБОТА НАД ИЗОБРАЗИТЕЛЬНЫМИ СРЕДСТВАМИ В СВЕТЕ РАЗВИТИЯ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ В ШКОЛЕ.....244
117. Сеитназарова Гулжаҳан Суханатдиновна,
ЖУРНАЛИТИКАДА ФАКТНИНГ ТУТГАН ЎРНИ ВА ТАЪСИР ЭФФЕКТИ.....246
118. Қаҳрамон Собиров
ПЕРСОНАЖЛАР НУТҚИДА "КЎНГИЛ" СЎЗИГА АСОСЛАНГАН ИБОРАЛАР СЕМАНТИКАСИ.....248
119. Сирожиддин Сотволдиев,
АРАБ ТИЛИДА ОМОНИМЛАР.....249
120. T.Jumaniyozova, G.Shomuratova
FIZIKA DARSLARIDA VIRTUAL LABORATORIYA ISHLARIDAN FOYDALANISH.....252
121.Шодия Ташпулатова
ЧЕТ ТИЛИ МУЛОҚОТИНИНГ ПСИХОЛОГИК ВА МЕТОДИК ОМИЛЛАРИ.....254
122. Файзуллаева Насиба Норкуловна,
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ КОМПЬЮТЕРА НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА ПРИ РЕАЛИЗОВАТЬ ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННОГО ПОДХОДА В ОБУЧЕНИИ.....256
123. Мунира Хамдамова Бадриддин қизи
МОДАЛЛИК ТАРКИБИГА КИРУВЧИ УЯТ КОНЦЕПТИНИНГ ЛИНГВОКУЛЬТОРОЛОГИК ТАҲЛИЛИ.....258
124. Хамиджанова Феруза Ибрагимовна
ПРОБЛЕМА ФОРМИРОВАНИЯ ПОЛНОЦЕННОГО НАВЫКА ЧТЕНИЯ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ.....260

128. Хамидова Дилноза,
СОВМЕСТНАЯ РАБОТА УЧИТЕЛЯ С РОДИТЕЛЯМИ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ.....262
129. Хамраева Фарида,
МОНИТОРИНГ КАК СРЕДСТВО УПРАВЛЕНИЯ КАЧЕСТВОМ ОБРАЗОВАНИЯ.....263
130. Хамраева Дилафруз
ПОНЯТИЕ "АВТОР И ГЕРОЙ" В СОВРЕМЕННОМ ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ.....265
131. Хожаева Малика Носиржон қизи
ГИДЛАР НУТҚИНИНГ ХИЛМА-ХИЛЛИГИ ХУСУСИДА (БУХОРОНИНГ ДИҚҚАТГА САЗОВОР ЖОЙЛАРИ МИСОЛИДА).....267
132. Холмурадова Юлдуз,
НОВОЕ ПОКОЛЕНИЕ ВЫБИРАЕТ ЧТЕНИЕ.....269
133. Холова Д.Р.
СУЩНОСТЬ ВНЕУРОЧНОЙ РАБОТЫ И ЕЕ МЕСТО В СТРУКТУРЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ РАБОТЫ.....271
134. Shixova Muqaddas Omonboevna
PISA: O'QISH SAVODXONLIGINI ANIQLASH USULLARI.....273
135. Шодиева Лола,
МИКРОТЕКСТ КАК СОВРЕМЕННОЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ СРЕДСТВО.....275
136. Шоҳида Отаханова
ХАЛҚ ЭРТАКЛАРИНИ ТАРЖИМА ҚИЛИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ.....277
137. Эргашева У.Б.
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КУЛЬТУРЫ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА И ВО ВНЕУРОЧНОЕ ВРЕМЯ.....279
138. Ю.Мамажонова
ИНГЛИЗ ТИЛИНИ ЎҚИТИШДА ГРАММАТИК ТАРЖИМА МЕТОДИ.....281
139. Юлчиев Бахтияр,СаидоваУмида
ПЕДАГОГИКА ВА БОШҚА ФАНЛАР ЎРТАСИДАГИ ИНТЕГРАЦИЯ.....283
140. Мадаминова Мухаббат Сотволдевна
СИНТАКТИК ҚУРИЛМАЛАРНИНГ МАТН ПРАГМАТИКАСИДАГИ ЎРНИ.....285
141. Лутфуллина Альфия Ахмадфаридовна
ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕВОДА ТОПОНИМОВ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ.....286
142. Dilnoza Akramova, Z.Mamadaliyeva
"BODA KELTIR CHUN QUYOSHTIN…" G'AZALI TAHLI.....288

ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

FE'L SO'Z TURKUMINING MORFOLOGIK BELGI XUSUSIYATLARI

Po'latova Mahliyo,
Navoiy viloyat Qiziltepa tuman 27-maktab
ona tili va dabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqola fe'l so'z turkumining har bir kategoriyasi uning murakkab, ziddiyatli, grammatik xususiyatlarga boy ekanidan dalolat berishi hamda bu mavzuni ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilarga o'rgatish murakkab jarayonlardan biri sanalishi haqidab yozilgan.

Kalit so'zlar: fe'l, gap, grammatik xususiyat, turkum, leksika.

O'zbek tilida so'z turkumlari tizimida fe'l so'z turkumi alohida o'rin tutadi. fe'l gapni shakllantira olish xususiyatiga ega bo'lgan alohida so'z turkumidir. Negaki fe'l gapning zaruriy uzvi hisoblangan predikativlikni o'zida to'la aks ettira oladi. Birgina tuslangan fe'l ham gapning eng kichik qurilish modelini hosil qiladi. Anglashiladiki, so'z turkumlari ichida fe'lning grammatik imkoniyatlari yuqori.

Fe'l so'z turkumi boshqa so'z turkumlaridan turli-tuman grammatik kategoriyalarga ega ekani bilan ham ajralib turadi. Fe'lning har bir kategoriyasi uning murakkab, ziddiyatli, grammatik xususiyatlarga boy ekanidan dalolat beradi. Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilarga fe'l kategoriyalarini o'rgatish murakkab jarayonlardan biri sanaladi. Mazkur masalani ham nazariy, ham amaliy jihatdan yuksak darajada o'rgatish, avvalo, o'qituvchi tomonidan mavzuning mohiyatini aniq va to'g'ri belgilab olishni taqozo etadi. Shuni hisobga olgan holda tilni o'rgatishda fe'l nisbati shakllarining o'rganilish masalasini hamda uning asosiy grammatik belgilarini yoritishni lozim.

O'zbek tilshunosligida fe'lning so'z turkumi tizimida tutgan o'rni, leksik-grammatik xususiyatlari, vazifasi va ma'no turlari, gapni shakllantirishi kabi masalalar keng o'rganilgan. Xususan, bu masala bo'yicha tilshunos olimlar A.G'ulomov, A.Hojiyev, M.A'lamova, E.Fozilov, I. Qo'chqortoyev, R.Rasulov, R.Sirojiddinov va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Mavjud ishlarda fe'lning valentligi, turlari, yasalishi, grammatik kategoriyalari, gap qurilishida tutgan o'rni kabi masalalar ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Mazkur olimlarning tadqiqot ishlarini izchil o'rganish asosida fe'lning quyidagi leksik-grammatik belgilari aniqlandi:

1. Fe'llar zamon bilan bog'liq holda yuz beruvchi harakat-holat tushunchasini anglatadi.
2. Fe'llar tuslanish hamda yasalish xususiyatiga ega.
3. Fe'llar gapda otlashib, otga xos xususiyatlarni ham namoyon qiladi.
3. Fe'llar barcha so'z turkumlari bilan sintaktik munosabatga kirisha oladi. Fe'lning talabi bilan boshqariluvchi so'z muayyan grammatik shaklni qabul qiladi. Fe'llar quyidagi grammatik kategoriyalarga ega: o'timli-o'timsizlik, bo'lishli bo'lishsizlik, nisbat, mayl, zamon, shaxs-son kategoriyalari.
4. Fe'llar gapni uyushtira olish qobiliyatiga ega. Gapning ham mantiqiy, ham grammatik markazi ko'pincha fe'llardan tashkil topadi.
5. Fe'llar gapning zaruriy uzvi hisoblangan predikativlik unsurlarini o'zida to'la aks ettira oladi. Bu jihatdan u boshqa so'z turkumlaridan ajralib turadi.
6. Fe'llar gapning semantik strukturasiga ta'sir ko'rsatib, uni mazmunan murakkablashtira oladi.

Fe'llarning qayd etilgan leksik-grammatik belgilari ularning murakkab tuzilishga ega ekanidan dalolat beradi. Bu belgilar nutq jarayonida aniq ko'zga tashlanadi. Har qanday til birligining o'ziga xos xususiyatlari gap tarkibida boshqa so'zlar qurshovida yaqqol ko'rinadi. Shu sababli ham keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida til birliklarini nutqiy aloqa jarayonida o'rganishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

O'zbek tilida fe'llar morfologik belgisi, sintaktik xususiyatiga ko'ra so'z turkumlari ichida alohida o'rin egallaydi. Fe'l umumiy belgilariga ko'ra boshqa so'z turkumlari bilan o'xshashlik, xususiy belgilariga ko'ra ulardan farqlanuvchi belgilarini namoyon qiladi. Masalan, fe'llar biror holat, belgining o'zgarishini bildirishi jihatidan sifatga zid qo'yiladi. Fe'l faol o'zgarish jaryonidagi harakat-holatni ma'lum vaqt bilan bog'liq tarzda ifodalaydi.

Bu uning zamon shakllarida ko'zga tashlanadi. Sifat esa ma'lum bir narsa-predmetga xos turg'un, doimiy belgini aks ettiradi. Fe'llar gap tuzishga asos bo'lishi jihatidan otlarga yaqin turadi, ammo uyushtiruvchilik xususiyati kuchli ekanligi bilan, murakkab grammatik kategoriyalarga ega ekanligi bilan undan farqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdusamatov R. O'zbek tilida gap bo'laklarining noamaliy mavqeyi masalasi. AKD. Samarqand, 2004.
2. Berdaliev A. O'zbek tili ergash gapli qo'shma gaplarida sintaktik aloqa va sintaktik munosabatlar. -T., Fan, 2008.
3. Mamajonov A. Qo'shma gap stilistikasi. -T., O'qituvchi,1990.
4. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. -T., O'qituvchi, 1995.

MAQOLLARDA HAYOT HIKMATLARINING AKS ETTIRILISHI

Qazoqova Dilfuza,
Navoiy viloyat Karmana tuman 6-maktab
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada xalq maqollarining tilimiz, dinimiz paydo bo'lgandan boshlab hozirgi kungacha o'zining bebaho tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligi haqida yozilgan. Xalq maqollari asrlar davomida o'zining shakl va mazmun jihatdan ham benazirligi bilan buyuk va taniqli adiblar e'tiborini jalb qilib kelishi haqida ma'lumotlar qayd etilagan.

Kalit so'zlar: maqol, ibrat, she'r, folklorizm.

Xalq og'zaki ijodida maqollarning o'ziga xos o'rni bor. U xalqning, bir necha avlodlarning aql-u farosati hamda turmush tajribasining yakuni, ular donishmandligining mahsulidir. Bola ta'lim-tarbiyasida maqollarning o'rni katta. Albatta, inson hayoti bevosita oila bilan bog'liq. Oiladagi turmushning totuvligi har bir oila a'zosining taqdiriga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Oilasi notinch odamning hayoli turg'un bo'lmaydi. Bunday sharoitda tarbiyalangan bolalar ham har tomonlama insoniy yetuklikka erisha olmaydilar. Shuning uchun ham xalq maqollari qatoridan "Oila ahil bo'lsa, omad o'z oyog'i bilan kelar", "Oila tinch-yurt tinch", "Oila qo'sh ustunli ayvon", "Husn to'yda kerak, mehr kunda" kabi namunalar o'rin olgan.

Xalq maqollari asrlar davomida o'zining shakl va mazmun jihatdan benazirligi bilan buyuk va taniqli adiblar e'tiborini jalb qilib keldi. Yusuf Xos Hojibdan tortib Muqimiygacha, Alisher Navoiydan tortib Abdulla Qahhorgacha xalq maqollaridan samarali foydalanganlar. Folklorshunoslik ilmida shoir va yozuvchilar tomonidan xalq maqollarining asar matnida keltirilishi folklorizm deb ataladi.

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin: Xalq maqollari asrlar davomida o'zbek xalqining hayot tajribasini badiiy jihatdan ifodalovchi so'z san'ati namunalari sifatida yashab keldi. Xalq maqollari ming yil davomida shoir va yozuvchilar tomonidan badiiy asarlarga kiritildi va folklorizm namunasi sifatida so'z san'atidan o'rin oldi. Maqollar mundarijasi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy masalalarga oid mavzulardan iboratdir. Ularda o'zbekning vataniga, xalqiga, mehnatga, ilmga, hunarga, oilaga, mardlikka, ahillikka bo'lgan munosabatlari o'zining badiiy ifodasini topgan. Maqollar uzoq o'tmishda bo'lgani kabi bugungi kunda ham mustaqillikka erishgan o'zbek xalqining yosh avlodini ajdodlar havas qilgan barkamol inson darajasiga yetaklovchi asosiy tarbiya vositalaridandir.

"Maqol", aslida arabcha, "so'z" degan ma'noni bildiradi. Uni "otalar so'zi" ham deydilar. Maqol ota-bobolarimizning uzoq yillar davomida ko'rgan-kechirganlari, tajribalari asosida kelgan xulosa so'zlaridir. Maqol she'riy shaklda ham bo'lishi mumkin.

Masalan: Oltovlon ola bo'lsa,
Og'zidagini oldirar.
To'rtovlon tugal bo'lsa,
Tepadagini endirar.

Maqol birlik, o'zaro ittifoqlik haqida. Bir kishining olti o'g'li bo'lsa-yu, ular bir-birlari bilan ahil bo'lmasalar, og'zilaridagini oldiradilar. Ularni istagan odam xafa qilaverishi mumkin. To'rt aka-uka bo'lsa-yu, ahil bo'lsalar, ular ko'p ish qila oladilar. Ya'ni, ahillik bo'lsa, oz odam bilan ham katta ishlar qilish mumkin. Ahillik bo'lmasa, ko'p kishi bilan ham hech ish qila olmaysan. Bu - ma'nosi.

Ifodaga kelsak, "oltovlon" ko'pchilikni, "to'rtovlon" ozchilikni anglatyapti. "Ola bo'lmoq" noahillikni, "tugal bo'lmoq" ahillikni bildirmoqda. "Og'zidagini oldirmoq" bor narsalarini boy berib qo'ymoq, "tepadagini endirmoq" qiyin, murakkab ishlarni ham osongina hal qilmoq ma'nolarini anglatyapti. Maqollar xilma-xil mavzularda bo'lishi mumkin. Masalan, do'stlik, vatan, mehnat, ilm-hunar egallash, botirlik, saxovat, adolat va hokazo.

Maqollarda ko'pincha so'zlar ko'chma ma'noda ishlatilgan bo'ladi. Ularni o'z ma'nosida tushunsak, kutilgan ma'no chiqmaydi. Masalan, "Dehqon bo'lsang, kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda" maqolidagi so'zlar o'z ma'nosida qo'llangan. Lekin "Qazisan, qartasan - axir aslingga tortasan", "Olma olmadan uzoq tushmaydi", "Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi" kabi ma'no jihatidan bir-biriga juda yaqin bo'lgan maqollarda so'zlar o'z asl ma'nosida emas. Ularda gap aslida "qazi-qarta", "olma", "qarg'a" haqida emas, odam va uning fe'l-atvori haqida. Shuning uchun ham ular ko'chma ma'noda ishlatilmoqda deymiz.

Maqollar ona-vatanni sevishga, uning har bir qarich yeri uchun kurashga, kasb hunar egasi bo'lishga, ahil bo'lib mehnat qilishga, to'g'riso'z va halol kishilar bo'lib kamol topishga, yaxshi odob va olijanob xulqli bo'lishga, chaqiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jumanazarov U. O'zbek xalq maqollari. T.: O'qituvchi,1991.
2. Jumanazarov U. Tarix, afsona va din. T.: 1990.
3. Imomov K. O'zbek fol'klori ocherklari, uch tomlik, t.II, 40-b
4. Imomov K. O'zbek xalq prozasi. T.: 1984.

ALISHER NAVOIYNING SO'Z QO'LLASH MAHORATI

Qirg`izova Muqaddas Odilovna
Namangan viloyati Namangan tuman XTB ga qarashli
2-sonli maktabning ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi
Tel:+998 97 571 78 87

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning so`z qo`llash mahorati to`g`risida fikr yuritiladi. Navoiyning asarlarida qo`llangan so`zlarning chuqur ma`nolari yoritib beriladi.

Kalit so'z va iboralar: til, so`z, qofiya, ohangdosh so`z, nasriy qofiya, himmat, komil inson.

Аннотация: В этой статье рассматривается словарные навыки Алишера Навои . Выделены более глубокие значения словб использованных в произведениях Навои.

Ключевые слова и фразы: язык, слово, рифма, согласное слово.

Annotation: This article discusses Alisher Navoi's vocabulary skills. The deeper meanings of the words used in Navoi's works are highlighted.

Key words and phrases: language, word, rhyme, melody word.

Mir Alisher Navoiyning asarlarini o'qigan kitobxon, uning so'zdan nechog'lik puxta va mukammal holda foydalana olishi va uni o'z o'rnida chiroyli tarzda qo'llay bilishiga tahsinlar aytadi. Navoiyning so'z qo'llash san'ati o'z davrining ham undan keyingi va hozirgi davrimiz ijodkorlarini hayratga solib kelgan. Xususan, uning "Hayrat ul-abror" dostonida Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiy kabi ustozlariga juda chiroyli ta'riflar beradi.

Xususan, buyuk mutafakkir Nizomiyni quyidagicha ta'riflaydi:

Nozim o`lub so`z duri serobig`a
Charx "Nizomiy" yozib alqobig`a
"Quddisa sirruh" - ne maoniydur ul,
Ruhi qudus fayzi nishonidur ul.
Otiki besh harf qilurlar xitob,
Ming bir erur aylasang oni hisob.
Ushbu adad birla oti gavhari,
Haqning o`lub ming bir oti mazhari.
Mazhar etib chun alifin ismi zot,
O`zga adad harfini ismi sifot.

Ma'nosi: U bebaho so'z durlarini tartibga solgani uchun taqdir unga "Nizomiy" degan taxallusni munosib ko'rdi. Arabchada "Nizomiy" besh harfdan iborat bo'lib, "nun" - 50, "izg'i" - 900, "alif" - 1, "mim" - 40, "yo" - 10 ni bildiradi, jami - 1001. Bunda "alif" harfi uning o'z ismini bildirsa, qolgan harflar uning 1000 sifatini anglatadi. Nizomiy Ganjaviyning ijodxonasi suvoqlaridan anbar hidi keladi. Xonasining to'rt tomoniga esa sakkiz jannat yashiringan. Baland osmon uning masjidiga qandil, nur sochuvchi quyosh esa o'sha qandildagi sham. Ka'ba uyidan unga doim unga bir eshik ochiq; namoz vaqtida unga bu eshik mehrob vazifasini o'taydi. Unga nisbatan "Quddisa sirruh"(duo: "Uning sirlari pok bo'lsin!") deyishning hojati yo'q, chunki poklik ruhining o'zi uning fayzidan nishonadir. [1]

Nizomiy ta'rifidagi har bir so'zdan mohirlik bilan foydalanilgan. Har bir misradagi so`z hattoki harflar ham olam-olam ma'no ifodalaydi. Bunday hodisani Alisher Navoiyning har bir asarida uchratishimiz mumkin. U o`z asarlarida so`zlarni shunchaki qo`llamaydi, ular shakl va ma'no jihatidan ma'lum bir ma'no tashishga xizmat qiladi. Bu holatni "Mahbub ul-qulub " asarida ham uchratishimiz mumkin:

Tanbeh (122).

Chin so'zni yolg'ong'a chulg'ama, chin ayta olur tilni yolg'ong'a bulg'ama. Yolg'onchi kishi emas, yolg'on aytmoq eranlar ishi emas. Yolg'on so'z deguvchini bee'tibor qilur, nechukkim, ul gavharni xazafdek xor qilur. Ulkichin so'zni yolg'ong'a qotar, durri saminni najosatg'a otar.

Bayt:

Gavharekim, shohlarg'a zebi toj-u taxt erur,
Tashlag'on oni najosatg'aajab badbaxt erur.

Keltirib o`tilgan 122-tanbehda ko`rishimiz mumkinki, nasriy usuldagi qofiyalar juda chiroyli tarzda qo`llanilgan. Yolg`onning insonga qanchalar zarar keltirishi to`g`risida fikrlar yoritib berilgan.

Tanbeh (103).

Tengri el aybig'a nozir va sotirdur. Bovujudkim, jazosig'a qodirdur. Va tengri dushmani ani ko'rmas va bilmas.

Ammo tuhmat bila fosh qilurda taqsir qilmas.

Masnaviy:

Tengri ishin qilmoq erur farzi ayn
Kim, ko'rubon aylamoq sho'ru shayn.
Ko'rmoyin ulkim, ishi bo'hton erur,
Bilki bu xislat bila shayton erur. [2]

Mazmuni: Tangri ya'ni Alloh taolo odamlarning aybini ko`rib turuvchi zotdir. U jazoga qodirdir. Bandalar uni ko`rmas va bilmaslar. Shuning uchun odamlar bilib-bilmagan holatda bir-birlariga yomonliklar qilib qo`yishadi. Bunday holatda esa bu yerga shayton aralashgan bo`ladi.

Masnaviydagi har bir so'z o`zaro qofiyadoshga o`xshaydi. Birinchi va ikkinchi misradagi "ishin qilmoq" so'zi ikkinchi misradagi "ko`rubon aylamoq" so`ziga monand kelgan. Bu kabi misralarni tahlil qilar ekanmiz, oddiygina to`rt misraga shuncha ma`no-mazmun joylash mumkinmi, deb o`ylab qoladi kishi. Balkim, Alisher Navoiyning buyukligi ham shundadir, har bir misrada olam-olam ma'no ifodalash.

Alisher Navoiyning so`z qo`llash mahoratini uning "Lison ut-tayr" asarida ham ko`rishimiz mumkin. "Lison ut-tayr"ning butun-butun sahifalarining barchasi hikmatdan iborat. Xususan, quyidagi satrlarda ham himmatning fazilatlari olg`a surilgan:

"Past elning gar biyikdur himmati,
Bor oning xo`rdida izzu rif'ati
Gar o`ldi himmatu odam - sadaf
Bu sadafqa ul guhardindur sharaf.
Himmat o`lsa, masnadu joh o`lmasun,
Mulku mol onchaki dilxoh o`lmasun.
Kimga yo`qdur naqddin peroyasi,
Bilki himmat bas durur sarmoyasi.
Kimsaga hech ishta gar etmas ilik,
Bok yo`q gar himmati bo`lsa biyik.
Erta himmatdin berur yuz e'tibor,
Johu mulku ganjning ne dahlia bor?!
Mol o`lub gar yo`q kishining himmati,
Ma'ni ahli ollida yo`q izzati.
Kimki bo`lg`ay himmati oily anga,
Bar berur bu himmat iqboli anga.
Shahg`a himmat past agar berdi xudo,
Xushroq ondin himmati ichra past,
Keldi himmatlig` gadodinzerdast.
Odamining zebi himmatdin durur,
Nafsning ta'dibi himmatdin durur.

Mazmuni: Agar kambag`al kishilarning himmati baland bo`lsa, fe'llari ham shunga yarasha izzat va martabalik bo`ladi. Agar himmat bir gavhar bo`lsa, insonni sadaf deb hisobla, bu sadafga asl sharaf o`sha gavhar tufaylidur. Agar kishida himmat bor bo`lsa, unga taxt va amalning keragi yo`qdur, mulk va mol-dunyo ham uning ko`ngliga yoqimli tuyulmaydi. Kimning naqd mol-u muli bo`lmasa ham himmati bo`lsa bas, shuning o`zi uning uchun katta davlatdir. Zero, himmati baland kishi har qanday ishni bajara oladi. Himmat haqiqiy er kishini e'tiborli qiladi, bunga mansab, mulk va xazinaning hech bir daxli yo`q. Agar insonda mol-dunyo bo`lsa-yu, himmat bo`lmasa, u aqlli kishilar nazdida hech qanday obro`-e'tibor topa olmaydi. Kimki oily himmat egasi bo`lsa, bu xislati unga iqbol ato etadi. Agar shohga xudo past himmat ato qilgan bo`lsa, unday shohdan oily himmatli gado yaxshiroqdir. Agar shoh himmat bobida past bo`lsa, u himmatli gadodan mag`lub bo`ladi. Insondagi barcha go`zallik himmat tufaylidur, yomon nafsning jazosi ham himmatdandir".[3]

Alisher Navoiyning asarlarini tahlil qilar ekanmiz, uning falsafiy, axloqiy, ma'naviy kamolotiga guvoh bo`lamiz. Navoiy asarlarida keltirgan barcha yaxshi fazilatlarning egasi o`zi edi, chunki inson bu xislatlarni o`zida jamlay olsagina qog`ozga tushira oladi. Demak, Navoiy ham cheksiz himmat sohibi hisoblanadi. Alisher Navoiy asarlarini o`rganish davomida barcha nuqsonlar holi bo`lgan komil inson o`zi bo`lsa kerak, degan xulosaga kelishimiz tabiiy. U har bir misrada qo`llagan so`zlarini shunchaki ishlatmaydi, asarlarida keltirgan barcha so`zlar butun bir olamni ifodalash, asar mohiyatini ochib berish kabi vazifalarni bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Alisher Navoiy, Hayrat ul-abror, Toshkent, G`ofur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti.1989.

2.Alisher Navoiy, Mahbub ul-qulub, Toshkent, G`ofur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti.1983.

3.Alisher Navoiy,Lison ut-tayr,www.ziyouz.com/kutubxonasi

TASVIRIY SAN'AT DARSLARINING O'QUVCHILARDA ESTETIK VA BADIIY TARBIYANI RIVOJLANTIRISHNING ROLI

Qo'ldosheva Dilnoza Ahmedovna
Buxoro viloyati G'ijduvon tumani 8-umumiy
o'rta ta'lim maktabining tasviriy san'at o'qituvchisi
(+998906144055)

Kalit so'zlar: Tasviriy san'at, badiiy did, estetika, estetik va badiiy didni o'stirish, estetik tarbiya, san'at.

Annotatsiya: Tasviriy san'at o'quvchilarning hr jihatdan yetuk bo'lishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. U o'quvchilarning estetik va badiiy tarbiyasida muhim omil hisoblanadi.

"Bizni hamisha o`ylantirib keladigan yana bir muhim masala-bu yoshlarimizninv odob-axloqi,yurish turishi,bir so`z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog`liq. Bugun zamon shiddat bilan o`zgaryapti. Bu o`zgarishlarni hammadan ham ko`proq his etadigan kim-yoshlar. Mayli,yoshlar o`z davrining talab lari bilan uyg`un bo`lsin. Lekin ayni paytda o`zligini ham unutmasin. Biz kimmiz,qanday ulug` zotlarning avlodimiz,degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib,o`zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya,tarbiya va tarbiya hisobidan"

SH.M.Mirziyoyev

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitilgan tasviriy san'at fanining o'quv predmetining maqsadi barkamol, komil insonni uning badiiy madaniyatini shakllantirishga qaratilgan. Tasviriy san'at o'quv predmeti har bir inson uchun zarur bo'lgan badiiy madaniyatga oid elementar bilim va malakalar beradi. Chunki har bir o'quvchi kelajakda qaysi sohada ishlashidan qat'iy nazar u ishdan tashqari vaqtlarida dam olishi, hordiq chiqarishi, ish vaqtida sarflangan quvvatini tiklashi kerak bo'ladi.Bunga u yuksak badiiy saviyada ishlangan san'at asarlari bilan muzey, ko'rgazmalar va boshqa joylarda tanishish, ularni idrok etish, ulardan zavqlanish orqali erishadi.Bu ularda estetik did va badiiy qobiliyatlarini o'stiradi.

Maktabda tasviriy san'at mashg'ulotlarining bir qator vazifalari bor.Biz ularni shartli ravishda ikki qismga bo'lamiz:

1. Tasviriy san'at darslarining o'ziga xos, maxsus vazifalari hisoblanib ular: borliqdagi va san'atdagi go'zalliklarni ko'ra bilish, idrok etish, tushinish va qadrlashga o'rgatish ; estetik va badiiy didni o'stirish ; bolalar badiiy ijodiy qobiiyat va fantaziyani rivojlantirish ; tasviriy san'atning nazariy asoslari bilan tanishtirish rasm ishlash ,haykal yasash, badiiy qurish va yasash yuzasidan elemantlar, malakalar hosil qilish; kuzatuvchanlik, ko'rish xotirasi, chamalash qobiliyati, fazoviy va obrazli tasavvurlarni , san'atga nisbatan qiziqish uyg'otish uni qadrlashga, sevishga o'rgatish.

2.Tasviriy san'at darslarining qo'shimcha vazifalari.Ular :borliqni, hayotni bilishga ko'maklashish; milliy g'urur va milliy istiqlol mafkurasiniamalga oshirish ; bolalarda axloqiy (vatanparvarlik, baynalminal); mehnat, jismoniy tarbiyani amalga oshirish; bolalarni turli kasb va hunarga yo'llash.

Maktabda tasviriy san'at estetik tarbiyani amalga oshirishga yo'naltirilgan asosiy o'quv predmeti hisoblanib, u quyidagi yo'nalishlada amalga oshadi:

- O'quvchilarningtabiat, san'at va hayotdagi go'zalliklarini idrok etishga o'rgatish:
-o'quvchilarning estetik didini tarbiyalash, go'zallikni baholay olish qobiliyati, haqiqiy go'zallikni xunuk voqea narsalardan farqlay bilishga o'rgatish:
-shaxsning tasviriy-ijodiy faoliyatida o'zini ko'rsata bilishga, xatti-harakatini qo'llab quvvatlash va hayotga go'zallik kiritish malakalarini o'stirish:
-bolalarning badiiy fikr doirasini kengaytirish va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1."Mana buyuklar "kanali
2.Internet malumotlari

HAMID OLIMJON IJODIDA BADIIY TAKRORLARNING QO'LLANILISHI

Qo'shmonova Gulchehra
GulDU talabasi
Nishonova Umida
Jizzax viloyati G'allaorol tumani
37-maktab o'qituvchisi
Tel: +998(93)3369923

Annotatsiya. Ushbu maqolada baxt va bahor kuychisi Hamid Olimjon she'riyatidagi reduplikatsiyaning mahorat bilan qo'llanilganlishi bayon etilgan.

Kalit so'z: ritmika, metrika, strafika, takrorlar, tajnislar, refren, zidlov, mukarrar, "Eng gullaganda yoshlik chog'imda", "Holbuki tun...", anafora, epifora, inafora, refren, "O'rik gullaganda", "O'zbekistondan"

Nafaqat o'zbek she'riyatida, balki jahon adabiyotida ham o'zining munosib o'rnini egallagan ijodkorlardan biri bu Hamid Olimjondir. Shoirning nazmiy shaklda ifodalangan asarlarida badiiy tasvir vositalari hisoblangan lafziy va ma'naviy san'atlardan ustamonlik bilan foydalanilgan. Xususan, ijodkor she'riyatida badiiy takrorlar turli ko'rinishlarda o'z ifodasini topgan. Badiiy asar matnida leksik - semantik va lisoniy elementlar turli darajada qo'llanilib, ijodkorning badiiy maqsadini ma'lum darajada amalga oshishiga imkon yaratib beradi. She'riy asar namunalarida ritmika, metrika, strafika kabilar doimiy tarkibiy birliklar sifatida ko'zga tashlansa, takrorlar, tajnislar, refren va zidlov figuralaridan doim ham foydalanilmaydi. Lekin baxt va bahor kuychisi hisoblangan Hamid Olimjon ijodida yuqorida keltirilgan badiiy birliklarning, jumladan , mukarrar ("mukarrar" - arabcha "takror - takror", "qayta-qayta") ning nozik ko'rinishlarini uchratishimiz mumkin. Filologiya fanlari nomzodi, dotsent Vahob Rahmonovning ta'kidlashicha, "... shoir baytda takror - takror bo'luvchi so'zni ishlatadi. Takrirdan farqli ravishda mukarrar so'zlar orasiga defis, ya'ni chiziqcha qo'yiladi va takror so'zning ikkinchisi nutqdagi " xo'p", "juda", "rosa" kabi kuchaytiruvchi so'z vazifasini bajaradi" .Adabiyotshunosimiz fikrining isboti sifatida Hamid Olimjon she'riyatidan quyidagi parchani yorqin namuna sifatida keltirishimiz mumkin:

Kuni bilan dalada qoldim,
Lolazorlar ichra yo'qoldim.
Quchoq-quchoq gullar terganim
Va keltirib senga berganim...
("Eng gullaganda yoshlik chog'imda").

Hamid Olimjon takrorlarning anafora, epifora, inafora kabi ko'rinishlaridan o'zining nasriy va nazmiy uslubdagi asarlarida munosib foydalana olgan ijodkorlardan biridir. Anafora-(yunoncha "yuqoriga chiqish")qat'iy tizimli takrorlardan biri. She'r yoki banddagi misralarning boshidagi so'z yoki so'z birikmasining boshqa misralarning boshida aynan takrorlanib kelishidir . Hamid Olimjonning quyidagi she'rida anaforik takrorning o'ziga xos ko'rinishi mavjud:

Shag'irlaydi betinim daryo,
Shag'irlaydi vahm to'la jar
Shag'irlaydi qorong'u dunyo
Shag'irlaydi vodiy, daralar.
[Holbukitun...]

Ushbu misralarda anaforik takror "shag'irlaydi" leksemasi vositasida ifodaviylikning, ta'sirchanlikning o'ziga xos ko'rinishini namoyon etmoqda. Osuda tun sokinligiga xalaqit bergan bu "daryo", "jar", "qorong'u dunyo"," vodiy, daralar"dagi shag'irlash ovozi muallifning botiniy olamidagi his-tuyg'u torlarini go'yoki "chertib o'tadi". Bu holat esa ijodkorning osoyishtaligini tamoman ostin-ustin qilib tashlaydi. Ushbu jarayonni esa mohir qalamkash:

"... shag'irlaydi... Bermaydi uyqu..."
betakror misralari orqali o'quvchiga bayon etadi.
Qaydan kelding, fikrimni bo'lding
Nega etding meni parishon?
Nega buzding ma'yus holimni,
O'ylarimni nechuk bemakon?

Yuqorida keltirilgan parchada H. Olimjon "nega" anaforik takrori vositasida qalbini o'rtayotgan botiniy savollarga javob izlamoqda. "Nega" so'roq olmoshini takror va takror qo'llash orqali shoir ichki nozik kechinmalarini ifodalashga, ta'sirchanlikni, emotsional-ekspressivlikni, ohangdoshlikni yanada oshirishga intilmoqda.

Hamid Olimjon ijodida badiiy takrorlarning refren ko'rinishining ham namunalarini uchratishimiz mumkin. "Refren" - (fransuzcha: "refrain" "naqarot", "qo'shimcha") she'r bandlarida aynan takrorlanadigan misra yoki misralardir. Barchamizga ma'lum va mashhur bo'lgan "O'rik gullaganda", "O'zbekistondan", 'Eng gullagan yoshlik chog'imda" kabi ijod namunalarida refrenning yorqin ko'rinishlariga guvoh bo'lamiz.

Derazmning oldida bir tup,
O'rik oppoq bo'lib gulladi...

Ushbu keltirilgan parchada shoir hech qanday go'zal tashbehlar yoki mubolag'aviy tasvirlar qo'llamaydi, aksincha, tabiatning oddiygina,ko'rkam hodisasini xabar, darak berish vositasi orqali ifodalaydi. Jo'ngina xabar bilan badiiy kontekstni boshlab bergan refren asar so'ngida hech bir o'zgarishlarsiz qaytariladi. Bu o'rinda yuqorida keltirilgan band shoir qalbida kechayotgan hissiyotlarga qo'yilgan "zarracha nuqta" misol jaranglaydi.Ushbu qalamkashning ijodidayanashunday ipgatizilgan marjon kabi baytlarni ham uchratishimiz mumkinki, bu misralarda bir vaqtning o'zida epiforaning ham, anaforaning ham qo'llanganini guvohi bo'lamiz:

Shundan beri tilimda oting,
Shundan beri dilimda oting.

H. Olimjonning nazm sohasidagi asarlarida bunday poetik takrorlarning bir necha beqiyos namunalarining guvohi bo'lishimiz shubhasizdir. Bir so'z bilan aytganda,Hamid Olimjon o'z ijodiy faoliyati davomida badiiy takrorlardan o'z o'rnida, unumli, samarali foydalana olgan. Poetik takror shoir she'riyatida asosiy ma'no kuchaytiruvchi figura(shakl) lardan biri hisoblanib, u badiiy matnda o'tinch, iltimos, ta'kid, ranjish, mamnuniyat kabi ma'nolarni hosil qilishda yetakchi vazifani o'taydi. Ko'rib o'tganimizdek takrorlar asar mazmuni va g'oyasini o'quvchiga yanada aniqroq yetkazib berishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Hotam Umurov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. -T., 2004.
2. To'xta Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. -T., 2002.
3. Dilnavoz Yusupova.Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari.T.,2019.
4. Hamid Olimjon. Tanlangan asarlar. -T., 1951.

ERKIN A'ZAM ASARLARIDA XARAKTERLAR MUSHTARAKLIGI

Qobulova Nodira Bahodirovna
Navoiy davlat pedagogika instituti, o'qituvchi
nodiraqobulova@mail.ru Tel: 998907327080

Annotatsiya. Ushbu maqolada yozuvchi Erkin A'zamning xarakter yaratish mahorati xususida so`z boradi. Maqolada Erkin A'zam asarlaridagi qahramonlarining o'zaro o`xshash tomonlari, xarakter xususiyatlari va davr voqeliklariga nisbatan munosabatlari tahlil qilingan.

Kalit so`zlar: xarakter, mahorat, davr, voqelik, asar, qahramon,obraz

Erkin A'zam yaratayotgan xarakterlar o'zining yaqin o'tmishdoshlaridan farqli ravishda kurashchan, jangovar yoki ma'lum bir g'oyalarning yalovbardori emas, balki kichikroq bir jug'rofiy hududda o'zligini, jamiyatdagi o'rnini izlayotgan insonlar obrazi. Ikkinchidan, bu qahramonlarning aksariyati ikki tuzum, ikki davrda yashagn va yashayotgan kishilar. Uchinchidan ular ko'p hollarda bosib o'tilgan hayot yo'llarini, bu yo'llarning havfli va keskin burilishlarini tahlil qilib bugundan kechaga, kechadan bugunga o'tib qaytish jarayonlarida ertangi kun yo'llarini belgilab olishga harakat qilayotgan, ba'zan shoshib, gohida kechikayotganturfa fe'l atvorli odamlar. Ana shu xususiyatlari bois bo'lsa kerak, Erkin A'zam nasrida bir-biriga yaqin, o'xshash bir qator qiyofadosh xarakterlar juftligi ko'zga tashlanadi. Bu xaraterlar juftligiga berilgan xarateristikalarda, kasb -koriga, yurish - turishida, kiyinishi, o'y-hayollari, gapirish dunyoqarashi, didi, voqelikka munosabatida bir muncha yaqinlik, o'xshashlik, qalb va qiyofadoshlik belgilari namoyon bo'ladi.

Erkin A'zamning "Qiyofadosh" hikoyasi bor. Bunda, eng avvalo, tashqi qiyofadoshlik haqida to'g'risida gap boradi. Dam olish va sog'lomlashtirish sanatoriyasining direktori Ahror Sayfiddinov o'sha paytlarda respublikani oyoqqa turg'izib-yotqizgan katta bir arbobga o'xshaydi. Qiyofadoshlik shu darajadaki, ba'zi birovlar Ahror Sayfiddinovni o'sha arbobning ukasi, boshqa birov egizagi, kimdir esa qiyofadosh (dvoynik), yana kimdir esa jiyani deb gap tarqatadi.

"Yo tavba-a deyman, odam odamga shunchalik ham o`xshar ekan-da! Quyib quygandek Falonchi Falonchiyevichning o`zi-ya! Uni eslarsi, hammayoqni ag'dar-to`ntar qilib yuborgan huv kattakon amaldorimiz-chi?bor jilov shuning qo`lida, o`zidan ulug'larni ham to`sib, oldiga chiqib olgan edi-ku! Televizorda ham o`sha odam, majlus-u mashvaratlarda ham o`sha Bamisoli ikki tomchi suv deysiz-a! ishoning-ishonmang, qanchayil temiryo`lda yurib ne-ne kattayu kichiklarni ko`rgan mana shu amakingiz kalimasini yo`qatib dovdirab qolgan o`shanda! Bu yerga kelib joylashgach, balsam - ukase ekan. Kimsan - Falonchi Falonchiyevichning-a! Lekin, xudo shohid aka bilan uka ham, hatto egizaklar ham bunchalik bir-biriga o`xshamas! Keyinroq gap chiqdi: "Yo`q, yo`q, familiyasi boshqa-ku jiyani emish. Jiyan tog'aga tortadi-da!" Haddi sig`ib qiziqqan birov yarita esa o`zi "Kim aytdi buni?" deb sirli kularmish. Hol-joniga qo`yishmasa, "O`zlaridan borib so`ranglar", der emish dudmol qilib. Kim borib so`raydi? Falonchi Falonchiyevishdan-a! yaqiniga yo`lab bo`larmidi deng!"

Bu qiyofadoshlikdan unumli foydalangan sanatoriya direktori ko'p noma'qulchiliklar qiladi, firibgarlik va ma'naviyatsizlikning har turli ko'chalariga kirib chiqadi. Keyinchalik, so'rab-surishtirishsa, bular tog'a-jiyanlik nari tursin, hatto qarindosh-parindosh ham emas, anchayin bir-biriga o'xshash tamom begona odamlar ekan.

"Qarzdor" asaridagi Bahrom tirikchilik ko`yida, ro`zg'or g'amida hayotini muayyan bir izga solishga urinayotgan inson. O`tgan tuzumdan mustaqillik zamonidiga o`tishning azobu yetishmovchiliklarini, bozor iqtisodiyotiga o`tish jarayonlarining og'ir sinovli kunlari har kim o`z-o`ziga andarmon bo`lib, yagona maqsad "non topish" muammosi bo`lib qolganligi barchaga ayon. Bunday paytlarda kimdir ishini o`zgartirgan, kimdir iymonini sotgan, kimlardir oilasidan voz kechgan, yana kimdir o`zligidan yiroqlashgan Asar qahramoni Bahrom ham ko`p qatori o`qituvchiligan tashqari kirakashlik bilan shug'ullanadi, shu orqali ro`zg'orning kamu ko`stini to`g'irlamoqchi bo`ladi. Chunki u oilaning kattasi: otasi vafot etgan, aka deganlari bola-chaqani taqdir izmiga tashlab, Rossiyaga mardikorlikka jo`nab, bedarak ketgan. Bunday kunlarda aka-ukani, tog'a-jiyanni ko`p hollarda "tanimay" qoladi. Biroq Bahrom sharqona tarbiya ko`rgan, og`ir-vazminlik, elchilikdan chiqmaslik uchun o`zbekona udumlarga sodiq qoladi, tog'a, jiyan, aka, uka, xola, amma - barchaning ko`ngliga qaraydi, ro`zg'origa qarashadi, hojatbarorlik qiladi, go`yoki u barchadan qarzdordek. Bu "qarzdorlik" hissi shu qadar og`irki oxir-oqibat Bahromdek sabr-bardoshli odam ham chiday olmaydi, "portlaydi".

Zabajad ham qaysidir ma'noda Bahromga o`xshab milliy mentalitetdan "qarzdor". U ham o`z muhitida Bahromdek sarson-sargardon. Bu qahramonlarning biografiyasida ham bir qator umumiy o`xshashliklar

bor: ikkovi ham otasiz, Zabarjadning onasi Vazira opa, Bahromning onasi Muazzam xola tabiatan fe'l-atvori bir-biriga yaqin xarakterlar: gap-so`zlari, muomalalari, tushgan vaziyatlari bir xil. Bahrom bola-chaqadan voz kechib, tarallabedod qilib yurgan akasini Rossiyadan olib kelishi kerak, Zabarjad nogiron ukasini operatsiya qildirish uchun Moskvaga olib borishni vada qilgan. Bahromning xotini vafot etgan, Fayzixol ismli ayolga uylanmoqchi. Zabarjad qariqiz, oilali, bola-chaqali bir erkakni sevadi. Zabarjadning dugonasi Dilya hayotda yo`lini topolmagan sho`rpeshona, beqaror ayol. Bahromning do`sti shoir hayotiy maqsadi noayon, havoyi obraz. Ikkala asarning xotimasi ochiq qoladi, muallif tayyor xulosalarni tiqishtiravermaydi - davomi kitobxon o`y-fantaziyasida davom etadi.

Adabiyotshunos Shuhrat Rizayev Erkin A'zamning "Stupka" hikoyasini tahlil qilib, Marina yanga obrazini "Qutlug' qon" romanidagi Nurining ovsini, eri Fazliddinning yangasi Mariya - Maryamxon obraziga qiyoslaydi. Bu ikki obraz qalbidagi pokiza tuyg'ular, sog'inch hissi va ushalmas armon kayfiyatidagi yaqinlik jihatlarini nazarda tutib, Mariya - Maryamxon "Marina yanganing endi bevosita qon ovsini, ovsin egachisi bo`lib tuyuladi" , - deb yozadi. Faqat qalb tubida o`rnashgan sog'inch tuyg'usi, bolalik, tug'ilib o`sgan ma'vo-makon, ona tili va ota-ona, qadrdonlar sog'inchi, uzoq tush kabi xotiralar qiynog'i Marina yangani adabiy egachilariga bag'oyat yaqinlashtiradigan jihatlar ekanligini ta'kidlar ekan, adabiyotshunos shunday asosli xulosaga keladi: "Erkin A'zam xaraterlar portreti ichki va zohiriy dunyosini tasvirlashda mant osti - tagmatn qatlamlarini yaratishda Oybek maktabidan cho`ng saboq olgan. Garchi bu ochiq-oshkora, yaqqol kechmagan bo'lsa-da, turli asarlarini o`qish o`rganish asnosida yozuvchi ongiga singib boradigan o`ziga jarayon, tabiiy holgao`lashib ketadigan tipologikyaqinlik, birlikdir."

Adabiyotshunos Obidjon Shofiyev "Erkin A'zam nasri badiiyati (kinoya va obraz)" mavzusidagi filologiya fanlari bo`yichafalsafadoktori (PhD) dissertatsiyasining "An'ana, ta'sir vatipologiko`xshashlik" faslida A.P.Chexovning "Xamelon" va E.A'zamning "Aralashqo`rg'on" asarlarini qiyosiy o`rganadi. "Obrazlarning qiyosiy tadqiqi: tipologiyavainduviduallik" faslidaesaChingiz Aytmatovning "Oq kema"sidagi Mo'min chol, Xayriddin Sultonovning "Yozning yolg'iz yodgori"dagi Adash Karvon hamda Erkin A'zamning "Javob" qissasidagi Nuriddin Elchiyev obrazlarining tipologiko`zaro mushtarakjihatlargaegaekanligini tahlil qiladi va muayyan xulosalarga keladi. Shuningdek, O.Shofiyev Erkin A'zam yaratgan bir qator obrazlar - Imomov ("Bahor", "Bahorni quvib"), Ramazon ("Anoyining jaydari olmasi"), Berdiboy ("Piyoda"), Asqar Shodibek o`g'li ("Otoyining tug'ilgan yili") qahramonlarni o`z muhitiga sig'magan obraz sifatida o'rganishni maqsadga muvofiq hisoblaydi.

Albatta yozuvchi asar yozishdan oldin, qo'liga qalam olib yozilajak asarning rejasi, obrazlarning sxemasini tuzib chiqmaydi. Biz yuqorida ko`rib o`tgan obrazlararo qiyofadoshlik masalasi, birinchi navbatda yozuvchining ko`rgan-kechirganlari, ikkinchi navbatda, ongostida kechadigan murakkab psixologik jarayonlarning mahsuli. Masalaning ijod psixologiyasi bilan bog'liq bu jihatlari esa alohida bir tadqiqot mavzusi bo`ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. A'zam Erkin. Shovqin: roman, qissa, hikoyalar.T.:"O'zbekiston", 2011-y
2. "Erkin A'zam badiiy olami" ilmiy maqolalar va suhbatlar to'plami. - T.: "Turon zamin ziyo" nashriyoti. 2014-y
3. Shofiyev O. Erkin A'zam nasri badiiyati (kinoya va obraz). Filologiya fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD) avtoreferat. Samarqand 2019-y

ENCOURAGING PUPILS' SPEAKING SKILLS WITH WARM UP ACTIVITIES

Qosimova Nigora,
English teacher of school №8
Chartak district, Namangan region
Tel:+998949028071

Annotation: The article was given guidance to pupils improving their speech in foreign language and revealed warm up activities that how they are usefully to communicate in the lessons.

Key words: warm up, activities, communicative activities, chatting, arguing

Speaking is the most important skill in English language teaching. It's almost impossible to have true mastery of a language without actually speaking it. So in this article, I write you how to get your students chatting, arguing and generally wagging those tongues in English. In general, to encourage speaking in the early stages of a course and with students who are a little timid, give plenty of guidance on what the conversations should be about. You can give students a list of questions to ask each other or specific topics and lots of language input first. So before the activity gets under way make sure that the class knows the necessary grammar and vocabulary with appropriate examples. In this way students don't have to think about what to say, only how to say things. Set speaking tasks for pair group work as often as possible. The tasks should have clear aims and involve taking turns, so say 'Find out what your partner thinks about X and make some notes', rather than just telling them to discuss X. The advantage is that the students are more aware of the need to get the other person's view instead of talking about themselves the whole time. Anyone who speaks a foreign language knows that if you don't use it, you lose it. It's easy to get rusty. And if your mind is full of other matters such as your job, the bills or your love life, it's even harder to get your brain in gear. This is no less true of your students. In between lessons they may forget what they've learnt or they may just be distracted by life. This is where the warmer comes in. The warmer is a very short activity that gets the students acclimatized after the previous lesson. Most warmers are for speaking. Some of my favorite warm-up activities are:

Last letter, first letter: This simple game also tests spelling. It works best if the students are in a circle. Basically, one person starts the game by saying a word and the next person has to come up with another word beginning with the last letter of the previous one. A chain of words my students recently came up with is: apple, elephant, taxi, interesting, girl, little, eggs, sugar, robot, train.As the students get better at the game and improve in their vocabulary, they develop strategies for catching their classmates out by including lots of words that end with the same letter or with a difficult letter like 'x'.

The supermarket game: This very well-known game involves building up a list of items bought at the supermarket. When it's your turn you have to remember all the items on the list in the right order and then add one more. To make it more challenging, you can ask students to attach an adjective to their item, usually starting with the same letter. For example:

I went to the supermarket and I bought a crazy camera. I went to the supermarket and I bought a crazy camera and a meaty meal.I went to the supermarket and I bought a crazy camera, a meaty meal and a lovely loaf.

Assemble a sentence: Sometimes I write a sentence, perhaps with a connection to the lesson for that day, using a different card for each word. I shuffle the cards and give one or two to each student. Then I ask the students to get together and negotiate the correct word order for the sentence. This warmer is good for getting a team spirit going right from the beginning of the lesson.

Current affairs: Noting what's going on in the world often leads to some interesting discussions in the classroom. You can just write a headline on the board, or stick up an image from a newspaper and ask the students what they know about it. Then get their opinions on the story. It works best when you find a humorous story or one with a hint of controversy (but nothing that may offend or hit or a raw nerve). This kind of activity has been popular for many years now in TEFL. Communicative activities generally involve pairs of students sharing information with each other to complete a task. Communicative activities come in many different forms but usually involve a Partner A and a Partner B. Each partner needs to ask each other fact or opinion-based questions after receiving initial prompts from you. Sometimes you give them a worksheet which has gaps in it but the gaps are different for each partner. The pair must then hide their own sheet and come up with a question to ask their partner who, as a result, gives them information that they use to fill in a gap. On the other hand the activity may perhaps involve a list of topics or situations to

ask a partner about so that the students talk about their own lives. Communicative activities are practical because they often don't require any imagination or opinions from the participants.They just provide a context for some solid practice of a particular grammatical structure or some new words. This type of exercise also accustoms students to working with each other and gets them moving about a bit.

Lots of opportunities for communicative activities present themselves in the classroom. Even when students are doing a written exercise by themselves, they can compare their answers and opinions in pairs afterwards and explain their reasons for anything that differs from their partner's work. By the time you engage in whole class feedback, the students have had an opportunity to speak and an idea of which answers are likely to present a problem.

References:

1.Jun, Z. Y. (2000). Warm-up Exercises in Listening Classes.

2.Klippel, F.(1985).Keep Talking: communicative fluency activities for language teaching.Cambridge, UK: Cambridge University Press.

ONA TILI TA'LIMINING MAZMUN-MOHIYATI

Qosimova Obida,
Navoiy viloyat Karmana tuman 12-maktab
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili fanini umumta'lim maktablarida sifatli va maqsadli o'qitilishida darliklarning va ularda berilgan mavzular ketma-ketligining hamda oquchilarning ogzaki va yozma nutqini rivojlantirish uchun moljallangan mashqlarning o'rnim katta ekanligi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: o'zak, fonetika, leksika, imlo, punktuatsiya, morfologiya, sintaksis.

Maktab o'quvchilari uchun mo'ljallangan "Ona tili" fanidan o'quv dasturi besh yillik ta'limni qamrab olib, 5-9-sinf o'quvchilari o'zlashtiradigan materiallarni nazarda tutadi. Maktab o'quvchilariga o'zbek tilshunosligining barcha sohalari, bo'limlari, qismlari haqida ma'lumot berishning imkoniyati yo'q. Biroq shunga qaramasdan o'quvchilar ona tili darslarida tilshunoslikning asosiy bo'limlari - o'zbek tilining fonetikasi, leksikasi, grammatikasi, to'g'ri talaffuz va imlo qoidalari, punktuatsiyasidan xabardor bo'lishlari nazarda tutiladi. Shuningdek, bu fan oldida lug'atlardan, umuman, fan bo'yicha o'tiladigan barcha materiallardan amalda foydalana olishlari, yana bir muhim jihati, kundalik hayot uchun zarur bo'lgan ish qog'ozlarini yurita olishlari, badiiy, ilmiy, siyosiy adabiyotlarni o'qib tushinishlari hamda ular haqidagi fikr-mulohazalarini erkin, to'g'ri, ravon bayon eta olishlari bo'yicha amaliy ko'nikmalar hosil qilishlari, pirovard natijada, har tomonlama savodxon yoshlarni tarbiyalash vazifasi turadi.

Ona tili mashg'lotlari bosqichli ketma-ketlik, shakl bilan mazmun aloqadorligiga tayangan holda tashkil etiladi. Shuning uchun ham 5-sinfning birinchi choragi sintaksis bo'yicha zarur tushunchalarni - sodda va qo'shma gap, gapninng markazi, gap bo'laklari, undalma va uyushiq bo'laklar, ko'chirma gap, ularda tinish belgilari kabilarni o'zlashtirishga bag'ishlangan. Ikkinchi chorakning boshida o'quvchlarga leksikalogiya va morfologiyaning muhim tushunchalari: so'zning ma'nosi, o'z ma'no va ko'chma ma'no, ma'nodosh so'zlar, uyadosh so'zlar, zid ma'noli so'zlar, qo'shimchadosh so'zlar, o'zakdosh so'zlar, mustaqil va yordamchi so'z turkumlari, o'zak, qo'shimcha, so'z yasovchi va shakl yasovchi qo'shimchalar haqida dastlabki zarur ma'lumotlar beriladi. Oltinchi sinf darsligi beshinchi sinf "Ona tili" darsligidan biroz farq qilib, morfologiyaga doir mavzularni o'rganishga bag'ishlangan. Unda "Fe'l", "Ot", "Sifat", "Son", "Ravish" so'z turkumlari, ularning ma'no turlari, tuzilishiga ko'ra turlari, yasalishi va boshqa o'ziga xos tomonlarini mashqlar, savollar va topshiriqlar yordamida o'rganishga qaratilgan.

Ona tili qonun-qoidalarini o'rganish jarayonida o'quvchilarning tildan yaxlit bir tizim sifatida foydalanish, matn ustida ishlash, fonetik, leksik, morfologik hodisalarni o'rganish, bu hodisalarni vaziyat va sharoitdan kelib chiqib bog'lanishli nutqda qo'llash imkoniyatini beradi.

Shuni unutmaslik lozimki, bitta eng oddiy, eng sodda yig'iq gapda ham tilning fonetik, leksik, morfologik va sintaktik qurilishining mohiyati aks etadi. Shuning uchun ham ona tili darslari o'quvchlar nutq malakalarini rivojlantirishga xizmat qilib qolmasdan, ularning dunyoqarashi, fikr doirasini kengaytirish uchun ham xizmat qilishini e'tiborda tutish lozim. Shuning uchun ham har bir mashg'ulotda o'quvchi lug'aviy boylik va sintaksis ustida, so'z ma'nosi, fonetik, morfologik hodisalarining sintaktik vazifasi ustida mashqlar bajarishga jalb qilinadi. O'rta umumta'lim maktablarida ona tili o'qitishning asosiy mazmun mohiyati hozirgi kun ta'limi maqsadlariga moslab tuzilgan Davlat ta'lim standarti, dastur va darslikning quyidagi nazariy-amaliy asoslari bilan belgilab berilgan:

1. Ona tili milliy ma'naviyat va mafkura, milliy madaniyat va qadiryatlarning ulkan xazinasidir.
2. Ona tili millat tafakkurini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi va ifodalovchi eng asosiy vosita.
3. Ona tili o'qitishdan maqsad, ta'lim oluvchilarda mustaqil ijodiy fikrlash qobilyatini rivojlantirish, ijodiy fikr mahsulni nutq vaziyatiga mos ravishda to'g'ri va ravon bayon qilish ko'nikmalarini shakllantirishdir.
4. Mashg'ulotlarda ona tili imkoniyatlaridan unumli foydalanish, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishning nazariy bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ustuvorligi ta'minlanadi.
5. Darsliklarda o'quv materiallari o'quvchilarning har bir sinfda o'rganadigan boshqa o'quv fanlari va ulardan o'zlashtirishlari lozim bo'lgan amaliy ko'nikmalar bilan uzviy bog'liqlikda beriladi.
6. Ona tili darsligidagi har bir topshiriq o'quvchi tomonidan mustaqil bajarilishiga moslab tuziladi.

Ona tilidan har bir mashg'ulot yuqorida ko'rsatilgan tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi. "Ona tili" fanidan o'quv dasturi va darsliklarning nazariy-amaliy asoslariga qo'yilgan talablardan ham ko'rinib turibdiki, ona tili darslari o'quvchilarga nafaqat og'zaki va yozma savodxonlikni o'rgatadi, shu bilan bir qatorda, ularda milliy ma'naviyat, milliy mafkura, milliy ruh, milliy madaniyat, milliy qadriyatlarni, va hatto, boshqa fanlarni

chuqur o'zlashtirishlari uchun ham eng asosiy vosita hisoblanadi. Shuning uchun ham ona tili darsliklariga kiritilgan har bir topshiriq, har bir mashq, har bir savol, har bir gap o'zida juda katta ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy yuk tashishini darslik mualliflari ham, uni hayotga tatbiq etuvchi muallim-murabbiylar ham chuqur his qilishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Madayev O., va boshqalar. Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant. - T.: Turon zamin ziyo, 2017.
2. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab...// O'zbek tili va adabiyoti, 2012. - 5-son, 3-16-betlar.
3. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. -T., O'qituvchi, 1995.
4. Umumta'lim maktablarining 5-9-sinf Ona tili darsliklari. So'nggi nashr.

MORFOLOGIYA VA UNING O'RGANISH OBYEKTI

Murodova Muqaddas
Nizomiy nomidagi TDPU Termiz filliali o`qituvchisi
Qurbonova Dilnura
Nizomiy nomidagi TDPU Termiz filliali talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqola grammatikaning morfologiya qismi va uning o`rganish obyekti haqida talabalarda bilim va ko`nikma hosil qilishga morfologiyaning sintaksis bilan aloqasini o`rganishga bag`ishlanadi .

Kalit so`zlar : So`z turkumlari, mustaqil so`zlar , yordamchi so`zlar, oraliqdagi so`zlar, grammatik kategoriyalar, morfologik ko`rsatkichsiz son kategoriyasi o`zbek va arab tilshunosligida, fe`l zamonlari kategoriyasi.

Morfologiya (yunoncha morphe-shakl , logos-ta`limot ) -- tilning morfologik qurulishi, so`z shakllari haqidagi ta`limotdir. Birinchi ma`nosida obyektni anglatsa , ikkinchi ma'nosida tilshunoslikning shu obyekt ni o`rganuvchi bo`limini bildiradi. Morfologiya so`z turkumlari , ularga xos grammatik kategoriyalar , bu kategoriyalarni yuzaga keltiruvchi grammatik shakl va grammatik ma`nolarni o`rganadi. Til tizimdan iborat bo`lganidek , uning morfologiyasi o`ziga xos tizimni tashkil etadi . O`z navbatida , morfologik tizim ham o`ziga xos kichik tizimlardan iborat. Ulardan har birining mohiyati yoritilishi bilan tilning morfologiyasi yaxlit holda , tizim sifatida o`rganiladi.

Har bir so`z turkumiga oid ichki tizimlarni shu turkumga xos ma`lum bir hodisaga oid umumiy va xususiy ma`nolar va bu ma`nolarni ifodalovchi so`z shakllari birligidan iborat bo`ladi. Boshqacha aytganda , morfologik tizim ichidagi ichki tizimlardan birining mohiyati belgilanadi . Masalan , fe`lning zamon kategoriyasi fe`l morfologiyasida alohida tizimni tashkil etadi. Shuning uchun fe`lning zamonlariga nisbatan " fe`l zamonlari tizimi" degan ibora ham qo`llanadi. Fe`lning zamon kategoriyasi , zamon tizimining mohiyati shundan iboratki, zamon shakllarining barchasi harakatning nutq vaqtiga munosabatini bildiradi . Bu zamon shakllarining barchasi uchun umumiy bo`lgan xususiyat . Shu bilan birga har bir zamonga oid fe`l shakli o`ziga xos xususiyatga ega. Masalan , o`tgan zamon shakllari harakatning nutq vaqtigacha , hozirgi zamon shakllari harakatning nutq vaqtida , kelasi zamon shakllari esa harakatning nutq vaqtidan keyin bajarilishini bildiradi. Fe`l zamon shakllariga xos ana shunday umumiy va xususiyliklar zamon kategoriyasining , fe`l zamonlari tizimining mohiyatidir. Demak, fe`l turkumiga oid har bir morfologik kategoriyaning mohiyatini aniqlash bilan fe`lning morfologik tizimi yoritiladi.

Shunday qilib , morfologiya so`z turkumlari va ularning grammatik shakllari bo`yicha bahs yuritadi . Ko`rinadiki, so`zning leksik ma`nosi bilan ularning predmetlik , belgi,harakat singari ma`nolarni ifodalovchi umumiy grammatik ma`nolari o`rtasida uzviy aloqa mavjuddir. So`zlarni turkumlarga ajratishda so`zlarning leksik ma`nosi ustiga qo`yilgan umumiy grammatik ma`no asosiy tayanch nuqta bo`lib xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda, morfologiya bilan sintaksis o`rtasida ham chambarchas bog`liqlik mavjud. Morfologiyadagi har bir so`z shakli gap tarkibida ma`lum gap bo`lagi vazifasida keladi. Grammatik shakllar gap tarkibidagi bo`laklarni bir-biriga bog`lovchi yoki gap bo`lagiga qo`shimcha ma`no yuklovchi vosita vazifasini bajaradi . So`zlar borliqdagi nimani bildirishi yoki bildirmasligi, ma`lum bir so`roqqa javob bo`lishi yoki bo`lmasligiga ko`ra mustaqil va yordamchi so`z turkumlarga bo`linadi. Bulardan tashqari , mustaqil so`zlarga ham , yordamchi so`zlarga ham kirmaydigan , ularning har ikkalasiga xos belgini o`zida ma`lum darajada aks ettiradigan oraliqdagi so`zlar : undov , taqlid , modal so`zlar bor.

Bir- biriga qiyosan olinadigan ikki yoki undan ortiq grammatik ma`no bilan shu ma'noni ifodalovchi grammatik shakllar tizimi grammatik kategoriya deyiladi. Grammatik kategoriya so`zlarni , so`z shakllarni , so`z qurilmalarni birlashtiradi . Shunga ko`ra grammatik kategoriyalarning 4 turi farqlanadi : 1)so`zning grammatik kategoriyalar; 2) so`z shakllarining grammatik kategoriyalari 3)so`z o`rinlarining grammatik kategoriyalari; 4) so`z qurilmalarining grammatik kategoriyalari .

Grammatik kategoriyalarni morfologik kategoriyalarga hamda sintaktik kategoriyalarga ajratish mumkin. Sintaktik kategoriyalar deyilganda , gap , gap bo`laklari : ega , kesim, to`ldiruvchi , aniqlovchi, hol kabilar nazarda tutiladi.

Morfologik ko`rsatkichsiz son kategoriyasi

O`zbek tilshunosligida ham , arab tilshunosligida ham otning son kategoriyasini tashkil etuvchi grammatik shakllarning o`ziga xos xususiyatlari to`g`risida qator tadqiqotlar yaratilgan. Ammo ushbu tillardagi birlik ,ikkilik va ko`plikdagi otlarning shakllari qiyosiy tadqiq etilmagan. Bu kategoriyalar ni o`rganishga doir aksariyat ishlarda ot turkumi morfologik jihatdan o`rganilgan . Jumladan , doktor Josim Ali "Arab ilmiy merosida qiyosiy tilshunoslik nazariyasi" nomli tadqiqotida son kategoriyasidagi ikkilik ko`p tillardan arab tilining farqli jihati ekanligini aytadi. Arab tilshunoslari o`rtasida son kategoriyasi bo`yicha yakdillik bo`lib , hech bir tilshunos ikkilik alohida son kategoriyasi bo`lishiga e`tiroz bildirmagan. O`zbek tilshunosligida otning son kategoriyasiga oid fikr- mulohazalarda ham yakdillik bor .

O`zbek va arab tilshunosligida birlik son shaklining ifodalanishi xususiyatlarni qiyoslash xos xususiyatlarni ochib beradi . Bu tillarda otlarning birlik sonda ifodalanishiga xos xususiyatlar quyidagi holatlarda namoyon bo`ladi:

O`zbek va arab tillarida atoqli otlar o`z tabiatiga ko`ra to`liq birlikni ifodalaydi;

O`zbek tilida turdosh otlar birlikni ifodalash bilan birga predmetning to`dasini ifodalaydi. Masalan "meva" so`zi .

O`zbek tilshunosligida "bir" so`zi o`zining lug`aviy ma`nosi va sintaktik vazifasiga ko`ra son so`z turkumiga kiradi . Arab tilining xos jihatlaridan yana biri o`zbek tilida "bir" so`zining arab tilida ekvivalentlari mavjud, uslubiy , sintaktik jihatdan farq qiladi.

Xullas , "bir" so`zi va uning arabcha muqobili bo`lgan so`zi nutqda yagonalik , yakdillik , ya`ni birlik ma`nolarni bildiruvchi ko`rsatkich sifatida qo`llaniladi. Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki , genetik jihatdan bir- biridan uzoq tillar hisoblanuvchi ikki tilda birlik son aniq birlik va noaniq ma`nolarini ifodalanishini ko`rishimiz mumkin. Shuningdek , o`zbek tilidagi "bir" so`zining muqobillari arab tilida ko`p ekanligi ham arab tilining xos jihatlaridan ekanligini ko`rsatib beradi. Shuni aytish mumkinki , morfologiya sintaksis bilan ham chambarchasdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ali Josim "Arab ilmiy merosida qiyosiy tilshunoslik nazariyasi.
2. M. Hamroyev , D. Muhammedova Ona tili Toshkent - 2000.
3. Nargiza Erkaboyeva " Hozirgi o`zbek adabiy tili
4. Hozirgi o`zbek adabiy tili .Toshkent- 2000
5. 6-7-8-sinf ona tili darsligi ;
6. Ziyonet. Uz .

O'ZBEK TILIDA BOG'LOVCHILAR VA UNI O'QITISH MASALALARI

Rahimova Zilola Bahramovna
Qilichova Gulnoza Quvondiqovna
Pitnak sh. 10-son maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari
Tel: +998974578990

Annotatsiya: Ushbu maqola o'zbek tilida ishlatiladigan bog'lovchilar, ularning vazifasi,turlari va guruhlanishi haqida aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: teng bog'lovchilar, ergashtiruvchi bog'lovchilar, biriktiruv bog'lovchilari, zidlov bog'lovchilari, ayiruv bog'lovchilari, inkor bog'lovchisi, sabab bog'lovchilar, maqsad bog'lovchilar, shart bog'lovchilar.

Yordamchi so'zlarning bir turi bo'lgan bog'lovchilar gapdagi uyushiq bo'laklar yoki qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar o'rtasidagi munosabatni ifodalash uchun qo'llanadi. Bog'lovchining asosiy vazifasi so'zlar yoki gaplarni bir-biriga bog'lash, biriktirishga yo'naltirilganligi bois, bunday so'zlarni atash uchun bog'lovchi atamasi qabul qilingan. Bog'lovchilar ham sintaktik aloqaning yuzaga chiqishida muhim vosita bo'lib, mustaqil leksik ma'noga ega bo'lmagan, biroq gapda tenglik yoki ergashuvchilik munosabatlarini ifodalay oladigan morfologik birlikdir. Uni shaklan morfologik deyish mumkin, mazmunan esa sintaktik aloqani ifodalovchi vositalar tarkibidan muhim o'rin olganligini rad etib bo'lmaydi Ular vazifasiga ko'ra teng yoki ergashtiruvchi turlardan iborat bo'lsa-da, sintaktik aloqalar jarayonida birgalik, zidlik yoki aniqlash, sabab, shart, chog'ishtiruv kabi ma'nolarning oydinlashuviga xizmat qiladi. O'zbek tilida bog'lovchilar sintaktik aloqa ifodalashda katta o'rin tutadi. Sintaktik aloqaning analitik yo'l bilan ifodalanishini ta'minlovchi bu yordamchi so'zlarning ko'pchilik qismi hozirgi tilda grammatik munosabat ifodalash vositalari arsenalida qat'iy me'yorlashgan. Bog'lovchilar grammatik jihatdan o'zgarmaydigan va mustaqil lug'aviy ma'noga ega bo'lmagan so'zlardir. Ularning muhim xususiyatlari shundaki, ular o'zlari bog'lagan ayrim so'zlar va sodda gaplarni o'zaro qanday munosabatda ekanliklarini ko'rsatish bilan birga, shu munosabatlarning xilini ham ko'rsatib turadi. O'zbek tilining akademik grammatikasida bog'lovchilar qo'shma gap tarkibidagi ayrim sodda gaplar va uyushgan bo'laklar orasidagi turli munosabatlarni ifodalash uchun qo'llanadigan yordamchi so'zlardir - deb izohlanadi.

Bog'lovchilar vazifasiga ko'ra teng bog'lovchilar va ergashtiruvchi bog'lovchilarga ajratilgan. Teng bog'lovchilar gap bo'laklari va ayrim sodda gaplar orasidagi teng munosabatlarni ifodalaydi. Yaqin yillargacha o'zbek tilida teng bog'lovchilar quyidagi guruhlarga bo'lib kelindi. Biriktiruvchi bog'lovchilar: va, hamda; zidlovchi bog'lovchilar: ammo, lekin, biroq, balki, faqat, holbuki; ayiruv bog'lovchilar: yo, yoki, yoxud, yoinki, dam-dam, ba'zan-ba'zan, ham-ham, bir-bir, goh-goh, xoh-xoh. So'nggi yillarda teng bog'lovchilarning tasnifi ham yangilandi, ya'ni aksariyat o'quv qo'llanmalari, shuningdek, maktab darsliklarida teng bog'lovchilar quyidagi turlarga ajratilib berilmoqda. Ularda bog'lovchi (grammatikada) yordamchi so'z ekanligi, gap va gap bo'laklarini bir-biriga bog'lashi, ishlatilishiga ko'ra yakka bog'lovchilar ("va", "ammo", "lekin", "agar", "chunki","uchun" ;takrorlanuvchi bog'lovchilar ("ba'zi..ba'zi", "bir..bir", "goh..goh", "yo..yo" ga bo'linishi, grammatik ma'no va vazifasiga ko'ra teng va ergashtiruvchi bog'lovchilarga ajratilishi ko'rsatilgan.Teng bog'lovchilar "va", "hamda" biriktiruv bog'lovchilari ; "ammo", "lekin", "biroq", "balki" zidlovchi bog'lovchilar ; "yo", "yoki", "yoxud", "goh....goh", "dam....dam" ayiruv bog'lovchilari; na....na inkor bog'lovchisi sifatida ajratiladi. Shuningdek, biriktiruvchi bog'lovchilar vazifasini "ham" "-u", "-yu" yuklamalari bajarishi mumkinligi, "-u", "-yu" yuklamasi zidlovchi bog'lovchi vazifasida ham kelishi ko'rsatilgan.

Teng bog'lovchilarning ma'no va vazifa tomoni, imlo xususiyatlari darslik va qo'llanmalarda atroflicha bayon etilgan bo'lsa ham, o'zbek tilshunoslari teng bog'lovchilarni belgilash borasida har xil nuqtayi nazarlarini bayon qilmoqdalar. O'zbek tilining grammatikasida ,,balki bog'lovchi sifatida gaplarni bog'laganda, birinchi (oldingi) gapda ifodalangan fikrni tasdiqlaydi yoki inkor qiladi" deb izohlangan.Umumta'lim maktablarining ona tili darsliklarida balki so'zi bog'lovchilar qatorida ham, modal so'zlar qatorida ham sanalgan.

Na...na inkor bog'lovchilar sirasiga kiritilishi masalasi ham bahstalabdir. Mazkur so'zlar o'zbek tili grammatikasida inkor yuklamasi sifatida berilgan. Uyushiq bo'laklar yoki ayrim sodda gaplar oldida takrorlanib kelib, bu bo'laklar yoki gaplar anglatgan inkor ma'nosini uqtirib ko'rsatadi, deb izohlangan.

Mazkur grammatikada na... na faqat yuklama deb qaralgani holda, bog'lovchi vazifasida kelishi mumkinligi ko'rsatib o'tilmagan. Maktab ona tili darsligida inkor bog'lovchisi uchun uyushiq bo'lak va gaplarni inkor ma'nosini yuklagan holda bog'lovchi na...na yordamchisi inkor bog'lovchisi sanaladi. Bunda gapning kesimi tasdiq shaklida bo'ladi, - degan ta'rif berilgan bo'lsa, yuklamalar o'rganilar ekan, "gap mazmunidagi inkor

ma'nosini uqtiruvchi hech, sira, aslo, na...na kabi so'zlar inkor yuklamalari sanaladi. Bunday yuklamalar qo'llanganda, gapning kesimi, asosan, inkor shaklida bo'ladi", - degan izohni o'qiymiz.

"Hozirgi o'zbek adabiy tili" o'quv qo'llanmasida bog'lovchilarning guruhlanishi bo'yicha yangi turi, ya'ni bog'lovchilar shakliy jihatdan uch guruhga: sof bog'lovchi, nisbiy bog'lovchi, qo'shimchasimon bog'lovchi tarzida ajratib ko'rsatilgan. Va, hamda, yo, yoxud, yoki, ammo, lekin, biroq, chunki, shuning uchun, agar, ya'ni kabilar sof bog'lovchi; -ki, - kim, -u, -yu, -da, -mi kabi bog'lovchilar qo'shimchasimon; ba'zan, bir vaqtida, hali, goh, goho kabi so'zlarning takroriy shakli nisbiy bog'lovchilar sirasiga kiritilgan.

O'zbek tilida mavjud ergashtiruvchi bog'lovchilarni quyidagi semantik turlarga ajratish mumkin. Sabab bog'lovchilar: chunki, shuning uchun, shu sababli. Maqsad bog'lovchilar: toki. Shart bog'lovchilar: agar, basharti, mabodo, garchi, bordi-yu.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Umumta'lim maktablarining ona tili darsliklari.
2. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili.
3. Sayfullayeva R.R va boshqalar. Hozirgi adabiy o'zbek tili.
4. www.ziyonet.uz

ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNI XALQ OG'ZAKI IJODI BILAN TANISHTIRISH

Rahmatova Feruza
Buxoro viloyati G'ijduvon tumani 43-maktabda ona tili va adabiyot o'qituvchisi

Kalit so'zlar:Ona tili, vatanparvarlik, xalq og'zaki ijodi, topqirlik,topishmoq, maqol, mehnatga muhabbat.
Annotatsiya:Ona tili darslari o'quvchilarda tarbiyani rivojlantiradi. Bu tarbiyaviy vositalardan biri xalq og'zaki ijodidir. Xalq og'zaki ijodi o'quvchilarni vatanparvarlik, mehnatga undaydi.

"O'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi.Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga,avvalo,ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi.Ona tili - bu millatning ruhidir".

Ona tili - millatning asosiy belgilaridan biri .Dunyoda xalqlar ko'p.Har bir xalq o'z tili, milliy urf-odat va an'analari, o'ziga xos turmush tarzi bilan ajralib turadi.Chunonchi, xalqning, millatning o'zligini namoyish qilishida tilning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. O'zbek tili O'zbekiston Respublikasining davlat tilidir. Fan yutuqlari, urf-odat, an'analar davlat tili vositasida e'zozlanadi, asraladi, avloddan-avlodga meros qilib qoldiriladi. Hayotning barcha sohasida to'plangan ijtimoiy tajriba ona tili orqali o'zlashtiriladi, ona tili vositasida o'rgatiladi. Shu tufayli ona tili birinchi muallim sanaladi.Ona tili darslarida o'quvchilar nafaqat fanga oid bilimlar , balki turli xildagi ma'lumotlar bilan ham tanishadilar.Bu ma'lumotlar bilan ular darslarda mashqlar orqali tanishadilar. Bundan kelib chiqadiki, ona tili darslari boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqligi kelib chiqadi. Ona tili darslarida o'quvchilarda vatanparvarlik, o'z kasbiga mas'uliyatli bo'lish , ota-onalariga va kattalarga hurmat tarbiyalanadi.

Ona tili darslarida o'quvchilar xalq og'zaki ijodi namunalari bilan tanishadilar.Xalq ogzaki ijodi - mehnatkash omma ijodi , xalq san'atining boshqa, ya'ni musiqa, teatr , raqs, o'yin, tasviriy va amaliy san'at kabi turlaridan o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadigan og'zaki so'z san'atidir. Xalq og'zaki ijodi - insoniyatga tengdosh eng qadimiy san'at.Har bir xalqning og'zaki ijodi o'sha xalqning fe'l-atvori, ruhiyati, urf-odat va an'analari, orzu-intilishlari,geografik sharoiti va tabiatini aks ettiruvchi o'ziga xos ko'zgudir.

Xalq og'zaki ijodi namunalari o'quvchilarda olamshumul ezgu niyatlar, insoniy fazilatlar, yovuzlik, zulm, adolatsizlikka qarshi nafrat tuyg'ularini shakllantiradi.Shuningdek, ularni topqirlikka -topishmoqlar, tarbiyaga- maqollar chorlaydi.Xalq og'zaki ijodi namunalar mashqlar ichida beriladi. Masalan quyidagilarni ko'ramiz:

Ilm - bir daraxt. Odob uning mevasidir.
Guli yo'q bo'stondan yaproq yaxshi, foydasi yo'q yo'ldoshdan tayoq yaxshi.
Yaxshi o'g'il- el obro'si, yaxshi qiz - uy obro'si.
Ayrilganni ayiq yer, Bo'linganni bo'ri yer.

Darslikdagi har bir mashqni tahlil qilib chiqsak, hammasining mazmunida o'quvchilarni sog'lom,odobli,tartibli,tarbiyali va ozodalikka undash yotadi.Bularni o'quvchilarga tushuntirish ,ularga o'quvchilarning e'tiborini qaratish ko'p jihatdan o'qituvchiga bog'liq.O'qituvchidan katta pedagogik mahorat talab etadi.

O'qituvchilar o'quvchilarning faqatgina bilimiga emas,balki ularning tarbiyasiga ma'suldir.Bu esa o'quvchilarga ta'lim va tarbiyani birgalikda berib borishimiz kerakligini anglatadi.Bu vazifa har bir XXI asr o'qituvchisining oldida turgan vazifasi va burchidir. Biz o'qituvchilar ,albatta, bu vazifani bajarishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Karimov - "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" Toshkent "Ma'naviyat" 2008
2.S.Ahmedov, B. Qosimov, R.Qo'chqorov, Sh.Rizayev - 5-sinf Adabiyot Toshkent- 2015 "Sharq" NMIU
3.N. Mahmudov, A. Nurmonov, A.Sh.Sobirov- 9-sinf ona tili Toshkent - 2019

O'QUVCHILARNING SO'Z BOYLIGINI OSHIRISH NOAN'ANAVIY USULLARI

Rajabova Sayyora,
Navoiy viloyati Nurota tuman 52-maktab
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'qituvchilar bolalarning yosh xususiyatlaridan kelib chiquvchi darslarni tashkil qilib, bor imkoniyatdan samarali foydalana olishlari m uhimligi haqida yozilgan. Shunda o'quvchi qiziqish bilan ongli ravishda darslarga qatnashadi, mashqlarni bajarishga faol ishtirok etadi, berilayotgan bilimni to'la o'zlashtirib olish imkoniyati kengayishi haqida ma'lumotlar kiritilgan.

Kalit so'zlar: didaktik o'yin, estetik tarbiya, tafakkur, ruhiy jarayon.

Farzand deb atalmish ulug' ne'mat dunyoga kelishi bilan ota-ona va qarindosh-urug'lari kundan-kun o'sib borayotgan yosh inson faoliyatida odamlarga xos har xil harakatlarni ko'rgisi keladi va tez orada bu orzularining ro'yobga chiqayotganligining guvohi bo'ladi. Dastlabki davrlardan boshlab ona o'z bolasining qo'l-oyoq va gavda harakatlarini o'yin sifatida shakllantiradi. Keyinchalik bolaning butun faoliyati o'yin bilan bog'liq bo'ladi. Asta-sekin o'yin yosh bola hayotining asosiy mashg'ulotiga aylanadi. O'yin bolani aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyalash vositalaridan biridir. Bolalar o'yinlari yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishiga samarali ta`sir ko'rsatadi. O'yin vaqtida bolaning sezgi va idroki, tafakkur va xayoli, xotira va diqqati, iroda va hissiyoti kabi ruhiy jarayonlari ishtirok etadi.

Didaktik o'yinlar bolalarda jamoatchilikni his etish, intizomli bo'lish, jasur, qat'iyatli bo'lish, qiyinchiliklarni yenga bilish kabi sifatlarning tarkib topishida yordam beradi. Bola kattalarning kundalik hayotiy faoliyatidagi yumushlarni o'yin orqali bajarishga intiladi. Garchi bolalar o'yinlari mazmunan kattalar faoliyatining bir ko'rishini bo'lsa-da, uning o'ziga xos jihatlari bor. Birinchidan, bola o'yinni o'z xohishi bilan erkin va ijodiy bajaradi. Bu o'yinlar emotsional bo'lib, bolani o'ziga rom qilib oladi. Bola o'yinga qiziqib ketadi, zavqlanadi, o'rtoqlik hissi kuchayadi. Bolalar o'yinlari mazmuniga ko'ra o'yinchoqli, harakatli va didaktik turlarga bo'linadi. Bu o'yinlarning barchasi bolalarni faoliyat yuritishga chorlaydi. Didaktik o'yinlar esa bolaga ta`lim berishga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

Didaktik o'yinlar tarbiyachilar va maktab o'qituvchilari tomonidan ijod qilingan. Bu o'yinlar bog'chalarning katta guruhlaridagi bolalarga va maktab o'quvchilariga mo'ljallanadi. O'yin orqali bola jamoani tushunadi. O'zi bajarayotgan mashg'ulotga nisbatan ongli munosabatda bo'ladi. Har bir mashg'ulot jarayonida ixtiyoriy diqqatini ishga soladi. O'yinda ilg'orlikka, g'alaba qozonishga intiladi. Maktab bola hayotida juda muhim o'rin turadi. Shu davrda u atrof-muhit, jamiyat va kishilar mehnati, maktab-maorif haqidagi bilimlarni egallaydi. Kecha o'yin bilan band bo'lib, erkin faoliyat ko'rsatib yurgan bolaning birdan maktabning ichki qonun-qoidalariga moslashishi, belgilangan tartib asosida mashg'ulotlarga o'z vaqtida qatnashishi oson kechmaydi. Shu tufayli kichik maktab yoshidagi bolalar o'yin bilan bog'liq darslarda juda faol qatnashadi. Biz o'qituvchilar buni hisobga olib, darslarga o'yin elementlarini kiritishimiz va undan ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarda samarali foydalanishimiz lozim.

Bugun maktabga ilk bor qadam qo'ygan o'quvchining kechagi mashg'uloti o'yin edi. Bolada boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan materiallarni o'zlashtirib olishga yordam beradigan epchillik, hozirjavoblik, voqealarni bir-biriga taqqoslash, sinchkovlik kabi ijobiy xislatlarning shakllanish davri bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga mo'ljallangan bilimlarning o'zlashtirib olinishiga erishish uchun ana shularga tayanish va uni parvarish qila borish lozim. Bu o'rinda Samarqandlik pedagog A. Umarovaning quyidagi fikrlari diqqatga sazovordir. "Tasavvur qiling, o'quvchi ma'lum amaliy va ruhiy tayyorgarlikdan keyin maktab o'quvchisi bo'ladi. Uning vazifasi o'zgaradi. Bir kecha-kunduzda o'rtacha 4 soat ta'lim oladi. O'quv axborotini qabul qiladi va idrok etadi. Ana shu vaqtda o'qituvchi loqayd, mas'uliyatsizlik qilsa, uning bu holati ota-onalarning holati bilan hamohang bo'lib qolsa, ota-ona ham yordam berishdan ojiz, nazorat qilishga "vaqti yo'q" bo'lsa, o'sha o'quvchilar bo'sh o'zlashtiruvchi, tartibsiz yomon o'quvchilarga aylanadilar. O'z kasbining mohir ustasi bo'lgan fidokor o'qituvchi ana shu paytda o'quvchilarni qo'lga oladi, ularning mehrini, ishonchini qozonadi: o'quv mashg'ulotlariga qiziqish uyg'otadi.

Ona tili o'qitishning asosiy vazifasi ushbu fanning bilimlar tizimini egallash, so'zlarning grammatik shakllarini ishlab chiqish, savodli yozuv ko'nikmasini hosil qilishdir. Bu vazifalarni ro'yobga chiqarish o'ta murakkab bo'lib, o'qituvchining xilma-xil o'qitish metodlarini egallashini, o'quvchilarni mumkin qadar

ijodiy fikrlashga o'rgatishni va har bir mashg'ulotga qiziqtira bilishni taqozo qiladi.

Bolalarning yozuv savodxonligini oshirish uchun uning xotirasida so'zning yorqin tassavurini mustahkamlash, so'z tarkibi va gap bo'laklarini to'g'ri hamda tez farqlash qobiliyatini o'stirish kerak. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar asosan tasavvur qilish orqali fikr yuritadilar. Ona tili qonun-qoidalari, hodisalari mavhum fikr yuritishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.-T.: "Nihol nashryoti, 2013-yil 278 bet.
2. Abduqudusov O. Kasb-hunar pedagogikasi. Darslik. - T.: O'MKHTTKMO va UQTI, 2014 -340 b.
3. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. -T.: "O'qituvchi", 2004. -102 b.
4. Xodjayev B.X. Innovatsion ta'lim texnologiyalari modulidan ma'ruza matnlari. -T.:2015.
5. Qo'ysinov O.A. va b. "Kasb ta'limi metodikasi" fanidan mustaqil ta'limni tashkil etish. - T.: yangi nashr", 2012. - 60 b.

METAFORANING BADIIY MATNDAGI VAZIFALARI VA USLUBIY XUSUSIYATLARI

Rasulova Dildora,
Navoiy viloyat Karmana tuman 6-maktab
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya:Ushbu maqola tilshunoslik fanida keng o'rganilib kelinayotgan metaforalarning matnda ishlatilishi, ularning o'xshatish, qiyoslash holatlarda kelishi ilmiy asoslab berilgan. Shuningdek, matnga lingvopoetik yondashuvda lisoniy va xususiy-muallif metaforalarini farqlash jihatlari haqida ham fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, metafora, qiyos, lisoniy, semantika, matn.

Tilshunoslikda metafora haqida ko'plab ilmiy asarlar yaratilgan. Ularning aksariyatida metaforaning asosiy mohiyatini o'xshatish, qiyoslashdan iborat mantiqiy amal tashkil etishi aytilgan. Aristotel o'zining "Ritorika" asarida metafora bilan o'xshatish o'rtasida katta farq yo'qligini, yaxshi o'xshatishni osonlik bilan metaforaga aylantirish mumkinligini, ularning mohiyatida yaqinlik mavjudligini ta'kidlaydi.

Metaforaning ana shunday mohiyatini inobatga olgan holda proffsor R.Qo'ng'urov "O'zbek tilining tasviriy vositalari" kitobida mana bunday deb yozgan: "Metaforani yashirin o'xshatish deyish ham mumkin. Ammo u oddiy qiyosdan farq qiladi. Agar oddiy qiyos ham doim asosiy ikki a'zodan tashkil topsa (ya'ni nima qiyos qilinadi, nima bilan qiyos qilinadi - qiyos qilinuvchi va qiyos qilinadigan predmet), metaforada faqat ikkinchi a'zo - o'xshatilgan narsa qoladi, o'xshagan narsa tushiriladi, lekin u kontekstdan ochiq sezilib turadi, demak, metaforada tasvirlanayotgan predmet ana shu ikkinchi a'zo orqali idrok qilinadi". Bu fikrga qo'shilgan holda, shuni ham aytish kerakki, sof lisoniy nuqtai nazardan, bizningcha, metaforani "yashirin o'xshatish" deb emas, balki "qisqartirilgan o'xshatish" deb qarash maqsadga muvofiqroq ko'rinadi. Chunki metaforada o'xshatishning to'rtta uzvidan uchtasi (o'xshatish sub'ekti, o'xshatish asosi, o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi) qisqartirilib, faqat o'xshatish etalonining o'zi saqlab qolinadi. Metafora bevosita ana shu o'xshatish etalonida, yanayam to'g'rirog'i, metaforik ko'chma ma'no o'xshatish etaloni o'rnidagi so'zning ma'no tarkibida yuzaga keladi. O'xshatish asosidagi belgi yoki harakat-holatni, shuningdek, o'xshatish subyektini ifodalagan va qisqartirilgan so'zlarning ma'nolarini ayni o'xshatish etaloni o'ziga xos tarzda o'z ustiga oladi. Ana shu jarayonlar natijasida nutqda so'z semantikasida obrazlilikka juda ham boy ko'chma ma'no yuzaga chiqadi.

Metafora narsa-buyum, voqea-hodisalar, belgilar o'rtasidagi o'zaro o'xshashlikka asoslangan ma'no ko'chishi, ya'ni metafora ko'chma ma'no hosil qilishning eng keng tarqalgan usullaridan biridir. U mumtoz adabiyotshunosligimizda "istiora" deb ham yuritiladi. Matnga lingvopoetik yondashuvda lisoniy va xususiy-muallif metaforalarini farqlash maqsadga muvofiq. Lisoniy metaforalar til taraqqiyoti bilan bog'liq hodisa hisoblanadi, ular tilda uzuallik kasb etib bo'lgan. Shuning uchun ham tadqiqotchilar to'g'ri ta'kidlaganlaridek, "bunday metaforalar, asosan, atash, nomlash vazifasini bajarganligi uchun ularda uslubiy bo'yoq, ekspressivlik, binobarin, ular ifodalagan nutq predmetiga nisbatan subyektiv munosabat aks etmaydi". Faqatgina ma'lum bir so'zning ma'no doirasi kengayadi hamda yangi tushunchalarni atash uchun xizmat qiladi. Masalan: odamning oyog'i stolning oyog'i, odamning ko'zi uzukning ko'zi, ko'ylakning etagi tog'ning etagi kabi. Demak, lisoniy metaforalar lingvopoetik nuqtayi nazardan jiddiy qimmatga ega emas.

Xususiy-muallif metaforalari esa yangi va okkazional, kutilmagan bo'ladi. Ularni yozuvchining o'zi estetik maqsad, ya'ni borliqni subyektiv munosabatini ham qo'shib obrazli ifodalab nomlash asosida yaratadi. Ular uslubiy jihatdan bo'yoqdorlikka va voqelikni obrazli tasvirlash xususiyatiga ega bo'ladi. Shuning uchun ham badiiy matnda qahramonning his-tuyg'ularini ta'sirchan, yorqin bo'yoqlarda, aniq va ixcham ifodalashga xizmat qiladi. Shuning uchun ham bunday metaforalar badiiy matnning lingvopoetik tahlilida favqulodda muhim o'rin tutadi. Xususiy-muallif metaforalarida hamisha konnotativ ma'no aniq holda ifodalanadi.

Ayrim tadqiqotchilar ot, eshak, qo'y, it, bo'ri, tulki, yo'lbars, boyo'g'li, musicha, burgut, lochin, qaldirg'och, bulbul kabi so'zlar ko'chma ma'nolarda keng qo'llanishini aytib, shunday mulohaza bildiradilar: "Otning baquvvatligi, eshakning aqlsizligi, qo'yning yuvoshligi, itning vafodorligi, mushukning epchilligi, tulkining ayyorligi, burgutning changallashdagi kuchliligi, lochinning ko'zi o'tkirligi kabi tipikxususiyatlari boshqa predmetlarga nisbatan metaforik usulda ko'chiriladi, natijada konnotativ ma'no yuzaga keladi hamda matnning ta'sirchanligi oshadi" To'g'ri, bunday metaforalar asosidagi ko'chma ma'nolar, albatta, konnotativ ma'noga ega, shuning uchun matnning ta'sirchanligiga yordam beradi. Lekin ular an'anaviy metaforalardir, xususiy-muallif metaforalari emas, ya'ni ko'p qo'llangan, yangi, original emas. Shunga ko'ra ularning badiiy matndagi lingvopoetik salmoq darajasi xususiy-muallif metaforalariga qaraganda ancha pastdir. Masalan, buqlamun

so'zining metaforik ko'chma ma'nosi "o'zgaruvchan (odam)" demakdir, bu ma'no lug'atlarda ham qayd etilgan. Ayni ma'no tarkibida konnotativlik bor, shuning uchun buqalamun bilan uchrashuv (S.Ahmad.) birikmasidagi ifoda ta'sirli. Lekin bu ma'noning yuzaga kelishi yozuvchiga bog'liq emas, u oldindan ma'lum. Yangi, kutilmagan, ijodkorning o'ziga xos metaforalar badiiy matnda kuchli darajada poetik ta'kidga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Rasulov A. Badiiy asarga yondashuv asoslari. Filolog-magistrlar uchun o'quv qo'llanma. - T.: Universitet, 2003.
2. Rasulov A. Mustaqillik davri adabiyotining nazariy-metodologik asoslari. - T.: Ma'naviyat, 2012.
3. Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Bo'lajak o'qituvchining loyihalash faoliyati. //Metodik qo'llanma. - T.: TDPU Rizografi, 2014.
4. O'zbek adabiy tanqidi. Antologiya. - T.: Turon-iqbol, 2011.
5. Qodirov P. Til va el. - T.:G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2005.

G'AFUR G'ULOM HIKOYALARIDA MILLIY QADRIYATLARIMIZNI TASVIRLANISHI

RASULOVA MARZIYA JURAKULOVNA
Navoiy viloyat Konimex tuman
1-umumta'lim maktabi davlat
tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya:Ushbu maqolada G'afur G'ulom hikoyalari, hikoyalarida xalqimiz milliy urf-odatlari, qadriyatlar, o'zbekona lutf, mehr-oqibat o'z aksini topgan. Adib asarlarining bugungi kundagi ahamiyati, komil insonni tarbilashda ushbu asarlarni samarali yordami bayon etilgan.

Kalit so'zlar: qissa, hikoya, sarguzasht, mehr, ma'naviyat, yumor.

Adabiyot ma'naviyat xazinasidir. G'afur G'ulom o'zbek adabiyotining ravnaqiga katta hissa qo'shgan ijodkorlardan biridir. O'zining mehnat faoliyatini pedagoglikdan boshlagan adib umrining oxirigacha qalban eng jonkuyar pedagoglardan biri bo'lib qoldi. U yosh avlodni, kelajak farzandlarini juda sevar va bu sevgisini bolalar haqida yozilgan asarlarida yuksak muhabbat hamda mahorat bilan ifodaladi. G'afur G'ulomning "Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi", "Avval o'qi", "Bari seniki", "Oltin medal" kabi she'rlari yoshlar va o'spirinlarga mos kelsa, "Ahmad yomon bola emasku, ammo□", "Ikki yoshlik", "O'rdak va Turg'un" "Charog'larim, qarog'larim", "Nortojining kurak tishi", "Yasha deyman o'g'lim", "Buni toping, qizlarim", "Chitti gul", "Siz mening yoshligimsiz" kabi she'rlari kichik maktab yoshidagi bolalalarga bag'ishlangan. Bu she'rlar bolalar she'riyatining yuksak namunalari hisoblanadi. Shuningdek, "Shum bola", "Tirilgan murda", "Yodgor" kabi qissalari bilan ham bolalar adabiyoti nasrini boyitdi. Shoir she'rlarida so'zlarni mahorat bilan qo'llagan, hatto bolalarga qo'yilgan bo'taloq, qizaloq, toychoq, qo'zichoq kabi laqablar jonli tilga yaqin bo'lgani uchun hech kimni ranjitmaydi, aksincha, she'rning xalqchilligini ta'minlagan. Sodda va ravon misralar bola ongiga oson o'rnashib qoladi, qalbni sho'x o'yinlarga, go'zal tuyg'ularga to'ldiradi. She'r satrlari bolalikning sho'x va beg'ubor olamiga hamohang jaranglaydi.

O'quvchilarda dunyoqarash, mustaqil ijodiy fikrlashni takomillashtirish davr talabi bo'lib turgan bir paytda shoirning "Buni toping, qizlarim " topishmoq she'ri o'quvchilarni ziyrak, topqir va zukko b'olishga undaydi.

Har bir topishmoq o'quvchini teran fikrlashga, o'ylashga, mulohazaga chorlaydi. Bu esa albatta, bolaning dunyoqarashini, mustaqil ijodiy fikrlashini o'stiradi. Shoir umrining oxirigacha ham bolalar uchun yozishni eng faxrli ishlardan biri deb bildi, matbuot sohalarda uning bolalarga atalgan asarlari muntazam bosilib turdi.

G'afur G'ulomning pedagogik qarashlari bugun milliy pedagogikamiz merosimiz tarkibiy qismiga aylandi. Unda bolalar xulqidagi zararli odatlarni bartaraf etishga oid fikrlar haqida o'tgan asrning 20 - yillaridayoq bong urilgan edi. Adib ijodiga nazar tashlar ekanmiz, u o'z davrida bolalar orasida zararli odatlarning kuchayib borayotganligidan aziyat chekadi. U zararli odatlarning kelib chiqish sabablarini bolalar yashayotgan muhitning o'zidan izlaydi.

Adibning "Shum bola" qissasida o'zbek xalqining o'tmishdagi og'ir hayoti, xususan, o'smirlarning qarovsizligi, ularning bir parcha non deb darbadar kezishlari achinarli tasvirlansa, ba'zi obrazlarning harakatlari kulgi ostiga olinadi. Qissa dastlab 1936-yilda "Shum bolaning sarguzashti" nomi bilan "Mushtum" jurnalida chop etildi. Keyin "Dobdirash" deb o'zgartirdi. Har ikkala bo'lim yaxlit ko'rinishda 1938-yili "Shum bola" nomi bilan kitob holida bosilib chiqdi. Yozuvchi asarning boshidan oxirigacha latifalardan, xalq ertaklari va hikoyalaridan, askiyalarida unumli foydalandi. Shum bola dovyurak va chaqqon, u mehnatkash xalq vakili sifatida gavdalanadi. Sariboy, Azimxo'ja, Bo'riboyvachcha, Qoraxo'ja kabi salbiy obrazlarga qarama-qarshi qo'yiladi. Bu qissaning tarbiyaviy-estetik ahamiyati katta.

Ishyoqmaslik va yalqovlikda afsonaviy dangasalarni ham "bir cho'qishda qochiradigan" mulla Mamajonning bugungi kunda mehnatkashlarning ijobiy ta'sirida asta-sekin yalqovlikni tashlab, ilg'or mehnatkashgaaylanganligini hayotiy, tipiksharoitda, hajviy va kulgili ifodalargaboy lavhalardako'rsatiladi.

"Mening o'g'rigina bolam" hikoyasining yaratishda yozuvchi turli tasviriy vositalar, o'xshatilar, so'z o'yinlari va iboralardan foydalanadi.

Ana turkiy tilning jilvalari, ana o'zbek atlasidek kamalak bo'yoqlar, ana milliy ohanglar, ana ruhiy evrilishlar, ana oddiy xalq qalbining manzaralari. Adib qalamining mo'jizasi shu qadar sehrgarki, bizning bolalik ruhimizga, qonimizga, suyak-suyagimizga singib ketgan.

Yomonlik, qabihlik ma'nosini anglatuvchi "o'g'ri" so'zi buyuk shoirning mahorati bilan "o'g'rigina" bo'lib, mehrga yo'g'rilib, vaqtincha o'zining asl ma'nosini ham unutib, bedor yotgan kampirga qo'shilib, tom bo'g'otida turgan o'g'riga rahmimiz kelib: chin yurakdan shu qozonginani olib ket, quruq ketma!" deb yalina boshlaymiz. "O'g'rigina bola"dan nafratlanish o'rniga, unga mehrimiz tovlanadi. "O'g'rigina"ga rahmimiz kelib, quruq qaytarmaslik uchun berib yuborishga ro'zg'ordan arzigulik biror buyum qidiramiz.

Bir soatda aytib turib yozdirilgan, tahrir etilmagan, sayqal ko'rmagan bu asar, agar dunyo hikoyalarining eng nufuzli antologiyasi tuzilsa, o'sha majmuaning gultoji bo'lishiga, shubha yo'q edi.

G'afur G'ulom qoldirgan boy ma'naviy xazina bugungi kunda ham o'z qadr-qimmatini yo'qotmagan. Asarlari xalqimiz tomonidan sevib mutoala qilinmoqda.

SADOQAT KUYCHISI

RASULOVA OLIYA DJURAQULOVNA
Navoiy viloyat Konimex tuman
7-umumta'lim maktabi ona tili
va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya:Ushbu maqolada vafo va sadoqat kuychisi Zulfiyaxonim, uning ijodi, ibratli hayot yo'li, xalqimiz sevib o'qiydigan she'rlari haqida fikrlar berilgan. Shuningdek, yurt madhi, bahor manzaralari, sevgi, muhabbat va sadoqat mavzularidagi she'rlari talqin etilgan.

Kalit so'zlar: she'riyat, sadoqat, bahor, ibrat, vafo, ijod.

"Nafaqat o'z she'rlari, balki butun hayoti bilan o'zbek ayolining ma'naviy qiyofasini namoyon etgan atoqli shoiramiz Zulfiyaxonimni ham men ana shunday fidoyi insonlar qatoriga qo'shgan bo'lardim. Uning jahon minbarlaridan yangragan she'rlari sharq ayolining aql-u zakosi, fazl-u kamolining yorqin ifodasi sifatida millionlab she`riyat muxlislariga odamiylik, muhabbat va sadoqatdan saboq bergan, desak, mubolag`a bo'lmaydi"-deb ta'kidlagan edi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch" asarlarida.

Birinchi Yurtboshimiz tomonidan Zulfiya ijodi va hayotiga berilgan yuksak baho bejizga emas. Chunki shoiraning o'zbek adabiyoti, nafaqat o'zbek, balki sharq adabiyoti va falsafasiga qo'shgan hissasi alohida tahsinga loyiqdir. Zero, Birinchi Prezidentimiz ta'birlari bilan aytganda, Zulfiyaxonim "□.bu yorug' dunyoda ayriliq va hijron azobini, gam-anduhlarni matonat bilan mahv etgan, armonlardan tirik orzular yaratgan,tog'dek bardoshi bilan sadoqat va vafo ramziga aylandi". Shu bois ham sevimli shoiramiz Zulfiyaning hayoti va ijodiy merosi, ayniqsa, sharq qizlariga o'rnak bo'ladigan ma'naviy dunyosi, axloqiy qiyofasi xalqimiz tomonidan yuksak qadrlanib kelmoqda.

O'n sakkiztagina she'r jamlangan "Hijron kunlarida" deb atalgan kitobchaning paydo bo'lgan kuni dunyoda Zulfiya nomi bilan atalgan qismat yaraldi. Bu qismat bir qatra bo'ldi-yu, unda zamondosh ayol qalbi o'zining jahoniy dardi, iztirobi, faryodi bilan akslandi. Zulfiya degan ismda hijronzada yuraklarning ohi, nidosi mujassam bo'ldi. Darhaqiqat, shoirlik unvon emas - qismat! Buning isbotini butun borlig'i bilan, barcha ohanglari va ranglari bilan shoira Zulfiya ijodida ko'rmoq mumkin. Bunday mehr va sog'inch bilan to'lgan satrlarning haqiqiy bahosini bermoq uchun she'r bitilgan yillar zahmatini, fojialarini tasavvur etmoq kerak. Bu misralar judolik dardida o'rtangan necha ming yuraklarga malham bo'lganini, necha ming ko'ngil daftariga ko'chirilganini xayol qilmoq kerak.

Nega men so'zimni "Hijron kunlarida" kitobidan boshladim? Axir ungacha ham Zulfiyaning "Hayot varaqlari", "She'rlar", "Qizlar qo'shig'i" singari she'riy to'plamlari nashr etilgan edi. Bu to'plamlardagi o'zining tiniq jozibasi bilan kishini rom etuvchi talay she'rlar Zulfiya ismini adabiyotga olib kirgan va mustahkam mavqe bergan edi. Biz bu kun o'sha kitoblarni varaqlab mahorat bosqichlarini poyama-poya egallab borayotgan iste'dod nafasini sezamiz, she'riyatning umidli kelajagini ko'ramiz. Lekin "Hijron kunlarida" kitobini o'qiganda biz shunga amin bo'lamizki, shoirlik iste'doddan ham, mahoratdan ham yuqoriroq tushuncha. Yaxshi she'rlar yozmoqning, hatto barkamol satrlar bitmoqning o'zi hali haqiqiy ma'nodagi shoirlik emas. Toki butun kitob va har bir misrada shoirning o'zligi, bor olami bilan qalbu idroki, dardu quvonchi, tarjimai holi va dunyoqarashi bilan she'rning egasi namoyon bo'lmas ekan, dilkashu dardkash Inson ko'rinib turmas ekan - bu hali to'la ma`nodagi she'riyat emas.

Zulfiyani shoir qilgan o'z dardli qismati va bu dardli qismat haqidagi samimiy va ehtirosli nidosi. Ulug'lardan biri aytgan ekan: "Shoirni iztirob yaratadi va bu iztirob she'riyat uchun quvonch bo'ladi". Bu so'zlar bus-butun shoira Zulfiyaga taalluqlidir. Shoirani dunyoga keltirgan ulug' iztirob o'z aksiyati bo'lgan ulug' baxtni ham yaratdi. Bu ulug' baxt to'la-to'kis xalq va she'riyatnikidir. She'riyat olamiga har bir ijodkor o'z qo'shig'i bilan kirib keladi. Zulfiya she'riyatga Vafo qo'shig'i bilan kirdi va bu qo'shiq ayol sadoqatining yuksak tarannumiga aylandi.

KITOBGA MEHR - USTOZGA, OTA-ONAGA, VATANGA MUHABBATNING KALITI

Rasulova O'lmasoy,
Navoiy viloyat Qiziltepa tuman 27-maktab
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola o'quvchilarni kitob o'qishlari va bilim olishlariga shart-sharoitlar yaratib berishimiz lozimligi haqida fikrlar yozilgan. Bunda eng to'g'ri va oqilona fikr bu o'quvchilarni o'zining qiziqishi va moyilligiga, qobiliyatiga mos bilim olishlariga imkoniyat yaratib berishimiz va mustaqil qaror qabul qila olishi uchun har xil chora-tadbirlarni o'rgatishimiz lozimligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: kitob, bilim, ta'lim-tarbiya, asar, matn.

Kitobga mehr - ustozga, ota-onaga, Vatanga muhabbatning kaliti. Shunday ekan, har bir o'qituvchi o'z oldiga o'quvchilariga kitob o'qish mas'uliyatini shakllantirishi, rivojlantirishi zarur va shart. Buning yo'l-yo'riqlarini o'ylab topishi, amaliyotga tadbiq etishi lozim. Kitob boladagi ma'naviy bo'shliqni to'ldiradi. Ustoz, ota-ona, Vatan, o'rtoq do'st, birodarlarga mehr-muhabbatli qiladi. Bola kitob o'qish orqali-komil inson minorasini o'zi bino qiladi. O'quvchi o'zi o'qib-o'rganib qurgan mustahkam minorani hech qanday tashqi salbiy oqim-ta'sirlar buzub kirolmaydi.

Albatta, kitobni ardoqlagan oilada hotirjamlik, osoyishtalik, halollik va ahillik hukm suradi. Bunday muhitda baraka ham bo'ladi. Oilada birinchi otaning o'rni, uning hurmatini joyiga qo'yish, onani e'zozlash, katta aka-opalar, ukalarga e'tiborli bo'lish degan tansiq odatlar bevosita kitob orqali mustahkamlanadi. Kitobni bola xijjalab, sabr bilan o'qish jarayonida, har bir so'zni yurakdan his qilib hazm qiladi. Bu donolar ta'kidlaganidek, toshga o'yilgan naqsh singaridir. Kitob ilm olishga tashnalikni oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini yil sayin barqarorlashtirib borar ekan, uning istiqboli bugungi avlodninig har tomonlama bilimdon, ma'naviy va jismoniy jihatdan barkamol insonlar bo'lib yetishishlariga bog'liqdir. Eng avvalo, yosh avlodning ilmiy-dunyoviy bilimlar asoslarini puxta egallashi, ularda keng dunyoqarash hamda tafakkur ko'lamining hosil bo'lishi va ma'naviy-axloqiy sifatlarning shakllanishi uchun ta'lim-tarbiya ishlarini samarali tashkil etilishiga erishish lozim. Zero, yurtning porloq istiqbolini yaratish, uning nomini jahonga keng yoyish, ularni boyitish, O'zbekiston Respublikasini rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy egallashini ta'minlash, yosh avlodning komil inson bo'lib kamol topishiga bog'liqdir. Har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalab, voyaga etkazishda esa zahmatkash o'qituvchi va murabbiylarning mashaqqatli mehnatlari yotadi.

Umumta'lim maktabida o'qitiladigan bir qator o'quv fanlarida badiiy asarlarga ko'p murojaat qilinadi. Masalan, o'qish darslarida yozuvchilar, shoirlarning hayoti va ijodi, ularning asarlari, ona tili va rus tili fanlari darslarida badiiy asarlardan parchalar, gaplar keltiriladi va ularni tahlil etish orqali fan asoslari o'rganiladi hamda shu asosda o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatiladi. Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining samaradorligini oshirishda ham badiiy asarlardan foydalanish yaxshi natijalarga olib kelishi mumkin.

O'zbekistonning kelajagi va ravnaqi uchun yangi dastur va tadbirlarni ishlab chiqilar ekan, xalqimiz hayotining yanada farovon bo'lishiga hissa qo'shish har bir yurt fuqarosining burchidir. Ana shu burchlarimizdan biri yoshlarning bilim olishlariga shart-sharoitlar yaratib berishimiz lozim. Buning ucnun nima qilmoq kerak, degan savol paydo bo'lishi tabiiy. Eng to'g'ri va oqilona fikr bu o'quvchilarni o'zining qiziqishi va moyilligiga, qobiliyatiga mos bilim olishlariga imkoniyat yaratib berishimiz va mustaqil qaror qabul qila olishi uchun har xil chora-tadbirlarni o'rgatishimiz lozim. Ana shu chora-tadbirlardan biri maktablarda o'quvchilarning badiiy asarlarga qiziqishlarini ta'minlash juda muhimdir. Chunki, o'quvchilar badiiy asarlarni mutolaa qilganlarida asar qahramonlarini o'zlarining tasavvurlarida ko'radilar. Bo'lib o'tgan voqealarni tahlil qiladilar. Natijada fikrlash doiralari kengayib hayotga real qaray boshlaydilar. Hamma bolalar ham badiiy asarlarni o'qiyvermaydilar-ku, degan e'tiroz paydo bo'lishi mumkin. Buning uchun esa maktablarda darsdan tashqari tadbirlarni, o'quvchilarning qiziqishiga mos bo'lgan kechalarni tashkillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Yoshlarga bilim berish uchun, avvalo, o'qituvchilar izlanuvchan va bilimli bo'lmog'i darkor. O'qituvchi bir daraxt bo'lsa, o'quvchilar esa uning shoxlari. Daraxtning ildizlari qanchalik baquvvat bo'lsa, mineral o'g'it, quyosh nuri va suvga yetarli darajada to'yingan bo'lsa, uning mevasi shunchalik totli va shifobaxsh bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, kelajagimiz buyuk bo'lishi, mamalakatimiing ravnaqi uchun

vijdonan harakat qilmog'imiz zarur. O'quvchi yoshlarning har tomonlama barkamol inson bo'lib voyaga yetishlari uchun, avvalo, biz o'qituvchilar bilimli, ma'naviyatli, raqobatbardosh mutaxassis bo'lib shakllanishimiz darkor. Ana shundagina biz ko'zlagan maqsadimizga erishgan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: O'zbekiston, 2017.
2. Abduqodirov A. Umumiy O'rta ta'lim maktablarida yangi axborot texnologiyalardan foydalanish muammolari. Uzluksiz ta'lim jurnali, 2002. № 4, 60-73 betlar
3. Abduraimova M. Ona tili ta'limida ilg'or pedagogik texnologiya. - Toshkent, 2005. 3-26 betlar.
4. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. - T.: O'qituvchi, 1992.
5. Azizxo'jaeva N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. -T.: TDPU, 2000.

BILIM QAYDA BO'LSA, BUYUKLIK BO'LAR

RAVSHANOVA LATOFAT ISOMIDDINOVNA
Navoiy viloyat Xatirchi tuman
54-umumta'lim maktabi ona tili
va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya:Ushbu maqolada sharqning allomalar yurti bo'lganligi, komil insonni tarbiya etishda ular qoldirgan ma'naviy merosning ahamiyati, kitob va kitobxonlik madaniyati, bugungi davr zamonaviy innovatsiyalaridan foydalanish usullari ilmiy asoslab berilgan. Shuningdek, ko'plab allomalar haqida ham fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: bilim, allomalar, avlod, ajdod, komil inson.

O'zbek xalqi -ma'naviyati yuksak xalq. Chunki dunyo adabiyotining ko'plab nodir asarlari turkiy tilda dunyo yuzini ko'rdi desak hech ham mubolag'a qilmagan bo'lamiz. O'tmish tariximizga nazar tashlaydigan bo'lsak,Vatanimiz ne-ne zotlarni bag'rida ulg'aytirgan. Imom Ismoil al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Navoiy, Bobur kabi allomalar shular jumlasidandir.

Kitob, kitobxonlik, unga munosabat barcha zamonlardagi singari insonlar e'tiboridan chetlashmagan. Boisi, kishilar unga ehtiyoj sezadilar, murojaat qiladilar, o'qiydilar. O'tmishga nazar tashlasak, ajdodlarimizning turli "Masnaviyxonlik", "Dostonchilik" yig'inlarini o'tkazib, ma'naviy mulk hisoblanmish turli dostonlar, ijodkorlar asarlaridan yoddan aytishgani haqidagi ma'lumotlarga duch kelamiz.

Hazrat Navoiy zamonida ijodkorlardan 40 ming misra, zamon ahli esa 20 ming bayt yoddan bilmog'i darkor ekanligi qayd etilgan. Shuningdek, jadid adabiyotida ham ma'rifat masalasi o'z qiymatini yo'qotmadi. Insonni jaholat botqog'idan olib chiquvchi kuch, ilm-urfon, kitob ekani yaratilgan chinakam asarlar orqali yana bir karra o'z ifodasini topdi.

Aytish joizki, hayotimizning barcha sohada bo'lgani kabi, adabiyotimiz ham yangi bosqichga qadam qo'ydi. Ma'naviyatni anglash ruhidagi boy adabiy merosimiz chuqur idrok etilgan hayotda odamlar ongi va tafakkurlarida ro'y berayotgan yangiliklar jarayoni tiniq va ta'sirchan voqealar orqali she'rlar, dostonlar, qissa va romanlar yaratildi. Bu o'z navbatida insonlar ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Bu alloma va shoirlarimiz turli davrda yashab ijod etgan bo'lsalarda, ularni bir narsa birlashtirib turgan, ya'ni kitobga bo'lgan qiziqish. Bu insonlarning asarlari hozirda kamol topib, voyaga yetayotgan yoshlarimizda har tarafdan mukammal tarbiya maktabini o'taydi. Ularni to'g'ri yo'l tanlashga, komil inson bo'lib yetishishga chorlaydi. Ajdodlarimizning ma'naviy merosini, ular qoldirgan kitoblarni, chuqurroq mutolaa qilish orqali o'quvchining dunyoqarashi, tafakkur doirasi kengayib boradi.

Kitob ko'p o'quvchilarning o'zi izlanishga harakat qiladi. Ular darsga puxta tayyorlanishga, mavzuga doir biror qiziqarli qo'shimcha manba topishga harakat qiladi, mustaqil va erkin fikr yuritadi, darsga qiziqishi ortadi, ma'naviy dunyoqarashi kengayadi. Nutqi ravon bo'ladi.

Texnika jadal rivojlanayotgan bir paytda, hozirgi yoshlarning ongi ham zamon bilan zamonga mos tarzda rivojlanib bormoqda. Shu sabab ular uchun oddiy dars qiziqarsiz tuyuladi. Aynan shu sabab ham o'qituvchi oddiylikdan qochishi, dars jarayonida o'quvchini to'liq darsga jalb eta oladigan qiziqarli metodlardan foydalanishi, chuqurroq izlanib darsga yangilik olib kirishga harakat qilmog'i darkor. O'qituvchi darsga kirar ekan o'z oldiga asosiy maqsadni qo'yishi kerak. Chuqur izlanish, noan'anaviy usullarni qo'llash orqali biz ko'zlagan maqsadimizga erishishimiz mumkin.

"Uchburchak" usuli o'quvchilarning olgan bilimlarini aniqlashda, guruh a'zolarini tez va aniq baholashda yordam beradi, guruhda ishlash ishtiyoqini oshiradi. Masalan, "So'z birikmasi" mavzusini o'tish jarayonida bu usulda o'qituvchi uchburchakning yuqori burchagiga so'z yozadi. O'quvchilar shu so'zdan uchburchakning bir tomoniga tobe bog'lanishli birikma, ikkinchi tomoniga teng bog'lanishli birikma hosil qilishlari shart.

O'zbek millatining qon-qoniga adabiyotga oshuftalik hissi singib ketgan. Ona zaminimizda yaratilgan ko'plab asarlar jahon adabiyoti durdonalari safidan mustahkam o'rin egallab ulgurgan. O'zbek adabiyotiga qiziqish chet el adabiyotshunoslari tomonidan ko'plab ilmiy tadqiqotlarning tug'ilishiga sabab bo'lgan.

Farzandlari ma'rifatli, ma'naviyatli, o'zligini tanitgan xalqning komil farzandlari esa, ona Vatan, zamin qadrini har narsadan yuksakka qo'yadi.

ABDULLA QAHHOR SHAXSIYATIGA NAZAR

Dilafruz Raxmatullayeva
Norin tuman,17-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Telefon:+998(99)3904615

Annotatsiya: Mazkur maqola o'zbek adabiyotining zabardast vakili Abdulla Qahhor hayoti va faoliyatini o'rganishda muhim omil bo'lib hizmat qiladi.

Kalit so'zlar: "Sarob" romani, "O'tmishdan ertaklar" qissasi.

So'z ustasi, o'tkir fikrlar, serqirra g'oyalar sohibi, o'zbek hikoyachiligining asoschisi Abdulla Qahhorning asarlari har bir o'quvchi ko'nglidan chuqur joy egallagan. Adib asarlari davrning dolzarb muammolarini hayotiy voqeliklar asosida aniq va ixcham shaklda bayon eta olganligi va shu bilan bir qatorda asarlarining sodda va tushunarli tilda yozilganligi, asarlarida xalq og'zaki ijodi namunalaridan o'rinli foydalanish san'ati, epigraf tanlash mahorati yuksakligi bilan boshqa asarlardan ajralib turadi. Adib nafaqat ijodda, balki hayotda ham teran fikrli, g'oyat tartibli va talabchan inson edi. Adibning muxlislariga ijodi yaxshi tanish deb hisoblagan holda, asosan, hayot yo'liga bir nazar tashlamoqchimiz.

1907-yil kuzda, chorshanba kuni?17-sentabrda Qo'qonning Ko'mir bozori mahallasida, usta Abduqahhor va Rohatoy xonadonida o'g'il farzand tug'ilishi yetti nafar farzand dog'ini ko'rgan xonadon uchun yana qayta quvoch nafasini olib keldi.

Oila qishloqma-qishloq darbadar hayot kechirar edi. Shuning uchun yosh Abdullaning tayinli do'sti yo'q edi. Abdulla Qahhor "O'tmishdan ertaklar"ga yozgan muqaddimasida shunday deydi: "Mening bolalik yillarim Farg'ona vodiysining Yaypan, Nursuq, Qudash, Buvayda, Tolliq, Olqor, Yulg'unzor, Oqqo'rg'on degan qishloqlarida o'tgan". Yosh Abdullaga uyda "indamas", "ichimdan top" deb dashnom berishar edi. Bir kuni usta Abduqahhorning Nursuqdan kelgan oshnasi "Usta Abduqahhorning zap o'g'li bor ekan-u, soqov ekan" deb ta'riflashi onasining kuyib-pishishiga sabab bo'ladi. Bunday voqealar yosh Abdullani battar "soqov" qilar edi. Bolalikda boshdan kechirgan voqealar, ayniqsa, dilga ozor beradigan hodisalar xarakterda, fe'l-atvorda biron iz qoldirishi shubhasiz, albatta. Har qanday inson xarakteri bolalikdan shakllanadi. Bolalikda orttirgan sifatlar ko'pincha umr davomida saqlanib qoladi. Abdulla Qahhor balog'atga yetgan davrda "indamas" bo'lgan emas, albatta. Lekin u kamgap odam edi. Davralarda sira gapdonlik qilmas, ahyon-ahyonda bitta-yarimta gap bilan suhbatga aralashib qo'yar edi. Taniqli adabiyotshunos Umarali Normatov xotiralarida Abdulla Qahhorni birinchi marta urush yillarida o'z qishlog'ida ko'rganini eslaydi. O'shanda adib Rafqonga Ahmadjon Shukurovga hamroh bo'lib borgan ekan. A.Shukurov sharafiga tongotar bazm bo'libdi. Ertasiga kolxoz raisi (Umaralining otasi) taajjub bilan yoqa ushlab, shunday degan ekan: "Tavba, yozuvchi shunaqa bo'lar ekan-da! Ertalabgacha bir og'iz lom-mim deb og'iz ochmasa-ya!"

1945-yil Abdulla Qahhor uchun shaxsiy hayotida baxt keltirdi? 12-aprel kuni Kibriyoxonim bilan nikohdan o'tdi. Undan avval esa yozuvchi 1929-yilning kuzida birinchi turmush o'rtog'i Zaynabxon Nadjabovaga uylanadi. Abdulla Qahhor o'zining Zaynabxon bilan munosabatini "Sarob" romanida Saidiy va Soraxon timsolida chiroyli tarzda eks ettiradi, ya'ni yoshlikda ko'p narsalar muhabbatdek ko'rinishi va kishini chalg'itishi mumkin, degan ma'noda fikr yuritiladi. Shunday qilib, oilaviy kelishmovchiliklar sababli 1941-yil ular ajralishdilar. Abdulla Qahhor bilan Zaynabxon o'n ikki yil turmushlari mobaynida ikki o'g'il farzand ko'rdilar. Katta o'g'li Po'lat 1932-yil, kichigi Suyar esa 1937-ylida dunyoga keldi.

Kibriyoxonim Qahhorova bolalar haqida shunday xotirlaydi: "Abdulla Qahhor nihoyatda sergak, o'ta hushyor odam edilar. Hech qachon bolalar kelsa: "Mana buni olinglar!"? deb cho'ntaklaridan pul chiqarib bermas edilar. Bunaqa ishlar men orqali bo'lar edi. Agar mendan yashirincha qilsalar bolalar "ha, dadam pulni xotinidan berkitib berdimi, demak, xotini bizni yoqtirmas ekan", degan fikr tug'ilar va bu tuyg'u bora-bora adovatga aylanar edi. Shuning uchun qanaqa yordam kerak bo'lmasin bolalar menga murojat qilishar, men esa istaklarini ikki hissa ortig'i bilan bajarishga harakat qilardim".

Katta o'g'illari Po'lat texnika fanlari nomzodi bo'ldi va Toshkent politexnika institutida dars berardi, ammo 37 yoshida infarkt bo'lib olamdan o'tdi. Kichik o'g'illari Suyar Toshkent viloyati ichki ishlar bo'limida ishlar edi. U ham 33 yoshida baxtsiz tasodif tufayli vafot etdi.

Shunday qilib, 1945-yil 12- aprel kuni Abdulla Qahhor va Kibriyoxonim Qahhorova nikohdan o'tdilar. Ammo guvohnoma yozilayotgan vaqtda ilk uchrashgan vaqtlarini, ya'ni " O'sha, ko'zingizga ko'zim tushgan kun? 1944-yilning iyun oyi",? deb yozdirdilar.

Abdulla Qahhor o'ta nozikta'b, madaniyatli odam edi. "Oilada o'ta talabchan, o'ta qattiqqo'l edilar. Hamma

narsa o'z joyida turishini yaxshi ko'rar edilar. Bir hafta ichida qilinadigan ishlarning rejasini tuzib, o'qiladigan kitoblarning ro'yxatini yozib qo'yar edilar. O'sha kuni qilinishi lozim bo'lgan ishni bajarib bo'lgach, erinmasdan o'chrardilar",? deya esga oladi Kibriyoxonim.

Yozuvchi ikkita kundalik tutar edi. Biri umumiy daftar bo'lib, bunga ayrim so'zlar, iboralar, tasvirlar tashbehlar, faktlar, turli-tuman voqea-hodisalar, adabiyot haqida o'ylar yozilar edi. Yangi asar boshlaganda shundan foydalanar edi. Ikkinchi yondaftar ayrim asarlarga doir bo'lib, bunga faqat shu asarga tegishli nima eslariga kelsa, shu narsani yozib qo'yar edi. Bu daftarni yozilajak asarning qoralamasi desa ham bo'lar edi.

1967-yil kuzda adibning qand kasali xuruj qilib, salomatligi yomonlashadi. 1968-yil aprel oyida esa Moskva kasalxonasiga olib borishadi. Ammo har qancha urinishlarga qaramay 1968-yil 25-may kuni tonggi o'nlarda o'zbek adabiyotining zabardast vakili olamdan o'tadi.

24-may kuni ertalab kasalxonaga ko'rgani kelgan qadrdon do'stlari Konstantin Simonov bu uchrashuv haqida keyinroq shunday deb yozadi: " ...Qahhor umuman jasoratli, mard kishi edi. Qahhor shaxsiyatining mana shu xislati bilan bog'liqdir. Qahhor o'layotgan bo'lsa ham, to joni bor ekan, o'zini ona yerning farzandidek sezardi. Qahhor haqiqiy inson edi, o'zidan keyin u adabiyotda umrboqiy asarlar qoldirdi".

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O. Sharafiddinov, "Abdulla Qahhor" Toshkent-1988 y
2. K.Qahhorova, "Chorak asr hamnafas" Toshkent-1987 y

O'QUVCHILARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Raxmonova Sevaraxon Solijonovna,
Namangan viloyati, Norin tumani,
12-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
tel:902187457

Annotatsiya
Maqolada o'quvchi-yoshlarni turli yot g'oyalar ta'siridan himoya qilishda badiiy, ilmiy adabiyotlarning o'rni hamda ularda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish yo'llari, usullari atroflicha bayon etilgan.
Kalit so'zlar: kitobxonlik, o'quvchi, zamonaviy, madaniyat, ta'lim, yosh, avlod

Mamlakatimizda istiqlolning ilk yillaridanoq ta'lim tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, yoshlarning jismoniy va ma'naviy yetuk insonlar bo'lishini ta'minlash, qobiliyat hamda iqtidorini yuzaga chiqarish, ona-yurtga sadoqat va fidoyilik ruhida tarbiyalash borasida beqiyos sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim-tarbiya sifatini oshirishda bosh omillardan biri yosh avlod ongida kitobga bo'lgan hurmat ilm-fanga ayniqsa, badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqish va o'qishni kuchaytirish ham ahamiyatlidir. O'zbekiston Respublikasi Preziden- tining "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risidagi" 2017 yil 13- sentyabrdagi qarori ayni shu sohada, millat ma'naviyatini tarbiyalash uchun o'z vaqtida tashlangan qadam bo'ldi. Kitobxonlik madaniyati-shaxsning o'z kuch-quvvati, imkoniyatlari, qiziqishlarini kitob o'qishga safarbar qilishining muayyan darajasidir. O'quvchilarda o'z o'quv faoliyatlari davomida kitob o'qish, uni tahlil qilish va mazkur asar haqidagi o'z fikrlarini bayon etish kabi ko'nikmalar shakllanadi. Kitobxonlik madaniyati mazkur sohada o'quvchining yetukligini ham ifodalaydi. Darhaqiqat, badiiy adabiyot hayot maktabidir. Xalqimiz avvalo, yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy, badiiy estetik talablariga javob beradigan kitoblarning kitob javonlarida bo'lishi, ularni o'qib tahlil qila olishi ayniqsa, elektron kitob o'qish ko'nikmalarini shakllantirish bugunning dolzarb masalalaridan bo'lib kelmoqda. Shu asnoda milliy badiiy asarlarimiz bilan birga jahon adabiyotining eng sara asarlarini qiyoslab o'qish o'quvchida keng fikrlilik, jahon madaniyatidan, xalqlarning yashash tarzidan xabardorlik, jannatmakon O'zbekistonda tug'ilganlikdan shukronalik tuyg'usini hadya etadi. Kitob insonning ezgulikka yo'llovchi do'sti, ma'naviy kamoloti yo'lidagi ko'makchisi, xalqimiz azal-azaldan ijod ahliga o'zgacha mehr va hurmat ko'rsatadi, kitobga muhabbat, uni e'zozlash, mutolaaga bo'lgan ishtiyoq yurtdoshlarimizning qon- qoniga singib ketgan.

Men kitobni eng yaqin do'stim, sirdoshim, maslahatchim va ma'naviy ustozim deb bilaman. Darhaqiqat, o'quvchi yoshlarning tafakkurini kengaytirish, mustaqil fikrlash, ezgu ishlar sari undash, yuksak insoniylik fazilatlarini shakllan- tirishda kitobning o'rni beqiyos. Nafosat va ezgulikka yo'g'rilgan asarlarni o'qish inson qalbini go'zallashtiradi. Yosh avlodda mutolaa madaniyatini yanada yuksaltirish, turli yot oqimlar ta'siridan asrashda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Maktablarimizda "Navoiyxonlik", "Boburxonlik" ma'rifat tadbirlarini hamkorlikda tashkil etish orqali yoshlarda kitobga mehr uyg'otish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini yanada oshirish yo'lidagi targ'ibot ishlarini kuchaytiramiz. V.G.Belinskiy o'zining "Bolalar kitoblari haqida" maqolasida shunday deb yozgan edi: "Tarbiya-buyuk ish, u orqali inson taqdiri hal qilinadi... Aynan bolalar uchun yoziladigan kitoblar tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi lozim". Muallif bolalarning ma'naviy, madaniy, badiiy-estetik sifatlari, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, ularni vatanparvar, insonparvar qilib tarbiyalash, mehnat, hayotga tayyorlashda kitob va kitobxonlikning ahamiyati kattaligini alohida ta'kidlab o'tgan edi. V.G.Belinskiy bolalar kitoblarining mazmun-mohiyatiga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqqan. U kitoblarda bolalarning hissiyoti va tasavvurlarini rivojlantirishga qaratilgan matn, ertak va hikoyalar berilishi kerakligini doimo uqtirib kelgan. Bolalar uchun yozilgan kitoblar ularga quvonch, hayrat, qiziqish, his-hayajon bao'ishlashi, ularda qiziquvchanlik xislatlarini uyo'otishi lozim. Bolalar e'tiborini tortadigan, qiziqishlarini orttiradigan, hayratga soladigan rasmli kitoblarni astoydil, qiziqish bilan o'qiydilar. Shuning uchun kitob nashr qilishda ko'proq bolalarning dunyoqarashlari, qiziqishlari, bugungi orzu-istaklarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Maktablarda kutubxonalar bilan hamkorlikda "Kitob-ko'ngil oynasi", "Kitob-qalblarga nur bag'ishlaydi" kabi mavzularda suhbatlar, yozma ijodiy savol-javob kechalari o'tkazish o'quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. O'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda kitoblar muhokamalari ham alohida o'rin tutadi. Kitoblar muhokamasini V-IX hamda X-XI sinf o'quvchilari bilan o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Kitoblar muhokamasi ko'pincha badiiy asarlar to'g'risidagi erkin munozara hisoblanadi. Bu tadbirlarning ijobiy tomoni shundaki, qiziqarli muhokama o'quvchining

mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Kitobga nisbatan intilishni kuchaytirib, o'quvchilarning kuzatuvchanligini oshiradi, badiiy estetik didini boyitadi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda ta'lim-tarbiyaga bo'lgan talablarning oshib borishi, yoshlarning har tomonlama chuqur bilimlarga ega bo'lishga intilishlari ularni adabiyot va axborotga bo'lgan talablari ko'lamini kengaytirishi tabiiydir. Bunday holat maktab o'qituvchilarini ham uzluksiz ravishda o'z bilimlarini yangilab, yangi adabiyot va axborotga bo'lgan ehtiyojlarini oshirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Safo Matjonov. Kitob o'qishni bilasizmi? T.: O'qituvchi, 1993.
2. O'quvchilarni axloqiy tarbiyalashda maktab kutubxonasi ishini takomillashtirishning forma va metodlari: Metod.tavsiyalar /Tuzuvchilar: M.A.Inoo'omova, O.Musurmonova.- Toshkent, 1982
3. Qoldibekova A., Xo'jaev B. Bolalarni kitob o'qishga qiziqtirish. Maktublar, maktublar, maktublar. // Til va adabiyot ta'limi. 2004. 5-son.

TA'LIM JARAYONIDA KREATIV FIKRLOVCHI YOSH AVLODNI TARBIYALASH

Ro'ziyeva Gulbahor,
Navoiy viloyat Qiziltepa tuman 5-maktab
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Usnbu maqola bugungi yangi kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan Davlat ta'lim standarti va ta'lim tizimida o'qituvchilar oldida turgan muhim mas'uliyat va vazifalar haqida yozilgan. Muallim har bir o'tilayotgan darsga ijodiy yondashishi, mashg'ulotlarni ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkiletishi, darsning har bir daqiqasidan unumli foydalanishi, dars jarayonida tayanch va fanga oid kompetensiyalarni singdirib borishi zarurligi tog'risida fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: intellektual, pedagogik texnologiya, Davlat ta'lim standarti,

Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamoqda, albatta bu ulug' maqsadni ro'yobga chiqarish ta'limi tizimida faoliyat ko'rsatayotgan barcha o'qituvchilarning o'z ishiga ijodiy yondashish, har bir ishda yuksak samaradorlikka erishish, zamonaviy pedagogik usullarni qo'llab darslarni samarali tashkil etishni talab qiladi.

O'quvchiga puxta bilim berish, har bir dars mazmunini boyitish, samarali pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga singdirishni talab qiladi. Ruhshunoslarning aniqlashicha, o'qituvchining oddiy tushuntirishi orqali egallab olgan ma'lumotlarga qaraganda turli xil ruhiy kechinmalar orqali o'zlari mulohaza yuritib, mustaqil bajargan ishlari vositasida o'zlashtirilgan bilimlarini uzoq esda saqlab qoladilar. Chunki o'quvchi mustaqil mashqlarni bajarishda faoliyat ko'rsatib, ilgari olgan bilimlariga tayangan holda ko'plab o'quv materiallarini hayolidan o'tkazadi va mulohaza yuritib mustaqil hukm chiqaradi. O'qituvchilarning tayyor holda bergan ma'lumotida esa o'quvchi fikrlash faoliyati to'la ishga kirishmasdan to'g'ri javobni o'zlashtirib oladi. O'xshash hodisalarga duch kelishi bilan o'qituvchi bergan bilimni amaliyotga taqbiq qilishda qiynalib qoladi. Shuning uchun har bir darsda qo'llanislgan pedagogik texnologiyalar va usullar o'quvchining mustaqil faolligini oshirishga yo'nlatirilgan bo'lishlari muhimdir.

Bugungi yangi kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan Davlat ta'lim standarti va ta'lim tizimi biz o'qituvchilar oldiga o'ta mas'uliyatli vazifalar yuklamoqda. Muallim har bir o'tilayotgan darsga ijodiy yondashishi, mashg'ulotlarni ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida qurishi, darsning har bir daqiqasidan unumli foydalanishi, dars jarayonida tayanch va fanga oid kompetensiyalarni singdirib borishi zarur. Mashg'ulotlarni shunday tashkil etish kerakki, o'quvchi har bir dars davomida egallashi lozim bo'lgan bilimlar hajmini, o'zida hosil qiladigan ko'nikma va malakalarni oldindan belgilab olishi lozim. Bu o'z navbatida o'quvchining mashg'ulotlarga aniq maqsad bilan qatnashishini taqozo qiladi. Chunki o'quvchi darsning oxirida belgilangan maqsadga erishganligini bilish imkoniyatiga ega bo'lishi zarur.

Pedagogik texnologiyalar asosida darslarning tashkil etilishgi o'quvchilarni o'zi bajarayotgan mashg'ulotga nisbatan ongli munosabatda bo'lishga o'rgatadi. Shu davrda u atrof-muhit, jamiyat va kishilar mehnati, maktab-maorif, ijtimoiy-siyosiy munosabatlar haqidagi bilimlarni puxta egallaydi.

Zero, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti muhtaram Islom Karimov ta'kidlaganlaridek: "Farzandlarimizni mustaqil va keng fikrllash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish ta'lim-tarbiya sohasining eng asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim". Deb aytganlaridek, har bir fan yo'nalishi bo'yicha o'tiladigan mavzuni o'qituvchi mukammal tushuntirishga erishsa va yangi mavzu mazmunini chuqur anglasa, darsdan ko'zlangan maqsadga to'liq erishiladi.

Xullas, yurtimiz ta'lim tizimini takomillashtirish maqsadida qabul qilingan yangi davlat ta'lim standarti o'quvchilarning mustahkam bilim olishlari, olgan bilimlarini kundalik faoliyatda qo'llay olishlarini ta'minlaydi.

Muhtaram Birinchi Prezidentimiz: "Dunyo imoratlari ichida eng ulugi bo'lmish maktab va unda kasblar ichida eng mashaqqatli va sharaflisi bo'lmish o'qituvchilik sohasi bilan shug'ullanadigan mehribon jonkuyar ustozlarimiz voyaga yetkazadi", - deb aytganlarida naqadar haq edilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. -T.: ?Ma'naviyat, 2008.
2. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari. Nashrga tayyorlovchi: Rahmatullayev Sh. -Toshkent:

O'qituvchi, 2015.
3. Rahmonov N. Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. - Toshkent, 2009.
4. To'xliyev B. va boshqalar. Til va adabiyot ta'limining zamonaviy texnologiyalari. - Toshkent, 2011.

MAKTABDA QO'SHMA GAP VA UNING TURLARINI O'RGANISH

Ro'ziyeva Zarina,
Navoiy viloyat Navbahor tuman 6-maktab
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola ona tili darslarida qo'shma gap sintaksisini o'rganish o'quvchilarning nutqiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan bir qatorda, fikrni nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini, madaniy nutq malakalarini shakllantirishi va rivojlantirishi haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: grammatik shakl, qo'llanma, nisbiy so'z, bog'lovchi, yuklama, ko'makchi.

Qo'shma gap sintaksisini o'rganish o'quvchilarning nutqiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatish bilan bir qatorda, fikrni nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini, madaniy nutq malakalarini shakllantiradi va rivojlantiradi. Darsliklarimizda qo'shma gaplar talqini anchayin murakkab. U ikki va undan ortiq sodda gapning mazmun, grammatik shakl va ohang asosida birikuvidan tuziladi. Uning tarkibidagi sodda gaplar bir-biri bilan bog'lovchilar, yuklamalar, ko'makchilar, nisbiy so'zlar fe'l shakllari va ohang orqali bog'lanadi.

Ona tili o'qitish metodikasida qo'shma gaplarni o'rganish yuzasidan an'anaviy darslikdagi mashqlar, savol va topshiriqlar 1950-yillarda shakllantirilgan va hozirgi kunga qadar amalda qo'llanilayotgan dastur va darsliklar talablari doirasida qolib ketgan edi. Mazkur o'quv qo'llanmada o'zbek tilshunosligining so'nggi yillarda qo'lga kiritgan yutuqlariga tayangan holda qo'shma gaplarni:

1. Faqat ohang vositasida bog'langan qo'shma gaplar.
2. Yuklama vositasida bog'langan qo'shma gaplar.
3. Teng bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplar.
4. Ergashtiruvchi bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplar.
5. Nisbiy so'zlar vositasida bog'langan qo'shma gaplar kabi yangi tasniflarga asoslanib o'rganish tavsiya etilmoqda.

Bog'lovchisiz qo'shma gaplar: Faqat ohang vositasida bog'langan qo'shma gaplar qo'shma gapning bog'lovchisiz yoki grammatik vositalarsiz tarkib topishidir. Masalan: Qorlar eridi, havo yurishib ketdi. Yaxshi o'g'il edirar, yomon o'g'il pand berar (maqol). Barvaqt qilingan harakat, hosilga berar barakat. (maqol). Yuklama vositasida bog'langan qo'shma gaplar. Ushbu mavzuni o'rganishda, "Yuklama" mavzusi yuzasidan egallangan BKMlar qisqa takrorlanadi. Buning uchun:

1. Biz Vatanimizni sevamiz. Uning tarixini yaxshi bilmog'imiz lozim.
2. Qo'ng'iroq chalindi. Mashg'ulotlar boshlandi.
3. Soy yoqalab biroz yurdik. Yo'l o'ngga burildi, gap juftlari beriladi. Mustaqil ish sifatida berilgan sodda gaplardan -mi, -da, -u(-yu), -ku kabi yuklamalar vositasida qo'shma gaplar tuzish vazifasi topshiriladi:

1. Biz Vatanimizni sevamiz-mi, uning tarixini ham bilmog'imiz kerak.
2. Qo'ng'iroq chalindi-yu mashg'ulotlar boshlandi.
3. Soy yoqalab biroz yurdik-da, yo'l bo'ylab o'ngga burildik.

Mavzuni o'rganishda o'quvchilarga badiiy matnlardan teng bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplarni topish, izohlash, teng bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplar tuzish, ularni ma'nodoshi bilan almashtirish, teng bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplar yordamida matn tuzish singari ijodiy-amaliy topshiriqlarni bajarish havola qilinadi: Namuna. Donolarning aytishicha, uch guruh kishilar bilan do'stlik yo'lini tutish maqsadga muvofiqdir. Birinchisi - ilm ahli bo'lib, ular o'z hayotlarini ilmu odob bilan o'tkazgan va hayotning barcha achchiq-chuchugini totgan bo'ladilar. Ikkinchisi-baxtiyor tabiatli, saodatmand kishilar bo'lib, ular o'z do'stlarining ayblarini odamlardan yashiradilar va hech qachon oshkor qilmaydilar. Xilvatda do'stdan sodir bo'lgan xatolarni yuzlariga aytib beradilar va ulardan hech bir nasihatlarini ayamaydilar. Uchinchisi - beg'araz va beta'ma kishilar bo'lib, ularning do'stliklari haqqy bo'ladi, biror foyda topish evaziga qurilmagan bo'ladi. Xursandchilikda birga bo'lgandek, qayg'u-kulfat chog'larida ham hamisha yoningda bo'ladi. Ularga doimo suyanish, orqa qilish mumkin. (Abdulbarakot Qodiriy)

Ergashtiruvchi bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma otlar.Mavzuni o'zlashtirish jarayonida o'quvchilar e'tiboriga sodda gap juftlari beriladi. Ulardan ergashtiruvchi bog'lovchilar vositasida qo'shma gaplar tuzish so'raladi: 1. Bahor keldi. Qushlar issiq o'lkalardan qaytib kela boshladi. 2. Gulchehra chet tillarini o'rganishni yaxshi ko'radi. U rus va ingliz tillarida yaxshi gapiradi. Namuna: Bahor keldi, shuning uchun qushlar issiq

o'lkalardan qaytib kela boshladilar. Mavzuni o'rganishda bog'lovchi vositalarni ma'nodoshi bilan almashtirish, ergashtiruvchi bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplardagi ma'noviy munosabatni aniqlash, ulardan o'rinli foydalanish kabi ijodiy-amaliy topshiriqlar beriladi.

Nisbiy so'zlar vositasida bog'langan qo'shma gaplar. Mavzusini o'rganishda ham o'qituvchi tomonidan tanlab berilgan yoki o'quvchilar tomonidan tuzilgan sodda yig'iq va sodda yoyiq gap juftlaridan nisbiy so'zlar vositasida bog'langan qo'shma gaplar tuziladi.

1. Mashinalar qatnovi yaxshilandi. Ko'chalar kengaytirildi. Mashinalar qatnovi yaxshilansin deb, ko'chalar kengaytirildi.
2. Qayerda intizom yaxshi bo'lsa, u yerda obodonchilik ham bo'ladi.
3. Kim ko'p mehnat qilsa, u hurmatga sazovor bo'ladi.

O'quvchilar gaplarni tahlil qilish orqali nisbiy so'zlar (qaysi, shu, kim, o'sha, qaerda, shu erda, deb kabi) bog'langan qo'shma gaplarni hosil qilishda muhim rol o'ynashini bilib oladilar. Bunda nisbiy so'zlar fikrni, mazmun va maqsadni aniq ifodalash imkonini berayotganini anglab etadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I. Yuksak manaviyat-yengilmas kuch.T.,Manaviyat. 2009.
2. Madayev O., va boshqalar. Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant.
- T.: Turon zamin ziyo, 2017.
3. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab...// O'zbek tili va adabiyoti, 2012. - 5-son, 3-16-betlar.
4. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. -T., O'qituvchi, 1995.

CHET TILI PREDMETINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA TA'LIM SHAROITI TUSHUNCHASINING TAVSIFI

Ruzmatova Dilnoza Maxmudova
Pitnak shahar 1-son IDUM Ingliz tili fani o'qituvchisi
Jumaniyozova Gulnoza Davronboy qizi
Pitnak shahar 1-son IDUM Rus tili fani o'qituvchisi
ruzmetova.d@mail.ru +998938642889

Annotatsiya: Ushbu maqola maktab ta'lim tizimida chet tili (ingliz va rus tili) fanini o'qitishning pedagogik-psixologik xususiyatlari, chet tilini o'rganayotgan o'quvchilar uchun zarur sharoitlar va o'zbek, rus, ingliz tillarini o'rganish qoidalarining farqli jihatlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: chet tili, muloqot, sharoit, ta'lim, Qayerda?, Kimlarga?, Qancha vaqt?, intensiv, ekstensiv, amaliy.

Ta'lim tizimidagi boshqa fanlardan chet tilining farqi bir paytning o'zida, uning, ham ta'lim maqsadi, ham ta'lim vositasi ekanligida namoyon bo'ladi. Chet tilida nutqiy malakalar (tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozuv)ni egallash ta'limdan ko'zlanadigan maqsad bo'lishi bilan birga, o'rganilayotgan til yangi va foydali axborot (informatsiya) olish, yetkazish vositasi maqomini ham oladi.

Chet tili o'quv predmetining xususiyatlarini yoritishda unga turlicha yondashishlar mavjud. Ona tili va chet tilida muloqot uchun nutqiy muhit keskin farq qiladi.

1.Darsdan tashqari paytlarda o'quvchilarda chet tilida muloqot qilish uchun muhit deyarli mavjud emas. Ona tili uchun doimo tabiiy muhit mavjuddir.

2. Ona tili insonning kundalik faoliyatiga singib ketadi, chet tili uchun esa bunday imkoniyat mavjud emas. Chet tili darslarida o'quvchilarga muloqotni o'rgatish maqsadida sun'iy nutqiy vaziyatlarni vujudga keltirish zarur.

3. Inson bolasi tevarak-atrofni ona tili yordamida idrok etib tushunadi va kishilar bilan muloqotga kiradi. Chet tilini o'rgatishda ahvol umuman boshqacha bo'ladi. Tilning talaffuz, grammatik va leksik tomonlari o'rganiladi, chet tilida fikr bayon etish va idrok etib tushunish amaliy maqsad maqomini oladi.

Maktab sharoitida ona tili, rus tili va ingliz tili amaliy (kommunikativ), ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ahamiyatga ega bo'lsa-da, ushbu funksiyalarni bajarish me'yori (miqdor va sifat ko'rsatkichlari) har bir tilda turlichadir. Masalan, "Ona tili"ni o'rganish chog'ida amaliy, umumta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar bir xilda amalga oshadi. Chet tilida esa muloqot, amaliy qo'llanish yetakchi funksiyani bajaradi, umumta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar unga bog'liq holda amalga oshiriladi. Ona tilini o'quvchi amaliy tarzda egallaydi. Rus tili esa bizning sharoitda, amaliy malakalar avval qisman hosil qilingan, nazariy bilimlar ona tilidagidan kamroq hajmda bayon etilgan bo'ladi. Ingliz tili o'rganishda esa qoidalar amaliy ko'nikma va malakalarni egallashni tezlashtirish va yengillashtirish maqsadlariga bo'ysundiriladi, o'quv jarayonida nutqiy amaliyot (kommunikatsiya) birlamchi vazifaga aylanadi.

Maktabda o'zbek, rus va ingliz tillarini o'qitishga qo'yiladigan dasturiy talablardan biri mazkur o'quv fanlari orasidagi aloqadorlikni ta'minlashga imkoniyat yaratishdir. Ta'limda o'quv fanlarining imkoniyatlarini birlashtirish ko'zlangan maqsadga erishishning asosiy yo'li sanaladi. Ingliz tili o'rganishda esa qoidalar, amaliy ko'nikma va malakalarni egallashni tezlashtirish (intensifikatsiya) va yengillashtirish (optimizatsiya) maqsadlariga bo'ysundiriladi, o'quv jarayonida nutqiy amaliyot (kommunikatsiya) birlamchi vazifaga aylanadi.

Maktablarda chet tilini o'qitishning samaradorligini oshirish uchun albatta u yerda yaratilgan sharoit ham muhim xisoblanadi. Sharoit tushunchasi qamroviga o'quv muassasasi turi (maktab), o'quvchining psixologik (yosh) xususiyati, til tajribasi, o'quv predmetiga ajratiladigan vaqt (dars soatlari) kiradi. Ta'lim sharoitining birinchi tarkibiy qismi - o'quvchilarning yosh xususiyatlari va umumiy saviyasi tushunchasidir. Ta'lim sharoitining ikkinchi tarkibiy qismi - "til tajribasi" tushunchasidir. Ta'lim sharoitining navbatdagi tarkibiy qismi - chet tiliga ajratilgan "vaqt" (soatlar) tushunchasini o'z ichiga oladi. Boshqacha aytganda, "Qayerda?" savoliga a)chet tili nutqiy muhiti bor yoki yo'q yerda o'rgatish (O'zbekiston Respublikasida chet tili sun'iy muhitda o'rgatiladi); b) umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida o'qitish tadqiqot ob'ekti sifatida tanlanadi. Kimlarga? deganda a) 7-10 yoshgacha bo'lgan kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga chet til o'rgatish; b) umumta'lim maktablarida uch til o'zbek (ona) tili, rus tili va chet til (ingliz yoki boshqa til) o'qitiladi. Bu o'rinda o'quvchilarning uch tildan to'plagan til tajribalari e'tiborga olinadi. "Qancha vaqt?" deganda: a) o'quv rejasidagi haftalik va yillik mashg'ulotlar miqdori (I sinfda haftasiga 2 soatdan, o'quv yilida 66 soat,

II-IV sinflarda haftasiga 2 soatdan o'quv yilida 68 soat dars o'tiladi; b) intensiv (jadallashtirilgan qisqa muddatli) yoki ekstensiv (vaqt e'tibori bilan cho'zilgan) sharoitda ta'lim berish (umumta'lim maktablarida ekstensiv ta'lim joriy etilgan) kabi tushunchalar nazarda tutiladi.

Ta'lim sharoiti tushunchasi chet tili ta'limida samaradorlikni ta'minlashda tabiiy sharoit, o'rganilayotgan chet tili sohibi bilan kamida 1000 soat muloqotda bo'lish, o'qituvchining pedagogik mahorati, o'quvchining yoshga oid fiziologik, psixologik va bilish faolligi xususiyatlari, o'quv predmetiga ajratilgan vaqt hamda o'quvchilarning o'quv predmetiga nisbatan munosabati va o'rganish layoqati kabi omillarni o'z ichiga oladi

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Jamol Jalolov ,,Chet til o'qitish metodikasi".
2.Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun ingliz tili o'quv dasturi.
3. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun uchun darslik
4. www.teacherspayteachers.com
5. www.uzedu.uz

DEVELOPMENT OF SPEAKING SKILLS IN ENGLISH LESSONS

Sadikova Madina Djabirxanovna,
an English teacher of Namangan Specialized Art school
tel:934040047

Annotation

This article is about speaking skills which are the active use of language to express meaning, and for students, the spoken language is the medium through which a new language is encountered, understood, practiced, and learnt. Rather than oral skills being simply one aspect of learning language, the spoken form in the young learner's classroom acts as the prime source of language learning.

Key words: speaking, development, skills, English, students, communicate

Speaking is the most difficult of the four language skills. It's one thing to listen and understand and even read and write, but it's another thing to talk to a native speaker and not forget all the words in your excitement. But with the right approach (and due diligence), you can easily overcome this barrier. Many students find speaking a difficult process to express their feelings, thoughts, and emotions. They stop speaking because they encounter psychological obstacles or cannot find suitable words and expressions. The modern world of mass media and mass communication requires good conversational skills in English. The purpose of this article is to justify the need to focus on the factors that affect the learning of English in the classroom. The article reveals the content of the concept of speaking, its importance, problems and characteristics that affect the development of speaking skills in English lessons. The ability to communicate in English is a priority for foreign language learners. This article can be useful for teachers and students who want to increase conversational activity in the classroom. Here are some exercises that allow you to start communicating in a foreign language.

1."Guess What I Am " this exercise is useful for memorizing new words and training the skills of describing objects in a foreign language, as well as formulating questions. How to spend: write the words on the cards in advance. One student from the group takes out a card with a word and describes the subject, the other students try to guess by asking additional surveys.

2.A more complex version of this game "Guess What I Am" is "Taboo". The word written on the card is also explained and guessed, but the explainer cannot use the words specified in the card. For example, we explain the word "Computer" Taboo-the words "monitor, processor, keyboard, program, programmer", these words can not be used when explaining the word " Computer" 3.At the initial stages, it is effective to limit speaking sessions to time, for example, to talk about your weekend for 1 minute. Gradually increasing the duration of statements of students.

4.It is useful to start or finish training exercises (reading, grammar) with oral introductions or answers to questions that help improve your speaking skills. You can pre-read the text by discussing the topic and its relevance. Grammatical task-reasoning about the area of application of the studied constructions.

5.All interactive lessons or tasks perfectly remove the "language barrier" when you and your students apply the knowledge you have learned in practice, for example, and go to a cafe and communicate in English, while simultaneously studying the menu, also in English. The theme of "clothing" can be worked out by visiting the store or open event "Academy of corporate training "Fashion English".

No matter what aspect of knowledge you train in the lesson: a new rule on grammar, listening, reading, or writing - for each of the exercises, you can choose a companion task for speaking, which can open or complete the development of each aspect. Any teacher always tries to make the lesson as effective as possible, and what can be more useful for a student than successful communication? This should not be forgotten at any stage of the lesson and this is the success of teaching a foreign language. The main problem in learning a foreign language at school is that the child cannot speak the language being studied. This is due to the lack of language practice. Children simply have no one to talk to and develop this skill. This problem is acute in primary schools - where children are simply afraid to say anything in a foreign language. In addition, when classes are full (20 people), it is not possible to give everyone the opportunity to say something in the lesson.To make children talk in elementary school, you need to use all the creative potential of the teacher and the simplest technical devices-a laptop, a microphone (although you can record sound on a modern laptop without it) and a program for editing, for example, "film Studio". To interest children, you can use a ready-made cartoon with a set of phrases that you need to work with children. For

example, a cartoon or song that contains the phrase "My name is". When the hero utters this phrase using the tools of the "film Studio" separate it with one frame. Then turn off the sound in this frame. After the audio is recorded and saved, you can listen to it. If the child says something wrong, you can delete the sound and rewrite it again.

Thus, one exercise replaces three: listening, reading (subtitles) and speaking. What is the peculiarity of this work with the skill of speaking that if you take as a basis a cartoon, a training series or any other video, voiced by native speakers of a foreign language, then the phrase that the child should repeat in speed and time should "fit" in the frame that we have separated from the entire video. In other words, the child must repeat the English phrase at the same speed as a native speaker.

References:

1.Ambu, &Saidi,B. (1997).Issues in teachingEnglish speaking in foreign language classroom

2.Burns, A. (1998). "Teaching Speaking". Annual Review of Applied Linguistics,

2.Richards, C. J. & Farrell, T.S.C (2005). Professional Development for Language Teachers: Strategies for Teacher Learning. New York: Cambridge University Press

PROVERBS AND SAYINGS AS AN EFFECTIVE ELEMENT IN THE SYSTEM OF TEACHING A FOREIGN LANGUAGE

Saidakbarova Malika Boydedayevna,
an English teacher of Namangan region,
Uychi district, school № 39
malikasaidakbarova@gmail.com/tel: 91 3536656

Annotation
The article describes the significance of Proverbs and sayings as a working material for teaching a foreign language.
Key words: proverbs, effective, sayings, teaching, system, communication

Currently, the special role of the English language is recognized in the formation and development of the communicative competence of specialists, with an emphasis on the complex formation of communicative-informational, communicative-cognitive, communicative-social skills and personal qualities. According to the new state standards for a foreign language, the mandatory minimum content of basic educational programs , in addition to speech skills and language knowledge and skills, compensatory skills and educational and cognitive skills, includes socio-cultural knowledge and skills. Socio-cultural competence as a complex of knowledge about values, beliefs, behavioral patterns, customs, traditions, language, cultural achievements that are peculiar to a particular society and characterize it, is formed in the simultaneous process of teaching a foreign language and introducing the individual to the culture and folk traditions of the country of the language being studied. Rich material for the formation of socio-cultural competence is an integral element of culture-Proverbs and sayings. Proverbs and sayings have a great moral potential. Proverbs are the winged wisdom of the people. The use of Proverbs and sayings that most clearly characterize the national identity of the people, helps students to become more familiar with the culture of the country of the language being studied.

Effective exercises on the use of Proverbs when working with texts. In particular, you can use the following tasks:

Find Proverbs and sayings in the text, read the proverb in the title, and guess what the text might say, read (listen to) the text and summarize its idea by selecting one of the Proverbs after it, listen (read) the story and choose a proverb that will be the most appropriate ending to the story, Read the following text, find the proverb in it and explain it, Read given text once again and describe the main character with the help of proverb, define the idea of the text by a proverb or saying

I use Proverbs and sayings at the very beginning of the lesson, after the organizational moment, as a speech warm-up. For example, for the production and improvement of phonetics. Also, depending on the type of lesson, Proverbs and sayings can be a good help for setting goals and revealing the topic of the lesson. When studying, introducing and fixing grammatical and lexical material, you can use most of the Proverbs. From lesson to lesson, the stock of learned Proverbs and sayings grows, which students write down in a special dictionary. But so that in the future, students do not forget the learned Proverbs and sayings, you can offer children various tasks.

Here are just some examples of tasks that can be used effectively in team competitions: Task 1.Insert the appropriate missing word.

Choose the best variant from those given below to complete the proverb.

_____ _ begins at home.

a) Charity
b) Learning
c) Love

Kindness gives birth to _____.

a) wealth b) kindness c) happiness

Task 2. Guess Proverbs from illustrations or illustrate a proverb so that your classmates can guess what they are talking about.

Draw the pictures to let your group mates guess the proverbs ./Guess the proverbs using the pictures.

Watch + coins. (Time is money.)

An Apple tree and a few apples that fell to the ground. (Like father, like son. / Like teacher, like pupils.)

In conclusion, I would like to repeat that the use of Proverbs in the classroom helps to solve a

number of problems of learning a foreign language. There is a lot of practical material in Proverbs. Proverbs and sayings can be used in teaching monological and dialogical speech, they make speech lively and colorful, folk Proverbs and sayings have a favorable form for memorizing, they contain educational material. The results show that the use of Proverbs and sayings in foreign language classes is an effective method of maintaining interest in learning a foreign language, increasing the activity and performance of students, as they help to introduce an element of play and competition in the process of language acquisition.

References:

1.Guse, J. 2011. Communicative Activities for EAP. Cambridge: Cambridge University Press

2.Lau, K.J., Peter Tokofsky, & Stephen D. Winnick. 2004.What Goes Around Comes Around: The Circulation of Proverbs in Contemporary Life.Utah:Utah State University Press.

3.Harnish, Robert M. (2003). "Communicating with proverbs." In Wolfgang Mieder (Ed.), Cognition, Comprehension and Communication.

O'QUVCHILARDA MILLIY RUHNI TARBIYALASHDA MUTAFAKKIR IJODINI O'RGANISH

Saidova Xurshida,
Navoiy viloyat Qiziltepa tuman 41-maktab
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada Navoiy hikmatlariga murajaat qilingan bo'lib, yaratilganiga besh asrdan ko'proq bo'lgan bo'lsada, o'zining ahamiyatini yo'qotmagan, ma'nolar xazinasi atalmish bu bo'stondan o'quvchilarni baxramand etish g'oyasi o'rin olgan. Yoshlarini ma'naviy yetuk qilib tarbiyalashda bobomizning nodir asarlari, g'azal-u ruboiylari, hikmatlari o'z o'rniga ega ekanligi haqida ma'lumotlar yozilgan.

Kalit so'zlar: mutafakkir, g'azal, bayt, hilm, milliy ma'naviyat.

Biz Navoiyni yuksak tafakkur sohibi, keng va chuqur falsafiy mushohada yuritish salohiyatiga ega bo'lgan shaxs deymiz. Sababi uning barcha asarlari takrorlanmas marvaridlardek mavjlanib besh yarim asrdirki turkiy xalqlarni, qolaversa butun dunyoni o'ziga maftun etib kelmoqda. Darhaqiqat, Navoiy asarlari, hayot qomusiga o'xshaydi. Biror-bir hayotiy masala, insonga xos qadriyat va tuyg'ular, fazilatlar va illatlar yo'qki, u qalamga olmagan bo'lsin. Ijtimoiy hayotning, mafkura va madaniyatning barcha sohalarini qamrab olganidan hayratga tushamiz.

Shoir insoniylik mohiyati uning ijtimoiy faoliyatda - jamiyatga foydali kasb bilan shug'ullanishi, xalqqa manfaati tegishi, odamlarning og'irini yengilqilishida deb biladi. Uning odamlar g'amini o'z g'ami deb bilmaydigan odamni odam qatoriga qo'shmasligi bejiz emas. Navoiyning

Odamiy ersang demagil odami,
Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami.

Shoirning o'zi ham xalqqa qancha ko'p foydang tegsa, o'zingga foydasi ko'proq , degan aqida bilan yashagan, ya'ni shoir yozganlaridek: "Nafing agar xalqqa beshakdurur, bilki bu naf' o'zingga ko'prakdurur". Yana bir baytlarida:

Kimki bir ko'ngli buzuqning xotirin jam ayalagay,
Oncha borkim, Ka'ba vayron bo'lsa, obod aylagay.

Baytning mag'zini chuqurroq anglaydigan bo'lsak, ko'ngli o'ksib noxush bo'lgan kishining qalbiga taskin berishlik, unga quvonch ulashishlik katta savob, ya'ni Ka'bani obod aylaganchalik Ollohning shafoatiga muyassar bo'lishligi bitilgan. Navoiy inson ko'nglini hamma narsadan, hatto Ka'badan ham ustun qo'yilishining sababi shundaki, tasavvuf ilmida Ollohdan keyin ko'ngil turadi. To'g'ri Ka'ba - Ollohning uyi, lekin u zohiriy, ramziy uy-uning haqiqiy uyi insonning ko'ngli. Ko'ngil haqidagi bu haqiqatni shoir o'zining "Hayrat ul-abror" dostonida shunday ta'riflaydi:

Ka'baki, olamning o'lub qiblasi,
Qadri yo'q andoqki, ko'ngil ka'basi.

"Mahbub ul qulub" (Ko'ngillarning sevgani) pandnoma asarida inson ko'ngliga yo'lni chiroyli muomala bilan, muloyim tabiatlilik bilan topish mumkinligini to'g'risida, "Hilm inson vujudining favoqilig' bog'idur, odamiylig' olamining javohirlig' tog'i. Hilmni havodis daryosida kishilik kemasining langari desa bo'lur va insoniyat mezoni toshig'a nisbat qilsa bo'lur. Axloq shaxsining og'ir baholig' libosidur va ul libos jinsining sangin debosi", deya nasihat qiladilar. Alisher Navoiyning ulugvorligi shundaki, unda zohiriy va botiniy ma'nolar, ilohiy va ishqi ma'joziy ifodalari bir-biriga xalaqit bermaydi, balki bir-birini to'ldirib, quvvatlab turadi. Har bir baytdagi yangi ma'nolarni o'qib ko'nglimiz yanada kuchliroq hayratlar tomon shoshib boraveradi.

Navoiy ijodida yetakchilik qilgan mavzulardan biri Sabr va Qanoat mavzulari hisoblanadi. Kishini hayot sinovlarida sabrli va qanoatli bo'lish, shukronalik hissi bilan yashashga undaydi. Sabr bilan ko'p mushkullar yechilishi, besabrlikdan esa inson xatoliklarga yo'l qo'yishi haqida shunday, ya'ni "Ishda oshuqmoq yosh o'g'lon ishidur, sabr bila qiluvchi tajribalig' ulug' yoshlig' kishi ishidur". Bu hikmat durdonasi bilan hazrat Navoiy bugunning dolzarb muammosi bo'lgan insonlardagi qanoatsizlik illatini qoralaydi, ya'ni moddiy boyliknini ma'naviy boylikdan ustun qo'yilishini va buning oqibatida inson o'zligini unutib va atrofga qarab ibrat, o'rnak olishga chorlaydi. Yoki "Kafshsizlikdin ma'lul bo'lmag'il, ayog'sizlarga boqib shukr qil" deydi ulug' mutafakkir.

Darhaqiqat, o'zbek adabiyotini Navoiysiz tasavvur qilish mumkin emas. U o'zbek xalqi ma'naviy dunyosining shakllanishida katta ta'sir ko'rsatgan ulug' zotlardan biridir. Maktabning barcha sinflarida o'rganiladigan bu ulug' siymoning zalvorli hayot yo'lidan tortib, eng kichik janrdagi asarlarigacha o'rganib, mag'zini chaqishga

arziydigan ma'naviyat,, kamolot mujassam.

Ham hayot yo'li, ham adabiy merosi bilan misli ko'rilmagan darajada xalqi madaniyatini yuksaltirgan, ma'naviyatini boyitgan, tili va adabiyotini dunyoga tan oldirgan Navoiy merosi yoshlar tarbiyasida bitmas-tuganmas ibrat chashmasi bo'lib xizmat qiladi. Biz adabiyot fani o'qituvchilari o'sib kelayotgan kelajagimiz vorislarini bu ulug' zotning boy ma'naviy merosidan qanchalik ko'p bahramand eta olsak, o'zligimizni, milliy ma'naviyatimiz yuksalishiga, jamiyatimizning yanada ravnaq topishiga o'z hissamizni qo'shgan bo'lamiz, albatta.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Alisher Navoiy. Devoni Foniy .Yigirma tomlik. 20- tom. Toshkent: "Fan", 2003. 566 bet.
2. Qayumov A. Alisher Navoiy. Toshkent: "Kamalak",1991. 173 bet.
3. Hayitmetov A. Navoiyxonlik suhbatlari. Toshkent: "O'qituvchi" 1993.
4. Hikmatlar xazinasi. Toshkent: 1997. 110 bet.

BADIIY ASARLARDAGI MILLIY RUHNI O'RGANISH

Saloydinova Nazokat,
Navoiy viloyat Karmana tumani 14- maktab
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada kitobxon o'quvchini tarbiyalashda badiiy asarlarning o'rni va ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, Tog'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" qissasi va unda obrazlarning ruhiy kechinmalari haqida tahliliy fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: kitob, ma'naviyat, badiiy adabiyot, ruhiy kamolot.

Kitob inson ma'naviyatini yuksaltiruvchi yagona manba hisoblanadi. Masalan, Tog'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" qissasi haqida so'z ketar ekan, dastlab ko'z oldimizga basavlat, nigohi o'tkir, so'zga chechan, el ichida o'ziga yarasha obro'-e'tiborli Bo'ri polvon gavdalanadi. Bo'ri polvon polvonlar tili bilan aytganda, yelkasi yer ko'rmagan, davraga tushganda raqibini bir oz hayiqtirib qo'yadigan, jangda faqat adolat tomonida bo'lib, g'irromlikdan hazar qiladigan inson. U ana shu halolligi, adolatparvarligi bilan xalq mehri, ishonchini oqladi. Uni davralardabakovul qildilar, qishloqqarais etib sayladilar.Bo'ri polvon bu ishonchni sadoqat bilan oqladi, adolatni o'ziga shior etdi. Lekin o'zi adolatsizlik, yolg'onchilik, bevafolik qurboni bo'ldi. Bu xiyonat unga o'zgadan kelganda edi, balki Bo'ri polvon bardoshi yetib kechirar edi. O'zgadan emas, beg'ubor bolalik, bebosh yoshlik, betinim o'smirlik davrlarini birga o'tkazganjonday aziz do'stidan keldi. Bo'ri qishlog'ining suluv qizi Momoqizga ko'ngil qo'ydi. Unga muhabbati chin edi. Yurak yutib izhorini ayta olmadi, ishqida yondi, kuydi. Axiri do'stidan ko'mak kutdi. Nasimni elchi qilib qiz yoniga jo'natdi. Qanchalar ishonch bilan jo'natgan bo'lsa, shunchalar umid bilan kutdi. Ammo… Nasimning bunchalar sovuq xabarni olib kelishini bilsa, yubormasmidi, kutmasmidi. Nasimning javobi shu bo'ldi: "Senga ko'ngli yo'q ekan, jo'ra. Ishonmaysanmi? Mana, qiblaga qarab aytaman: agar yolg'on aytsam, ko'r bo'layin!" Bo'ri polvon bu gaplarga hech shubhasiz ishondi, axir bu gapni Nasim ? do'sti aytyapti. U do'stiga o'ziga ishonganday ishondi. Ammo, keyin bu ishonch oynasi chil-chil sindi. Nasim ? do'sti uni aldadi, xiyonat qildi, u ko'ngil qo'ygan qizga ko'z tikdi.

Taniqli adabiyotshunos Salohiddin Mamajonov: "Yozuvchi xalq ma'naviyatidagi boqiy qadriyatlar, insondagi ulug' niyatlar, orzu-armonlariga, ezgulik va yaxshilikka bo'lgan buyuk e'tiqodini mehr-muhabbat bilan, ehtiros bilan himoya qiladi, ko'z-ko'zlaydi, tashviq etadi", ? deydi. Ana shunday yuksak vazifani sidqidildan bajo etgan yozuvchilarimizdan biri Tog'ay Muroddir. Bu adib xalqimizning milliy qadriyatlari, urf-odatlarini deyarli har bir asariga shu qadar mohirona olib kirganki, natijada asarda tasvirlangan voqea nihyat bilan tabiiy uyg'unlashgan. Shuning uchun ham ulug' adib, O'zbekiston qahramoni Said Ahmad Tog'ay Murod ijodiga: "Uning qissalari sof milliy o'zbek qissalari va Tog'ay Murod qissalarida tasvirlangan odamlarga boshqa xalq libosini kiydirsangiz ham o'zbekligi bilinib turadi. Ularning xulq-atvori ham boshqa xalqqa o'xshamaydi" ? deya baho beradi.

Do'stlik, unga sadoqat tuyg'ulari o'zbek xalqiga xos azaliy fazilatlardan sanaladi. Do'stlik haqida ne-ne buyuk zotlar yozmagan. Bo'ri polvon ham Nasim ham ana shu yozishmalardan ertagu, hikmatlardan eshitib ulg'ayishgan. Do'stlikning farzi sadoqatda, ishonchda deb o'rganishgan. Ota-bobolardan meros ilm edi bu. Bo'ri polvon hech kimga aytmadi, aytishni or bildi, do'stidan kelgan xiyonatni o'zgalar bilishni istamadi, u bilan orani ochiq qildi. Biron marotaba bo'lsin Nasimga ta'na qilmadi, Momaqizga bo'lgan muhabbati abadiy bo'ldi, lekin hech uning yoniga bormadi.

Agar Nasimning Momaqizga munosabatini Bo'ri polvon bilganda, u qanchalar qiyin bo'lmasin, muhabbatidan voz kechib, do'stiga baxt tilagan bo'lar edi. Afsus, Nasim bunday qila olmadi. Yuqorida Bo'ri polvonni adolatli inson dedik. Fikrimizning isbotini asarning so'nggi boblaridagi Tilovberdi va Abray polvonlarning kurashida ham ko'rishimiz mumkin. Tilovberdi?Bo'ri polvonning o'g'li Nasimning o'g'li ? Abrayni yiqitdi. Xalq polvonni olqishladi, lekin Bo'ri polvon xalqni tinchlantirib, g'irrom, dedi. Xalq hayratda qoldi, o'g'li xafa bo'ldi. U: "Nima, haromni halol deb imonimdan kechaymi? Polvon bo'lsang halol yiqit." Bu ishni qilish uchun qanchalar tantilik, mardlik, jasorat kerak. Bularning barchasi ? o'zbekning xos o'g'loni Bo'ri polvonda bor edi.

Afsuski, yuqoridagi fazilatlarni Nasim polvonga nisbatlay olmaymiz. O'zgalardan ko'ra o'z manfaatini ko'zlashlik, irodasizlik, qitmirlik unga xos. U Bo'ri polvonning Momaqizga muhabbatini ayta olmayotganidan foydalanib, qizga yolg'on gapirdi: Bo'ri polvonni qora qildi, qizda unga nafrat uyg'otdi va unga o'zi uylandi. Lekin favqulotda Nasimning ishlari yurishmadi, buni Bo'ri polvondan ko'rdi va qo'shni qishloqqa ko'chib ketdi. U faqat g'olib bo'lishni istadi. Lekin do'stiga qilgan xiyonatining, uning suyganiga aytgan yolg'onning

jabrini tortdi, Bo'ri polvonga bergan qasami urdi ? ko'zlari ko'r bo'lib qoldi. Shu onda Mirzo Bobur misrasi yodimga tushdi:

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir,
Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidir.
Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlig' hargiz,
Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidir

Asarning yana bir qahramoni - go'zal, sodda, mehnatkash Momaqiz. Yozuvchi u haqida asarda ko'p ma'lumot bermaydi. Lekin Bo'ri polvonning unga bo'lgan hissiyotlaridan o'quvchida qizga nisbatan iliq fikrlar uyg'onadi. U shunchalar sodda, qalbi toza-ki, o'zgalar uni aldashi mumkinligini xayoligaham keltirmaydi. Nasimning yolg'oniga osongina ishonadi. U shunchalar pokiza-ki, Nasimning iflos bo'htoni sabab yuragini zabt etgan yigit - Bo'ri polvondan shunchalar tez nafratlanadi.Alal-oqibat, hech qanday so'roq-savolsiz Bo'ri polvondan voz kechadi. Momaqiz - o'zbek qizlarining tipik vakili. U or-nomus, hayo-iboni hamma narsadan ustun qo'yadi. Nasim polvonni sevmasa-da, unga sadoqatli yor bo'ladi.

Asarda ko'plab polvonlar obrazlari ham juda ta'sirli tasvirlangan: Shukur polvon, Ermat polvon, Jonibek polvon, Abil polvon….Ularning barchasi tanti, oriyatli, bir so'zli o'zbekning asl o'g'lonlari. Haqiqatdan ham, yozuvchi asarlari qahramonlarida o'zbekona tantilik bag'rikenglik, ahdga vafodorlik, lafzi halollik, ajdodlari, avlodlari o'zining-da, sha'nini pok saqlash kabi fazilatlar yaqqol ko'rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

10. Tog'ay Murod. Yulduzlar mangu yonadi. T.: "Fan", 2002
11. Imomnazarov M., Eshmuhammedova M. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. T.: 2012-yil
12. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. T.: 1996.
13. Komilov N. Tasavvuf va badiiy ijod. "Yoshlik" jurnali

WAYS OF USEFUL OBSERVATION IN CLASSROOMS

Shahnoza Saitkulova-
Sirdarya Centre for Training and
Professional Development Public Education Staff,
Gulistan city English teacher,
mustafo2007@mail.ru

Abstract: The article discusses problems of observation on teaching foreign languages,there were given the ways for managing the learning/teaching process.

Key words: professional development, Peer-observation, group work, purposes of observations .

Why observation is important

Observation is commonly used in education as a tool to support understanding and development. It is one of two common ways of getting information which can help us make sense of educational situations, gauge the effectiveness of educational practices, and plan attempts for improvements. The other way is asking people. The shortcomings of one way can be offset somewhat by using the other, and they are therefore often used together.

Daily, practitioners use their ability to observe- to notice even very subtle clues to what might be happening inside learners' heads - as a tool in managing the learning/teaching process. Some also use it more consciously to manage their own development of this responsive expertise.

Types of observation

There are four main purposes for observation: for professional development; for training; for evaluation; and for research. The different purposes of observations will have an impact on who observes and how often, who the other participants (or observees) are, who learns or benefits from the information collected, the nature of the learning, the breadth of focus, where observations occur, and what happens before and after observations.

Observation for Development

This category includes observations where the main intended learner in the process makes (perhaps with support) their own decisions about how to use the observer and their observations. Post-observation discussions will centre on what the observee wishes the observer to notice (Williams 1989). This may be more or less specific depending on stages in development spirals. In post-observation meetings the discussion is led by the observee (Malderez 2002). The observer offers information only when invited. The main learner decides whether or not to publicise in any way the information or learning gained from the experience. The observer respects this right.

Observation for Training

This category includes observations where the focus of learning is on skilled practitioner behaviour. Typically, decisions about what should be learnt are made by people other than the trainees. Trainees may be the observers of experts at work, or be observed making attempts at skilled behaviours. Most often, observation for training is used in pre-service situations, although it may also feature in in-service development work, when identified as a need by the learner.

There will almost always be a pre-determined focus for observation and often a designed observation schedule.Post-observation discussions will be led by the trainer-as-expert and 'feedback' (as descriptions, interpretations or evaluations) given by the trainer and/or other observers.

Observation for Evaluation

This category groups observations where the main purpose is for the observer to make a judgement. Trainers may need to use observation for this purpose as part of a decision-making process about whether trainees can pass courses. People with managerial responsibilities may use it within staff appraisal systems and to guide strategic staff development planning. These 'managers' may be from within institutions or from an external cross-institutional Inspectorate . Project-related researchers may use observation for evaluation to assess impact and guide further planning. Typically observations for evaluation will be multi-focussed and use quite complex check-lists or schedules. In contrast to the previous categories, the main 'learner' here is the observer and the pay-masters to whom they report. Pre-observation meetings, if they occur, tend to focus on procedures and the schedule being used, and post-observation the results of the assessment are given either in face-to-face 'feedback' sessions or written reports.

Learn to analyse what is happening in classrooms

Teachers, unused to detailed analysis of what is happening in lessons, tend to see things in very broad terms. They will obviously recognize that a particular lesson has involved teacher exposition, question and answer, and pupil work in small groups, for example. They are, however, unlikely to appreciate that during the question and answer session the teacher used a variety of questioning techniques, or that different demands were made of different pupils as they began their group work. Focused observation requires student teachers to analyse what is happening - to make distinctions between open and closed questions, for example, or to record the different type of attention that pupils receive from the teacher (disciplinary, support, opportunity to perform, etc.). This kind of analysis can help equip them with new ways of thinking about teaching. By observing teachers in this way they can begin to understand the kind of fine distinctions that they will need to apply in analysing and refining their own teaching.

References:

1. Malderez, A. & C. Bodoczky 1999 Mentor Courses: A resource book for Trainer Trainers Cambridge: Cambridge University Press (Chapters 4 & 7, Development & Evaluation)

2.Mason, J.2002 Researching Your Own Practice: The Discipline of Noticing London: Routledge-Falmer (Development & Research)

3. Wajnryb, R. 1992 Classroom Observation Tasks: A resource book for Language Teachers and Trainers Cambridge: Cambridge University Press (Training and Development)

4. Wallace, M 1998 Action Research for Language Teachers Cambridge: Cambridge University Press (Chapter 6, Research & Development)

BOSHLANG`ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSI VA O`QITISHNING TURLI SHAKLLARI

Buxoro viloyat G`ijduvon tuman 4-maktab
boshlang`ich ta'lim o`qituvchisi Sharopova Zuxro(+998916460876)
NavDPI Maktabgacha va boshlang`ich ta'lim fakulteti talabasi
Muhammedova Saltanat(+998913314743)

Annotatsiya:Matematika boshlang`ich kursining boshqa o`ziga xos tomoni nazariy amaliy masalalarning birgalikda qaralishidir.shuning uchun har bir darsda yangi bilimlar berilishi bilan unga doir amaliy o`quv va malakalar singdiriladi.

Kalit so`zlar: Mustaqil uy ishlari, sinfdan tashqari mashg`ulotlar,Darslar tizimi

Maktabda matematika o`qitishni uyushtirishning tarixiy,murakkab,ko`p yillik tajribada tekshirilgan va hozirgi zamonning asosiy talablariga javob beradigan shakli darsdir.

O`quvchilarning matematik bilimlarini o`zlashtirishi faqat o`quv ishida to`g`ri metod tanlashgabog`liq bo`lmasdan,balki o`quv jarayonini tashkil qilish formasiga ham bog`liqdir. Dars deb dastur bo'yicha belgilangan, aniq jadval asosida, aniq vaqt mobaynida o'qituvchi rahbarligida o'quvchilarning o'zgarmas soni bilan tashkil etilgan o'quv ishiga aytiladi.

Matematika darsining o'ziga xos tomonlari, eng avvalo, bu o'qquv predmetining xususiyatlaridan kelib chiqadi. Bu xususiyatdan biri shundan iboratki, unda arifmetik material bilan bir vaqtda algebra va geometriya elementlari ham o'rganiladi. Matematika darslarining o'ziga xos yana bir tomoni shundaki, bu-o'quv materialining abstraktligidir. Shuning uchun ko'rgazmali vositalar, o'qitishning faol metodlarini sinchiklab tanlash, o'quvchilarning faolligi, sinf o'quvchilarining o'zlashtirish darajasi kabilarga ham bog'liq.

Matematika darsida turli tuman tarbiyaviy vazifalar ham hal qilinadi. O'quvchilarda kuzatuvchanlikni, ziyraklikni, atrofga tanqdiy qarashni, ishda tashabbuskorlikni, mas'uliyatni va sof vijdonlilikni, to'g'ri va aniq so'shlashni hisoblash o'lchash va yozuvlarda aniqlikni, mehnatsevarlik va qiyinchiliklarni yengish xislatlarini tarbiyalaydi.

O'quv ishini tashkil etishning darsdan tashqari quyidagi shakllari mavjud:

1. Mustaqil ishlar
2. O'quvchilar bilan yakka va guruh mashg'ulotlari
3. Matematikaga qobiliyatli o'quvchilar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlar
4. Matematikadan sinfdan tashqari mashg'ulotlar
5. O'quvchilar bilan ishlab chiqarishga, tabiatga ekskursiya.

Bu yerda sanab o'tilgan ish shakllari va darsbir birini to'ldiradi. Eng muhimi asosiy masala darsga taaluqlidir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak dars mashg'ulotini tashkil eishda o'qituvchi o'quvchilar bilan hamkorlikda ishlasa dars yanada samarali va qiziqarli bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" M.E Jumayev, Z.G' Tadjiyeva
2. Internet ma'lumotlari

PROVERBS WITH PROPER NAMES IN THE LANGUAGE

Nigora Shermatova
o'qituvchi.Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti
+98933317312
shermatovanigora1991@mail.ru

Abstract: The article describes the figurative meaning of the concept <<proverbs with proper names>> in the English and Uzbek languages. It has been shown that the figurative meaning of the concept <<proverbs with proper names>> in the English and Uzbek languages correlate with the ideas of duration, the past, time marks,frequency,form of dimension,regularity, human physical condition. It has also been found out that some English fixed expressions, along with the idea of time, reproduce sociocultural information of the English and Uzbek native speakers.

Key words:proper names,concept,exponential function.

Proper names are the main sphere of nouns. It is conventional among linguists [1, 311] that PNs are universal linguistic category. Their status and function represents a theoretical question which was discussed by many scientists whose views are discussed in Carroll (1983), Coates (2006) and Van Langendonck [2, 118]. The subject is difficult and disputable, and will be given the short and schematicalaccount; it means that some aspects won't be considered.

PNs represent system organized according to criteria various in different cultures and provide interpretation of society which they express. They are the linguistic elements satisfying an exponential function, i. e. they refer to the separate objects existing in the real world. As deistic, they allow primary identification of their reviewers; but, unlike deistic, they don't depend on immediate or situational context [3, 19]. As nouns, PNs represent an open class of words and, therefore, are lexical, but not grammatical concepts; but, unlike nouns, they have no lexical meaning.

Let's investigate the main language features of PNs in proverbs in English [4, 93]now. Their first feature is initial capitalization in writing what distinguishes PN from the general noun, for example, Rosemary against rosemary. They are subject to some processes of word formation: for example, hypocorisms can be formed of full names, using various mechanisms, as shown in (and):

(a) Form of hypocorisms

John	Johnny	(suffixation)
Joseph	Joe	(shortening)
Richard	Dick	(shortening and phonological modification

As for grammar, names bring up various questions. One question concerns internal structure of names: they can be mono - or polylexemic sometimes including article (for example, London, John Smith, the Dead Sea); personal names can precede the name (for example, Mr. Smith, the aunt Mary) whose status is quite disputable. One of the main questions is presented by different types of use of names. In the primary use PN can occupy references of expressions.

Proverbs, in colourful language, reflect important typical cultural values of each culture. Simple and popular, short and substantial, they pass from father to son in oral form readable and gradually become a component necessary for the dominating culture of these people.

In the history of proverbs it is used to show life of people, and they are connected with names of the famous people. For the accounting of these data, analytics distinguish between the grammatical category "proper name" having the syntactic status of PN, and the category "proper name" having the status nominal, appointed to names. Let us now consider the semantics of PNs, an issue much discussed from Mill onwards. They have diachronically changed and are motivated, and substantial etymon meets in most cases: for example, surnames come from elements of the general lexicon with the reference of an origin (son of Richard > Richardson), or occupations (Miller). But they synchronically opaque; as was declared by Lyons, "it is wide, though isn't universal, considered to be that proper names don't make sense". Provided that they are elements carrying out reference function as the relation between PN and the reviewer is established explained can be pragmatic. PN is appropriated to the reviewer of some social convention, and

encyclopedic information is connected with it in long-term memory. Regularly, personal names can be carried to more than one reviewer, but, in the speech the coder concerns to the specific reviewer located at the address: at present time and place. To understand what the reviewer the coder means, the decoder has to possess competence the name system as well as pieces of encyclopedic knowledge associated with name that establish communication between PN and referent. Here some examples of proverbs with names: "Between Scylla and Charybdis"- "Osmon uzoq -yer qattiq",

"Bull in a china shop" - "Xitoy chinnisi do'konidagi buqa".

Other uses of names have central meaning for understanding of the considered phenomenon. PNs, in particular, personal names, more rare to place names, are used figuratively as metaphors, comparisons, hyperboles and antonomasias, either in creative way (for example, He is a new Hemingway) or as lexicalized objects. For this purpose, PNs have descriptive function: they point to some attribute or noticeable property of the reviewer of name.

"Never put off till tomorrow what you can do today- Never put off till tomorrow", "Don't count your chickens until they are hatched- Don't count your chicken", "A bird in the hand is worth two in the bush - A bird in the hand".

Social and pragmatic look allows us to be beyond language structure of proverbs in order to study great amount of background knowledge and cultural representations they represent. But you see informatively, proverbs are intellectually economic as from one concrete situation we are presented to them we can understand many others..For example, in a proverb A new broom sweeps clean we can assume that the new thing is better. In real life we also have to try to use only new sphere of life. Proverbs are used for the communicative purposes and it is necessary for us in reasoning pragmalinguistically to understand them. That is, they are used with a definite communicative purpose which surpasses the language form and sense. Besides, they reflect implicit typology of models of reasonings and arguments. For this and other reasons, proverbs are interesting to study as through them we can draw many ideas of how we think how we are conceptualized and categories of the world and as we impart traditional national knowledge from ancestors to generation.

At the foot of the page there are a great number of proverbs: "Business before pleasure", "Calamity is man's true touchstone", "Chickens before they are hatched, don't count your", "Claw me and I will claw thee", "Crooked by nature is never made straight by education". This or that text has a galaxy meaning, but not the structure meant; it is reversible; we get access to several entrances, any of which can be authoritatively declared by the basic; it mobilizes codes to prolong "as far as the eye can reach ", systems of sense the text can undertake this absolutely plural, but their number are never closed, on a basis as at the same time it is necessary to distinguish by infinity of language, the text from its appearance and from all its completeness. In the stand there will be all, cognitive expression of which is reduced to that, saying that for the multiple text, there can't be a narrative structure, grammar, or logic. Especially the main idea of proverbs can be in the form of plural, and the same as the translator is engaged as linguistic value and language structure, he or she has to provide also that the set of meanings is maintained. Examine a proverb you can't be in two places at once, East or West home is best. Several meanings are obvious: you have to make a choice. Being in one place means not to be in other place, and you want, both options, in addition to linguistic value.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Cowie A., Mackin R. The Oxford Dictionary of Current Idiomatic English. London: Oxford Univ. Press, 1985. - Vol. 1. - 576 p.

2. Van Langendonck Willy. Theory and Typology of Proper Names. Berlin, 2007. - 186 p.

3.Sloat Clarence. Proper Nouns in English.//Language, 1989. - №45. - P. 26-30

4. Weinreich U. Problems in the Analysis of Idioms: Substance and Structure

BADIIY MATNDA METAFORANING AHAMIYATI

Shirinova Xursheda,
Navoiy viloyat Karmana tuman 10-maktab
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatasiya: Maqola tilshunoslik fanida keng o'rganilib kelinayotgan metaforalarning badiiy matnlarda ishlatilishi, o'xshatish, qiyoslash holatlarda kelishi ilmiy asoslab berilgan. Shuningdek, matnga lingvopoetik yondashuvda lisoniy va xususiy-muallif metaforalarini farqlash jihatlari haqida ham fikrlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, metafora, qiyos, lisoniy, semantika, uslubshunoslik,matn.

"Biz ta'lim-tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni birinchi vazifamiz deb bilamiz".

Shavkat Mirziyoyev

O'zbek leksikologiyasi va uslubshunosligida ancha mukammal ishlanishi lozim bo'lgan masalalardan biri metaforadir. Predmetlar orasidagi umumiy o'xshashlikka asoslangan holda ma'no ko'chirish metafora bo'lib, bunda asosiy (bosh) belgi narsa va hodisalar orasidagi qaysi bir tomon bilan o'xshashlikdir.

Metafora ancha murakkab ma'no ko'chish hodisasi hisoblanib, ayni zamonda ham tilshunoslar, ham adabiyotshunoslar diqqatini o'ziga jalb etib keladi. Bu ma'no ko'chishga tilshunoslar ko'p ma'noli so'zlardagi semema va semalarning xarakterli xususiyatlarini ochish, ko'chma ma'no hosil qiluvchi hodisalar tahlili nuqtai nazaridan yondoshsalar, adabiyotshunoslar esa polisemantik so'zlardagi tasvirning turli vositalarni yuzaga keltiruvchi omillar deb biladilar. Har ikkala yo'nalishda ham maqsad bitta, u ham bo'lsa, so'zning ko'p ma'noligi va undagi uslubiy imkoniyatlarni o'rganishdir.

So'zning ko'p ma'noliligini o'rganish, avvalo, leksik uslubiyat uchun muhim rol o'ynaydi. Chunki, bir so'zning o'zida turli xil ma'noning bo'lishi uchun og'zaki va yozma nutqda qo'llashda uslubiy bo'yog'iga, ma'nosiga e'tibor berishni talab qiladi. Shu boisdan ma'no ko'chish ham sinonimiya, omonimiya va boshqa leksik vositalar singari hazil, mutoyiba, kulgi va turli so'z o'yinlarini yuzaga keltiradi. Bunday paytlarda so'zning to'g'ri va ko'chma ma'nosi to'qnashtiriladi, natijada kutilmagan yangi ma'no hosil bo'ladi. So'zlarning ana shu nozik ma'no ottenkalari badiiy adabiyotda muhim tasviriy vosita sifatida keng qo'llanadi.

Leksema - tilning asosiy birligi. U bizni qurshab turgan olam unsurlarini nomlash uchun xizmat qiladi. Leksema faqat nomlash funksiyasi bilangina cheklanib qolmay, olam haqidagi bilimlarimizni kelajak avlodlarga yetkazish, anglash, tinglovchiga ta'sir etish - vazifasini ham bajaradi. Bu esa leksemaning naqadar ko'p qirrali hodisa ekanligini ko'rsatadi.

Leksema va tushuncha o'zaro dialektik munosabatda bo'lsa ham, lekin har bir yangi tushuncha alohida so'z bilan ifodalana bermaydi. Agar har bir tushunchaga yangi so'z qo'llay berganimizda edi, til o'zining kommunikativ funksiyasini xiralashtirgan, yo'qotish darajasiga olib borgan bo'lar edi. Tilning xarakterli xususiyati shundaki, u xotirada saqlash mumkin bo'lgan sanoqli birliklar bilan cheksiz tushunchalarni ifodalash imkoniyatiga ega. Shuning uchun ham yangi paydo bo'lgan tushunchalar, asosan, u yoki bu tilning amal qiladigan modellari asosida mavjud birliklar yordamida ifodalanadi. So'zni ko'chma ma'noda qo'llash ham yangi tushunchani tilda mavjud birliklar yordamida ifodalashning bir yo'lidir.

Metafora asosida nom ko'chishi - narsa, belgi yoki harakatga xos atamaning o'zaro o'xshashligi bo'lgan boshqa belgi, narsa, harakat haqidagi tushuncha uchun ham qo'llanishi, shu tushunchaning ham nomiga o'tishidir.

Metafora asosida nom ko'chishi predmet, belgi, harakat, holatlarning keng ma'nodagi o'xshashligiga asoslanadi. Asos konkret, abstrakt bo'lishi mumkin. Metafora tuzilishiga ko'ra sodda va kengaygan, badiiy hamda lingvistik metaforalarga ajratiladi. Lingvistik metafora ekspressiv bo'lmagan atama, badiiy metafora ekspressivdir. Ilmiy adabiyotlarda metaforani til va nutq hodisalari sifatida ikki turga ajratib ko'rsatadilar.

Ko'chma ma'nolarni atroflicha tadqiq etgan M.Mirtojiyev metaforalarning denotat o'xshashligi belgisiga ko'ra uch guruhga bo'ladi: 1) oddiy metafora; 2) personifikatsiya (jonli ob'yekt jonsiz ob'yektni o'ziga nomdosh qilib olishi); 3) sinesteziya (sezgi orqali xis etiladigan ikkinchi obyektni nomdosh qilib olishi). Bunda oddiy metafora belgilarga qarab oddiy qiyoslash, personifikatsiya - jonlantirish orqali qiyoslash, sinesteziyada esa subyektiv holatda qiyoslash o'xshatish uchun asos bo'ladi.

Metaforaning she'riyatdagi o'rni va ahamiyatini tasavvur qilish uchun uning she'riy matnda bajarayotgan funksiyalarini ko'zdan kechirish zarurdir. Shulardan kelib chiqib, ishda metaforaning poeziyada bajaradigan funksiyalaridan ayrimlari A.Oripov she'riyati misolida o'rganildi.Jumladan, "Chuvaladi o'ylarim sensiz"

she'ri misolida metafora inson qalbidagi atash imkoni bo'lmagan holatlarni tasvirlab ko'rsatish, shoir uchun his-tuyg'uni ifodalash, she'rxon uchun esa qayta his qilib ko'rishga imkon yaratishi ko'rsatildi. Umuman olganda metafora til imkoniyatlarimizni ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Bo'lajak o'qituvchining loyihalash faoliyati. Metodik qo'llanma - T.: TDPU Rizografi, 2014.
2. O'zbek adabiy tanqidi. Antologiya. - T.: Turon-iqbol, 2011.
3. Rasulov A. Mustaqillik davri adabiyotining nazariy-metodologik asoslari. - T.: Ma'naviyat, 2012.
5. Qodirov P. Til va el. - T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2005.

"O'TKAN KUNLAR" ASARIDAGI QAHRAMONLAR TALQINI

SHODMONOVA LUTFIYA RAXMATULLAYEVNA
Navoiy viloyat Karmana tuman
14-umumta'lim maktabi ona tili
va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya:Ushbu maqolada xalqimizning sevimli adibi va sevimli asari, birinchi o'zbek romani, romandagi qahramonlar talqini bayon etilgan. Har bir qahramon tahlili davomida o'zbek xalqiga xos azaliy udumlar, urf-odatlar, qadriyatlar yoritilgan. Shuningdek, romanning kecha va bugungi tarixi, sevimliligi, o'ziga xosligi jihatlari haqida ham fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: birinchi o'zbek romani, kitobxon, moziy, mustaqillik, qadriyat.

"O'tkan kunlar" romani bamisoli ulkan va tiniq ko'zgu, unda o'zbek millatining muayyan tarixiy sharoit, va ziddiyatdagi turmushi, urf-odatlari, ruhiy- ma'naviy dunyosi, bo'y-basti, qiyofasi keng ko'lamda aniq-ravshan gavdalantirilgan. "O'tkan kunlar" romani, bir qarashda, ananaviy-ishqiy dostonlarni ham eslatadi. Unda Otabek va Kumushning ishqiy sarguzashtlari, fojiasi juda katta mahorat bilan ochib berilgan. Asardagi ishqiy sarguzashtlar kitobxonni hayajonga soladi, Otabek va Kumushning baxtini xor etgan omillar esa kishini chuqur o'yga toldiradi. Mualif oshiqlarning ishqiy sarguzashtlari bahonasida muayyan tarixiy davrni- Turkistonning rus bosqini arafasidagi ahvolini, qora kunlarimizni ko'z oldimizda gavdalantiradi.

Abdulla Qodiriy ishqiy sarguzashtlar ko'rinishida o'lkaning tutqunlikka tushishining bosh sababi jaholat, qoloqlik va o'zaro ichki nizolar degan fikrni g'oyat ustalik bilan aytadi. Garchi romanda adib shaxs xarakteri va qismatini muhit, sharoitga bog'liq bo'lmagan tug'ma, sirli-sehrli g'aroib shevalariga ham e'tiborni tortadi.

Bu jihatdan bir oila, bir xil sharoitda tug'ilib voyaga yetgan sajiya-xarakter, surat va siymo vajidan ikki olam-egachi-singil Zaynab va Xushro'ybibi obrazlarining talqini g'oyat ibratlidir. Biri mute, itoatkor, nuqul o'zgalar izni bilan ish ko'ruvchi; ikkinchisi esa dadil, mustaqil, o'z baxti va taqdiri uchun faol kurash olib boradi. Yozuvchi bu ikki shaxs xarakteriga xos tug'ma xususiyatlarni sharhlash bilan bilangina cheklanmaydi, bunday xislatlarning o'zga kimsalar, qolaversa o'zgalar taqdiriga ko'rsatgan ta'siri, fojiaviy oqibatlarini ham ifoda etadi.O'zini boshqalar ixtiyoriga topshirib qo'ygan Zaynab o'z baxtiga zomin bo'ladi. Bu voqealarning hech biri o'quvchini befarq qoldirmaydi.

O'z davrida "O'tkan kunlar" romanini o'qish uchun navbat kutib turganlarning sanog'iga yetib bo'lmas, asarni to'la yodlab olgan kitobxonlar ham bor edi.

Asarda xalqning baxtsizligi, millat rahnamolarining kaltabinligi, hukumdorlarning ma'rifatsizligi, ommaning johilligi, yurt mustaqilligining omonatligi va deyarli hech kimni qiziqtirmasligi singari holatlar bot-bot tilga olingan. Romanning bosh qahramonlari novdaligidayoq xazon etilgan, asar ulkan fojia bilan tugagan bo'lsa ham, asarda qandaydir bir yorug' ruh hukumronlik qiladi.

Kitobxon g'am botqog'iga botib ketmaydi. Adib odamlarimiz, xalqimiz tiynatidagi nurli jihatlarni sezgirlik bilan ilg'ab olib, tasvirlay bilgan. Shu bois umidlari kesilgan tasvirlar bilan tanishgan kishida ham umidsizlik paydo bo'lmaydi

Chinakkam iste'dod xususiy holat misolida hodisaga tegishli umumiy belgilarni ko'ra olish qudratiga ega bo'ladi. "O'tkan kunlar"da Qodiriy ijodining shu jihatlari namoyon bo'lgan.

O'zbek xalqining go'zal odobi, cheksiz andishasi, katta-kichik, uzoq-yaqin kishilarning muomala munosabatlaridagi yuksak ma'daniyat, millat turmush yo'sinidagi o'xshashi yo'q tartiblar yozuvchining san'atkorligi tufayli shu qadar mahorat bilan jonli badiiy lavhalarda ko'rsatilganki, o'quvchi bu xildagi tirikchilik yo'rig'iga xalq va uning yetuk vakilini yaxshi ko'rib qoladi

Qizig'i shundaki, yozuvchi biror o'rinda bo'lsin xalqni maqtamaydi, atay uning fazilatlarini ko'rsatishga urunmaydi, tashviq qilmaydi. Lekin, qahramonlar tutumini shunday tasvirlaydi, odamlarning o'zaro munosabatlarini shunday ko'rsatadiki, o'zbeklar haqida o'z-o'zidan yaxshi xulosaga kelaveradi.

Bu jihatdan, ayniqsa, Otabek, Kumush, Yusufbek hoji, Amin, Hasanali, Mirzakarim qutidor, Oftoboyim, Nurmuhamat singari personajlar xarakterlidir.

Asarda bu timsollarning hayot sinovidan o'tishidagi sifatlarni tasvirlash asnosida xalqning sifatlari namoyon bo'ladi.

WAYS OF IMPROVING PRONUNCIATION IN ENGLISH

Shohidova Aziza Qobiljon qizi,
an English teacher of Namangan city boarding school № 6
azizashohidova@ gamil.com /tel: 998905541505

Annotation

This article aims to inform ways of improving pronunciation in teaching English. It is necessary to train English pronunciation from the very beginning of acquaintance with a foreign language.

Key words: necessary, English, pronunciation, with, foreign, correct, language

Learning a foreign language involves developing several language skills. At the same time, speaking and listening play a key role for people who are learning English for communication. Unfortunately, correct English pronunciation is rare even for foreign language teachers. This is due to the initially irrational choice of teaching methods. Many people still prefer the grammar-translation system, which consists of mechanical memorization of words and learning the rules. It is necessary to train English pronunciation from the very beginning of acquaintance with a foreign language. Otherwise, it will be quite difficult to fix fixed errors. Why is it important to learn English pronunciation? Because pronunciation is the first thing that is noticed in your English! Learn to pronounce English words correctly as early as possible. English pronunciation is unpredictable! If you give up on practicing pronunciation, you will start making mistakes that will eventually become incorrigible. The longer you ignore pronunciation problems, the more likely you will never be able to get rid of them.

Recommendations for beginners:

1. The main thing is the regularity of classes. You don't have to spend several hours every day studying phonetics and doing practical exercises. If you give lessons at least half an hour a day, you will soon notice positive results.

2. Don't limit yourself to textbooks and computer resources. Try to approach the task creatively. Many experts say that even singing in a foreign language helps improve English pronunciation.

3. Use the voice recorder. When listening to small texts recorded by native speakers, try to repeat the speech as accurately as possible. This is necessary to improve the intonation, which is significantly different from Russian. Do this simple exercise at least a couple of times a week.

4. Watch movies and TV shows. Listen to the person on the screen pronounce consonants and vowels, which syllables stand out in his speech. You should also pay attention to what form the host's or actor's mouth takes during a conversation or monologue.

5. Listen to the radio.

6. If possible, be sure to involve a family member or friend. This will allow you not only to practice your speaking skills but also to notice mistakes in pronunciation.

7.Practice in front of a mirror. While studying phonetics, you will realize that the pronunciation of sounds that are seemingly identical in Russian and English is radically different. You will have to constantly monitor the position of the lips and tongue.

8. Use several trusted sources of information. Be sure to combine textbooks and online resources, communication with real people, and video lessons. You may also be interested in tongue twisters that will help you develop the necessary pronunciation speed without losing quality.

9. Select only one pronunciation option. There are many variants of English: American, English, Australian, and so on. From" correctness", the best solution can be considered the English of Oxford and Cambridge. After studying one accent in detail, move on to the next. You should not study several options at the same time.

10. Read aloud. Especially useful in this regard, a variety of dialogues (allow you to train intonation).

11. Pay attention to stress. Note that English pronunciation may imply the presence of 2 accents in the same word at once.

12. When learning new words, remember them immediately with the correct pronunciation and accent. In no case do not try to write down the pronunciation of Russian letters: this step will make all your efforts fruitless.

13.Learn to write the transcription.Many textbooks are equipped with an audio course with phonetic dictation. Do not neglect this monotonous, but incredibly useful exercise: working on mistakes will help you learn not only to talk beautifully but also to better understand the interlocutor. You will no longer

confuse words that are pronounced almost identically.

Summing up the above recommendations, I can say with confidence that they only work in combination with each other. You should also not focus solely on tongue twisters and expect instant results. To improve your pronunciation, you need to use a comprehensive approach that includes reading, writing, listening, and practicing your speech. All this will help to significantly improve your pronunciation.

References:

Kenworthy J. 1987. Teaching English Pronunciation. Harlow: Longman.

1.Parkinson B. 1993. 'Teaching Phonology'. ACELT distance learning course materials.Institute for Applied Language Studies, University of Edinburgh.

2.Purcell E. and Suter R. 1980. 'Predictors of pronunciation accuracy: a re-examination'.Language Learning 30/2: 271-87.

YOZMA ISHLARDAGI XATOLARNI ANIQLASH VA ULARNI TASNIFI

Shomurodova Sanobar,
Navoiy viloyat Nurota tuman 1-maktab
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada yoshlarda yuksak did va madaniyatni shakllantirish uchun, eng avvalo ularning og'zaki va yozma savodxonlik darajasini oshirish lozimligi ta'kidlangan. O'quvchilarning yozma savodxonligini oshishida o'qituvchilar oldida turgan dolzarb vazifalar haqida ham ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: lug'aviy-uslubiy, paronim, qo'shma gap, sintaktik - uslubiy, so'z birikmasi, uyushiq bo'lak, morfologik-uslubiy.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" dagi yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol qilib tarbiyalab o'qitish vazifasi, ayniqsa, ona tili va adabiyot o'qituvchilari zimmasiga katta ma'suliyat yuklaydi. Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, yoshlarda yuksak did va madaniyatni shakllantirish uchun, eng avvalo ularning og'zaki va yozma savodxonlik darajasini oshirish lozim. O'quvch o'zining yozma nutqidagi xatosini, ya'ni o'qituvchi tomonidan tuzatilgan xatoning sabab va mohiyatini anglasagina, uni takrorlamaslikka intiladi.

Hozirga qadar yozma ishlarni tekshirishda til va adabiyot o'qituvchilari uch xil xatoni, ya'ni orfografik (imloviy), punktuatsion hamda uslubiy (stilistik) xatolarni aniqlab, baho me'yorini shu xatolar miqdoriga qarab belgilar edilar. Bunday tasnif ko'pincha mavhum bo'lib, o'quvchi yoki talabani to'liq qoniqtira olmas, ularning noroziligiga sabab bo'lar edi.

Darhaqiqat, tekshirib baholangan ayrim yozma ishlarni ko'zdan kechirganda, ikki-uch joyda takrorlangan bir tipdagi xatolar o'qituvchi tomonidan bittaemas, har biri alohidaxato sifatidaqayd etilganligi ma'lum bo'ladi. Shu bois ham ushbu maqolada yozma ishlardagi xatolar qanday va qaysi imlo qoidalarining buzilishi natijasida yuzaga kelayotganligi, ularni qanday guruhlash, jamlash milliy tilmiz ichki imkoniyatlarini hisobga olgan holda tasniflash haqida fikr yuritib, bu boradagi takliflarimizni ifoda etmoqchimiz.

Bizningcha, eng avvalo, yozma ishlardagi xatolarni aniqlash va hisoblashda ularning mohiyatini inobatga olib tipiklashtirish lozim.Bu xatolar miqdorini to'g'ri hisoblash imkonini beradi, o'quvchi yoki talabaning diqqatini yozma ishda qanday kamchiliklarga yo'l qo'yganligini kuzatishga bevosita jalb qiladi. Shuning uchun ham yozma ishlarni tekshirish va ularni baholashda imloviy, punktuatsion va uslubiy xatolar deb uch guruhga bo'lib kelinayotgan an'anaviy usuldan bir oz chekinib, masalaning mohiyatiga yanada chuqurroq yondashgan holda quyidagicha tasnif etishi mumkin: 1) fonografik; 2) lug'aviy-morfologik; 3) punktuatsion; 4) uslubiy xatolar.

1. Fonografik xatolar. Bu turdagi xatolar tildagi fonetik va grafik qonun-qoidalarning buzilishi, ya'ni harf shaklining buzib yozilishi, noto'g'ri bo'g'in ko'chirish oqibatidir. Ularning har biri alohida xato sanaladi.

2. Lug'aviy-morfologik xatolar. Bular so'z va grammatik shakllarning noto'g'ri yozilishi bilan yuzaga kelgan xatolar bo'lib, ular to'rt xil ko'rinishga ega. Ya'ni: sodda so'z o'zak-negizlarini, qo'shma va juft so'zlarni, so'zshakllar (qo'shimchalar)- ni hamda yordamchi so'zlarni yozishdagi imloviy xatolar.

Sodda so'z o'zak-negizlarining yozilishidagi xatolar, asosan, mazkur so'zning ma'nosini bilmaslik yoki e'tiborsizlik oqibatida vujudga keladi. Bu holatda mazkur so'zda nechta orfogramma xato yozilgan bo'lsa ham bitta xato hisoblanishi lozim.

Qo'shma va juft so'zlar imlosida yozma ishning turli o'rinlarida bir qoidaga bo'ysunuvchi qo'shib yoziladigan, shuningdek, ajratib yoki chiziqcha bilan yoziladigan so'zlar xato yozilgan bo'lsa, ular nechtaligidan qat'i nazar, bitta xato sanalishi kerak. Masalan, ajratib yozish kerak bo'lgan qo'shma so'z ishning uch joyida qo'shib yozilgan bo'lishiga qaramay, bitta xato sanaladi.

So'zlarga qo'shilib keluvchi kategorial va nokategorial shakllarning yozilishidagi xato va yordamchi so'zlarning yozilishi bilan bog'liq xatolar alohida-alohida hisobga olinadi. Masalan, yuklamalarning ayrim turlari chiziqcha bilan, ayrimlari esa qo'shib yoziladi. Shu qoidalar bilan bog'lq ikk xil xato farqlanadi. Ammo chiziqcha bilan yoziladigan bir necha yuklamalar qoidasini o'zlashtirmagan hisoblanadi.

3. Punktuatsion xatolarni aniqlash va jamlash bir oz murakkabdir. Chunki har bir tinish belgisi ma'lum bir grammatik yoki uslubiy qoidalar bilan bog'liqdir. Masalan, vergul belgisi undov, kirish so'zlari, undalmalar, uyushiq bo'laklar hamda qo'shma gap komponentlarini ajratishda ishlatiladi. Bunday o'rinlarda uni noto'g'ri ishlatish yoki tushirib qoldirish alohida-alohida xato sanaladi. Ammo tinish belgilarini qoldirish ishlatishda bir qoidaga bo'ysunuvchi xatolar, masalan, darak gaplardan so'ng nuqta qo'yish qoidasiga o'quvchi o'n

gapning to'qqiz o'rnida rioya qilmagan bo'lsa, ham, bitta xato hisoblanadi. Chunki u, yuqorida qayd qilinganidek, batta qoidani amalda o'zlashtirmagan hisoblanadi.

Demak, yozma matnlardagi barcha xatolarni to'rt guruhga: fonografik, lug'aviy-morfologik, punktutsion va uslubiy xatolarga ajratib, ularning mohiyatini to'liq anglab tasniflash umumiy xatolar sonini ancha kamaytiradi, o'quvchi yoki talaba bilimi, savodxonligini ob'ektiv baholashni kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Yo'ldoshev J, Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. -T.: O'qituvchi, 2004. -104 b.
2. Qozoqboy Yo'ldosh. Yoniq so'z. -T.: Yangi asr avlodi, 2006. 448 bet.
3. Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Bo'lajak o'qituvchining loyihalash faoliyati. //Metodik qo'llanma. - T.: TDPU Rizografi, 2014.
4. O'zbek adabiy tanqidi. Antologiya. - T.: Turon-iqbol, 2011.
5. Qodirov P. Til va el. - T.:G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2005.

ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA DAVR TASVIRI

SHUKUROVA SHAHNOZA FATULLAYEVNA
Navoiy viloyat Uchquduq tuman
18-umumta'lim maktabi ona tili
va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya:Ushbu maqola o'zbek xalqining mahoratli va buyuk adibi Abdulla Qahhor ijodi haqida, uning hikoyalarini o'ziga xos jihatlari, so'zlardan zargarona foydalanganligi, hikoyalarida o'tmish manzaralarini ayanchli va haqqoniy tasvirlangani, inson qadr-qimmati haqida fikrlar bayon etilgan. Bu hikoyalarni tahlil etish hatijasida esa kitobxonning fikrlash doirasi kengayishi, tafakkur olami boyishi va bu jarayonlar o'quvchilarni PISA testlariga tayyorlashga yaqindan yordam berishi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar:hikoya, PISA, o'tmish, so'z qudrati, kitobxon, ravonlik, samimiylik, mutoala.

Abdulla Qahhor asarlari xalqimiz qalbining to'ridan o'rin olgan. Respublikamizda uning nomini eshitmagan, uning kitoblari kirib bormagan bironta xonadon yo'q desam mubolag'a bo'lmaydi. Uning asarlarini barcha yoshdagi va kasbdagi insonlar sevib o'qiydilar, qissa va romanlaridan zavq oladilar, kichkina hikoyaga olam-jahon mazmun sig'dira olganiga qoyil qoladilar.

Abdulla Qahhor hayotda ham, badiiy ijodda ham o'z haqiqatlarini topgan, shu haqiqatlar uchun sabot bilan kurashgan ijodkordir. Bu haqiqatlar uni qattiq qiynagan, qalbida og'ir-og'ir tebranish va tortishuvlar paydo qilgan. Nechog'li qiyin bo'lmasin adib iste'dod quvvatini aynan shu haqiqatlarga bag'ishlagan. Ko'nglini nurafshon aylagan shu haqiqatlarga suyanib, Abdulla Qahhor ma'nan ulg'aygan, ma'nan ulg'aygan sayin esa shu haqiqatlarning boqiyligidan ilhomlangan.

Barcha buyuk yozuvchilardek, Abdulla Qahhorning ham shaxsi-ijodiga, ijodi-shaxsiga bir ko'zgudir.

Abdulla Qahhorni nega buncha e'zozlaymiz? Mahoratiga nechun bunchalik tahsin o'qiymiz? U so'z bilan mo'jiza yarata bilgan, til mehnatini zargarlik san'ati darajasida yuksaltira olgan yozuvchi edi. Abdulla Qahhor hikoya va qissalaridagi har bir so'z, har bir iboraning o'rni shu qadar muhim va mustahkamki, ularni boshqa so'z, boshqa ibora yoxud jumla bilan o'zgartirish deyarli imkonsiz.

"Men tajriba uchun,- deydi Said Ahmad,- ustozning "O'g'ri", "Bemor", "Anor" hikoyalaridan ba'zi so'zlarni olib tashlab ko'rdim. Bo'lmadi. Hikoya bir ustuni olib tashlangan ayvonga o'xshab lapanglab qoldi".

Ma'lumki, Abdulla Qahhor mahoratining ildizlari nafaqat milliy adabiyotimiz zamini, balki mumtoz rus adabiyoti namayondalari- Tolstoy, Turgenov, Gogol, eng avvalo, Chexov ijodiy tajribalari bilan ham chambarchas bog'liq. Sirasini aytganda, Abdulla Qahhor jahon adabiyotidagi yutuqlarni imkon darajasida ijodiy o'zlashtirib, milliy nasrimizda yangi sahifalar ochgan.

Abdulla Qahhorning "Bemor" hikoyasi asosida o'quvchilarni PISA testlarga tayyorlash, mantiqiy fikrlashga o'rgatish uchun testlar tuzish mumkin.

Abdulla Qahhor hikoyalarida XX asrning dastlabki yillari va o'rtalaridagi o'lkamizdagi ijtimoiy hayot juda aniq tasvirlanadi. Chor Rossiyasi tomonidan bosib olingan o'lkamizning iqtisodiy, madaniy hayoti parokanda holda keltirilgan bu davrda aholi nihoyatda qashshoq holda hayot kechirardi. Qishloqlardagi dehqonlar, shaharlardagi hunarmandlar kun bo'yi qilgan og'ir mehnati evaziga juda oz haq olishardi. Oila boqish, uning kam-ko'stini butlash, farzandlarni o'qitish masalalari kishilarni o'ta qiyin ahvolga solib qo'ygandi. Iqtisodiy nochorlik kishilar turmush darajasining tobora pasayib borishiga, aholi o'rtasida turli kasalliklar keng tarqalib, oddiy betoblik ortidan odamlarning bevaqt hayotdan ko'z yumishlariga sabab bo'lgandi. O'lkada tibbiyot masalalarini hal etishga deyarli e'tibor berilmas, faqat chor amaldorlari, harbiylari va mahalliy boylargina malakali tibbiyot xizmatidan foydalanish imkoniyatiga ega edi. Yozuvchi hikoyada xalq hayotidan ayanchli bir lavhasini gavdalantirib, oddiy mehnatkashni har qanday insoniy huquqlardan mahrum etilib, nochorlik, erksizlik girdobiga mahkum etilganiga sababchi bo'lgan jamiyatning peshonasiga o'chmas tamg'a bosadi. Tuzum-bemor, bedavo kasalga yo'liqqani uchun u jamiyatda hech qachon mehnatkash xalqning yelkasiga oftob tegmagan.

Adib hikoyalarini o'qib-o'rgangach beixtiyor bugungi tinch va farovon zamonamizga shukrona hislari kuchayadi. Kitobxon o'tmish ajdodlarimizga achinish bilan birga shunday yurtda yashayotganidan iftixor tuyg'ularini his etadi.

ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA TAKRORLARNING QO'LLANISHI

Sobirova Dilnoza Rasulovna
BuxDU o'qituvchisi
sobirova.2018@inbox.ru
Tel.raqam:+99891 246 99 01
Radjabquliyeva Marjona Anvar qizi
BuxDU talabasi
radjabquliyevamarjona@gmail.com
Tel.raqam:+99891 412 35 17

Annotatsiya

Ushbu maqolada uslubiy figuralarning nafaqat nazmda, balki nasrda ham juda keng qo'llanishda ekanligi, ayniqsa, takrorlarning emotsional-ekspressivlikni ifodalashda salmoqli o'rin egallaganligi yetuk ijodkor Abdulla Qahhor hikoyalari misolida asoslangan.

Kalit so'zlar: sintaktik figura, takror, anafora, epifora, infora, emotsionallik.

Ma'lumki, emotsional-ekspressivlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi vositalar sirasida uslubiy figuralar mavjud. Ular orqali tilning estetik funksiyasi namoyon bo'ladi. Qator tadqiqotlarda uslubiy figuralar she'riyat doirasida o'rganilgan, tadqiq etilgan. Biz ushbu kichik tadqiqotimiz orqali uslubiy figuralarning nafaqat nazmda, balki nasrda ham juda keng qo'llanishda ekanligini, ayniqsa, takrorlarning salmoqli o'rin egallaganligini yetuk ijodkor Abdulla Qahhor hikoyalari misolida asoslamoqchimiz.

Badiiy asarlarda takrorning qo'llanishi emotsionallikni, ekspressivlikni ta'minlaydi. So'zlovchi o'quvchiga o'z fikrini tushuntirish uchun bir so'zni, so'z birikmasini, yoki gapni bir necha bor takrorlaydi. Takrorning anafora, epifora, infora kabi ko'rinishlari mavjudki, yozuvchi Abdulla Qahhor o'z asarlarida ulardan mohirona foydalangan. Ijodkor leksik takrorlardan ko'pincha satirik mazmun yaratishda, fe'l turkumi doirasida hosil qilingan leksik takrorlardan, personajlar ruhiyatidagi intim holatlarni ifodalashda esa atov gap shaklidagi takrorlardan o'rinli foydalangan:

? Axir, boshqorong'i bo'l, evida bo'l-da! - dedi do'ppisini qoqmasdan boshiga kiyib. ? Anor, anor Bir qadoq anor falon pul bo'lsa! ("Anor") Hikoyada kichik bir turmush sharoiti qalamga olingan bo'lsa-da, u keng ijtimoiylik kasb etgan. Ya'ni unda turmushdagi nochorlik, kambag'allik hamda ijtimoiy tengsizlik masalasi asarning g'oyasini tashkil etadi.

Nutqning ta'sirchanligini oshiruvchi vositalar ichida grammatik imkoniyatning kengligi, ifodaliligi, ta'sirchanligi, qulayligi va ravonligi bilan ajralib turuvchi figura anaforadir.

Yig'lama, yig'lama deyman! Ho'kizing oq poshsho qo'l ostidan chiqib ketmagan bo'lsa, topiladi . ("O'g'ri")

Nima ekanini bildingmi?-dedi.- Asalarining uyasi! Turgan-bitgani asal! Mana, mana, siqsang, asal oqadi. Bunisi oq mum, harom emas - shimsa ham bo'ladi...("Anor") (kirish so'z takrori)

Yo,mmqudratingdan,mmishonmaydi-ya!-dedi Turobjon keltirgan matoini titkilab. - Mana, chaynab ko'r! Ko'rgin, bo'lmasa innaykeyin degin…/Anor. /(sintaktik takror)

Albatta berar edi! Albatta anor olmay, asal olgansiz! …("Anor")

Turobjon bilolmay qoldi: xotinining yelkasiga tepib, so'ngra o'rnidan turdimi, yo turib keyin tepdimi; o'zini obrezning oldida ko'rdi. Xotin, rangi oppoq, ko'zlarini katta-katta ochib unga vahimali nazar bilan qarar va boshini chayqab pichirlar edi.

- Qo'ying… Qo'ying… ("Anor")
- Qo`ying, qo`ying… dadangizdan so`ramang. Uyat bo`ladi.("Boshsiz odam")
- Turing, Nazirbuvi, turing, To'xtabuvinikiga chiqamiz! ("Kampirlar sim qoqdi")
- Yuragimga sig`maydi, sig`maydi yuragimga hech narsa! ("Asror bobo")
-- Olaver, olaver, aytib beraman! ("Asror bobo")
-- Orden, medal vaqtida qilgan xizmatimizni taqdirlab berilgan narsa, orden, medalni qachongacha qaynatib ichamiz?! ("So`ngan vulqon").

Keltirilgan misollardan ko`rinib turibdiki, qo`shma gaplarda anaforik takrorlar salmoqli o`rinni egallaydi.

Epifora sintaktik qurilmalarning bir xil shakllar bilan tugallanish usulidir. Epifora takrorlangan nutq bo'lagining ma'nosini kuchaytirish uchun xizmat qiladi. Quyida A.Qahhor ijodidagi qo'shma gaplarda ma'lum ko'rinishdagi epiforik holatlar ko'zga tashlanadi:

1. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari oxirida kesimning takrori:

Ola qarg'a qag' etadi, O'z vaqtini chog' etadi.
(Maqol)(Bashorat)
-Turing, Nazirbuvi! Turing, To'xtabuvinikiga chiqamiz! ("Kampirlar sim qoqdi")
- … Ho`, barakalla, mulla Suyar! Otasini suyarmi, onasini suyarmi, a?
("O`jar")
2. Murakkab qo'shma gap qismlari oxirida:
Nikolay zamonida mayiz qimmat, ko'knor arzon edi, hozirgi zamonda mayiz arzon, ko'knor qahat. ("Bashorat")
- Majlis qilasanmi, ma'raka qilasanmi, ertaga ish boshlamasang, kechasi uyingga kafanlik kiraman. Men arvoh bo'laman!.. ("Bashorat").
Eganing takrori:
Birov dashnom bergan, birov bo`g`ilgan, birov suyungan… ("Mahalla")
Kesimning takrori:
"… bularning ichida chiroyligi bor, sho`xi bor, boyvachchasi bor, bevoshi bor…" ("Nurli cho`qqilar")
Ketib qolgan, allaqachonlar ketib qolgan. Boshqa shaharda, o`qishda… ("Nurli cho`qqilar")
Tarkibli kesimlarning yordamchi elementi:
U Saidiy bilan do'st edi, bu do'stlik otalarini ham muposabatdor qilgan edi. ("Sarob")
3. Ko'chirma gapli sintaktik qurilmalarda: -. "Shoshma, -- der emish, -- xat o`qiyotibdi. Xotinidan kelgandir, bolasidan kelgandir…"("Asror bobo")
"-- O`tir, -- dedi Asrorqul turpdan bir bo`lagini og`ziga solib, achchiq tutunni biz ko`rganimiz yo`q, achchiq tutun urush bo`layotgan joylarda". ("Asror bobo")
Shuningdek, qo'shma gap qismlarining boshlanishi hamda oxirida bir xil so'zlar qo'llanib, anafora va epifora birga kelishi mumkin: Yo dong`im chiqadi, yo changim chiqadi. ("Sep")
Infora sintaktik takrorning kammahsul turi hisoblansa ham, ma'lum turdagi matnlarda faollashuvi kuzatiladi:
Inforik hol:
- Bu maraz to`rt yildan beri xilvatga tortadi, to`rt yildan beri qulog`imga shivirlaydi.("Ig`vogar")
Majlis oxiriga borib shu qadar qizidi, shu qadar shovqin suronga aylandiki, soat o`n birlarda ko`cha aylanib yurgan uchastkavoyning diqqatini jalb qildi. ("Ig`vogar")
Qora ko`nglida odamlarga yomonlikdan boshqa narsa yo`q, odamlardan ham faqat shuni kutadi, shuning uchun hamisha xavotirda, ovqatni ham yashirincha og`ziga soladi, yashirincha chaynaydi, yashirincha yutadi!..("Ig`vogar")
Gul sekin-sekin so`ladi, sekin-sekin go`zalligini yo`qotadi… ("Sarob")
Qo'shma gaplar tarkibida takrorlanib kelgan yordamchi birliklar, so'zsiz, fikrni kuchli, ta'sirchan ko'rinishda ifodalash uchun xizmat qiladi:
Bu xildagi odamlar vaqtida na o`qib bilim olgan bo`ladi, na uqib hunar… ("Ig`vogar")
Abdulla Qahhor hikoyalarini kuzatar ekanmiz, ularda takrorlarning faol qo`llanganining guvohi bo`lamiz. Xullas, asarning badiiy qiymatini oshirishda, emotsional-ekspressiv ma'no yuklashda takrorlar salmoqli o'rin egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:
1. Ибрагимова Ф. Бадиий матнда синтактик фигураларнинг лингвопоэтик восита сифатидаги ўрни. докторлик дисс. автореф. 2013 й.
2. Qahhor A. Anor. Qissa va hikoyalar. - Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. - 200 b.

LEARNING VOCABULARY WITH THE USE OF ICT

Sotvoldiyeva Irodaxon Yoqubjonovna,
an English teacher of Namangan region,
Naryn district, school № 34
tel: +998 93 4041701

Annotation

This article is devoted to the usage of ICT in vocabulary teaching. One of the most important things in learning a language is vocabulary. Through vocabulary, people can express their thoughts and opinion about everything. That's why teaching vocabulary to the students is very significant.

Key words: ICT, use, vocabulary, new, teaching, create, activity, exercises

The development of lexical skills for their subsequent inclusion in the speech activity of students is the main task in mastering vocabulary. Learning vocabulary involves: Work on introducing new vocabulary; The activation of the lexical material; Control of the level of formation of lexical skills. Difficulties in learning foreign language vocabulary are associated with both memorizing its meaning and using it in speech. Often, the effectiveness of the impact of educational material depends largely on the degree and level of illustrative material. Therefore, the use of ICT technologies is especially relevant when teaching vocabulary. When introducing and working out thematic vocabulary, it is productive to use presentations with a bright video order (illustrations, video clips, sound) made in the PowerPoint program.Familiarization with words includes disclosure of their form, meaning, and usage. Using presentations allows you to create a graphic image of a word simultaneously with its sound and motor image. Simultaneously with the graphic image of words, students have the opportunity to listen to the word (while forming a sound image of the words). Visual and auditory perception helps the child to actively and consciously assimilate lexical material. To diversify the methods of introducing new lexical units, you can use Internet resources. There are a great many online dictionaries on the world wide web where you can view word translations, usage examples, phrases, transcriptions, and listen to the American and British pronunciation of the word. In addition, many dictionaries offer a list of synonyms, antonyms, and related words. Of course, this method is not suitable for everyday work with vocabulary, but for variety and as a recommendation for independent work of students, it is very effective. For training in the use of words and in order to form productive lexical skills, the following types of work are possible::

- exercises on the distribution of words in thematic groups; - exercises for filling in gaps; - exercises in the form of a game for making sentences; - exercises for comparison with pictures; - exercises in the form of crosswords, word search;

- exercises " Extra word"; - exercises " Find a mistake", in which it is suggested to correct a particular word in accordance with the given situation, etc.

Test tasks can be compiled using a variety of computer tools, ranging from various editors and software for developing presentations to using the Internet. You can use a projector or an interactive whiteboard to perform current control or small lexical tests with subsequent verification of responses. The use of computer technologies in the formation of lexical skills significantly increases the effectiveness of this process. To work out the meaning of a word, I offer students, for example, an exercise on the distribution of words into thematic groups (school: chalk, desk, teacher. Family: mother, sister, aunt). For training in the use of words using a computer, I suggest that students make a sentence from these words: is, a, big, there, window, bedroom, in, my. At the stage of training and applying vocabulary for productive activities, the defining operations will be connecting words based on the content of the utterance. In order to form productive lexical skills, I use a computer to train students in actions for combining lexical units. For example, an exercise for working out: - tell us what the listed items can be: house, room, sofa, carpet. The other column contains adjectives: big, old, white, beautiful. The student must correctly compose phrases from these adjectives and nouns, moving them from the corresponding columns to the rows at the bottom. At the same time, the number of empty lines tells the student that there are other possible phrases that they have not yet compiled. The student who composes more phrases than others gets a higher number of points. In order to form a productive skill, an exercise is performed to fill in the gap in the utterance. For example, I suggest that students fill in gaps in conversations with appropriate lexical units. Or, for example, I give the task to choose a phrase to answer a question.

Would you like some tea?

a) You are welcome
b) Yes, please
c) Help yourself

Students who have created identical dialogues are paired together. They read and memorize dialogues for roles. After this, the dialogs are played in front of the entire class. At the same time, children who listen to dialogues develop receptive lexical skills.

References:

1.ANTONIO R. RAIG?N RODR?GUEZ The influence of ICTs in vocabulary learning: an empirical study.-2000

2.Fortunasari. (2016). The use of information and communication technologies (ICTs) in English as foreign language learning

3.Toomey, R. (2001). Information and communication technology for teaching and learning

ADABIYOT DARSLARIDA KO'RGAZMALI QUROLLARDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Temirova Amina,
Navoiy viloyat Navoiy shahar 2-maktab
ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari

Annotatsiya: Maqolada adabiyot darslarida o'rgatilayotgan mavzuning o'quvchilar uchun yanada tushunari va esda qolarli bo'lishi uchun tayyorlangan ko'rgazmalarning sifati, ko'zda tutilgan maqsadlarga mosligi, qulayligi va ulardan to'g'ri foydalanish mashg'ulotlar samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi muhimligi haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: talab, mutaxassis, metodik, dars,

Adabiyot darslarida ko'rgazmalilikni amalga oshirishda avvalo o'quvchilarning yoshi, bilimi va tarbiyalanganlik darajasi hisobga olinadi. Har bir ko'rgazmalardan foydalanishning o'ziga xos xavfsizligi va talablari qo'yiladi. Bu talablarga to'liq rioya qilishi har bir o'qituvchining doimiy e'tiborida bo'lishi lozim. Chunki tayyorlangan ko'rgazma gigienik tomondan va psixolagik tomondan o'quvchiga mos bo'lishi shart.

Bundan tashqari har bir tayyorlangan ko'rgazmadan foydalanish vaqt miqdorini to'g'ri belgilash va unga rioya qilishning o'ziga xos asoslarini bilishi hamda darsning maqsadiga muvofiq qo'llash talab qilinadi. Har bir ko'rgazmani tayyorlash jarayonida o'ziga xos vositalar qo'llaniladi va mashg'ulot jarayonida ulardan to'g'ri, unumli va xavfsiz foydalanish lozim. Tayyorlangan ko'rgazmalarning sifati, ko'zda tutilgan maqsadlarga mosligi, qulayligi va ulardan to'g'ri foydalanish mashg'ulotlar samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Maktabda har bir o'qituvchi ayrim turdagi ko'rgazmalardan o'quv mashg'ulot jarayonida o'quv materiallarni amalda qo'llash uchun tayyorlashini tashkil qilish metodik faoliyatning ajralmas bir qismi hisoblanadi. Bunda o'qituvchilar o'z mutaxassislik fanlari bo'yicha o'zlari tanlagan mavzudagi darsni eng maqsadga muvofiq ko'rgazmali qurollardan foydalanib o'tkazish yuzasidan dars ishlanmasi tayyorlashlari va uning asosida ochiq darslar o'tkazib borishlari tavsiya qilinadi.

Badiiy adabiyot borliqni jonli manzaralar, obrazlar orqali aks ettiradi. Tabiatiga ko'ra adabiyotning o'zi borliqning ko'rgazmali tasviridan iborat. Ammo adabiyot darslarida san'atning boshqa turlari: kino, televidenie, musiqa, tasviriy san'at ham yordamga kelishi mumkin. Bular adabiyot darslariga qo'shimcha axborot manbasi bo'lib xizmat qiladi, o'quvchilarda estetik tuyg'ularning shakllanishi va rivojiga imkon beradi, shuningdek adib yaratgan obrazlarning o'quvchi ongida yanada puxtaroq muhrlanishiga yordam beradi. Hozirgi paytda turli kinoapparatlar, televizor, magnitafon har bir maktabda ham, har bir xonadonda ham deyarli mavjud. Bularning hisobiga ko'rgazmali qurollar doirasi yanada kengaydi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ko'rgazmalilikdan darsda va sinfdan tashqari ishlarda foydalanish bir-biridan o'z xarakteriga ko'ra jiddiy farq qiladi hamda boshqa-boshqa maqsadlarni ko'zda tutadi. To'garak ishlarda, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'qituvchi masalan, o'quvchilarning san'atini muayyan turi haqidagi tasavvurlarini kengaytirish yoki o'quvchilarni biror tasviriy san'at, musiqa asari, tele yoki kinofilm bilan tanishtirish vazifasini qo'yishi mumkin. Bu albatta o'quvchilarning adabiy asarlarni o'zlashtirishlariga muayyan darajada ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Adabiyotning boshqa san'at turlari bilan o'zaro ta'siri bir xil bo'lmasa-da, o'quvchilarning kino, teatr, musiqa, tasviriy san'at haqidagi tajribalari ularning adabiy jihatdan kamolotlarida jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Darsda esa ko'rgazmalilik o'quvchilarning asarni o'zlashtirishiga yordam bera oladigan darajadagina qo'llanishi mumkin. Aks holda u birinchi o'ringa chiqib, asosiy mavzu orqa o'rinda qolishi mumkin. Adabiyot darslaridagi ko'rgazmalilikning bosh vazifasi o'quvchilarga adabiy asarni idrok etishda ko'maklashish, yozuvchi ijodini to'laroq tasavvur etishga yordamlashish adabiy-nazariy tushunchalarni egallashga qo'shimcha imkon yaratish, o'quvchilar nutqini o'stirishni ta'minlashdan, bir so'z bilan aytganda adabiyot o'qituvchisi oldida turgan barcha vazifalarni hal qilishga yordam berishdan iborat.

Bu xususiyat har bir aniq holatda turli xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Ko'rgazmalilikdan foydalanganda darslarda shartli ravishda o'quvchining passiv yoki faol ishtiroki haqida gapirish mumkin. Agar ko'rgazmali qurol o'quvchi faolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatmasa undan foydalanmagan ma'qul.

Gap o'tmish adabiyoti, yoxud chet el hayoti bilan bog'liq asarlar ustida boradigan bo'lsa, ko'rgazmalilikning ahamiyati yanada ortadi. Zero o'quvchi xira tasavvur qilgan yoki mutlaqo tasavvurga ega bo'lmagan voqea va hodisalar haqida ko'rgazmalilik tufayli yorqinroq va aniqroq bilim va tasavvurlarga ega bo'ladi. Bunday paytda o'qituvchining izohi kamlik qiladi, ana shu o'rinni ko'rgazmalilik to'ldiradi. Ko'rgazmalilik o'qituvchi izohida ham mavjud. Garchi bunday holatlarda o'quvchida passivlik sezilsa-da,

ammo bu ko'rgazmalilikning rolini mutlaqo pasaytirmaydi. Ammo shunisi muhimki, ko'rgazmalilik vositasida o'quvchi faol muloqotga, suhbatga, faol fikrlash darajasiga yetsin. Ko'rgazmalilik adabiy jarayon, hodisa yoki obrazning muayyan qirralarini ochishga yordam bersagina shunday bo'ladi. O'quvchilar bilim faoliyatini oshirish va faollashtirishda ularni o'zlarini ko'rgazmali qurollar yasashga jalb etish ham samarali bo'ladi. Xususan, she'riy vaznlarni belgilashda, adabiy tur va janrlarni ajratishda o'quvchilarning o'zini ham bunga jalb etish mumkin. Bu o'quvchilardagi muayyan bilimlarni mustahkamlashda ham qo'l keladi.

Demak, ko'rgazmalilikning vazifalari nihoyatda xilma-xil bo'lishi mumkin. Hozirgi paytda ko'rgazmalilikning turlari nihoyatda xilma-xildir.Ularning har biri ko'rish, eshitish, sintetik shakldagi ko'rgazmalilikka tegishli bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Yo'ldoshev J, Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. -T.: O'qituvchi, 2004. -104 b.
2. Qozoqboy Yo'ldosh. Yoniq so'z. -T.: Yangi asr avlodi, 2006. 448 bet.
3. Qodiriy. Mehrobdan chayon. -T.: Adabiyot va san'at, 1974.
4. Qodiriy. O'tgan kunlar. -T.: Sharq, 2014.
5.Oripov A.Ishonch ko'priklari.-T.: Adabiyot vasan'at nashriyoti.1989.

TIL VA JAMIYAT

Teshaboyeva Bibiroziya
Andijon davlat universiteti 2 bosqich talabasi
Telefon: +998975802751
bibiroziya.teshaboeva@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada tilning asosiy vazifalari va uning jamiyat bilan bog'liqligi borasidagi fikrlar bayon etilgan. Bundan tashqari, til har doim jamiyat bilan birga rivojlanib, o'sib borishi, jamiyatsiz til, tilsiz jamiyat bo'lmasligi to'g'risidagi qarashlar mavjud. Ya'ni til va jamiyat tushunchalari ma'no anglatish nuqtai nazaridan farqli ma'nolarni ifodalasa-da,ular doimo bir-biri bilan uzviy bog'liqligini ko'rishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: til, jamiyat, xalq, sotsiolingvistika, voqelik

Tilshunoslikda til haqida shunday fikrlar mavjudki, ushbu fikrlar har doim o'zgarib, rivojlanib, o'z tasdig'ini topib, zamonlar osha saqlanib keladi. Shuning uchun xam, tilshunoslik fanida til haqida yagona ta'rif mavjud emas. Tilni xalq yaratadi va o'z navbatida jamiyat taraqqiyoti mobaynida u takomillashib boradi. xalqning o'tmishi, uning kelajagidagi bor narsa uning tilida saqlanib qoladi. Shu boisdan xam, jamiyatdagi har qanday o'zgarish, o'z navbatida tilda aks etadi. Xuddi shu jarayon til va jamiyatning o'zaro bog'liqligini isbotlab beradi.

Shunday fikrlar mavjudki, til insoniyat tarixi qadar qadimiydir. Uning paydo bo'lishi va rivojlanishi inson jamiayti bilan mustahkam bog'liq hisoblanadi. Xuddi shu til va jamiyatning o'zaro uzviy munosabatini sotsiolingvistika o'rganadi. Sotsiolingvistika- ya'ni ijtimoiy tilshunoslik quyidagi masalalarni o'rganadi va tatbiq qiladi:

a) til va jamiyat o'zaro bog'liqligi va ularning o'zaro mutanosibligi;
b) jamiyat rivojlanishi bilan bir qatorda uning ijtimoiy vazifasi oshib borishi;
c) adabiy til va shevalarning lug'at boyligi kengayishini;
d) o'zaro o'xshash bo'lgan ya'ni qarindosh bo'lgan tillarni bir-biriga ta'sir ko'rsatishini;
e) tillar faqat lesik jihatdan emas, balki grammatik jihatdan ham ta'sir etishligi haqida fikr yuritadi.

Insoniyat taraqqiyoti davomida eng muhim aloqa quroli bo'lmish tilning jamiyatga ta'siri borasida turli qarashlar, turli xil fikrlar, turli nazariyalar vujudga kelgan. Bunday fikrlarni umumlashtirib shunday tushunishimiz mumkin:

1. Jamiyat bo'lib birlashgan kishilargina tilga ega ekanigi;
2. Tilning vujudga kelishi xech qanday qonuniyatlarga bo'ysunmasligi;
3. Til tabiiy-biologik hodisa emasligi;
4. Til kishilarning nasliga, irqiga, tabiatiga aloqador emasligini bilib olishimiz mumkin.

Demak, til va jamiyat birgalikda vujudga keladigan ijtimoiy hodisadir. Shuningdek jamiaytda ro'y berayotgan har qanday voqelik qaysidir ma'noda tilda o'z ifodasini topadi. Avvalo, uning ijtimoiy tabiati uning jamiyatda mavjud bo'lishi hamda jamiyat manfaatlariga xizmat qilishida namoyon bo'ladi.

Tilning alohida tizim sifatida bir qancha vazifalarni bajaradi:

· Aloqa- munosabat vazifasi.Tilning ushbu vazifasi jamiyatda aloqa-munosabat vositasi sifatida xizmat qilishidan iborat ekanligidadir. Ushbu vazifa tilning eng muhim vazifasidir. Til aloqa-munosabatning muhim vositasi sifatida jamiyat bilan, uning madaniyati, turmush tarzi bilan uzviy bog'liq holda amalga oshadi.

· Tilning hissiy ta'sir vazifasi. Til muayyan bir fikrni ifodalar ekan, ushbu jarayonda u tinglovchiga ta'sir etishida ya'ni tinglovchiga xabar, sezgi, hayajon, xohish ifoda etib hissiy ta'sir ko'rsatadi.

· Tilning to'plash vazifasi. Bunda til to'plash vazifasini bajaruvchi muhim manba hamdir. Ya'ni til millatlararo aloqa vositasi, u qadimdan to hozirgacha to'plangan bilim va tajribalarni avloddan-avlodga yetkazib berish vazifasini o'taydi.

Xulosa qili aytganda, til bilan jamiyatning o'zaro bog'liqligi xech qanday asoslab berilmaydigan hodisadir. Til bilan jamiyatning o'zaro uyg'unligi ularning aynan bir vaqtda vujudga kelib, ularning har ikkalasi ham asosiy vazifani bajaruvchi omillardan biri ekanligini, tilsiz jamiyat, jamiyatsiz til bo'lmasligini aniqlashtirib berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduazizov A.A Tilshunoslikka kirish.-T.,1999
2.Sharipova O', Yo'ldoshev I.Tilshunoslikka kirish.Toshkent,2006

MAKTABDA INGLIZ TILI DARSLARINI O'TISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI : MUAMMO VA YECHIM.

To'xtayeva Nargis Hikmatullayevna
Buxoro viloyati Shofirkon tumanidagi
3-ummumiy o'rta ta'lim maktabi ingliz tili fani o'qituvchisi.

Annotatsiya: Maqolada kunning dolzarb mavzusiga aylangan o'zaro fanlararo bog'liqlik ayniqsa, informatika va chet tili o'qitish metodikasining o'zaro uzviy bog'liqliklari boshlang'ich sinflar doirasida yoritilgan, afzallik taraflari yoritib berilgan.Interaktiv metodlar asosida til ko'nikmalarini yanada keng yoritish qoidalari ifodalangan.

Kalit so'z: texnologiya, o'qitish metodikasi, multimediya, psixologik to'siq, samaradorlik.

Bugungi kunda texnologiyaning ma'lum yo'nalishlarida va unga bog'langan holda barcha sohalarning muta'nosibligiga asosan ayniqsa chet tili bilan o'rganish muhim va asoslidir. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi zamonda so'ngi o'n yillikda ayniqsa chet tilini o'qitish metodikasi tez sur'arlarda o'sib bormoqda. Bu juda ham muhim, o'rganuvchining o'qituvchilarning ta'limi mohiyatini tushunib yetishi va turli xil til o'rgatish texnikalarini ongli tarzda amalga oshirishi shu bilan birga ularning mohiyatini ham ko'ra bila olishidir. Bugungi kun ingliz tili o'qituvchisiga juda katta ma'suliyat qo'yilmoqdaki, unda yosh avlodni qiziqishini uyg'otish uchun nafaqat bilim va ko'nikma , balki yetarlicha zamonaviy bilimlarga ham ega bo'lishi kerak deb hisoblanadi. O'quvchilar psixologiyasini puxta bilgan holda qaysi yoshdagi o'rganuvchilarni qanday motivatsion ruhini uyg'ota olish mumkinligi, darsga - sinf xonasiga nimalar bilan kirib kelish kerakligi va asosiysi ularning dunyo qarashiga qay tarzda ijobiy ta'sir qila olishi mumkinligininini bilishi kerak.

Bilamizki bugungi kunda o'sib kelayotgan yosh avlod komputer texnalogiyalarisiz hayotni tasavvur qila olmaydi. Shunday ekan chet tili o'rgatish ta'limida multimediyalarning o'rni beqiyos. Akademik izlanuvchilarning tasdiqlashiga ko'ra tilshunoslikda va ayniqsa chet tili o'rgatishda eng yaxshi metod tan olinmagan va chet tili ta'limida xech bir metod boshqa metodlarga boshqaruvchi bo'la olmaydi. Bugungi zamonaviy eramizda informatsiya va texnalogiya, glaballashtirish va kommersiyalash, ingliz tili ta'limi integral tarzda bizning bugungi asosiy ta'lim mavzuimiz bo'libgina qolmay markaziy holatni egallab olmoqda. ICT - axbarot va muloqot texnalogiyasi bugungi hayotimizning eng asosiy qismi bo'lib kelmoqda . Chet tili o'rganishga bo'lgan talab ham kundan kunga oshib bormoqda. Ta'lim texnologiyalari, bu ta'lim jarayonlarida zamonaviy axborot texnologiyalari-dan unumli foydalanishdir. Multimedia orqali o'qitish tarbiyachiga katta imkoniyatlarni beradi. Bunda bollalarning qiziqishini yuqori darajagacha ko'tarish va ularning e'tiborini uzoq vaqt jalb qilib turish mumkin. Bu orqali bollarning tilga bo'lgan ko'nikmalarini yanayam ortganini korishimiz mumkin. Agarda mavzuyimiz "Animals" bo'lsa biz har xil hayvonlarni nomlarini o'qitishda avval ularning tovushlaridan foydalanamiz bolalar bunga qattiq e'tibor qaratishadi, va shu zahotiyot cat?tiger?bear?.deb hayvonlar nomlarini ayta boshlashadi. Boshlang'ich yoshidagi bosqichda til qobiliyatining rivojlanishi asosan doimiy taqlid orqali shakllantiriladi va ko'pgina ro'llar ko'pincha multfilmlarda taqlid orqali paydo bo'ladi, Shuning uchun, multfilmni tomosha qilayotganda, bolalarning harakatlardagi o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin. Shu sababli, multfilmni samarali ta'lim vositasi sifatida qo'llashimiz mumkin, bu esa bolalarning ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi. Hozirgi kunda ba'zi ota-onalar bolalarning multfilmga bo'lgan qiziqishidan juda tashvishga tushishadi, ammo aslida, yosh bolalarning rivojlanishidagi ularning fantaziya dunyo qarashini shakllanishining asosiy omili bo'lib xizmat qiladi.

Chet tilini o'qitishda eng samarali yondashuvlar qatorida axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositasida, masofaviy ta'limda til o'rgatish metodikalarini ko'rsatish mumkin. Kompyuter texnologiyalari, ayniqsa, Internetdan foydalanib, til o'rganishda juda keng imkoniyatlar mavjud.

Ular quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1) chet tilida og'zaki munosabatlar bo'yicha o'zlashtirgan bilimlari va malakalari dan amaliyotda faol foydalanib, olgan til materiallaridan faqat o'zining nutqida emas, balki Internet orqali tanishgan suhbatdoshi nutqini tushunishda ham foydalanishga o'rganish;

2) o'zlashtirgan nutqiy bilimlarini munosabatning o'zgaruvchan
vaziyatlariga ko'chirish moslashuvchan ko'nikmasini shakllantirish;

3) norasmiy muloqot shaklida amalga oshiriladigan suhbatni uyushtirishga, so'zla-shishni o'rganishga nisbatan kuchli, darhol yuzaga k?ladigan motivatsiyani va haqiqatga yaqin munosabat motivatsiyasini yaratish;

4) psixologik to'siqlarni yengish, xususan, chet tilida so'zlashishdan va xatoga yo'l qo'yishdan

cho'chish,to'sig'ini hamda ichki va tashqi tortinish hamda uyalish hissini yo'qotish;

Xulosa qilib aytganda, ch?t tillarini o'rganish hozirgi davrimizning dolzarb vazifalaridan ekan, o'sib kelayotgan yosh avlodga til o'rgatishning jadal metodlari-ni ishlab chiqib, ularga tavsiya etish olimlar va o'qituvchilarning k?chiktirib bo'lmas ishlaridan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.Q.Xatamova, M.N.Mirzayeva. "Ingliz tili darslarida qo'llaniladigan interfaol usullar" (uslubiy qo`llanma), Navoiy, 2006, 40 bet.

2. M. Xoldorova, N. Fayziyeva, F. Rixsittilayeva. "chet tilini o'qitishda yordamchi vositalardan foydalanish".

FRAZEOLOGIYA SOHASI, FRAZEMALARNING USLUBIY MA`NOSI VA MA`NO KOMPONENTLARI.

Ortiqov Eldor
Nizomiy nomidagi TDPU Termiz filiali o`qituvchisi
To`xtayeva Dilobar
Nizomiy nomidagi TDPU Termiz filiali
Boshlang`ich ta`lim yo`nalishi talabasi

Annotatsiya
Ushbu tezisda frazeologizmlarning qo`llanilish sohasi, frazemalarning uslubiy ma`nosi va ularni emotsional-ekspressiv bo`yoqdorligini aniqlash tahlil qilingan.
Kalit so`zlar: Frazeologiya, frazeologiya sohasidagi tadqiqotlar,frazeologik stilistika, frazema,ematsional-ekspressiv bo`yoq.

Frazeologiya (yunoncha phrasis-ifoda ,ibora va logiya) tilshunoslikning tilning frazeologik tarkibini uning hozirgi holatida va tarixiy taraqqiyotida tekshiruvchi bo`limi hisoblanadi. Tilshunoslik bo`limi sifatidagi frazeologiyaning asosiy diqqat e`tibori frazeologizmlar tabiatini va ularning kategorial belgilarini o`rganishga, shuningdek frazeologizmlarning nutqda qo`llanish qonuniyatlarini aniqlashga qaratiladi. Frazeologiyaning eng muhim muammosi frazeologizmlarni nutqda hosil qilinadigan so`z birikmalaridan farqlab, ajratib olish va shu asosida frazeologizmlarning belgilarini aniqlashdir. Frazeologiya tilshunoslikning mustaqil tarmog`i sifatida XX asrning 40-yillarida rus tilshunosligida paydo bo`lgan.Uning dastlabki shakllanishiga rus olimlari A.A.Potebnya, I.I.Sreznevskiy,A.A.SHaxmatov asarlarida asos solingan bo`lsa, barqaror (turg`un) so`z birikmalarini alohida tilshunoslik bo`limi frazeologiyada o`rganish masalasi 20-40-yillardagi o`quv metodik adabiyotlarda YE.D.Polivanov,S.Abakumov, L.A.Bulaxovskiy asarlarida ko`tarib chiqilgan.Tilshunoslikda frazeologik birliklarning ekspressiv baholash va funksional-uslubiy bo`yoqdorligini uslubiy ma`no komponentlari sifatida tan olish; ular o`rtasidagi munosabat masalasiga doir turli xil qarashlar mavjud.A.I.Molotkovning fikricha frazeologik birliklarning ekspressiv-emotsional bo`yog`i ularning muayyan nutqiy uslublarda qo`llanishi bilan bog`liq emas: "Frazeologizmning ekspressiv-emotsional bo`yog`i ularni muayyan funksional uslubda qo`llash hamda o`zlardagi uslubiy va tarixiy -zamonaviy tavsifi bilan bog`liq emas. Ibora og`zaki so`zlashuv, oddiy eskirgan dialektal xususiyatlaridan qat`iy nazar u yoki bu ekspressiv-emotsional bo`yoqni nutq jarayonida qo`llanishda oladi." Boshqa bir guruh olimlar olimlar esa bu ikki komponent bir-biri bilan uzviy bog`liq ular bir butun holda frazealogik birlik semantik tuzilishida amal qiladi, deb ta`kidlaydilar.

Avval qayt qilganimizdek, bu ikki komponent (ikki bo`yoq) frazeologik birlikdagi bir hodisaning turli tomonlaridir.Bazan frazeologik birlikning ekspressiv - baho bo`yog`i uning funksional-uslubiy bo`yog`i bilan o`zaro aloqada bo`lib , ular o`rtasida sabab- oqibat munosabatlari yuzaga keladi ya`ni biri ikkinchisini taqozo etadi, keltirib chiqaradi.Frazeologik birlik qanchalik yorqin ekspressiv - baho bo`yog`iga ega bo`lsa, u funksional- uslubiy jihatdan shunchalik chegaralangan bo`ladi(masalan , qiyoslang :so`zlashuv uslubiga xos bo`lgan"itday aqillamoq ","itday talamoq","go`ringda to`ng`iz qo`pqur","tishining kirini so`rmoq"singari iboralar).Yoki salbiy baho ottenkasiga ega bo`lgan "bozori o`tmadi","o`zini bozorga solmoq","zahrini sochmoq" kabi frazeologik birliklar ko`proq so`zlashuv uslubi uchun xarakterli bo`ladi.

Ko`p hollarda ikki baho ottenkasining qo`shilgan holati ko`zga tashlanmaydi, ular alohida-alohida ,bir-birlari bilan bog`liq bo`lmagan holda amal qiladilar . Jumladan ,ibora ematsional bo`yoqqa yoki ijobiy baholash ottenkasisigas ega bo`lsa ham ,hammasi kitobiy bo`lavermasligi mumkin, yoki aksincha , inkor , salbiy bo`yoqdorlikka ega bo`lgan frazeologik birlikni hamma vaqt so`zlashuv uslubiga xos deyish to`g`ri bo`lmaydi.

Funksional jihatdan muayyan uslubga bog`liq bo`lmagan frazeologik birliklar uchun emotsiallik va baholash xususiyati nisbatan kamroq xarakterlidir,lekin ularning ko`pchiligi (keng ma`noda) ekspressiv xususiyatga ega.Masalan:"oq yo`l" ,"omon bo`ling","yaxshi boring","yaxshi yotib turing" kabi frazeologik birliklar ekspressivlik xususiyati bilan ajralib turadi.Bu tipdagi iboralardan yani so`zlashuv nutqi iboralaridan ayrimlari yuqori (ko`tarinki) xarakterga ega bo`lib ,ma`qullash ottenkasini ifodalasa ("yaxshi boring","omon bo`ling" singari) qolganlari esa salbiy ottenkani ifoda etadi.Turli ekspressiv- emotsional baho xususiyatigaegabo`lgan bundafrazeologik birliklar bir tipgaya`ni muayyan

uslubgaxos bo`lmagan iboralar tipiga birlashadilar .

Ko`rinadiki iboralar uslubiy ma`nosining ikki komponenti o`rtasidagi aloqa xilma- xildir. SHunga ko`ra ,iboraning funksional uslubiy xoslanishini belgilashda uning ekspressiv-baho bo`yog`i har doim ham asosiy mezon bo`la olmaydi .

Frazemalarning emotsional - ekspressiv bo`yoqdorligini aniqlashning eng muhim yo`li ularning semantik - stilistik va kontekstual metodlar asosida sinchiklab o`rganish , kontekstdagi ma`no qirralarini belgilashdir . Ammo "O`zbek tilining izohli lug`ati "da , prof.SH.Rahmatullayevning " O`zbek tilining izohli frazeologik lug`ati","O`zbek tilining frazeologik lug`ati",M.Sodiqovaning "Qisqacha o`zbekcha - ruscha frazeologik lug`at " kabi asarlarida frazemalarning ma`no doirasini aniqlash jarayonida unda qo`shimcha uslubiy baho momentlari borligi ko`pincha hisobga olinmaydi.Masalan, "ko`zi to`rt bo`ldi " iborasini olib ko`raylik .Bu frazeologik birlik "Izohli lug`at "da "nihoyatda intizorlik bilan kutdi" ma`nosiga ega ekanligi qayd qilingan.SH.Rahmatullayev lug`atida esa bu frazeologik birlikning "ko`zlari to`rt bo`ldi " ,"ko`zi to`rt bo`lib ", "ikki ko`zi to`rt ","to`rt ko`z bo`lib" variantlariga ega ekanligi qayd qilingan hamda " intizor bo`lmoq " ma`nosini ifodalashi ta`kidlangan .M.Sodiqova lug`atida esa bu iboraning ruscha tarjimasi " vse glaza proglyadel; on jdal s neterpeniem; jdal ne dojdalsya, vsmatrival" tarzida berilgan.Yuqoridagi uch leksikografik manbada bir frazeologik birlikning izohi farqli tomonlarga ega.Bu jihatdan "Izohli lug`at"da qayd etilgan " nihoyatda " semasi o`sha iboraning qo`shimcha stilistik ma`nosi sanaladi.Har uchala manbada ham o`sha iboraning uslubiy xoslanishi, ya`ni qaysi uslubda ko`proq qo`llanishi ham ta`kidlab ko`rsatilishi lozim edi . Endi xuddi shu iboraning ayrim turkiy tillardagi izohi bilan tanishaylik."Qirg`iz tilining frazeologik lug`ati "da "Ekki kozu tort boduu"( "ikki ko`zi to`rt bo`lmoq") iborasi keltirilib, unga "qandaydir bir narsani joni dili bilan tilamoq, zoriqib kutmoq " deb izoh berilgan."Uyg`ur tilining izohli frazeologik lug`ati " da "to`rt ko`zi bilan (kutmoq)" iborasi keltirilib, unga "intozorlik bilan" tarzida izoh berilgan."Tatar tilining frazeologik so`zligi"da "ko`z durt bo`lu" iborasiga " kutilmagan hol- xabardan, ajablanuvdan ko`zlar zo`r bo`lib ochiluv", deb izoh berilgan,turkman tilida esa "ko`zi to`rt bo`lmoq" iborasi "turmush qurmoq, uylanmoq" ma`nosini ifodalaydi

Ko`rinadiki, leksikografik va frazeografik manbalarda frazeologik biliklar turlicha izohlanadi, frazeologik birliklarning uslubiy ma`nosi (konnotativ xususiyati) qayd etilmaydi.

Har bir tilning frazeologik qatlami o`sha tilning egasi bo`lgan xalqning urf`-odatlarini, turmushini, dunyoqarashini aks ettiradi. Bundan tashqari obrazli , mazmundor , ta`sirchan va bo`yoqdor iboralar nutqimiz ko`rki tilimiz boyligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.SH.Rahmatullayev."O`zbek tilining izohli frazeologik lug`ati".
2.M.Sodiqova ,A.Abduazizova.Umumiy tilshunoslik.

FEATURES OF THE LEGAL TEXT IN FOREIGN LANGUAGE

To`rayeva Umida Shuxratovna
TerDU Xorijiy til va adabiyoti yo`nalishi 2-bosqich magistranti
Tel: +998919115777. e-mail: Umidaturayeva1@gmail.com

Abstract. This article discusses lexical and semantic features of English-language legal texts. On the basis of functional, structural and semantic characteristics, a definition of a legal term is derived, by which it is proposed to understand a word or phrase used in the functioning of a juridical official style of the language, expressing the key concept of a legal norm.

Keywords: lexical and semantic features, translation, juridical text, legal terms.

Nowadays translators are analyzing all the problems of translation studies in relation to the peculiarities of translation from a foreign language into the native one. When experts or translators translate various types of documents into any foreign language, they take into account lexical and semantic features of English-language legal texts, determine the semantic proximity of the text in native language and the text in foreign language.

The study of lexical and semantic features of the text is devoted to the scientific works of Thierry Grass [1], F.S.Bakirov[2], D. Lotte[4] , F.A. Sokolov[5] , V. Turanin [6], Sh.N.Kuchimov[7] and others. Nowadays, most scientists consider that one of the most critical issues is the interpretation of legal text. Accordingly, the search for new approaches to translation activities is required. How accurately and efficiently a person uses translation techniques, depends on the correct understanding of the translated text. Such an approach assists in the best way to resolve practical problems which are related to the peculiarities of translation, in particular, a legal text. Not only knowledge of legal terminology, judicial-procedural classifications and constitutional norms, but also the personal qualities of the translator, who is not only bilingual, but also proficient in reconstructing the cultural context of the authentic text, plays a vital role in the understanding of the text by members of other nations.

A scientist should feel the cultural features, lexical and semantic peculiarities of the translated text because language is not an isolated subject. It is a concern of the culture while translation is not only a replacement for a language; it is also a practical substitute for cultural elements. Any juridical text should be precise and full of presentation of the material in the almost adequate absence of those expressive elements.The authors of legal texts elude the usage of expressive speech in order not to break the main principle of juridical terminology - accuracy and clarity of thought. That is why the juridical text looks somewhat dry. When a specialist translates from Uzbek into English, he begins with lexical and semantic features transformations of the text at the level of a particular sentence as a minimal speech work.

The specific of the translation of legal documents is mostly due to the presence in the source language of well-established terms and aspects, in the narrow sphere. Functional, structural and semantic features of terms of legal terms acknowledge us to derive the following definition. The legal term is a word or phrase used in the functioning of the legal underlay of the official business language style, expressing the key concept of the legal norm, possessing clear semantic boundaries, limited opportunities habits.

High-quality translation denotes respect for lexical and semantic features of the text. According to L. Tkacheva [10] all legal terms can be divided into three groups:

- simple one-component terms, for example, accept (acceptance), auction (auction), exchequer (treasury), taxation (law), lawfully (legal);
- complex two-part (three-part, four-part) terms, for example, taxpayer (soliq to`lovchi), chairman (sud jarayonida ishtirok etadigan vakil); driving under the influence (mast holatda avtomobil boshqarish).
- Terms in English have a more abstract character than corresponding ones in Uzbek language. So, the phrase "tergov eksperimentini o`tkazish" corresponds to the English 'in a re-enactment of the crime'; the phrase "pushaymonlik arizasini yozish" - 'wrote a surrender'.

Changes may be compound. There is a transformation of both particular words and sentences in general. Despite the fact that the lexical units do not have a ordinary internal form and corresponding semantic components, they abundantly express the semantic content in various languages: "mavjud emas" - "no longer valid". The unit is replaced with a logical word or phrase: "himoyam ostidagi shaxs quyidagicha tasvirladi" - "the defendant described these events as follows".

Thus, the translation process consequently covers the reconstruction of the text which is based on the understanding and interpretation of the translator. At the same time, legal translation is more an act of

intercultural communication than a work of interlinguistic communication.

REFERENCES:

1. Thierry Grass. La traduction juridique bilingue franзais-allemand. Thuse de Doctorat, - Nancy, 1996. - 325 p.
2. Бакиров Ф.С. Некоторые вопросы узбекской юридической терминологии. - Ташкент, 1955. - С. 278-296
3. Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии / Д. С. Лотте. - М. : Изд-во Академии наук СССР, 1961. - 159 с
4. Соколов Ф.А. Перевод как эстетическая интерпретация тек-ста / - СПб. : Астерион, 2009. - С. 268-273
5. Туранин В.Ю. К вопросу о феномене юридического языка // Современное право, 2010. - № 7. - С. 7-10.
6. Ko`chimov Sh. Huquqiy normalarni o`zbek tilida ifodalashning ilmiy-nazariy muammolari. Filol.fanlari d-ri…dis. Avtoref.-Toshkent,2004.-49-b.
7. Шлепнев Д.Н. Юридический перевод, юридический текст, юридический дискурс. Филологические науки.
8. Ткачёва, Л.Б. Основные закономерности английской терминологии / Л.Б. Ткачёва ; под ред. И. В. Арнольд. - Томск : Изд-во Том. ун- та, 1987. - 200 с.

ZAMONGA MOS ZAMONAVIY DARS O'YINLARI

Tolibova Dilnora
Buxoro viloyati G'ijduvon tuman olimpiya va milliy sport turlari bo'yicha Davlat ixtisoslashtirilgan maktab- internating ingliz tili fani o'qituvchisi (90- 994- 0116)

Kalit so'zlar: o'qitish uslubi, "Merganlar" o'yini ("Sniper " game), Sehrli maydoncha (Magic field) o'yini, . "Kiyimlar va fasllar "o'yini ("Clothes and seasons " game), "Savollar savati " o'yini ("A basket of questions" game)

Annotatsiya:Interfaol o'yinlar o'quvchilarning darslarni yaxshi o'zlashtirishlari va darsda zerikmasliklariga yordam beradi. Shuningdek ularda xotira, tezkorlik kabi xususiyatlarni rivojlantiradi.

"Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan , yuksak intelektual va ma'naviy salohiyotga ega bo'lib ,dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi ,baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz"

Har bir fan o'qituvchisi o'zining o'qitish uslubiga ega bo'lganidek , men ham ingliz tili darslarimda o'zim o'ylab topgan interfaol o'yinlardan keng foydalanaman. O'quvchiga o'yinlarsiz nazariy dars o'tish , uni zeriktirishga olib keladi. Shu interfaol usulllardan bir qanchasini sizlarga ham aytib o'tmoqchiman. Balki sizlarga ham kerak bo'lib qolar degan umiddaman.

1-Usul ."Merganlar" o'yini ("Sniper " game) o'quvchining aqliy qobiliyatini oshirishda va sport sohasida merganlikni o'rganishda ham muhim hisoblanadi. Bu ikkala sohani bir vaqtda olib borish o'quvchini zeriktirmaydi. Zehnni va chaqqon qiladi. Merganlik taxtasida 20 gacha raqam , 3 ta o'qdon va o'rtada kichik qizil aylana bor. 20 ta raqamga 20 ta savol tuziladi. 3 ta o'qdon bilan merganlik taxtasiga 3 yoki 4 metr yoki o'zingiz xohlagan masofadan o'qdon otiladi. Agar birinchi o'qdon merganlik taxtasining teng o'rtasiga (qizil aylanaga) qadalsa , 5 ball yutib oladi va o'sha raqamdagi savol tanlanadi. Agar savolga javob bersa yana 5 ballni qo'lga kiritadi. Agar o'qdon teng o'rtadan chetlab ketsa, ball berilmaydi va o'sha raqamdagi savolga javob beradi. 3 marta imkon beriladi. Agar 3 ta o'qdon ham merganlik taxtasiga tegmasa , o ball beriladi va ball yig'olmaydi. Shu tariqa o'yin davom etadi.

2-Usul. Sehrli maydoncha (Magic field) o'yini (Polechudes o'yinidek) . Bunda sonlar va alfavit harflari yozilgan aylana shakldagi uskunaning ustiga aylanadigan strelkasi bo'lib, o'quvchilar 2 yoki 3 guruhga bo'linib, tizilib turishadi, har bir guruhdan navbatma-navbat o'quvchilar chiqib, aylanma uskunani aylantirishadi. Strelka qaysi songa to'gri kelsa, o'sha sonni inglizcha nomini aytib, to'g'risidagi harfga 3 tadan so'z aytishi kerak bo'ladi. Agar aytolmasa, o'sha o'quvchi guruh a'zolarining oxiriga borib o'tiradi va navbati kelganda yana javob berishga to'g'ri keladi. . To'g'ri aytgan o'quvchi o'z partasiga borib o'tiradi. Qaysi guruhda kam o'quvchi qolsa o'sha guruh g'olib bo'ladi. Masalan: 5 - five, E- elephant, egg, energy. Bu uskunadan "Zakovat" o'yinida va vaqtni aytishda ham foydalansa bo'ladi. Bu jihoz ko'p qirralidir.

3-Usul. "Kiyimlar va fasllar "o'yini ("Clothes and seasons " game) o'quvchining zehnini o'tkirlash va uni chaqqonlikka undaydi. Bunda qog'ozda chizilgan kiyimlar maketi kerak bo'ladi. Bu o'yinda o'quvchilar kiyimlarning inglizcha nomlanishini va fasllarni o'rganishadi. Masalan,

qishda nima kiyim kiyasiz? Men qishda palto, etik, shim, jimper va issiq telpak kiyaman. For example, What do you wear in winter? I wear a coat, boots , trousers, a jumper and a hot cap in winter. Bunga o'xshash savol va javoblar og'zaki, yozma bajarishi yoki harakatlar orqali bola yoki qiz bola maketini kiyintirib ko'rsatishi kerak. O'quvchi bu o'yinda zerikmaydi . ko'proq chiqib bolani kiyintirish uchun so'zlarni , gaplarni yodlashga harakat qiladi.

4- Usul. "So'z o'yini "("Word game") da qog'ozlarga so'zlar yozib , aylana qilib pol ustiga terib chiqiladi. O'quvchilar aylana qilib terilgan qog'ozlar atrofida turib olishadi. Musiqa sadosi ostida raqsga tushishadi. Musiqa to'xtagach , o'quvchilar navbatma - navbat oldinga o'girilib 3 tadan o'shanga oid so'z aytishadi. Masalan, foods (oziq - ovqatlar), hobbies (mashg'ulotlar), wild animals (yovvoyi hayvonlar) va hokazolar. Agar o'quvchi "Foods" so'zi yonida to'xtasa , shunga oid 3 ta so'z aytishi kerak. Masalan, Foods= egg, cream and milk. Wild animals= lion, tiger and fox. (yovvoyi hayvonlar- sher, yo'lbars va tulki). Agar boshqalar aytgan so'zni aytsa yoki umuman so'z aytolmasa o'yindan chiqib ketadi. Oxirida qolgan o'quvchi g'olib bo'ladi.



5- Usul. "Savollar savati " o'yini ("A basket of questions" game) da qog'ozdan yasalgan savat maketidan foydalaniladi. Unda gul yoki meva surati tushirilgan qog'oz bo'laklari orqasiga savollar yopishtirilgan bo'ladi. Har bir o'quvchi chiqib savol tanlab, unga javob berishi kerak. Javob berolmasa ball ololmaydi. Boshqa o'quvchi shu savolga javob bersa unga ball beriladi va u ham savol tanlaydi. Bu interfaol o'yinlar o'quvchilarning zehnini o'tkirlashtiradi va o'sha fanga nisbatan qiziqishi yo'qolishini oldini oladi degan umiddaman . Sinab ko'ring.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Shavkat Mirziyoyev "Erkin va farovon , demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". Toshkent "O'zbekiston" 2016-yil 59 bet

2.Internet ma'lumotlari

USING GAMES TO LEARN ENGLISH

Tolipova Feruza Abdulboqi qizi,
an English teacher of Namangan region,
Turakurgan district, school № 52
tel: 943064824

Annotation

This article is about games in learning English. A lot of activities are also given. Using games to learn English is a specially organized task that requires mental and emotional effort.

Key words: games, using, learn, English, activity, during, children, group, task

Using games to learn English is a specially organized task that requires mental and emotional effort. This is the opinion of experts from leading English schools for children. We can say that games for learning English for children are the main form of learning a foreign language. They create a relaxed environment in which learning is easier than forced teaching methods. During the game, children not only learn new words, expressions, or rules, but also develop attention, memory, thinking, observation, and, of course, creativity. The use of games in learning helps to maintain interest in the English language, and also helps to easier learn, consolidate and master the lesson material. Now it is worth considering in more detail the English language games for children. They can be used individually or in small groups. Playing during classes helps to solve certain tasks: creates a psychological mood for speech communication, prepares for the development of situational spontaneous speech and helps in choosing the optimal speech option. In addition, games for learning English help to remove responsibility for mistakes, thereby eliminating psychological stress when communicating. The student presents himself as the hero of the game, which means that he can not be afraid to do something wrong. Using games to learn English is the best way to get students interested in the lessons and keep it going for a long time. The main advantages of this method are interactivity, unobtrusiveness, variety, ease of use, memorization of the passed material and lack of cramming. In this case, the child will not have to be forced to learn lessons, he will strive for this . Games for learning English - this is the best option not only for children, but also for adults. Games for learning English allow you to diversify the learning process, thereby allowing you to master new skills and abilities and significantly enrich your knowledge. There are a lot of games for learning English, so every student can choose the best ones for themselves. To learn the lexical material and grammatical rules with the help of puzzles, dominoes or contests in which there is a spirit of competition. You can adopt role-playing games that play out different life situations, using only English.

Activity 1. "Simon says."

A very simple game that is better and more fun to play in a group. The teacher acts as a leader and must give instructions to the children to act. For example, " Simon says: touch your ears !"- "Simon says, touch your ears!", "Simon says: put your hands on your shoulders!"- "Simon says, put your hands on your shoulders!". There may be many options.

Activity 2." English with brave Teddy"

In this game, we will learn how to spell and pronounce English letters together with a brave firefighter-Teddy bear. Let's get to know this hero and learn the letters. If you have recently started learning English, then this game with brave Teddy will help you learn English letters. Connect all the letters of the English alphabet in order and consider the fireman Teddy. When you play, listen carefully to how the letters are pronounced and remember their spelling. And then you will playflly study this topic. So, let's go play with fireman Teddy?

Activity 3." The First letter"

Carefully look at the colourful picture, determine which letter begins this word and find this letter. We play and learn English with pleasure. We continue to learn English. Let's try to determine which letter different words begin with. To do this, look at the picture, then on the right are all the letters of the alphabet. Click to select the letter that starts the word shown in the image. When you complete the task, try your hand at the next word. Play and learn the language.

Activity 4." Plural"

Nouns in English, as in Russian, can be used both in the plural and singular. Let's play and find out how the plural is formed in English. Young English lovers, if you have studied the letters and already know many English words, then it's time to study the formation of the plural. You probably already know

how to speak English for a dog or cat. And here's how to say when out of several. Just in this game, we will learn how to form words in the plural. First, learn the rules that you will see at the bottom of the playing field. And then, you can start playing. Look at the pictures, select the correct answer by clicking on it with your mouse button or finger, if you have a mobile device. And proceed to the next task. Try to complete the entire game. It will help you learn and fix this topic well.

So, we have considered examples of English games for school children and toddlers that can be used when teaching English. Remember the more lessons the teacher conducts playfully, the more interest in learning the language appears in children. And the greater the interest, the easier the learning process is.

References:

1.Avedon, M.E., & Brian, B. S.(1971). Learning Through Games. The Study of Games. John Wiley & Sons.

2.Carrier, M. (1980). Games and activities for the language learner. Nelson.

3.Crookal, D. (1990). Simulation, gaming, and language learning. Newbury House.

4.Huyen, N. T. (N.D). Learning Vocabular Thtough Games. Asian EFL Journal

ETNONIMGA ASOSLANGAN TOPONIMLARINING ETIMOLOGIK TADQIQI

Toshova Muharram,
Navoiy viloyat Karmana tuman 13-maktab
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Navoiy viloyatining ayrim toponimlari, ya'ni joy nomlari etimologik jihatdan tahil qilingan. Shuningdek, joy nomlarining atalishida etnonimlarning o'rni katta ekanligini misollar yordamida ifodalab berilgan.

Kalit so'zlar: toponim,etimologiya, tallaffuz, sinxron, til taraqqiyoti.

Til taraqqiyoti tarixida ko'p so'zlarning ma'nosi ma'lum vaqt o'tishi bilan har bir davr uchun tushunarli holda saqlanib qolavermaydi. Lekin toponimlar tilda eng ko'p saqlanib qoladigan hodisalardan biridir. Toponimlarni etimologik tahlil qilmasdan turib, ularni ma'nolarini tushuna olmaymiz. "Etimologik tahlilda nomlarga diaxron va sinxron nuqtai nazardan dalillar bilan munosabat bildiriladi. Nomlarning ilk ko'rinishi, shakllanishi, kelib chiqishini asoslab ko'rsatadigan zamonaviy ilmiy tahlildir". Navoiy viloyati toponimlarini etimologik jihatdan tahil qilganimizda ularning nomlanishida etnonimlarning o'rni katta ekanligini ko'ramiz.

Aliyon - qishloq. Xalq etimologiyasida ushbu toponimning nomlanishida Hazrat Aliga nisbat berishadi, ya'ni "Alining yoni tikkan joy" yoki "Ali yonboshlab dam olgan joy" ma'nosida izohlashadi. Lekin B.O'rinboyev ushbu toponimning birinchi qismini turkmanlarning ali-eli urug'i nomi bilan bog'laydi va ikkinchi qismini "yona" yoki "jona" turkiy tillardagi yangi so'zi bilan bog'lab, Aliyon "ali-eli urug'i yangidan barpo etgan" degan ma'noni bildiradi, - deb ta'kidlaydi. Shunga asosan ushbu toponim etnonim nomidan kelib chiqqan.

Avoqli - qishloq.Urug' nomi bo'lib, saroylarning avoxli, qo'ng'irotlarning oboxli, qipchoqsaroylarning aboqli tarmoqlari bo'lgan. T.Nafasovning ta'kidlashicha, Avoq/aboq - tamg'a shaklining nomi. Tamg'a qora uyning uvug'iga o'xshash, to'g'ri chiziqning boshi yonga qayrilgan, boshi egik to'g'ri chiziq tamg'a mollarga qo'yilgan, tamg'asining shakli asosida urug' nomlangan. Urug'iga qarab ular yashagan qishloq Avoqli deb nomlangan. Demak, Avoqli qishlog'i shu hududda yashovchi urug' nomiga qo'yilgan etnotoponimdir.

Galabek - qishloq. O'zbek xalqi tarkibida gala degan urug' bor. Mang'itlarning oqmang'it tarmog'ida gala, qoramang'it tarmog'ida galabotir urug'lari bo'lgan. T.Nafasovning ta'kidlashicha, galabek - bek avlodi, beklar to'pi, oqsoqol (biy, boy)i ko'p to'dadir. Dastlab ijtimoiy guruhni anglatgan, so'ng turli urug'lar tarkibida kichik qavmning nomiga aylangan. Davrlar o'tishi bilan ular yashagan ko'cha, guzar, mahalla, qishloq nomi maqomiga ega bo'lgan. Demak, qishloq bek avlodlari, bek to'pi yashaydigan joy degan ma'noni anglatadi.

Gumbaz - qishloq. T.Nafasov gumbaz so'zini fors-tojik tilidagi gunbad // gunbaz so'zidan o'zbek tiliga gumbaz shaklida o'zgargan bo'lib, "imoratning qubba shakli ustki qismiga nisbatan ishlatilgan qurulish atamasi" deb ta'kidlaydi va toponimning nomlanishiga shu shakldagi imorat asos bo'lganligini izohlaydi. B.O'rinboyev ham bu toponimni "qubba shaklidagi tom; qubba taqlididagi narsasi bo'lgan qishloq", deb izohlaydi. N. Begaliyevning ta'kidlashicha, qipchoq urug'ining bir tarmog'i gumbaz deyilgan.Shungaasoslanib, bu toponim etnotoponim deb izohlaymiz.

Kadan - qishloq. X.Doniyorov o'z tadqiqotlarida xalq orasida kadan urug'i borligi haqida ma'lumot beradi. N.Begaliyev esa Qashqadaryo viloyatining Muborak tumanida kadan nomli urug' borligini aytib, tarixiy manbalardagi kidan qabilasi nomi keyinchalik kadan tarzida talaffuz qilingan bo'lsa kerak, deb izohlaydi. Shunga ko'ra bu toponim etnonimdan etnotoponimga ko'chgan.

Mergan - qishloq. "Mergan" so'zi "ov bilan shug'ullanuvchi, aniq nishonga oladigan, aqilli, epchil, ko'rimli" degan ma'nolarga ega. Qo'ng'irot qabilasining oyinni tarmog'iga kiradigan bir urug' mergan, mergancha deb atalgan. B.O'rinboyev bu qishloq nomi shu etnonim asosida shakllangan, deb izohlaydi. Shunga ko'ra uni etnotoponimlar qatoriga kiritamiz.

Olchin - qishloq. "Olchin" - bir necha turkiy xalqlar, shu jumladan, Kichik Juz qozoqlari tarkibiga (alshin) kirgan yirik qabila. Olchinlarning bir qismi o'zbeklar tarkibiga ham kiradi. O'zbekiston hududidagi olchinlar Buxoro va Karmana atroflarida, Qashqadaryoning quyi oqimlarida yashashadi. Olchin urug'i bilan bog'liq toponimlar respublikamizning bir qator tumanlarida ham uchraydi. Xususan, Olchintepa (Oqdaryo tum.), Ravotolchin (Narpay tum.), Arabolchin kabi geografik nomlar bor.

Tortuvli - qishloq. O'zbek urug'laridan birining nomi. B.X.Karmishevaning qayd etishicha, o'zbek-qo'ng'irotlar orasida qabila asoschisi Qo'ng'irotota yoki Qo'ng'irbiy haqidagi rivoyat mashhur. Rivoyatga ko'ra, Qo'ng'irbiyning birinchi - katta xotinidan to'rt farzand tug'ilgan. Bular: Voxtamg'ali, Qo'shtamg'ali, Konjig'ali va Oyinnilar bo'ladi. Beshinchi farzandi Tortuvli esa kichik xotinidan tug'ilgan. Kichik xotin tortuv (sovg'a) sifatida olingani uchun uning farzandi ham Tortuvli nomini olgan. Uning avlodlari tortuvli urug'i deb

nomlangan. B.O'rinboyev esa, tortuvli urug' tamg'asiga qarab nomlangan, tamg'asi tortug-torttug - to'rt nayzasi shoxasimon bo'lgan deb izohlaydi. Demak, qishloq tortuvli urug'i vakillari yashaydigan joyga nisbatan shunday nomlangan. Tortuvli - etnotoponimdir.

Xullas, hududdagi ko'pchilik toponimlar aholining etnik tarkibini ifodalovchi urug', qabila va ularning tarmoqlari nomidan kelib chiqqan. Bu etnotoponimlari etimologiyasida turkiy qavmlarning o'rni juda kattadir. Hududdagi aholining etnik tarkibi toponimlarning tarixiy taraqqiyotidan ham dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Enazarov T. Nomshunoslik masalalari/ Uslubiy qo'llanma. - Toshkent - 2010. 37-b.
2. O'rinboyev B. Asrlardek barhayot nomlar (Samarqand viloyati toponimlarining izohi). - Samarqand: Zarafshon, 2003. 16-b.
3. Begaliyev N. O'zbek etnonimlari tarixidan. - Samarqand: SamDCHTI nashri, 2004. 87-b.
4. Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. Qashqadaryo viloyati qishloqlari nomining tadqiqi. - Toshkent: Muharrir, 2009. 38-b.

MALAY TILIDA SANSKRIT O'ZLASHMALARINING FONETIK XUSUSIYATLARI

Toshpo'latova Zarnigor
ToshDSHI Magistratura 1- kurs
"Lingvistika" yo'nalishi
Toshpulatovazarnigor@gmail.com
+998998132355
Ilmiy rahbar: F.f.n., dotsent Nurmatov . S.

Annotatsiya: Mazkur maqolada malay tilidagi sanskrit o'zlashmalarining shakllanishi va sanskrit o'zlashmalarining malay tiliga ta'siri, sanskrit so'zlarning fonetik xususiyatlari tahlil etilgan.

Tayanch so'z va iboralar: sanskrit o'zlashmalari, fonetika, pepet, qator unli, qo'sh unli.

Mazkur maqolada malay tilidagi sanskrit o'zlashmalarining malay tilidagi fonetik tuzilishini o'rganish maqsad qilib olingan. Ta'kidlash joizki, tilshunoslikda o'zlashmalar muhim ahamiyat kasb etadi. Malay tili o'zining ko'p asrlik tarixiy taraqqiyoti davomida lug'at tarkibini o'z ichki manbalari hisobiga boyitib, takomillashtirib keldi. Bunday qonuniyatga ko'ra, o'z qatlam negizlari asosida yangi so'zlar yasaladi, mavjud so'z ma'nolari kengaytiriladi, ba'zi so'zlarga qo'shimcha vazifalar yuklanadi. Boshqa tillar kabi malay tili lug'at tarkibining boyishida ichki manba imkoniyatlari muhim asos hisoblanadi. Shunga qaramasdan, dunyodagi hech bir til o'z ichki manbalarigagina tayanib ish ko'rmaganidek, malay tili uchun ham faqat o'z so'zlari, o'z qatlam boyligi va imkoniyatlarigina kifoya qilmaydi. Malay tili lug'at tarkibining boyish va takomillashuvida tashqi manba muhim rol o'ynaydi. Umuman har qanday til sof holda yashay olmaydi. Turli tillarning turli tarixiy sharoitlarda o'zaro ma'lum munosabatda bo'lishi tabiiy holdir. Bunday munosabat aloqada bo'lgan tillar rivojida ayniqsa uning lug'at tarkibida ma'lum izlarni qoldirishi mumkin. Malay tiliga eng ko'p ta'sir ko'rsatgan va eng ko'p o'zlashmalari mavjud bo'lgan tillar: sanskrit, yava, arab va Malayziyani mustamlakaga aylantirgan davlatlar tillari, ya'ni ingliz, portugal tillari hisoblanadi. Boshqa tillarga nisbatan sanskrit tili malay tiliga juda katta ta'sir ko'rsatgan, chunki sanskrit tili malay tilining qadimgi davridan shakllanib rivojlanib kelishida muhim ahamiyat kasb etgan. Sanskrit tili Malayziya hududlariga hind savdogarlari orqali kirib kelgan va sekinlik bilan o'sha hudud odamlari tomonidan o'zlarida mavjud bo'lmagan so'zlarni izohlash uchun o'zlashtirila boshlangan va malay tilida sanskrit tilining unsurlari VII asrdan boshlab ko'zatilgan [6:54]. Sanskrit tilining malay tiliga ta'siri haqida malayziyalik adabiyotshunos va tanqidchi olim Ismail Hussein shunday deydi: " Sanskrit tili orqali malay tili o'zining birinchi evolutsiyasini boshdan kechirdi, avvalari oddiy xalq tili bo'lgan malay tili o'zining ilm fan, adabiyot, din va falsafa sohasida rivojlanish qadamini boshladi"[3:34].

Sanskrit tilidagi o'zlashmalar asosan quyidagi: ta'na azolari nomlarida bahu - yelka, kepala - bosh, muka- yuz, savdo -sotiqga oid so'zlar: neraca- tarozi, laba - foyda, ba'zi hayvon nomlari: singa - sher, kuda- ot, gajah- fil, ba'zi diniy va falsafiy so'zlar; dosa- gunoh, agama - din, puasa - ro'za, syurga- jannat, neraka- do'zax, ta'limga oid so'zlar: guru- o'qituvchi, ustoz, bahasa - til, sastera- adabiyot, bijaksana - donishmand kabi sohalarda juda ham ko'p uchraydi[4:11] Bizga ma'lumki, bir til boshqa bir tildan o'zlashmalar qabul qilib olayotganda ma'lum bir fonetik o'zgarishlarga uchraydi, malay tili ham bundan mustasno emas. Malay tili ham sanskrit o'zlashmalarini qabul qilib olayotganda unda so'zlashuvchilar uchun qulayligini va oson tushinilishini ko'zlab o'zlashma so'zlarni o'zining fonetikasiga moslab olgan.Sanskrit o'zlashmalari malay tilida ikki xil ko'rinishda o'zlashgan, ya'ni to'g'ridan - to'g'ri yoki bilvosita. To'g'ridan - to'g'ri qabul qilingan o'zlashma so'zlar butunligicha, so'zning asosi bilan birgalikda o'zlashtirilgan, bilvosita o'zlashmalarda esa sanskrit old yoki orqa qo'shimchalarigina qabul qilib olingan. Sanskrit tilidan o'zlashgan so'zlarning fonetikasiga to'xtaladigan bo'lsak, unda anchagina o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin. Malay tilida sanskrit o'zlashmalari va ularning fonetik o'zgarishlarini tahlil qilar ekanmiz asosan quyidagi fonetik o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin. Sanskrit tilida mavjud bo'lgan bh, dh tovushlarining oldidan a unlisining ortirilishi(bhasa - bahasa, bhaya - bahaya, bharat - barat, phala -pahala), bo'g'in tovushi h ba'zi so'zlarda tushirilib qoldirilishi (bhumi - bumi, bihara- biara), jarangli undosh v ning b ga o'zgarishi(purva - purba, vamsa - bangsa, vayu - bayu, vidyadhari - bidadari bu so'zda undosh y va h tovushlarining tushib qolishi ham ko'zatilgan), birinchi bo'g'indagi a unlisining qisqa pepet e unlisiga o'zgarishi(marana - merana, arta - erti, kapala - kepala, nagara - negara, naraka - neraka), qo'sh undoshlardan birining tushib qolishi (kudda - kuda, rutti - roti, vartta - warta, tuppi-topi, bunda u unlisini o ga almashganini ham ko'rishimiz mumkin) yoki qator undoshlardan birining tushib qolishi(duhkha-duka, asthana - istana, radja-raja) va albatta hech qanday o'zgarishsiz malay tiliga o'zlashtirilgan so'zlar ham mavjud (ratna - ratna, nila - nila, rasa - rasa, guru - guru, desa - desa, mula

- mula, hasta - hasta)[5:105].

Yuqorida keltirilgan tahlilimiz sanskrit o'zlashmalarida bo'lgan asosiy fonetik o'zgarishlar hisoblanadi va ba'zi misollar yordamida tahlil qilishga harakat qildik. Yuqoridagi tahlil natijalariga ko'ra quyidagi umimiy xulosalarni keltirib o'tishimiz mumkin:

1. Sanskrit tilining malay tiliga o'sha paytda ta'siri juda ham kuchli bo'lganli va sanskrit tili ta'sirida malay tili o'zining birinchi rivojlanish bosqichini boshlagan.
2. Sanskrit tilidan o'zlashgan so'zlarning aksariyati ta'limga oid so'zlar, diniy- falsafiy so'zlar yoki savdo sotiqqa oid so'zlar bo'lgan va ular hozirgacha malay tilida faol ishlatilib kelinmoqda.
3. O'zlashmalarning 2xil yo'l bilan o'zlashtirilgani, ya'ni to'g'ridan - to'g'ri yoki bilvosita o'zlashtirilganini tahlil qildik.
4. O'zlashmalarda asosan bh dh toshuvlarining oldidan a unlisining ortilishi va birinchi bo'g'inda kelgan unlilarning o'zgarishini tahlilda ko'rib

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdul Hamid Mahmood. Sistem ejaan baharu bahasa melayu. Tanjong Malim, 2014
2. Hayati Salleh. Pembentukan istilah dan kata pinjaman, UPM, 2014
3. Ismail Hussein. Sejarah pertumbuhan bahasa kebangsaan kita. M, 1984
4. Nik Safiah Karim. Hashim Haji Musa.Abdul Hamid Mahmood. Tatabahasa dewan. Kuala Lumpur, 2013
5. Norhasimat Mamat. Peminjaman dalam bahasa melayu. M, 2002
6. Saito Rohiyah. Unsur bahasa asing dalam bahasa melayu. P, 1986
7. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. - T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 12 jildi.. 2001-2006.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Davlat ilmiy nashriyoti. 5 jild. T., 2006-2008.

ATOQLI OTLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA TARJIMADA BERISH USULLARI

Dilnoza Toshtemirova
SamDCHTI talabasi
Telefon:+998(99)5593907
Bahoroy Shermatova
SamDChTI o'qituvchisi
g-mail: bahorashermatova@gmail.com

Anotatsiya. Ushbu maqolada atoqli otlarning o'ziga xos xususiyatlari, ularning uslubiy vazifalari va ularni tarjima jarayonida berish usullari tahlilga olindi. Misollar orqali mavzu yoritib berildi.Atoqli otlarni tarjima qilish masalasi dolzarb mavzulardan biri ekanligi ta'kidlab o'tildi.

Kalit so'zlar: atoqli otlar, atoqli otlarning xususiyatlari, transkripsiya, transliteratsiya , an'anaviy usulda tarjimada berish, tarjimada muqobil variantini qo'llash

Kundan kunga jadal sur'atlarda rivojlanayotgan mustaqil O'zbekistonimizda barcha soha va yo'nalishlarni taraqqiy ettirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Buni turli yo'nalishlarda, jumladan, ta'lim, fan, san'at, adabiyot va boshqa sohalarda ko'rishimiz mumkin. Har bir mavjud millat, jamiyatning istiqboli uning ajralmas qismi, hayotiy zaruriyati hisoblangan ta'lim tizimining qay darajada ekanligi bilan belgilanadi. Mustaqil taraqqiyot yo'lidan shahdam qadamlarda ketayotgan yurtimizda uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirishni, ta'lim samaradorligini oshirishni davlat siyosati darajasiga ko'tarilmoqda. Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rganish va o'qitishga alohida shart-sharoit yaratilgan. "Tarjima turli xalq, millatlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, ilmiy va madaniy aloqalarning shakllanishi va ribojlanishiga xizmat qiluvchi qudratli qurol va mustahkam ko'prik vazifasini o'taydi" [3:3]. Jahonning nodir asarlarini o'zbek tiliga ,o'zbek xalqining noyob, asarlarini xorijiy tillarga tarjima qilinmoqda bu bilan soha rivojiga katta hissa qo'shilmoqda. Ilmiy jihatdan olib qaralganda, tarjimashunoslik murakkab sohalardan biridir chunki muayyan bir so'zni bir tildan ikkinchi tilga o'girish judayam qiyin. Uni tarjimada berayotganda mos variantini qo'llay bilish zarur.

Jumladan, tarjima jarayonida tarjimonlar atoqli otlar, ismlarga duch kelishi, ularni qay holatda ikkinchi tilga o'girish, to'g'ri va muqobil variantini qo'llash kabi muammo va qiyinchiliklarga ro'paro kelishadi. Bu borada juda ko'p tadqiqotchilarimiz o'z ilmiy ishlarini olib borishmoqda. Atoqli otlar o'zi nima degan degan savolga to'xtaladigan bo'lsak, atoqli ot bu ma'lum bir shaxs ,borliqdagi narsa-predmet, joy, voqea-hodisalarning jarayoniga nisbatan atab qo'yilgan nomlardir. Ularning uslubiy xususiyatlaridan biri shuki, atoqli otlar doimo bosh harf bilan yoziladi. "Odatda atoqli otlar tarjima qilinmaydi. Shu kabi so'zlarning tovushlari va yozilishini tarjimada berish masalasi katta ahamiyat kasb etadi." [1:44]. Bir nomning o'zini bir necha ko'rinishlarda yozish va talaffuz qilish tarjimondan juda katta mahorat va bilim talab etadi .Atoqli otlarni tarjimada asosan ikki xil usuldaberish mumkin: 1) transkripsiya, 2) transliteratsiya

Transkripsiya- tovushlarni maxsus belgilar sistemasi yordamidayozuvdaqaytaberish shaklidir .Ushbu usulda har bir belgi faqat bitta tovushni ifodalaydi va xorijiy so'zning talaffuz shakli qayta tiklanadi.

Transliteratsiyada esa bir tildagi harflarni boshqa tildagi harflar bilan belgilangan qoidalarga muvofiq shakldaqaytaberilishidir.Bu usuldaso'zning grafikshakli qaytadan yaratiladi.Transkripsiyausulidatarjima qilingan ismga misol qilib Christine ismini oladigan bo'lsak o'zbek tiliga Kristina deb tarjima qilinadi .Agar uni Christina deb tarjima qilsak tarjimada g'alizlik yuzaga keladi va o'quvchiga tushunarsiz bo'ladi. Xuddi shunday geografikjoylarni ham transkripsiyausulidatarjimadaberish mumkin:

Hudson -Gudzon, Surbition -Serbiton, Bradley -Bredli, Rome-Rim

Ba'zi atoqli otlar esa transliteratsiya usulida tarjima qilinadi:

Hayne-Hayne ,Gyote -Gyote, Hemingway -Hemingvay

"Transliteratsiya usulida so'zning asl shaklini saqlashga harakat qilinadi,o'zgarishlarga deyarli yo'l qo'yilmaydi"[3:130]. Australia -Avstraliya, Europe -Yevropa, Dublin -Dublin. Bu ikki usuldan tashqari, ayrim tarixiy shaxslar, geografik joy nomlarini tarjima qilishda an'anaviy shakllardan foydalanishga to'g'ri keladi : Charles -Karl ,William -Vilgelm ,Edinborough -Edinburg Ularni bu holatda tarjima qilishga sabab ular tarixda xuddi shu nomlarda tilga olingan, tarjimada esa bunga amal qilishimiz kerak. Ba'zi hollarda ismlarni tarjimada turli matnlarda turlicha berish mumkin, bu matn turiga bog'liq. Isaac so'zi o'zbekcha matnlarda Iso, Yusuf shaklida ,chet el asarlarida Isakson shaklida transliteratsiya qilinadi. Ruscha matnlarda "Иосиф" yoki "Айзик" shaklida tarjima qilinadi. Yuqoridagilardan qay birini qo'llash matn turiga bog'liqdir.

Xulosa qilib aytganda, atoqli otlarni tarjimada qo'llash tarjimondan yuqori saviyadagi bilimni talab qiladi. Chunki har qanday atoqli otni tarjima qilmasdan shundayligicha qo'llash mumkin ammo bu tinglovchiga tushunarli bo'lmaydi, tarjima doimo tarjimondan aniqlikni va badiylikni talab qiladi .

Foydalanilgan adaboyitlar ro'yxati :

1. Allayorova R. R Tarjima nazariyasi va amaliyoti -Urganch 2008
2.Doniyorov Sh .Z Tarjima san'ati muammolari Toshkent:: O'zbekiston milliy nashriyoti"Davlat ilmiy nashriyoti 2009
3.Rahimov G' Tarjima nazariyasi va amaliyoti -Toshkent:"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi " Davlat ilmiy nashriyoti 2016

USING GAMES AT ENGLISH LESSONS

Turg'unova Nargiza,
an English teacher of Namangan region,
Namangan district, school № 14
tel: +998934040047

Annotation

This article is about using games in English lessons. The aim of this article is to give a description of the game, its classification and benefits for English teaching. Also, the right timing for the implementation of the game into the teaching is considered. The author also describes different ways of using games in language classrooms

Key words: games, using, lesson, activity, during, fun, develop, can be, material

No one likes boring English lessons, we need to make them fun and joyful! Each lesson can be started with a fun warm-up game, which will not take more than 10 minutes but will be very useful. During the warm-up, you need to repeat the passed material and make it exciting for children. A warm-up can take place in the form of fun games or you can sing songs with fun music. You can use different visualizations, for example, diagrams, pictures, tables, slides, Lotto. Games can be organized individually, in pairs, or groups. The power of the game is in its universality, universality, in the ability to easily and fruitfully, freely achieve significant results in the formation of personal qualities of the child. Games in English for children in the classroom can serve as a warm-up. And adults can have fun while playing and take a break from studying monotonous topics. Hundreds of different games are suitable for these tasks. But today we will give only the best and most interesting examples of games in English lessons. Game forms of teaching English make it much easier to teach this subject. Here is one of the options for learning games in English lessons. I will describe the educational language games that I use in working with students.

Activity 1. "Who was the first"

This game form promotes repetition of the learned vocabulary. It is good to use it, for example, at the beginning of the school year, when much of the study has already gone into a passive dictionary. You need at least two people to participate.You should define atopic for which students should name as many words as possible. Each, in turn, calls one word associated with a given topic and takes a step forward. For example, the theme "travelling", you can call the words "bus, journey, tourist, hotel etc". The first person to reach the finish line wins.

Activity 2. "Interview"

This task is suitable for both adults and children. Several students in the group, or maybe each student should be asked to conduct a survey of their fellow students to get the necessary information, and then present it to the entire group. This task is well suited to study times. This way everyone can ask questions like "Have you ever broken a leg? Have you ever travelled by plane etc"? During the game, you can freely move around the class, conducting mini-interviews with participants.

Activity 3. Phonetic game "Echo"

The game develops the ability to pronounce sounds correctly, improves the perception of the language by ear. How wonderful it is, instead of the boring traditional words: "you must repeat after me," to say mysteriously: "and now we will play echo." This game can also be played at home by a parent with a child (of course, provided that the parent knows the phonetics of the English language). Explain to your child that it will be an echo that repeats all sounds. The presenter loudly pronounces the sound of the English language or word, and the children echo it after the presenter. For best results, you can show a picture with atranscription of asound or anew word, for example, when learning the word elephant, we will show a picture with an elephant.

Activity 3. Game-guess - What is this?

The child must identify the object by touch, blindfolded, and name it in English. This way you can pin new words, phrases, and questions, such as what colour the item is, and so on. We place different items on the table, blindfold the child, he takes the thing in his hands, and the presenter and other children ask: What is this? What's it? A blindfolded player tries to determine what is in his hands he can ask questions if it is difficult to guess at once, for example:

What colour is this? What colour is it?

The winner is the one who correctly named more items.

Activity 4. "Find an ear"

Divide the group into 2-3 teams. Write 'ear' in large letters on the Board and ask the teams to find as many words as possible that contain all three of these letters. Progress of the event: When everyone is ready, the team secretaries go to the Board and write out the words they have received. If the same word occurs in both teams, it is counted to the one that has it first in the list. The winner is the team that finds the most number of words.

Thus, an educational game is a type of activity of students in the classroom, during which educational tasks are solved in a game form. The game arouses the interest and activity of children and allows them to express themselves in an exciting activity for them, promotes faster and stronger memorization of foreign words and sentences.

References:

1.Carrier, M., & the Centre for British Teachers. (1985). Take 5. Games and activities for the language learners. GB: Nelson and Sons Ltd.

2.Hong, L. (2002). Using games in teaching English to young learners.

3.Lewis, G., & Bedson, G. (1999). Games for children. Oxford: OUP.

THE SIGNIFICANCE OF MOTIVATION IN TEACHING ENGLISH

Turganbaeva Sharipa Esenbaevna
Qoraqalpog'iston Respublikasi, Kegeyli tumani
1-sonli umumta'lim maktabining Ingliz tili fani o'qituvchisi
turganbaeva.sharipa6562@gmail.com

Annotation: This article deals with the importance of motivation in teaching English and tries to present several ideas of improving students' motivation.

Key words: a teacher, motivation, a student.

English has become the language of the world communication and the bridge among nations. The increased learning and teaching of English throughout the world during the recent years has produced a new cadre of professionals, teachers of EFL. Teachers play a significant role in teaching-learning process as they are responsible for educating, motivating and encouraging their learners. It is clear that in the 21st century, teachers are required not only to teach but also to facilitate or motivate the students. Moreover, teachers should be able to create a learning atmosphere, in which learners can develop their skills that they may need in the future. However, we always say again and again that teachers should encourage and inspire students, but how to motivate them to learn?

Motivation is the most complex and challenging issue that teachers face today. The importance of motivation for successful classroom is increasing. There are a number of ways of improving student's motivation in EFL classroom, but the most significant one is creating the lessons based on the learner's interests and needs. One of the teacher's main aims is to help students to sustain their motivation and interest. Motivation is regarded as an influential element in the success of any activity. It plays a crucial role in achieving the desired goals. Teacher's presence and behavior play a vital role in creating motivation in the language learning classroom. It is clear that unmotivated teachers are unable to affect the learner's interaction positively.

Motivation is not only an intensive desire for learning and acquiring knowledge of English, but also an inner cause that push students forward in English learning with enthusiasm and willingness. It is something like the engine and steering wheel of an automobile that can move students from demotivation to motivation. It is an inner power to drive students in English learning. Students who have strong learning motivation take a correct and positive attitude towards study and make great efforts to master English with clear goal and desire. It is true that motivation is such a basic factor in language learning that no teacher could avoid being concerned with students' motivation. So it is necessary to understand motivation more deeply. The reasons why students get demotivated could be lack of self-confidence, self-esteem, fear of failure, stress, low grades and relationship issues between teachers and students.One of the biggest problems of demotivation is that students think wrongly that what they are learning may not be relevant to their future.

The purpose of this paper is to present several ideas of improving students' motivation.Tips given below can be used as ideas to encourage students to learn English better.

- Use motivational activities for students to grab student's attention;
- Treat them like adults by offering them control, let them talk about a topic, let them plan activities around a lesson;
- Move around the class during sessions and make eye contact whenever necessary;
- Praise students for their efforts for all achievements big or small;
- Adapt different teaching methods. Include motivational lesson plans for school students in your agenda and update regularly;
- Finally, reward them for their effort. Rewards are a sure-shot motivation for students on a particular lesson.

To sum up, in order to make L2 learning process a motivating experience, teachers need to put a great deal of thought into learning programs which sustain and boost students' interest and help them to achieve their goal. Instructors need to plan and create interesting lesson in which students, become fully attentive. It requires not only courageous, well-determined, and committed teachers but also creative and innovative teaching techniques. Teachers have to find practical ways to motivate the students to learn and appreciate the language, and at the same time, sustain students' interest in the language learning process.

References:

1. Cheryl L. Spaulding. (1992). Motivation in the classroom. The United States: McGraw-Hill

2. Jia Guanjie. (1996). Psychology of foreign languages education. Guangxi: Guangxi Education Press.
3. https://www.britishcouncil.org/voices-magazine/how-keep-your-students-motivated

ADABIYOT DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOSLIGI

Tursunova Gulbahor Dedashboyevna,
Namangan viloyati, Uychi tumani,
7-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
tel: +998 99 6405336

Annotatsiya
Ushbu maqolada adabiyot darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari tog'risida ma'lumotlar berilgan.
Kalit so'zlar: adabiyot, interfaol, innovatsion, faol, qiziqish, shakllantirish, dars

Xar tomonlama rivojlangan barkamol inson shaxsini shakllantirish davrimizning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Chunki ona - Vatanimizning kelajagi bugungi yosh avlodning uquvi, salohiyati, iste'dodi, mustaqil fikrlashga bevosita bog'liqdir. O'quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhimdir. O'qituvchi darsda boshqaruvchi, o'quvchilar esa, ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyat ustunligi ko'p qirrali samara keltiradi. g'ich sinf o'qituvchilarining vazifasi mas`uliyatli ekanligini ko'rsatadi. Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy usullari, o'tkazish metodlariga ko'ra o'quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo'ladi. O'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, xohish va istaklarini qo'zg'otish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo'lib, bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ichki yaqinlashuvidir. Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, ular o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O'qitish jarayoni o'qituvchi hamda o'quvchilar faoliyatini o'z ichiga oladi. O'qituvchining faoliyati o'quv materialini bayon qilish, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e`tiqodini shakllantirish, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat. O'z ishiga ixlos bilan qaragan o'qituvchida chinakkam ehtiros bo'ladi. Ma`lumki, har bir dars mavzusini o'rganishda o'ziga xos texnologiya, usul va vositalarni tanlashga to'g'ri keladi. O'qitish jarayonida yuqori natijaga erishish uchun dars jarayonini oldindan ketma-ketligini mo'ljallash kerak bo'ladi. Bunda o'qituvchi predmetning o'ziga xos tomonlarini, o'quv jarayonini va sharoitini, o'quvchilarning ehtiyojini va imkoniyatlarini, bilim saviyasini, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiyalarni tanlashi lozim. Hozirgi zamon o'qituvchisi adabiyot darslarida o'quvchilarining tafakkurini shakllantirishda quyidagi usullardan foydalanishlari maqsadga muvofiq bo'ladi:

- "Tarmoqlar" (Klaster); - Dialogli o'qitish usuli; - Matnlar bilan ishlash orqali; - "Xulosa" (VEER texnologiyasi)

Tarmoqlar (Klaster) - fikrlarning tarmoqlanishi bo'lib, u o'quvchilar mavzuni chuqur o'zlashtirishga hamda mavzuga taalluqli aniq fikrni erkin ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'langan tarmoqlarini o'rgatadi. O'qituvchi o'quvchilarning fikrini jalb qilish maqsadida bir so'z yozadi. Ushbu so'z ularda qanday tasavvur hosil qilganini so'raydi hamda o'sha tasavvurida hosil bo'lgan so'zlarni yozishlari, bu so'z atrofida qanday maydon hosil bo'lganligini o'zlari topib yozishlari kerak. O'quvchilarning bilimlarini aniqlash uchun tasavvur qilish darajasi hisobga olinadi. Shu maqsadni amalga oshirish uchun o'quvchilarni (5-6 tadan) guruhlarga ajratib, ularga butun hamda bo'lak munosabatni hosil qiluvchi so'z beriladi. So'ngra guruhdagilar berilgan so'zlarni kichik ma'nolarini topadilar hamda ushbu kichik ma'nolarni bir-biriga birlashtiradilar. Bir qancha so'zlar berib, ular atrofiga (butunga) qismlarni (bo'laklarni) ajratuvchi (kichik ma'nolarni) birlashtirish kerakligi aytiladi va guruhdagilar birgalashib bu masalalarni hal qiladilar.

Dialogli o'qitishni mantiq qonunlariga amal qilgan holda tashkil qilish muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, o'quvchilarga suhbat vaqtida o'zaro izchil bog'langan, qiziqarli savollar bilan murojaat qilinishi ularning mantiqiy fikrlashiga asos bo'ladi. O'quvchilarga dars davomida savol berish usulidan foydalanish katta samara beradi. Matn yaratish va matn ustida ishlash o'quvchilarning tafakkurini o'stirishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunda voqea-hodisalarni idrok qilishi, mohiyatini anglashi, munosabat bildirishi kabi didaktik maqsadlarni amalga oshirishlari natijasida tafakkur va nutq rivojlanadi.

O'quvchilarga matnlar ustida ishlashni o'rgatish orqali ularda ijodiylik, yaratuvchanlik (kreativlik)ni shakllantirish mumkii. O'quvchilarni ijod qilishga undashning asosiy mohiyati-tafakkurini muttasil o'stirib borishdir. Har bir o'quvchi o'rganganlarini mushohada qilish bilan amaliyotga tatbiq qilishi, tizimga solishi, mustaqil ravishda muhokama qilishi tafakkur rivojlanganligining belgisidir.

VEER texnologiyasi-bu ko'p tarmoqli, muammo xarakterdagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Ya'ni mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir yo'la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama qilinadi. Masalan, afzallik va kamchilik, ijobiy va salbiy, foyda va zararlari belgilanadi. Natijada tanqidiy, taxliliy hamda mantiqiy fikrlash rivojlantiriladi. Ushbu interfaol texnologiya mavzuni o'rganishning turli bosqichlarida qo'llanilishi mumkin. - boshida: o'z bilimlarini erkin faollashtirishda; - mavzuni o'rganish jarayonida uning asoslarini chuqur anglab yetishda; - yakunlash bosqichida: o'zlashtirilgan bilimlarni tartibga solishda.

Yuqorida keltirib o'tilgan texnologiyalar o'quvchilarida mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy hamda mustaqil tafakkurni shakllantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Farbermann B.L." Ilg'or pedagogik texnologiyalar"-Toshkent-2000
2.Matjon S, Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. "O'qituvchi" Toshkent 1996 il
3. G'ulomova N. O'quvchilarni adabiyotga bo'lgan qiziqishlarini orttirish.-1992

INGLIZ VA O`ZBEK TILLARDAGI FRAZEOLOGIK IBORALARNING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI MASALASI

Tursunova Nodirabegim,
Andijon davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada turli tizimli tillardagi frazeologizmlarni milliy-madaniy xususiyati taxlil qilingan.

Kalit so'zlar: frazeologiya, frazeologizm, tilshunos olimlar, leksikografik, milliy-madaniy, iboralar.

Ma`lumki, tillardagi turg`un so`z birikmalarining leksik-semantik xususiyatlari, o`tgan asrning 50-yillar so`ngida juda keng qamrovda o`rganildi. Bir qator tillarning frazeologik birliklari nomzodlik, doktorlik dissertatsiylar obyekti sifatida xizmat qildi. Ushbu o`rinda aloxida ta`kidlash lozimki, rus tili frazeologiyasi akademik V.V.Vinogradov, N.M.Shanskiy, A.V.Arxangelskiy, A,M.Babkin, A.M.Molotkov, V.P.Jukov va boshqa tilshunoslar tominidan atroflicha taxlilga tortilgan.

G`arb tillari bo`yicha ushbu linvistik fenomen ingliz tili materiallari asosida N.M.Amosova, A.V.Kunin tomonidan fundamental o`rganilgan bo`lsa, nemis va fransuz tillari frazeologik iboralari I.I.Chernishova, V.A.Gak va boshqa mashxur lingvistlar tomonidan chuqur o`rganildi.[1]

O`zbek tilshunosligida frazeologik iboralar Sh.R.Rahmatullayevning monografik hamda leksikografik tadqiqotlarida o`z ifodasini topgan. So`ngi paytda frazeologizmlar B.Yo`ldashev, A.Mamatov, Q.Bozorboyev kabi olimlarning ilmiy tadqiqot obyekti sifatida e`tirof etiladi.

Shuni qayd etish kerakki, frazeologiyaning frazeografik masalalari ham bir qancha tilshunoslar tomonidan tadqiqot qilindi. Aloxida ta`kidlash lozimki, professor M.E.Umarxo`jayevning ,A.M.Bushuyning bu boradagi olib borgan ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega bo`lgan asarlari diqqatga sazovordir.

Shunga qaramay, turli tizimdagi frazeologizmlarning o`ziga xos milliy-madaniy, lingvokultrologik xususiyatlari xali - xanuz chuqur taxlilga tortilmagan. Zero, har bir tildagi frazeologik ibora zamon va makon xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, olamning lisoniy dunyosini yoritishda benazir, bebaxo lingvistik material xisoblanadi.

Har bir tilning lug'aviy xususiyatlarining o'ziga xos xususiyati milliy madaniyat sohasidagi yoki milliy-madaniy tarkibiy qismlardan olingan so'zlarning ma'nolarida mavjudligi sababli aniq namoyon bo'ladi. Buni madaniy bog'lanish deb ham atashimiz mumkin[3]. Uning eng muhim va qiziqarli qatlami boshqa tilda ekvivalenti yo`qligidir. Bir so'z bilan aytganda, bunday milliy madaniy bog'lanish, ular belgilagan voqeliklar uchun so'zning butun ma'nosiga tengdir, ular noyob, chuqur milliy, boshqa madaniyatga xos emas.

Shu sababli, har bir tilning frazeologik iborasida o`sha tilda gapiruvchi xalqning milliy -madaniy xususiyatlari:

a) Milliy mentaliteti;
b) Milliy psixologiyasi;
c) Milliy urf-odatlari;
d) Milliy kiyinish madaniyati;
e) Milliy oziq-ovqat, taomlari;

va albatta ushbu millatni o`rab turgan nabodat olami tabiiy xususiyatlari o`z aksini topadi.

Misol uchun, o`zbek tilidagi "to`nini teskari kiymoq" iborasida o`zbek xalqining milliy kiyimi orqali, "ataladan suyak chiqmoq" frazeologik birlikda milliy taom "atala" bilan, yoki "ahmoqqa Quva bir tosh" boshqa talqini "To`ytepa bir tosh" turg`un birikmalari orqali o`ziga xos milli-madaniy xususiyatga ega bo`lgan frazeologizmlar shakllangan[2].

Ingliz tilida ham "bringing coals to Newcastle" (befoyda. Britaniyadagi Nyukasl ko'plab ko'mir konlariga ega bo'lganligi sababli mashhur bo'lgan, shuning uchun ko'mirni olib kelish vaqtni behuda sarflashi mumkin edi) yoki "send someone to Coventry" (kimnidir mensimaslik) toponimik ma`no orqali, "wear sackcloth and ashes" (O'zingizni yomon ish qilganingiz uchun juda afsusda ekanligingizni ko'rsatadigan xatti-harakatlar qilish kerak - qadimgi Injil davrida odamlar motam tutish uchun juda noqulay qanorli ro'mol (qoplarga mato) kiyishgan, shuningdek, qilgan gunohlari uchun tavba qilishgan.) diniy kiyimi orqali hamda "flat as a pancake" (juda tekkis) "pancake" oziq-ovqat komponenti orqali o`ziga xos milliy-madaniy xususiyatga ega bo`lgan frazeologizmlar shakllangan[4].

Bizni olib borgan taxlilimiz shuni ko`rsatadiki, aksariyat tillarda frazeologizmlar o`ziga xos milliy xususiyatga ega bo'lgan so`zlar orqali shakllangan bo`lishiga qaramay, ulardagi ifoda tizimida qandaydir umumiylik ko`rishimiz mumkin. Masalan, barcha xalqlarda biror-joyga yetib borish niyatida yo`l-yo`lakay

so`rab maqsadga erishish mumkinligi o`zbeklarda "so`rab - so`rab Makkani topibdi" iborasi orqali ruslarda "Язык до Киева доведет" nemis va ingliz tillarida "all roads lead to Rome" turg`un iboralar orqali bayon qilinadi.

Bulardan tashqari turli tizimdagi tillarda ularning bir-birlaridan milliy-madaniy hamda lingvistik o`zaro farqlaridan qat`iy nazar bir qator umumbashariy frazeologik iboralarning mavjudligini ham ta`kidlab o`tish joizdir.

Misol qilib, tulkiday ayyor -хитрый как лиса- as sly as fox

Add oil to the flames -подлить масла в огонь- gulxanga moy sepmoq

A friend in need is a friend indeed- друг познается в беде- do`st boshga kulfat kelganda sinaladi kabi maqollar va boshqa turg`un birikmalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. М.Э. Умархўжаев. Олмон тили лексикологияси ва фразеологияси. Андижон-2010. 152б

2. Ш.Рахматуллаев.Ўзбек тилининг изохли фразеологик луғати. "Ўқитувчи" нашриёти, 1978. 407б

3. Словари и линнгвостановедение / под ред. Верешагина С48 на Е.М.-М.: русский язык, 1982. - 184с

4. А.В.Кунин. Англо-русский фразеологический словарь/ Лит.ред.М.Д Литвитнова -4-у изд, перераб. И доп.- М.Рус. яз, 1984. - 944с

DAS PROBEM DER ENTLEHNUNGEN IM WORTBILDUNGSSYSTEM DER DEUTSCHEN SPRACHE

Umarova Dilafruz Xusanjon qizi
Andijon viloyati Izboskan tumani
9-umumiy o`rta ta`lim maktabida nemis tili fani o`qituvchisi.

Die Annotation: *Aus dieser Übersicht geht hervor, daß die für die deutsche Sprache typischen Wortbildungsarten für die englischen Entlehnungen empfänglich sind, allerdings nicht im gleichen Maße. Es ist zu betonen, daß diejenigen Wortbildungsarten besonders stark vertreten sind, bei denen auf einer Seite die Gesetze der Sprachökonomie ihre Geltung finden, auf der anderen Seite die Vorliebe des Deutschen zur Kompositionsbildung in Form von zunehmenden Blockkomposita gleichzeitig ihren Einfluss ausübt.*
Die Schlüsselwörter: *das Problem, die Entlehnung, das Wortbildungssystem, die Ziel, analysieren, die deutschen Korpora, Einfluss der Anglizismen*

Seit der Erreichung der Unabhängigkeit unseres Vaterlandes führt unsere Regierung auf allen Gebieten ihre tiefe politisch, sozial – wirtschaftlich, geistig – wissenschaftlich Reformen ein.

„Die Zukunft unseres Landes, der nachträgliche Tag unseres Volkes, die Autorität unserer Heimat in der Welt ist vor allem davon abhängig, wie unsere Kinder aufwachsen und als welche Person ins Leben eintreten. Solche bittere Wahrheit müssen wir nie vergessen“[1].formen ein. Dafür verlangt man hochqualifizierte Fachleute und Kader. „Nur ein wirklich gebildeter Mensch kann für die Sitten und Bräuche, kurzgefasst, den entsprechenden, autoritativen Platz in der freien Gesellschaft selbstbewusst kämpfen“[2]. Das Hauptziel unseres nationalen Modells von Kadervorbereitung ist auch „den Bildungsbereich gründlich zu reformieren, ihn von den ideologischen Anschauungen und den Resten der Vergangenheit ganz zu reinigen, das Nationalsystem der Kaderausbildung, das im Niveau der demokratischen Länder entwickelt, entsprechend den höchsten geistlichen und moralischen Normen, zu schaffen“[3].

Ebenfalls, geistig – praktische Möglichkeiten der Jugendlichen zu verwirklichen, schöpferische Begabungen vorführen, materiell – geistliche, didaktisch – erzieherische Bedingungen zu erschaffen, damit sie für intellektuelle Entwicklung versorgen können, tief theoretisch – praktische Erfahrungen haben, im Leben, Praktikum machen und in der Herstellung die Fachleistungen in der Heimat und dem Ausland verwenden können, mit der Idee der nationalen Unabhängigkeit bewaffnet werden, hochgeistig, schöpferisch und den Weltstandart entsprechen können, konkurrenzfähige Fachleute ausbilden und sie für das wohlständige Leben unseres Volkes sorgen können.

In unserem Land wird große Aufmerksamkeit zum Fremdsprachlernen der Kinder geschenkt. Alle verstehen gut, dass die Zukunft nicht aufbauen wird, ohne Fremdsprachen zu lernen und erfahren, die in der Welt Integrationsprozess sich verstärkend, in dem Alltag Computertechnik und Internet durchgeführte Situation ist. Unsere Regierung in Betracht dieser alle, seit vorigen Schuljahren hat von ersten Klasse der Fachschulen den ununterbrochenen System der Fremdsprach-lehren durchgeführt und in diesem Jahr wird die Fremdsprachräume der Schulen mit modernen Information – Kommunikation und den technischen Geräten einrichten und zu den über 5 Tausend Grundschülern die multimedialen Fremdsprach-lehrbücher kostenlos zu geben gemeint hat. Alles dies wird verwirklicht, um die wissenschaftlichen Fähigkeit und intellektuellen Begabung der Jugend unseres Landes noch wieder zu verstärken.

Der Beschluss I.A. Karimow Am 10. Dezember 2012 „Über die Maßnahmen zur Verbesserung des Erlernens der Fremdsprachen“[4] war die konsequente Fortdauer der

Bildungsreformen. Das Hauptziel dieser Anordnung ist das Fremdsprachenlehren der Jugend durch die modernen pädagogischen Technologien des Fremdsprachenlernens, die Vorbereitung der perfekt sprechenden Fachleuten in der Fremdsprache, dabei sind die Bedingungen und Möglichkeiten für die Entwicklung der internationalen Mitwirkung und Beziehung zur Benutzung der Leistungen der Zivilisation und der Informationssystemen der Welt.

Die wissenschaftliche Auseinandersetzung mit der Entlehnung aus dem Englischen in andere Sprachen ist schon einige Jahrhunderte alt und hat seit einigen Jahrzehnten an Aktualität gewonnen. Die führende Rolle der USA in der Wirtschaft, Wissenschaft und Politik sowie globale gesellschaftliche Umwandlungen der letzten Jahre wie z.B. schneller technischer Fortschritt, Globalisierung und Europäisierung haben Auswirkungen auf die sprachliche Entwicklung europäischer Staaten und der ganzen Welt. Besonders durch die fortschreitende technische Ausstattung der breiten Bevölkerungsmassen wächst der Einfluss der Massenmedien auf den Sprachgebrauch enorm. Die vorliegende Untersuchung konzentriert sich auf den englischen Einfluss auf die deutsche Sprache und das Problem der entlehnten Wörter in der Wortbildungssystem der deutschen Sprache.

Oben erläuterten Definition der Anglizismen und Kategorisierung der Entlehnungsarten sollen im Folgenden die Anglizismen in dem deutschen Korpora auf die Häufigkeit ihres Vorkommens und ihre Verteilung auf die einzelnen analysierten Medien insgesamt sowie sortiert nach der Art der Entlehnung untersucht werden.

Die analysierten deutschen Korpora setzen sich aus Texten der Tageszeitungen „Frankfurter Allgemeine Zeitung“, „Süddeutsche Zeitung“, „Leipziger Volkszeitung“, „Thüringer Allgemeine“ und der „Bild“-Zeitung, „Spiegel“- Zeitschrift einzelner Radioprogramme des Deutschland-funks, des Bayern 2 Radios, des MDR Info und des MDR 1 Radio Thüringen, verschiedener Fernsehsendungen von ARD, ZDF, BR, MDR und SAT.1 sowie aus Texten der Internetseiten des Bundestages und der Städte Berlin und Frankfurt am Main zusammen.

Das Ziel der Untersuchung sowie ihre Teilziele setzten folgende Untersuchungsmethoden voraus: Für die Materialgewinnung wird ein Stichprobenverfahren angewendet, wobei auf das Auswahlverfahren der Stichprobe großer Wert gelegt wird.

Bisherige sprachwissenschaftliche Untersuchungen zum englischen Einfluss auf das Deutsche konzentrieren sich insbesondere auf die Analyse der Druckmedien und stellen nur selten Vergleiche mit anderen Sprachen und deren Umgang mit Anglizismen an. Die vorliegende Arbeit untersucht daher den Sprachgebrauch sowohl in den gedruckten als auch in den elektronischen Medien. Im Mittelpunkt der Arbeit steht Wortbildungsproblem der englischen Entlehnungen und zum anderen deren Häufigkeit und Verteilung in den deutschen Massenmedien.

Literaturverzeichnis

1. I.A.Karimov „Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch”, T- „Ma’naviyat“. 2008 .
2. I.A.Karimov „Barkamol avlod O’zbekiston taraqqiyoti poydevori“, T – „Sharq“ – 1997.
3. Chet tillarni o’rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, Toshkent shahri, 2012-yil 10-dekabr.
4. M.E. Umarho’jayev. Olmon tili leksikologiyasi va frazeologiyasi. Andijon, 2010.
5. W. Fleischer. Wortbildung der deutschen Gegenwartssprache. Leipzig, 1976.
6. I.Barz, W.Fleischer. Wortbildung der deutschen Gegenwartssprache. Tübingen, 1995.
7. M.D.Stepanova. I.I. Gernyuseva. “Lexikologie der deutschen Gegenwartssprache” M: 1975.

ONA TILI DARSLARIDA TA'LIMNING INTERFAOL USULLARIDAN FOYDALANISH

Umrzaqova Gulmira Tursunovna,
Namangan viloyati, Norin tumani,
34-maktab ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi
tel: 934040047

Annotatsiya

Ushbu maqola ona tili darslarida interfaol usullar o'quvchilarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarni tarkib toptirishi, ko'pchilik oldida o'z fikrini bayon etishi, o'z nuqtayi nazarini asoslash malakalarini hosil qila olishlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: dars, ona tili, interfaol, usul, ta'lim, foydalanmoq, o'qituvchi

Hozirgi kun ta'limining asosiy maqsadlaridan biri dars jarayonida o'quvchilarni faollashtirish orqali ularga bilim olish yo'llarini o'rgatishdan iboratdir.Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiya elementlari singib bormoqda.O'qitishning interfaol usullaridan foydalanish bo'yicha muayyan tajriba to'plandi. Ona tili darslarida ta'limning interfaol usullaridan foydalanish o'quvchilarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarni tarkib toptiradi, guruhlarda ishlashga o'rgatadi, ko'pchilik oldida o'z fikrini bayon etish, o'z nuqtayi nazarini asoslash malakalarini hosil qiladi. Ona tili darslarini o'qituvchi katta mahorat bilan tashkil etishi kerak. Chunki har bir soat dars o'quvchiga yangi bilimlar beradi, mustaqil fikrlash, xulosalar chiqarishga, har bir o'quvchini o'zligini namoyon etishga, o'z nuqtai nazarini himoya qilishga keng imkoniyat yaratadi. Bundan tashqari dars yakunida o'quvchilarning qanday bilimlar olganliklarini o'qituvchi tomonidan doimo nazorat qilib borilishi shart.Darsda qo'yiladigan asosiy talablardan biri ta'lim metodlari va usullarini bir-biri bilan mustahkam bog'lab olib borish samaradorligini oshirishdir. Darsga qo'yiladigan asosiy talablardan yana biri barcha didaktik vazifalar darsning o'zida hal etilishi, uyga beriladigan vazifalar o'quvchilarning darsda olgan bilimlarining mantiqiy davomi bo'lishi kerak, dars davomida o'qituvchi o'quvchilarning jismoniy holatini, ijodkorligini, tez fikrlashlarini hisobga olishi kerak, o'tilgan har bir darsning o'quvchilar bilan birga tahlil qilib borilishi ham yaxshi natija beradi. Biz texnika va texnologiyalar bilan hayotimiz osonlashgan bir davrda yashayapmiz. Barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim sohasida ham bir qator innovatsion g'oyalar ta'lim sifatini ko'tarishga safarbar etildi. Yangi darsliklar, ko'rgazma va ko'rsatmali vositalar, elektron kitoblar barchasi yangi davr kishisini shakllantirish va rivojlantirishga qaratildi. Ayniqsa ona tili fanini umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitilishiga e'tibor kuchaydi. Ona tilini o'qitishda darslikdagi ma'lumotlarin berish bilangina cheklanish ta'lim sifatini ta'minlab bermay qoldi. Shuning uchun bugungi zamon pedagogi turli xil o'qitish usullari orqali o'quvchini mavzuga jalb etishi va DTSdan ko'zlangan maqsadga yetishi lozim. Ayniqsa 5-sinfda ona tili fanidan Fonetika va Leksikologiya bo'limlarini o'qitishda biroz murakkabliklar yuzaga kelishi mumkin. Shunda pedagog an'anaviy ta'lim metodlaridan chiqib, noan'anaviy yo'sinda saboqlarni tashkil etishi samarali natija beradi.

Mustaqil tafakkur yuritish darsi. O'quvchilarga yangi materiallarning ayrim qismlari to'liq beriladi. Beriladigan voqea-hodisaning kelib chiqish sabablari izlashni o'quvchilarning o'zlari bajarishi kerak. Dars o'quvchilarni material tanlashda uning qiziqarli va maqsadga javob beradigan bo'lishiga erishishi kerak.

Muxbirlar darsi. Darslarni o'lkashunoklik materiallari asosida berilgan mashq va topshiriqlar bilan bog'lab o'tish yaxshi samara beradi. Bunda o'qituvchi muxbir o'quvchilarga uy ishlaridan, mavzuga mos savollar berib, javob oladi va muxbir sifatida ularning mehnatini sinfdoshlarga maqtov orqali ifodalaydi. Bu dars usuli muxbir bo'lishni orzu qilgan o'quvchiga topshirilsa, u o'z mahoraratini ishga soladi. Bunday darslarda bolalarda ijodkorlik, tashabbuskorlik hislari uyg'onadi.

"Svetafor" ta'limiy o'yini.

Bu o'yinda "Fonetika" bo'limi yuzasidan o'tilganlarni takrorlash darvlarida keng foydalaniladi. O'yinga uch xil, ya'ni svetafor rangidagi kartochkalar hamda savollar uchun mashinalarning aplekatsiyasidan foydalanish mumkin. Buning uchun rangli kartochkalar o'quvchilarga tarqatiladi.o'qituvchi savollar yozilgan ko'rgazmani doskaga iladi. Sinf guruhlarga ajratiladi. Guruh a'zolari tartib bilan savollarga javob beradi. Javobni to'g'ri deb hisoblagan o'quvchilar yashil, noto'g'ri deb hisoblaganlar qizil, savolga javob topa olmagan o'quvchilar sariq krtochkani ko'taradilar. Har uchchala guruhga 3 tadan 5 tagacha savol berish mumkin. Har bir sariq kartochkaga bir ball ayirib olinadi. Qizil kartochkada noto'g'ri deb topilgan savolning aniq javobi uchun bir ball qo'yiladi, noto'g'ri javob uchun yarim ball ayirib qolinadi.Masalan 1-guruhda 30 ball, 2-guruhda 30 ball, 3-guruhda 30 ball bo'lib, birinchi guruh 5 ta sariq kartochka yig'sa, 25 ball qoladi.Qizil kartochka ko'targanlar javobning nima uchun noto'g'riligini izohlab beradilar. Izohlab bera olmasalar yarim ball kamayadi.O'yin oxirida eng

faol qatnashgan guruh taqdirlanadi. O'qituvchi o'yin uchun savolni darslikdan kelib chiqqan va bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda tuzishi shart.

Xulosa qilib aytganda,o'zlashtirilayotgam tajribani to'g'ridan to'g'ri o'quvchilarga o'zaro ta'sir harakati orqali yo'naltirish, interfaol metodlarni qo'llab dars o'tishning asosi bo'lib, bunday yondashuvda o'qituvchi tayyor bilimlarni bermaydi, balki o'quvchilarni mustaqil ishlashga chorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Bobomurodova A. Ona tili ta'limi jarayonida o'yin-topshiriqlardan foydalanish. T.: Musiqa. 2009

2.Mahmudov N., va boshqalar. Ona tili (5-sinf uchun darslik).??-??T.: 2007

3. R.Ishmuhammedov, M.Yuldashev "Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar" Toshkent 2013- y.

O'QUVCHILARNING ONATILI DARSLARIDA IMLOVIY BILIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Umrzoqova Shoxsanam Akbo'tayevna
Xovos tuman 9-maktab o'qituvchisi
Telefon: +998945818081
Yaxyayeva Malika To'ychiboyevna
Xovos tuman 9-maktab o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada o'quvchilarning ona tili darslarida imloviy bilimlarini mustahkamlash, ahamiyati va imkoniyatlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Imloviy bilimlarini rivojlantirish ta'lim jarayonida foydalanish natijasida o'quvchilarni imlo qoidasi ustida ishlash metodikasidan foylanish uchun zamin yaratiladi. Shuningdek, imloga oid mashqlar bajarish haqida qisqacha mazmuni yoritilgan.

Tayanch so'zlar: ta'lim jarayoni, metodika, to'g'ri yozuv, ko'chirib yozish, o'zakdosh so'zlar, so'z turkumlari.

Dars jarayonida o'qituvchi imloviy malakaning psixologik tabiatidan kelib chiqib, o'quvchilarda imloga oid malakani shakllantirish ustida ishlash metodikasini belgilaydi. Imloviy malaka nutq malakasi hisoblanadi. To'g'ri yozuv ham murakkab jarayon bo'lib, uning asosida nutq yotadi. Imloviy malaka nutq faoliyatining komponenti sifatida gapni sintaktik jihatdan to'g'ri tuzish, so'zni uslubiy aniq qo'llashni ham o'z ichiga oladi.

To'g'ri yozuv malakasining shakllanishi uchun o'quvchidan fikrlash faoliyati talab etiladi. Biror to'g'ri yozuv hodisasini o'zlashtirish uchun o'quv va yodda saqlashgina emas, balki tahlil va sintez ham tatbiq etiladi. Bunda grammatik va imloviy hodisalarning o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash uchun taqqoslash usulidan foydalanish hamda so'z va so'z shakllarini ma'lum grammatik yoki grafik guruhlarga ajratish, muayyan tizimga solish, tushuntirish va isbotlash mashqlaridan foydalanish muhim o'rin tutadi.

Shunday qilib, orfografiyani o'rganishda, grammatikani o'rgatish kabi, o'quvchilarning analitik-sintetik faoliyatini asta takomillashtira borish talab etiladi.

Imlo qoidasi ustida ishlash metodikasi. O'quvchilarda to'g'ri yozuv malakasini shakllantirish grammatik nazariyani va imlo qoidasini o'zlashtirishga asoslanadi. Imlo qoidalari bir so'znigina emas, balki umumiylik mavjud bo'lgan butun so'zlar guruhining yozilishini tartibga soladi. Bu xususiyati bilan u qoida xat yozuvchini har bir so'zni yodda saqlash, xotirlashdan qutqaradi va qoidaga amal qilib, belgilangan me'yorga muvofiq butun so'zlar guruhini yozish imkonini yaratadi.

Imlo qoidasi grammatik umumiylik asosida birlashgan so'zlarning yozilishini bir xillashtiradi. Bu yozma ravishdagi aloqani yengillashtiradi va imlo qoidalarining ijtimoiy ahamiyatini ta'kidlaydi.

Imlo qoidalarini grammatik, fonetik, so'z yasalishiga oid materiallarni ma'lum darajada bilmasdan turib o'zlashtirish mumkin emas. Grammatik nazariya imlo qoidalari uchun poydevor hisoblanadi. Shuning uchun boshlang'ich sinflarda imlo qoidasi shu qoidaga asos bo'ladigan grammatik nazariyaga bog'liq holda o'rganiladi. Masalan, shakl yasovchi qo'shimchalarning yozilishi haqidagi qoidalar "Ot", "Sifat", "Son", "Kishilik olmoshlari", "Fe'l" mavzulari ichiga kiritilgan. Materialning bunday joylashtirilishi grammatika bilan orfografiyani bir-biriga bog'liq holda o'rganishni ta'minlaydi.

Imlo qoidasi bevosita grammatik nazariya elementlaridan so'ng o'rganiladi. Masalan: otlarning kelishiklar bilan turlanishi o'rganilgach, kelishik qo'shimchalarining yozilishi haqidagi ko'nikma shakllantiriladi. "Sifat" mavzusini o'rganish -roq qo'shimchasining vaqip-qizil, yum-yumaloq kabi sifatlarning yozilishiga, "Fe'l" mavzusini o'rganish bo'lishsizlik (-та) va o'tgan zamon (-di) qo'shimchalarining yozilishiga zamin yaratadi. Imlo qoidalarini o'rgatishga bunday yondashish boshlang'ich sinflarda barcha orfografik materiallarni o'rganishda tipikhisoblanadi.

Imlo qoidalari ustida ishlash - murakkab jarayon, qoidaning mohiyatini ochish, o'quvchilarning qoida ifodasini o'rganib olishlari, qoidani yozuv tajribasiga tatbiq etishlikning asosiy komponentlari hisoblanadi.

Qoida mohiyatini ochish qoida so'zning qaysi qismini, qaysi so'z turkumi yoki grammatik shaklni yozishni boshqarishini, bunda qaysi belgilar yetakchi ekanini tushuntirish dcmakdir. O'quvchilarni qoida bilan tanishtirish uchun material tanlashda o'qituvchi bu yetakchi belgilarni albatta hisobga oladi.

Qoida ifodasi ustida darslik bo'yicha ishlanadi. Bunda o'quvchilarning qoida tarkibini anglab yetishlari ahamiyatlidir. Shuning uchun darslikdagi qoida qismlarga bo'linadi (Aslida o'quvchilar bu vazifani mashq jarayonidayoq bajarib qo'yadilar). O'quvchilar o'rganilgan qoidaga moslashtirish va xilma-xil mashqlarni bajarish yo'li bilan uni yangi til materialiga, ya'ni yozuv tajribasiga tatbiq etadilar.

Qoida ustida ishlash metodikasi shu qoidaning xarakteriga qarab tanlanadi. Masalan, bo'lishsizlik qo'shimchasi (-та) ning yozilishini deduktiv yo'l bilan o'rgatish mumkin. Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi (-ga) ning oxiri -k bilan tugagan otlarga -ka, -q bilan tugagan otlarga -qa shaklida qo'shilishi haqidagi qoidani induktiv yo'l bilan tushuntirish maqsadga muvofiq.

O'quvchilar qoidadagi asosiy fikrni ajratishga yordam beradigan vazifalarni bajarsalar, uni o'zlashtirish juda qulay bo'ladi. Chunki bolalar aniq material bilan ishlaydilar va uni tahlil qilish vaqtida qoidaning muhim qismlarini ajratadilar, qoidani ongli o'zlashtiradilar. Nimanidir, masalan, so'zlarning talaffuzi va yozilishini, so'z turkumlarini, so'z qismlarini bir-biriga taqqoslash o'quvchilarning aqliy faolligini oshiradi. Bunda yana qoidaning ajratilgan belgisini aniq yozib ko'rsatish ham ahamiyatli hisoblanadi. Qoidada aks ettirilgan muhim fikrni ajratishga o'qituvchining savollari yordam beiadi. Bu savollar, o'z navbatida, qoidani shakllantirish rejasi ham hisoblanadi.

Qoida ustida jamoa bo'lib ishlash bilan birga, darslikdan foydalanib, mustaqil ishlash usulini qo'llash ham mumkin. Yangi qoidani o'zlashtirishda o'rganilgan bilimlarga suyaniladi. Buning uchun yangi qoida ilgari o'rganilgan qoidalar bilan bog'lanadi. Bunda qarshi qo'yish yoki taqqoslash usulidan foydalaniladi va o'xshash tomonlari aniqlanadi. Masalan, tushum kelishigi qo'shimchasining yozilishini o'zlashtirishda u ilgari o'rganilgan qaratqich kelishigi qo'shimchasining yozilishi bilan taqqoslanadi va tushum kelishigi qo'shimchasi otning fe'l tomonidan boshqarilishini bildirishi aniqlanadi. Qoidani bilib olish o'quvchilarda u haqdagi aniq tasavvurining mavjudligiga bog'liq. Qoida asosida hosil bo'lgan aniq tasavvur so'zlarda ifodalanadi. Shuning uchun o'quvchilardan qoidani quruq yodlab berish talab etilmasligi, balki so'zni to'g'ri yozishdagi xususiyatlar aniq material misolida qayta tushuntirilishi lozim.

Imloga oid mashqlar. Imloviy malaka ongli nutq faoliyatining avtomatlashgan komponentidir. Faoliyat avtomatlashishi uchun uzoq vaqt davomida maqsadga qaratilgan mashqlar bajarib boriladi. Imloga oid mashqlar imloviy ziyraklik ko'nikmasini shakllantirishga, tegishli o'rinda qoidani tatbiq qilishga, mashqlarning qismlari o'rtasidagi bog'lanishni belgilash, ularni umumiy va yagona faoliyat tizimiga kiritishga, o'quvchilar uchun qoidaning mohiyatini aniqlash va uni shakllantirishga qaratiladi. Qoidani tatbiq qilish davridagina uning mazmuni chuqurroq o'zlashtiriladi. Metodikada imloga oid mashqlarga: 1) grammatik-orfografik tahlil; 2) ko'chirib yozish; 3) diktantlar; 4) leksik-grammatik tahlil; 5) bayonlar kiradi. Grammatik-orfografik va leksik- orfografik tahlilda orfografiyaning grammatika va leksika bilan bog'lanishi, ko'chirib yozuv va diktantda o'quvchilar faoliyatini belgilaydigan omillar, xususan, ko'chirib yozuvda ko'ruv va qo'l harakati uquvi, diktantda eshituv uquvi hisobga olinadi.

Ko'chirib yozish ko'rib idrok qilingan so'z, gap va matnni yozma shaklda ifodalashdir. Boshlang'ich sinflarda husnixat va imlo qoidalariga rioya qilib, tuzatishlarga yo'l qo'ymay va tartibli, harflarni tushirib qoldirmay, o'rnini almashtirmay, tinish belgilarini to'g'ri qo'llab ko'chirib yozuv ko'nikmasi shakllantirilishi kerak. O'quvchilarda bu ko'nikmani hosil qilish maqsadida o'qituvchi alifbe davridan boshlab ularga ko'chirib yozuvni izchillik bilan o'rgatib boradi.

O'quvchilarda ko'chirib yozish ko'nikmasini shakllantirishga oid asosiy qoidalarga quyidagilar kiradi:

1.Ko'chirib yozishdan oldin ko'chirib yozadiganingni yaxlit o'qib chiqish.

2. Har bir gapdagi so'zlarni bo'g'inlarga ajrat va ichda bo'g'inlab aytib, yoz.

3. Ko'chirib yozganingni asliga solishtir va xatolaringni to'g'irla.

Ko'chirib yozish uchun so'z, alohida gap va kichik matnlardan foydalaniladi. O'qituvchining qo'ygan maqsadiga bog'liq holda ko'chirib yozishdan oldin unga tayyorgarlik ko'riladi; bunda imlosi qiyin so'zlarni izohlab o'qish, so'zning nima uchun shunday yozilishini asoslash, o'rganilgan qoida asosida yoziladigan so'zlarni aniqlash kabi mashqlardan foydalaniladi. Bu ko'nikma qay darajada shakllanganligini aniqlash maqsadida kontrol (tekshiruv) ko'chirib yozuv o'tkaziladi.

Ko'chirib yozish mashqlari grammatik, leksik yoki so'z yasalishiga oid vazifalarni bajarish bilan birga olib boriladi. Bu imlo qoidasini tatbiq etishni yaxshi bilib olish imkonini beradi. Chunki vazifaning xarakteri imloviy malakani shakllantirishga nazariy asos bo'ladigan grammatik, fonetik bilimlarni faollashtirishni talab etadi. Bulardan tashqari, kompleks mashqlar orfografiya bilan birgalikda nutq o'stirish vazifalarini ham bajarish imkonini beradi. Kompleks mashqlarga misol qilib quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Ko'chirish. O'zakdosh so'zlarni aniqlab, o'zakni ajratish.
2. Tushirib qoldirilgan qo'shimchalarni qo'yib ko'chirish, qanday qo'shimcha ekanini aytish; yozilishini tushuntirish.
3. Matn mazmuniga mos so'zni qavs ichida berilgan so'zlardan topib qo'yib ko'chirish. Shu so'z qaysi so'z turkumiga oid ekanini, uning yozilishini tushuntirish.
4. Aralash berilgan so'zlardan gap tuzish va yozish.
5. Tartibsiz berilgan gaplardan bog'lanishli matn tuzish.

Tanlab ko'chirish (Berilgan gaplardan yoki matndan muayyan bir so'z turkumini; ot va fe'ldan yoki

ot va otdan, sifat va otdan tuzilgan so'z birikmalarini ko'chirish).

Foydalanilgan adabiyotlar:
1. Roziqov O. va b. Ona tili didaktiikasi.-T.: Yangi asr avlodi, 2005
2. Qosimova K. Va b. Ona tili o'qitish metodikasi. - Toshkent: Noshir, 2009

ASLIYATNING PRAGMATIK VA STILISTIK XUSUSIYATLARNI TARJIMADA AKS ETTIRILISHI

Dilbar Usarova
Samarqand shahar, SamDChTI talabasi
Telefon:+998(98)7334975
Bahoroy Shermatova
SamDChTI o'qituvchisi
g-mail: bahorashermatova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarjima jarayonida yuz beradigan muammolar sirasiga kiruvchi asliyatning pragmatik hamda stilistik xususiyatlarini tarjimada qanday aks ettirilishiga doir atroflicha fikr yuritilgan. Tahlil jarayonida mutaxassislarga tarjima jarayonida muammo tug'diradigan birliklar ham nazariyalar orqali ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Pragmatik xususiyat, stilistik xususiyat, pragmatik potensial uslubiy bo'yoqdor so'zlar, milliy so'zlar.

Bugungi kunda jahonning eng nodir ilmiy hamda badiiy asarlari o'zbek tiliga tarjima qilinmoqda. Shu bilan bir qatorda o'zbek xalqining ham durdona asarlarining ham chet tillariga tarjimalari amalga oshirilmoqda. Bunday asarlarni o'qish o'quvchiga katta zavq bag'ishlaydi.Ammo bunday tarjimalar ortida katta mehnat yotadi. Ilmiy jihatdan olib qaraganda, tarjima jarayoni murakkab jarayon hisoblanadi va bunda tarjimonlar bir qancha muammolarga duch keladi. Masalan, tarjima jarayonida mutaxassislar asliyatning pragmatik, stilistik, leksik, grammatik hamda frazeologik muammolari bilan yuzlashishadi. Yuqorida sanab o'tilgan muammolar yechimini topish uchun ko'plab olimlar tadqiqotlar olib borishmoqda.

Asliyatning pragmatik va stilistik xususiyatlarini tarjimada aks ettirish ham bu sohada to'liq o'z yechimini topmagan muammolar sirasiga kiradi.

Pragmatika atamasiga turli adabiyotlarda turlicha ta'riflar beriladi. Masalan, tarjimashunos olim G'anisher Rahimov o'zining "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" nomli kitobida pragmatika atamasiga quyidagicha ta'rif beriladi: "Pragmatika (yunoncha pragma-harakat) -muayyan nutq jarayonida belgilar va ularning ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarni o'rganuvchi semiotikaning bir bo'limidir" [2:72].

Boshqa bir tarjimashunos olim Ibrohim G'afurov esa shunday deydi : " Hozirgi tarjima nazariyasi bo'yicha yozilgan ko'p kitoblarda pragmatik aspekt, pragmatik potensial degan tushunchalar keng qo'llanadi, ularga tarjima asarlar tahlilida murojaat etiladi. Yetarlicha ahamiyat beriladi. Bular asliyatning qanday ta'sir ko'rsatgani bilan bo?liq tushunchalar. Asliyatning pragmatik potensiali bilan bo?liq holda o'quvchining hissiyotlari uyg'otadi, junbushga keladi, o'ziga xos ijodiy -ilmiy harakatga undaydi " [3:97].

"Har qanday til belgisi - deydi taniqli rus olimi V.N Komissarov - odatda uch xil munosabatni ifodalaydi.Ular semantik, sintaktik va progmatik munosabatlar bo'lib, birinchisi- til belgisining u anglatadigan predmet bilan aloqasini aks ettiradigan, ikkinchisi- til belgisini mazkur tizimga aloqador boshqa belgilar bilan bog'lab turadigan va uchinchisi- til belgisi bilan muloqot jarayonida undan foydalanuvchi shaxslar o'rtasidagi aloqani muayyan qiladigan munosabatlardir" [4:101].

Barchamizga ma'lumki, insonlar kommunikatsiya jarayonida o'z nutqlarida ko'plab imo-ishoralar, implikatura (tag ma'no)lardan hamda so'z va iboralarni maxsuslashtirib ba'zi vaziyatlarda boshqacha ma'noda ishlatishadi,lekin muammo shundaki biz buni berilgan nutqda yaqqol ko;ra olmaymiz. Chunki, implikaturalar yoki maxsuslashtirilgan so'z va iborani bildiruvchi muqobil variant, belgi mavjud emas. Pragmatika esa nutq strukturasini emas, ularning nimaga ishora qilayotganini o'rganadi. Tarjima jarayonida uchraydigan pragmatik ma'no o'girishda qiyinchilik tug'diradi. Pragmatik ma'no ko'pincha frazeologizmlar , metaforalar hamda qiyosiy birliklar orqali namoyon bo'ladi. Bunday birliklar o'girishda qiyinchilik keltirib chiqaradi hamda tarjimonni o'ylashga majbur etadi. Bunday vaziyatlarda ko'pchilik tarjimonlar avval ushbu birlikning asliyat tilida qanay ma'no kasb etganini chuqur tahlil qila olishlari muhim hisoblanadi hamda tarjima qilinayotgan tilda ushbu birlikka mos biror bir birlik bor yoki yo'qligini bilishlari agar bunday muqobil mavjud bo'lmasa shu ma'noni anglatuvchi boshqa bir birlikni topishlari kerakdir.

Tarjimanning pragmatik muammolari asliyatning janriga va u mo'ljallangan o'quvchilar guruhlariga ham bog'liq bo'ladi.Ayniqsa asliyatning pragmatik salohiyatini saqlab qolish badiiy asarlar tarjimasida ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi.Buning sababi esa ushbu asarning ma'lum bir xalqning milliy boyligi

hisoblanishi ya'ni, unda ayni shu xalqqa tegishli milliyso'zlar hamda aynan shu xalqning o'z uslubiy bo'yoqdorligi mavjudligidadir.

"Tarjima nazariyasining endi o'z ovoziga ega bo'lib kelayotgan yangi sohasi - tilshunoslik yo'nalishidagi qiyosiy uslubiyat turli juft tillar uslubiy tizimlari orasidagi o'xshash va tafovutli jihatlarni muayyan qilish va shu asosda tegishli nazariy umumlashmalar yaratish masalalari bilan shug'ullanadi" [1:63] Asliyat tilining o'ziga xosligini undagi uslublarni, uslublarning betakrorligi hamda asliyatda sodir bo'ladigan betakror jarayonlarni tarjimada aks ettirish ham tarjimonlarning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Tarjimonlar o;z tarjimalarida asliyatning uslubi, shakli va ma'nosini o'zgartirmagan holda tarjima qilishlari kerak. Aks holda tarjimada qo'pollik hamda dag'allik vujudga kelib, mutaxassis o'z ko'zlagan maqsadiga yeta olmasligi mumkin. Bunga sabab esa, so'zlar o'z stilistik bo'yoqdorligi va shu kabi xislatlarini faqat asliyat tilidagina namoyon etishidadir. Shuning ucun asliyat matn muallifining yozish uslubi bilan tarjimon mutaxassisning uslublari bir-biriga yaqin bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Zero,"Tarjimaning stilistik muammolari tarjimondan badiiy adabiyotning qayta yaratilishida muamuallif uslubini saqlash, o'zga madaniyatga oid asar tarjimasida uslub shakl va ma'noni berish asar shaklini ochib berishda stilistik bo'yoqdor so'zlar tarjimasi kbi masalalarni bartaraf etishni ko'zda tutadi" [2:114].

Xulosa qilib aytganda, tarjima pragmatikasihamda stilistikasi kabi muammolar alohida yondashuvni talab qiladigan sohalar hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda matn mazmuni bilan bog'liq bo'lgan uslubiy bo'yoqdorligini, syujetining ifoda darajasini aniqlab, leksikaning stilistik jihatdan o'ziga xosligini , frazeologik birliklarning milliy madaniy xususiyatlarini e'tibordan chetda qoldirmaslidimiz zarur huisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Musayev Q. Tarjima nazariyasi va amaliyoti .-"Fan" nashriyoti .2005.-352 b
2. Rahimov G'. Tarjima nazariyasi va amaliyoti .-Toshkent:" O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti,2016.-176 b..
3. G'ofurov I.Tarjimon mutaxassisligiga kirish.-Toshkent: Mehridaryo, 2008-118 b.
4. Комиссаров В. Лингвистика перевода. М... "Международный отношения" 1980.стр 101.

COMMUNICATION GAMES IN ENGLISH LESSONS

Usmanova Saidaxon Ikromjonovna,
an English teacher of Namangan region,
Uychi district, school № 7
tel: 99 6405336

Annotation

This article is about communication games in English lessons. They help improve the relationship between students and the teacher, as the teacher acts as a communication partner in the game.

Key words: communication, English, activity, games, lesson, during, role-play

Activation of educational and speech activity of students at the motivational stage is associated with the challenge of the speaking motive. A person speaks when he feels the need to express his thought. The use of communication games in English lessons helps to bring the learning process closer to real life. Under the communicative game, we will understand the model of natural communication, organized by the teacher to simulate the process of real communication. The use of communication games in English lessons helps to bring the learning process closer to real life. Games are a tool that can activate educational and speech activities.They help improve the relationship between students and the teacher, as the teacher acts as a communication partner in the game; create conditions for creating a creative environment; attempt to go beyond the limited communication in the classroom; create a situation where the student can play himself or arole that he likes; increase the time for speech practice.Also, each participant in the game has the opportunity to show individual qualities.

Younger students are happy to participate in game situations in the English lesson. For this age, especially suitable story role-playing games of fairy-tale content. Children are very interested in playing masks, costumes, depending on the role they change their gait, gestures, and voice timbre. According to psychologists, the behaviour of children of primary school age is characterized by high activity and mobility. It is these age characteristics of students that allow the most successful and intensive use of role-playing games and tasks in the lower grades.

In high school, business games are successfully held in English classes, as in high school age, the importance of game situations increases, expanding the students ' understanding of the world around them, preparing the participants of the game for their future social role.The success of speaking development at this stage also depends on the ability of older students to use oral communication strategies, rely on previous speech experience, and possess a set of speech-organizing formulas. At this stage, you can encourage a student to make a speech statement using a story role-playing game of everyday content, since such games reflect different aspects of the student's life (study, leisure, work), and reproduce fragments of his real-life experience.Participating in arole-playing game of everyday content, students of grades 5-9 master such elements of communication as the ability to start a conversation, support it, interrupt the interlocutor at the right time, agree with him or deny him, the ability to purposefully listen to the interlocutor, ask clarifying questions, etc. For a successful role-playing game, proper selection of material and thorough methodological study are necessary.

Activity 1. The game "Party Invitation". Duration: 10-15 minutes

Students of the entire group (8-10 people) are given cards in English with the reason for refusing to take part in the party (cold, mother's birthday, preparing for independent work, attending a concert, etc.). two cards are marked "Invitation accepted with gratitude". One student plays the role of a man who throws a party and is invited by his friends. During this game, the following speech intentions are implemented: accept and reject invitations, Express gratitude and regret, etc.

Activity 2.The game "Family vacation".Duration: 15-20 minutes

For this game, you need to divide the class into subgroups of 4 people. Everyone gets a card with a role: mother, father, brother and sister.Each participant offers their version of two-weeksummer vacation with an explanation of the reasons why the other members of the group should choose this option. The other participants give their arguments and at the end choose one option that suits the whole family.

Activity 3.Game " Going to the Movies". This game is played in pairs.

Card of the first student: Invite your friend to go to the cinema and watch a James Bond film. Explain where the film is being shown and when it starts. If you do not understand anything your friend says ask

him/her to repeat what he/she said. Agree on where you will meet.

Second student's card: Agree to go to the cinema with your friend, ask hem/her what film is being shown, where you will meet and suggest the place where you will meet.

Thus, during the role-playing game, students are convinced that language can be used as a means of communication. The game activates the desire of children to contact each other and the teacher creates conditions for equality in speech partnership and destroys the traditional barrier between the teacher and the student. Also, the game allows timid, insecure students to speak and thus overcome the barrier of uncertainty. In a role-playing game, everyone gets a role and must be an active partner in speech communication.

References:

1.Khan, J. (1991). Using games in teaching English to young learners.

2.Lewis, G., & Bedson, G. (1999). Games for children. Oxford: OUP

3.Wright, A., Betteridge, D., & Buckby, M. (2005). Games for language learning (3rd ed.). New York: Cambridge University Press.

WITHOUT LISTENING, SPEAKING CANNOT BE NORMAL

Usmonova Dildora Komiljonovna,
an English teacher of Namangan region,
Yangikurgan district, school № 26
tel: +998995215502

Annotation

In this article, it is spoken about how to develop listening skills and also 3 stages in working with audio texts are given with explanations.

Key words: listening, without, communication, pre-listening, through, main

The purpose of teaching a foreign language in primary school is to provide students with the ability to communicate directly with native speakers of the language being studied in the most common situations of everyday communication. And, as you know, communication is not only speaking a foreign language, but also listening to the other person's speech. In other words, speaking and listening are the main types of speech activity in communicating with native speakers of a foreign language. Listening makes it possible to master the sound side of the language being studied, its phonemic composition and intonation: rhythm, stress, melody.

Through listening, the development of a new lexical structure and grammatical structure is carried out. Without listening, speaking cannot be normal, these are two sides of oral speech. Audio-visual and auditory sources help you develop your listening skills. Audio-visual sources include: visual clarity (pictures, slides), accompanied by a teacher's story; voiced diafilm and video films; television; radio broadcasts. Audio sources include: recordings; photo and audio recordings; teacher's speech.

So how can students develop the listening skills that are so necessary for communication and today also for successfully passing the final exam in English, in which listening is one of the most difficult parts? How can students improve their listening skills?

Of course, this requires not only listening to the teacher's speech in the classroom, but also listening to audio recordings of native speakers during lessons (intensive listening), as well as listening to authentic texts (extensive listening). In addition, there are 3 stages in working with audio texts: the pre-text stage (before listening), the stage of listening to the text (while listening), and the post-text stage (after listening). The pre-text stage is aimed at increasing motivation and setting the mindset for initial listening to the text. This can be tasks such as: discussing questions before listening; guessing the title, illustrations, new words about the content of the text; talking about the problems of the text with students, etc. Also, it is at this stage that you should remove possible difficulties that may arise for students. During the first listening session, students try to understand the content by completing tasks in the pre-text stage. However, there may be several auditions and students can perform various tasks: insert missing words; find phrases used in the text without changes; specify which definitions of words were found in the text; finish sentences; find an equivalent to the texts they listened to. The post-text stage is further work on the text, using it to develop oral and written skills. The main tasks of the teacher in the listening lesson: to prepare the child for listening through a variety of PRE-listening tasks to arouse interest, focus on the topic and update the vocabulary before listening; to help during listening-DURING-listening, to relieve difficulties during listening and to focus on some important points and to teach them to hear exactly the right information; discuss, draw conclusions after listening-POST-listening, not only to check how well the content of the audio material is understood, but also to consolidate the knowledge, as well as - this is the motive for listening. The most important part of listening is PRE-listening. In the process of listening directly DURING-listening, students must: determine what is being discussed, where events occur, etc.; pay attention to what remains unclear and formulate a question about it; confirm or refute their guesses made in the process of PRE-listening; draw conclusions, evaluate. The POST-listening stage is equally important. It shows how well the students understood the audio material, how much they were interested in it, and whether their assumptions were correct. The teacher's speech also plays an important role and takes up a large part of the lesson, so it has high requirements.

In conclusion, we can say that, listening is the basis of communication, it helps to master oral communication. It consists of the ability to identify perceived sounds, translate words and expressions, hold them in memory while listening, predict further events and, based on the communication situation,

understand the perceived sound chain. Listening allows you to teach students to listen carefully to the sound of speech, to form the ability to understand the semantic component of the text and thus foster a culture of listening not only in a foreign language, but also in their native language. Listening has a positive effect on the development of the student's memory, in this case, on the development of auditory memory. Listening makes it possible to master the sound side of the language being studied, its intonation and phonemic composition: rhythm, stress. Through listening is the assimilation of the lexical structure of the language and its grammatical structure. Also, listening allows you to master speaking, reading and writing at a more advanced level, which is one of the main reasons for using listening as an auxiliary, and sometimes the main means of learning. From the above, we can conclude that listening is an integral part of the lesson, for the formation of students' communicative competence, the ability to carry out intercultural communication.

References:

1.Anderson, A. & T. Lynch (1988) Listening. Oxford: OUP.

2.Bloomfield, A. et al. (2010). What Makes Listening Difficult? Factors Affecting Second Language Listening Comprehension.

3.Rost, M. (1990) Listening in Language Learning. London: Longman.

ALISHER NAVOIYNING O'ZBEK TILSHUNOSLIGIGA QO'SHGAN HISSASI

Valiyeva Dilorom Turg'unpo'latovna
Namangan viloyati Namangan tumani 2-sonli
maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning o'zbek tilshunosligining shakllanishidagi hissasi haqida fikr yuritiladi. Alisher Navoiyning o'zbek adabiy tilini grammatik jihatdan kengaytirganligi to'grisida dalillar keltiriladi.

Kalit so`z va iboralar: til, turkiy lahja, folklor, tilshunoslik, chog`ishtirma tilshunoslik.

Аннотация: В этой статье рассматривается вклад Алишера Навои в развитие узбекской лингвистики. Он предоставил доказательства того, что грамматика была расширена до Навоийского узбекского литературного языка.

Ключевые слова и фразы: язык, турецкий лахья, фолклор, лингвистики, отдел лингвистики.

Annotation: This article discusses the contribution of Alisher Navoi to the formation of Uzbek linguistics. There is evidence that Alisher Navoi's grammatical extension of the Uzbek literary language.

Key words and phrases: language, turkish lahja, folklore,linguistics, comparative linguistics.

Hazrat Mir Alisher Navoiyning boy merosi orqali biz o'zbek tili jilvasini ko'rishimiz mumkin. Navoiy asarlarini mutolaa qilgan inson ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash kabi tuyg'ularni xis qiladi. Navoiy o'z ona tilida badiiy ijod qilish, ona tilining butun go'zalligini, tarovatini amalda ko'rsatish bilangina cheklanib qolmadi. Ona tilini o'sha davrda badiiy adabiyot uchun an'ana bo'lib qolgan fors tiliga qiyoslab, bu tildan hech qolishmasligini, xatto ba'zi o'rinlarda ustunroq turishini ilmiy jihatdan ham isbotlab bermoqni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Ana shu maqsadda 1498-1499-yillarda ikki til muhokamasiga - ikki tilning chog'ishtirma grammatikasiga bag'ishlangan maxsus asarini - "Muhokamat ul-lug'atayn" asarini yaratdi. Bu asarda turk va fors tillari qiyoslab yozilgan. Navoiy bu asari bilan o'zbek tilining buyuk bilimdoni va homiysi bo'lib maydonga chiqdi. Bu tilning boshqa tillardan mutlaqo qolishmasligini amalda isbot qilib bergan shoir mazkur asarida bu muhim xulosasini ilmiy-nazariy jihatda asoslab ko'rsatgan.

Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asarini yaratishda eng ko'p foydalangan manbalar:

- Turkiy lahjalardagi lug'aviy va grammatik elementlar.
- Ilmiy risolalar
- O'sha davrdan ziyolilarning og'zaki nutqi
- Arab va fors elementlari
- Turkiy so'zlar va iboralar
- Turkiy lahjalar va folklorlar

Tilshunoslikning hozirgi kunda chog'ishtirma lingvistika deb yuritiluvchi yangi yo'nalishiga asos solindi. Chog'ishtirma tilshunoslikning o'ziga xos xususiyati shundaki, ikki tizimga mansub bo'lgan tillar tilning barcha sathlari bo'yicha bir-biriga solishtiriladi. Ularning o'ziga xos xususiyatlari ochib beriladi.Ikki tilning muhokamasiga bag'ishlangan bu asar Alisher Navoiyning turk(o'zbek) jonli so'zlashuv tilini ham naqadar chuqur o'zlashtirgan, har bir qavmning til xususiyatlari uning e'tiborida bo'lgan, ayni paytda, fors va arab tillarining ham zukko bilimdoni sanalgan keng qamrovli tilshunos ekanligini to'la namoyish etadi.[1]

Bu asar orqali Alisher Navoiyning fonetik, leksik, grammatik qarashlari haqida ma'lum tasavvurlarga ega bo'lamiz:

1)O'zbek tilini yangi tub so'zlar bilan boyitdi.

M: "quyosh" ma'nosidagi "kurash" so'zi

"Yolg'on" ma'nosidagi "o'truk" so'zi

2)Tildagi bor so'zlar va qo'shimchalar asosida yangi so'zlar yaratdi.

M: Navoiy ko'makchi ma'noda "qil", "et" va "ayla" fe'lidan tashqari "ko'rguz" fe'lidan "bo'l" fe'lidan ma'nodagi sifatida "kel" fe'lidan foydalanib yangi so'zlar hosil qilgan. Quyidagi baytda "orzu" so'zidan "la" qo'shimchasi bilan fe'l yasagan.

Shishaki ruxsor uza sepkoy gulop,
Toq uza asrarlar ani orzulab.

3)Lug'aviy birliklarning hosil qilishning nozik usulini kashf etdi.

4) Adabiy tilda Navoiygacha ham ishlatilgan so'zlarning yangi ma'nolar bilan boyitdi.

5) O'zbek adabiy tilini grammatik jihatdan kengaytirdi.

M: Turkiy xalqlar bugungi kundan oldingi kunni kech vaqtini anglatuvchi so'zlar bilan, keyingi kunni esa tong ma'nosiga aloqador so'zlar bilan ifodalash bor. Janubiy g'arb turklari bugundan oldingi kunni dun "tun" deydilar: Navoiy ham "tun so'zini shu ma'noda "kecha" so'zining ma'nodoshi sifatida ishlatiladi.

Tun oqshomi keldi kulbam sariul gulruh shitob aylab,
Xiromi sur'atidin gul uza xaydin gulob aylab.

Alisher Navoiy Sharq tilshunosligida mavjud bo'lgan leksika sohasidagi bilimlar bilan qurollangan. Ana shu bilimlar asosida turk tilining lug'at boyligini ko'rsatishga harakat qiladi. Buning uchun xalq tilidan forsiy ekvivalenti bo'lamagan bir qancha so'zlarni topadi. Bular shunday so'zlarki, "barchasi muxtojin ilay durki (ehtiyojli), takallum chog'ida kishi anga muhtoj bo'lur. Ko'pi andoqdurki, also aning mazmunini tahfim qilmoq (ifodalamoq) bo'lmas va ba'zanki, anglatsa bo'lg'ay, har lafz tahfimi uchun (ifodasi uchun) necha lafzni(so'zni) tarkib qilmaguncha bo'lmas".[2]

Ana shunday so'zlarga bir xil ma'nodagi yuzta fe'lni keltiradi. Alisher Navoiy keltirgan fe'llar o'zbek tilining imkoniyatlarini ko'rsatmoq uchun xalq tilini qanchalar sinchkovlik bilan chuqur o'rganganligini isbotlovchi dalillardir. Alisher Navoiy dalil uchun keltirgan leksemalarning har qaysisini she'r ichida ishlatadi va bu so'zlarning matn tarkibidagi badiiy-estetik rolini ko'rsatib beradi.

"Forsiygo'y turk beklar va mirzodalar bo'xsamoqni forsiy til bila tilasalarki, ado qilg'aylar. Va she'rning bin ova madori ishqqa evrulur va oshiqliqda yig'lamoqdin kulliyraq va doimiyroq amr yo'qtur va anda tanavvu bor: yig'lamsinmoq mazmunidaki, turk mundoq debdurki,

Bayt:
Zohid ishqin desaki, qilg'ay fosh,
Yig'lamsinuru ko'ziga kelmas yosh.

Va ingramoq va singramoqqim, dard bila yashurun ohista "ig'lamoqdur va oralarida tafovut oz topilur. Turkchada bu matla' borkim,

Bayt:
Istasam davr ahlidin ishqingni pinhon aylamak,
Kechalar gaah ingramakdur odatim, gah singramak.

Forsiyda bu mazmunki bo'lmag'ay, shoir ne chora qilg'ay? Va siqtamoqkim, yig'lamoqda mubolag'adur, turk bu nav ado qilibdurki,

Bayt:
Ul oyki, kula-kula qirog'latti meni,
Yig'latti meni demayki, siqtatti meni".[3]

Bu fe'llarni fors tilida topib bo'lmasligi va aynan tarjima qilish mumkin emasligini isbotlaydi va bu ham turk tilining go'zal tomonlarini ochishga harakat qiladi.

Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida ta'kidlanishicha, so'z go'yo durdir. Durning joylashish o'rni dengiz tubi bo'lsa, so'zning joylashish o'rni ko'ngildir. Dur g'avvos yordamida dengiz tubidan tashqariga chiqarilib, jilvalantirilsa va g'avvosning qiymati javharni jilvalantira olish qobiliyatiga qarab belgilansa, so'z sohibi ixtisos tomonidan ko'ngildan tashqariga olib chiqiladi va notiqning qiymati so'z qo'llash mahoratiga, uni jilvalantirish qobiliyatiga qarab belgilanadi. Dengiz qa'rida harakatsiz imkoniyat tarzida turgan durlar g'avvos yordamida harakatga keltirilsa, ko'ngil tubidagi imkoniyat tarzidagi so'zlar ham so'zlovchi tomonidan nutqiy jarayonda o'z jilvasini topadi.

Alisher Navoiyning boshqa sohalar singari tilshunoslikdagi xizmati ham g'oyat katta ahamiyat kasb etadi. Tilshunoslikka doir fikrlari ulug' siymoning har bir asarida ko'zga tashlanadi. Umuman, buyuk mutafakkirning til haqidagi qarashlari, til va nutq birligi hamda ushbu hodisalarni farqlay bilish xususidagi mulohazalari hozirgi kun tilshunosligi uchun ham nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Nurmonov A.,O'zbek tilshunoslik tarixi.Toshkent.O'zbekiston.2002.B-232.
2.Abdurahmonov G'., Shukurov Sh.,Mahmudov Q.,O'zbek tilining tarixiy grammatikasi.Toshkent.O'qituvchi.2008.
3.Alisher Navoiy.Muhokamat ul-lag'atayn.www.ziyouz.com

THE IMPORTANT ROLE OF SPEAKING SKILLS IN TEACHING ENGLISH

Xakimova Umida Nosirjonovna,
an English teacher of Namangan region,
Yangikurgan district, school №16
tel: +998972590045

Annotation

In this article, we consider the important role of speaking skills in teaching English. The author concludes that the possession of speaking skills is an integral part of language learning , since language is a means of communication and the level of progress and effectiveness in its study is mainly determined by this aspect. The article also offers a number of recommendations for teaching speaking to teachers of foreign languages .

Key words: role, speaking, communication, activity, dialogue, monologue

Speaking is a productive type of speech activity, through which (together with listening) oral verbal communication is carried out. As one of the types of human activity, speaking serves as a means of communication in a person's life, which is unthinkable without interaction with other people. As a result of the activity of speaking, its product - utterance-arises. Both as an activity and as a product, speaking has certain characteristics that serve as a guide in learning, as they suggest what conditions need to be created for the development of speaking, and are also criteria for evaluating learning results. Based on this, the process of learning to speak must be given characteristic features of the process professionally oriented communication. For a student, the language that he or she learns, even if in isolation from the natural language environment, should not become a system of signs, rules, or speech patterns, but a tool that allows him or her to carry out their intentions, satisfy their intellectual and emotional needs, achieve practical results (learn something new, do something together, etc.). An effective form of communication organization is pair work: speaking time is completely given to students, their independence is developed . Skills and abilities of untrained speech, its reactivity, and spontaneity are developed in the dialogue; skills and skills of prepared speech with its initiative, logic, consistency - in the monologue. Dialogue is considered to be one of the most effective means of developing and developing speaking skills in teaching foreign languages. Dialogic speech is a form of speech in which there is a direct exchange of replicas of two or more persons. The features of this form of speech are short statements, the use of allusions, comprehensible only to the speaker, the widespread use of nonverbal communication (facial expressions, gestures), a large role of intonation, free from strict rules book speech syntactic design statements, application questions, additions, explanations, various additional words and interjections, special offers of incomplete composition. The Dialogic form of speech is very widespread, it functions literally in any sphere of human activity, being the dominant form of oral speech [3].In teaching monologue and dialogue, there are many similarities, but for educational communication, Dialogic speech presents much more difficulties than monologue. Much it depends on a number of factors: the situation, the psychological characteristics of the trainees, etc. The specifics of forming a dialogue are based on difficulties caused by its characteristics. There are the following main characteristics of the dialogue: reactivity and pragmatism. The main means of teaching Dialogic speech are exercises. In the process of their implementation, such skills as requesting information, responding adequately to the interlocutor's remark, using Dialogic speech stamps, combining replicas when building a dialogue, and others are formed. The Main stages of teaching Dialogic speech are: presentation of the situation and the dialogue; reproduction of the dialogue; creative expansion of the sample dialogue.

Jack: You look rather pale. Aren't you feeling well?

Glenn: Not very. I was sick most of the night. I didn't sleep very well.

Jack: What seems to be the matter? Is it the flu?

Glenn: No, I think it's something I ate. We ate at the new restaurant last night, and I must have eaten something that didn't agree with me.

Jack: Was it that new restaurant on Gyde Street?

Glenn: As a matter of fact, it was. Why do you ask?

Jack: Because, Jerry ate there last week and had the same kind of problem. He was sick the next day, too.

Glenn: That's interesting. Maybe the health authorities should investigate the place.

Jack: That's what I think. Two people with similar problems in such a short time can't just be coincidence!

Monologue speech - a form of speech that is a coherent statement of one person, expressing in a more

or less detailed form their thoughts, their own attitude and assessment of events, addressed to another person (sometimes to himself) or a group of people (interlocutors). It has an informative, influencing (by persuading) evaluation function. There are usually two interrelated types of monologue: contextual and situational. In contrast to Dialogic speech, monological speech is characterized by its fullness, communicative orientation of the utterance, continuity, which allows the speaker to Express their thoughts coherently and fully, purposefulness, logic, consistency, semantic completeness, and a variety of language tools.

References:

1.Alonso, A. Rosa, (2014). Teaching Speaking.
2.Broughton, G. et al. (1980). Teaching English as A Foreign Language.
3.Littlewood, William, (2007). Communicative Language Teaching. Cambridge University Press.

ADABIYOT DARSLIGINING SAMARADORLIGI MILLIY QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISHDA

Xalilova Dilorom,
Navoiy viloyat Navoiy shahar 7-maktab
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqola adabiyot darsining har bir qismida, shuningdek, yakunlovchi mashg'ulotida ham samaradorlikka erishishda savol-topshiriqlar asosida o'quvchilar asarning ma'no-mazmuni, matnda qo'llanilgan badiiy tas'vir vositalarini ham o'rganishi, badiiy asarga bo'lgan qiziqishi ko'chayishi haqidagi ma'lumotlar yozilgan.

Kalit so'zlar: adabiy ta'lim, epik asar, roman, janr, mashg'ulot.

Adabiy ta'limning uzluksizligi va uzviyligini taminlashda kirish mashg'ulotlarining o'rni bilan bir qatorda yakunlovchi mashg'ulot ham muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiy ta'limning barcha tur va janrlariga xos bo'lgan badiiy asarlarni umumiy o'rta ta'limning hamma sinflarida bir xilda uyushtirish ko'zlagan natijani beravermaydi. Boshqacha qilib aytganda, lirik asarlar bo'yicha o'tkaziladigan yakunlovchi mashg'ulot bilan epik asarlar yuzasidan uyushtiriladigan yakunlovchi mashg'ulot bir xil amalga oshirilmaydi.

Mutaxasislar fikricha, kirish mashg'ulotlari o'quvchilar asar bilan tanishish jarayoning ilk bosqichi bo'lsa, yakunlovchi mashg'ulotlar olingan bilimlarni mustahkamlashga, tegishli malaka va ko'nikmalarni barqarorlashtirishga imkon yaratadi. Huddi shu bosqich o'quvchining badiiy asar haqidagi yaxlit, uzul-kesil xulosalarning paydo bo'lishiga asos bo'ladi, ya'ni yakunlovchi mashg'ulotlar badiiy asar bo'yicha olib boriladigan tahlilni yakunlovchi qismi hisoblanadi.

Epik asarlarni, ayniqsa, romanlarni o'rganish bo'yicha amalga oshiriladigan yakunlovchi mashg'ulotlar savol va topshriqlar asosida amalga oshirilgan maqsadga muvofiq. Bunday mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishda darslik majmuadagi matnlar emas, baki yaxlit asar qamrab olinishi zarur.

Malum bir asar bo'yicha o'quvchilarga tavsiya qilinadigan savol-topshiriqlar ancha oldin, o'quv yilining boshidan berilishi kerak. Shunda o'quvchilarning bo'sh vaqti behuda ketmaydi. O'quvchilarda bilim, malaka va ko'nikmalar bilan bir qatorda axloqiy sifatlar ham shakllanadi.

Bu borada 9-sinfda Chulponning "Kecha va kunduz" romanini o'rganish bo'yicha o'tkaziladigan yakunlovchi mashg'ulotga qo'ydagi savol va topshiriqlar tafsiya qilinadi.

1. "Kecha va kunduz" romani qanday epigraf bilan boshlanadi?
2. "Muz tagida loyqalanib oqqan suvlarning g'amli yuzlari kuldi, uzlari horg'in-horg'in oqsalarda, bushalgan qul singari erkinlik nash'asini kimira-kimira ilgari bosadilar…

Bultur ekilib, ko'p qoshlarini qoraytirgan o'sma ildizdan yana bosh ko'tarib chiqdi… Muloyim qullarda ivilib, suvga aylangandan keyin go'zal kuzlarning supasida yomboshlashni buncha yaxshi ko'rar bu ko'kat !

…Hayot nega bu qadar go'zal va shirin bo'ladi bahorda?"

Matndagi badiiy tasvir vositalarini toping.

3. Nima uchun Zebi onasining beradigan javobini ilgaridan bilardi?
4. "Zebining yuzlaridagi oyday tiniq, quyoshday yorug' bu holat moddiy haqiqatlar qadar ochiq ko'rinadi". Gapda qanday badiiy tasvir vositalari qollangan?
5. "Tong yorishmasdan yo'lga tushib, qishloqdan chiqar-chiqmas ashulani baland qo'ygan Zebi necha yillik g'am-tashvishlaridan to'rt-besh kun ichida ortig'i bilan yozilib kelarkan…", u nimalardan xabarsiz edi.
6. Qishloqdagi to'ydan Razzoq so'fi kelarkan, uyga kirar-kirmas qizini qani deya aytgan so'rovini Zebining onasi qanday qabul qildi?
14. Zebi ota - onasining pichirlab gaplashishlaridan havotirga tushgach nimalar haqida o'yladi?
15. "Bechora qizning butun bu shirin hayollariga shu birgina "Mingboshi" so'zi kelib chiqishi bilan varaqasiga parishon bo'lib sochiladi, tukilgan tarq kabi har tomonga tirqirab ketadi. Haligi shirin hayollar bilan kulib, to'lib, chug'day qizarib turgan yuzlari garmsil tekkan ekin kabi bir nafasda so'lib, o'lib, o'chug'dek bo'zarib qoladi".

Bu matnda qanday badiiy tasvir vositalari qo'llangan?

Xullas, adabiyot darsining yakunlovchi mashg'ulotida savol-topshiriqlar asosida o'quvchilar asarni sujetidan bilan bir qatorda ma'no mazmuni, matnda qullanilgan badiiy tas'vir vositalarini ham o'rganadi, badiiy asarga bo'lgan qiziqishi ko'chaydi. Bu yakunlovchi mashg'ulotning bir turi xolos. O'qtuvchi har bir yakunlovchi mashg'ulotni o'ziga xos turli usullar asosida tashkil etishi dars samaradorligini oshiruvchi omllarda biri bo'lib

xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

5. Cho'lpon A. Kecha va kunduz. -Toshkent:, 2012.
6. Rahmonov N. Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. - Toshkent, 2009.
7. Sirojiddinov.Sh. O'zbek mumtoz adabiyotining falsafiy sarchashmalari. -Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011.
8. To'xliyev B. va boshqalar. Til va adabiyot ta'limining zamonaviy texnologiyalari. - Toshkent, 2011.

CHET TILI DARSLARIDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR: PEDAGOGIK MAHORAT - TA'LIMGA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV

Xolmuratova Nasiba Egamberganovna
Xorazm viloyati Yangibozor tumani 17-son umumiy o'rta ta'lim maktabi
Ingliz tili fani o'qituvchisi
e-mail: nasiba.xalmuratova@mail.ru
Холмуратова Насиба Эгамбергановна
Общеобразовательная школа № 17 Янгибазарского района Хорезмской области
Учительница английского языка
электронная почта: nasiba.xalmuratova@mail.ru
Khalmuratova Nasiba Egamberganovna
No 17 comprehensive school of Yangibazar district, Khorezm region
Teacher of an English Language
e-mail: nasiba.xalmuratova@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada chet tili fanlarini o'qitishda pedagogik mahorat va zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda kompetensiyaviy bilim berish haqida fikr yuritiladi.

Аннотация: Данная статья посвящена использованию педагогических навыков при обучении иностранным языкам и предоставлению компетентностного обучения с использованием современных инновационных технологий.

Annotation: This article focuses on the use of pedagogical skills in teaching foreign languages and the provision of competence-based teaching using modern innovative technologies.

Kalit so'zlar: innovatsiya, pozitsiya, adekvat, media madaniyati, induktiv, kompetensiya, kompetentlilik.

Ключевые слова: инновация, позиция, адекватность, медиакультура, индуктивность, компетентность, компетентность.

Keywords: innovation, position, adequate, media culture, inductive, competence, competence.

Bugungi kun chet tili fani o'qituvchisidan o'z o'quvchilariga xorijiy tilni o'rgatishda chuqur bilim va katta mahorat talab etiladi. Zamonaviy chet tili fani o'qituvchisi deganda ko'z oldimizda yuksak madaniyat va axloq egasi, o'z o'quvchilarini kelajak hayotga tayyorlashda butun iqtidorini ishga soluvchi, o'z bilimini doimiy to'ldirib boruvchi, o'z kasbining ustasi, talabchan va hozirjavob mahoratli pedagog shaxsi jonlanadi. Ushbu sifatlar egasi kompetensiya va kompetentlilik tushunchalari orqali ham e'tirof etilmoqda. Kompetensiya - fan bo'yicha egallagan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalardan kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qo'llay olishdir. Kompetentlilik(lotincha:competens - layoqatli, qobiliyati bor) tarkibiga sof kasbiy bilim, ko'nikma va malakalardan tashqari, tashabbuskorlik, hamkorlik, guruhda ishlash layoqati, kommunikativ qobiliyati, real baholay olish, mantiqiy fikrlash axborotni saralash va foydalana olish ham kiradi.

Ta'limga kompetensiyaviy yondashuv deganda bugungi kun zamonaviy chet tili fani o'qituvchisi:

- jamiyatda o'zaro muloqotga kirishish uchun xorijiy tilni mukammal o'zlashtirish hamda muloqotda samarali foydalana olish; o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish va javob berish; ijtimoiy moslashuvchanlik, o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish; muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilgan holda o'z pozitsiyasini himoya qila olish, uni ishontira bilish; turli ziddiyatli vaziyatlarda o'z ehtirosini boshqarish, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda zarur bo'lgan qarorlarni qabul qila olish kabi kommunikativ kompetensiyalarni;
- mavjud axborot manbalardan (internet, televizor, radio(audio-video yozuv) telefon, kompyuter va boshqalardan foydalana olish; media vositalaridan zarur bo'lgan axborotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, foydalanishda media madaniyatiga rioya etish; ma'lumotlar bazasini yarata olish, asosiylarini tanlay olish va ularni tahlil qila bilish kabi axborot bilan ishlash kompetensiyalarni;
- shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish, jismoniy, ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish; hayot davomida o'qib o'rganish, bilim, tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib

borish; o'z hatti-harakatini adekvat baholash, o'zini nazorat qila bilish, halollik, to'g'rilik kabi sifatlarga ega bo'lish; o'qib-o'rganganlari va hayot tajribasidan foydalangan holda kundalik turmushda uchraydigan muammolarni hal eta olish kabi o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyalarni;

- jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga dahldolikni his qilish; mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala, iqtisodiy, huquqiy madaniyatga ega bo'lish; kasbiy mavqeyining o'sishiga intilish bilan jamiyat va oilasi manfaatlari uchun xizmat qilish, yordamga muhtojlarga saxovatli bo'lish kabi ijtimoiy-faol fuqarolik kompetensiyalarini;
- vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish; badiiy va san'at asarlarini tushunish va ta'sirlana olish; orasta kiyinish, yurish-turishda madaniy meyorlarga va sog'lom turmush tarziga rioya qilish; umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni bilish va unga hurmat bilan munosabatda bo'lish; xalqning tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrash, jamiyatda o'rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish kabi umumbashariy kompetensiyalarni;
- aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalar tuza olish; shaxsiy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarda hisob-kitob bilan ish yuritish; kundalik faoliyatida turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o'qiy olish va foydalanish; inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish va foydalana olish kabi matematik savodxonlik, fan va texnikadan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiylarini eng avvalo o'zida shakllantira olgan bo'lmog'i lozim

O'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarida ijobiy natijaga erishish borasida har bir dars jarayonida yangi zamonaviy innovatsion metodlardan foydalanish, vaqt taqsimoti, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini to'g'ri tashkil qilish muhim omil hisoblanadi. Yangi zamonaviy innovatsion metodlardan foydalanishning samarali tomoni shundaki , ular nafaqat o'qituvchini , balki o'quvchilarni ham ijodkorlikka, faollikka undaydi. Chet tili fani o'qituvchisi ilg'or mahalliy va xorijiy tajribalardan foydalanib darslarda yangi innovatsion metodlarni qo'llashda o'tilayotgan mavzular, ularning mazmuni, o'quvchilarning yosh xususiyatlari va psixologiyasiga mos kelishi, fanlararo bo'g'likligi hamda izchilligiga e'tibor qaratish orqali nafaqat o'quvchilarga bilim berishi, balki ularning hayotiy muammoli vaziyatlarda to'g'ri xulosa chiqarish va o'z mustaqil fikrini bayon eta olish ko'nikmasini shakllantirishi mumkin. Yangi pedagogik texnologuyalarni darsda mahorat bilan qo'llash - pedagogik jarayonning samaradorligi hamda o'quvchilarda fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlarga mos bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi.

1.Xorijiy til fanlarining har bir bo'lim yakunida umumlashtiruvchi hamda mustahkamlovchi loyihalash darslarida noan'anaviy usullardan , xususan, "Ijodiy jamoa" hamda "Case-study" metodlardan foydalanish borasida muayyan bo'lim yuzasidan biron muammoli savol beriladi va har bir ijodiy jamoa o'z dasturlarini tuzib, hayotimizda mavjud bo'lgan muammoni qay yo'l bilan hal qilish hamda ijobiy natijaga erishish mumkinligini kichik taqdimot asosida ko'rsatib berish imkoniyatiga ega bo'ladilar."Case-study" metodi kompetensiyaviy ta'lim berish maqsadida keng qo'llanilayotgan zamonaviy innovatsiyalardan biri bo'lib, o'quvchilarning mavzuga oid ma'lumotlar topib kelish(individual ishlash) hamda darsda jamoa bo'lib ishlash asnosida onggi, shuuri, tasavvuri, dunyoqarashini kengaytiradi, faol bo'lishga, o'zgalar fikrini tinglash, mushohada qilish va hurmat qilishga, izlanishga, bugungi kunda internet, mobil telefon va media bozoridan kirib kelayotgan ongni zaharlovchi va bunyodkor g'oyalarni bir-biridan ajrata olish va tahlil qila bilishga o'rgatadi.

2.Ta'lim sohasida grammatikani o'rgatishda induktiv metoddan foydalanishning ham ahamiyati katta hisoblanadi. Chunki xorijiy til fanini o'qitishda grammatika muhim rol o'ynaydi. Mahoratli pedagog darslarda induktiv metodni qo'llashda avvalo misollar keltiradi. Masalan, zamonlarni tushuntirish jarayonida misol tariqasida gap yoziladi, so'z birikmalari keltiriladi , o'quvchilarga shunga o'xshash gaplar tuzish topshirig'i beriladi va o'quvchilar tomonidan variantlar aytiladi.

3. Muayyan bir mavzu yuzasidan bahs-munozara yuritish metodi orqali ingliz tili fanida o'quvchilarning ma'lum bir mavzuni diqqat bilan tinglash va jamoa bo'lib muhokama qilish, fanga oid bilimlarini yaxshilsh va muloqotda qo'llay olish ko'nikmasini rivojlantirish mumkin.

4.Adabiyotlar yordamida ta'lim berish metodi orqali inglizcha romanlar, hikoyalar o'qish va insholar yozdirish yo'li bilan ingliz tilidan bilimi yaxshi , ammo og'zaki va yozma nutqda kundalik faoliyati, qiziqishlari haqida bayon etishda qiynaladigan o'quvchilarning so'z boyligi oshiriladi, dunyoqarashi kengaytiriladi hamda inglizcha fikr yuritish qobiliyati shakllantiriladi..

5.Texnologiyaga amal qilish metodi bu ikkiyoqlama jarayon bo'lib, ingliz tili fani o'qituvchisi audiovizual manbalardan, ijtimoiy tarmoqlardan, Internet, You Tube, smartfon, mobil lug'atlar va grammatikalaridan xabardor bo'lgan va ulardan o'z o'rnida foydangan holda yangi til materialini o'quvchilarga oson va lo'nda tushuntirsh uchun chet tili fanlari darslarida ustalik bilan Power-Point taqdimotiga tatbiq etishi hamda shu

orqali o'quvchilarni muloqotga torta bilishidir.

Ilg'or pedagoglar tajribalarini muntazam ravishda kuzatib borish , zamonaviy innovatsion metodlardan xabardor bo'lish, tinmay o'qib-o'rganishda va izlanishda bo'lish, o'z ustida ishlab mahoratini oshirib borish har bir fan o'qituvchisining vazifasidir. Biz O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirmoqchi ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Chunki nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik , jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi.

Sharq donishmandlari aytganidek,, "Eng katta boylik - bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros - bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik - bu bilimsizlikdir."

Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtrirish, chinakam ma'rifat va madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanmog'I lozim.

Adabiyotlar / Литературы / Literature:

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi

2 Преподавание языка и литературы.Teaching Language and Literature. Scientific-methodological journal of the Ministry of Public Education of the Republic of Uzbekistan. 2018. №4

3 Mahoratli pedagog.Опытный педагог. Experiential teacher. Ta'lim-tarbiya yo'nalishidagi ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-metodik nashr. 2018. №2

FONETIKA BO'LIMINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

Dilbar Xalmuratova
Nukus shahar, 38-maktab
O'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisi
Telefon: +998905765107
Sevara Jumamuratova
Nukus shahri Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI
Turkiy tillar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti
yo'nalishi 4- "A" guruh talabasi
Telefon: +998913040225
sjumamuratova@list.ru

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta'lim bosqichlarida fonetika bo'limini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish usullari,o'quvchilarning yozma va nutqini o'stirishda audio-vizual materillarning ahamiyati va buni dars jarayonida foydalanish yo'llari to'g'risida atroflicha to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: fonetika, innovatsion texnologiya, kompyuter, internet, nutq

Ma'lumki, bugungi kunda fonetika bo'limini o'qitish jarayonida axborot texnologiyalaridan kam foydalanilmoqda. Sababi, fonetika bo'limiga doir o'quv topshiriqlari, metodlar kam.

Zamonaviy axborot texnologiyalari vositalarining qatoriga: kompyuter, skaner, videoko'z, videokamera, LCD proektor, interaktiv elektron doska, faks, modem, telefon, elektron pochta, multimedia vositalari, Internet va Internet tarmoqlari, mobil aloqa tizimlari, ma'lumotlar omborini boshqarish tizimlari, sun'iy intellekt tizimlarini kiritish mumkin.

Kompyuterdan foydalangan holda dars o'tish bugungi kun talabi hisoblanmoqda. Xususan, kompyuter orqali Fonetika bo'limini o'qitishda kompyuterdan foydalanilsa, har bir qoida, har bir tovush va harf, har bir tushuncha birligi o'quvchi xotirasida yaxshiroq saqlanishi mumkin.Asosan, ushbu bo'limni tushuntirishda Power Point va Word dasturlaridan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki Word dasturi orqali jadval ko'rinishlaridan foydalanib mavzu yoritib berilsa, o'quvchilar ancha osonroq tushunadi deb o'ylayman. Power Pointda esa shu mavzularni ovozli, rasmli va video ko'rinishlarida ko'rsatib berish orqali o'quvchilarni mavzuga yanada jalb qilish mumkin. Ayniqsa, fonetika bo'limini o'qitishda ovozli audiolar juda zarur. Chunki talaffuzi bir xil, yozilishi esa turli shaklga ega harflar mavjud.O'quvchilar shundagina harf va tovushlarni osongina farqlab oladi.

Fonetika bo'limida, asosan, nutq tovushlari, ularning paydo bo'lishida ishtirok etuvchi nutq a'zolarining xizmati, hosil bo'lgan o'rni va usuli, talaffuz va imlo, bo'g'in ko'chirish, so'z urg'usi kabi mavzular ustida bahs yuritilsa-da, uning so'z boyligini oshirish, mustaqil va ijodiy fikrlash, fikrni ravon, go'zal va ta'sirchan ifodalash imkoniyatlarini anglash va rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega [1.62]. Chindan ham biz fonetika bo'limini axborot texnologiyalaridan foydalanish jarayonida faqatgina tovush va harflar imlosiga emas, balki shu harf va tovushlardan paydo bo'ladigan so'zlarga ham e'tibor qaratishimiz zarur.

Ma'lumki, zamonaviy yoshlar o'z davrining madaniyati vakillari bo'lib, ularga ko'proq vizual obrazlar ta'sir ko'rsatadi, boshqacha aytganda, material an'anaviy usulda emas, balki audiovizual vositalar yordamida yanada tezroq va samarali o'zlashtiriladi. Masalan, fonetika bo'limidagi paronimlar, shevaga xos so'zlar haqidagi mavzu odatda, an'anaviy usulda bir necha rasmlardan foydalanib, o'qitilgan. Ushbu usul doim ham kutilgan natijani bermagan. Zamonaviy ta'lim usullarida esa mazkur muammoni hal etishga o'zining ko'rgazmaliligi va interaktivlik baxsh etuvchi Power Point dasturida tayyorlangan taqdimotlar, filmlar, slayd-shou, shuningdek, virtual sayohatlar, internet-saytlar yordam beradi. AKT vositalaridan foydalanib, dars o'tish jarayonida "Shevaga xos so'zlar" mavzusini videosujet namoyish etish orqali o'tilsa yanada ko'proq samarali bo'ladi. O'quvchilar zavq bilan tomosha qiladilar va berilgan topshiriqlarni qiziqib bajaradilar. Biroq filmlarni to'liq tomosha qilish juda ko'p vaqtni olishi, bunga esa darsga ajratilgan vaqt imkoniyati yetarli bo'lmasligi mumkin. Shu sababli ham Internet-resurslaridan uyda ham foydalanib, tarmoqdan foydali axborotlarni olish, masalan: MOOC (Massive Open On-line Courses)ni tavsiya etish mumkin.

Til ta'limida har bir darsdan kutiladigan natija o'quvchilarda nazariy bilimlarni amaliy qo'llash ko'nikmalarini hosil qilish hamda ularning og'zaki va yozma nutq malakalarini shakllantirib borishga qaratilishi kerak. Buning uchun o'quvchilarni nafaqat o'rganilgan nutqiy konstruksiyalarni qo'llay olish, balki anologik birikmalar

tuzish orqali o'z fikrini mustaqil va ijodiy ifodalashga o'rgatib borish kerak bo'ladi. Bu til ta'limida to'rt asosiy amal: tinglab tushunish, o'qish, so'zlash, yozish amallarini birgalikda va har bir dars jarayonida teng taqsimlangan tarzda qo'llashni taqozo etadi. Bunda, ayniqsa, mavzuga mos video va audio-materiallardan foydalanishning amaliy ahamiyati nihoyatda katta bo'ladi. Chunki bir vaqtning o'zida ko'rib, eshitib va o'qib qabul qilingan materialgina o'quvchi xotirasida mahkam o'rnashadi [2.15]. Chindan video va audio-materiallaridan foydalangan holatda dars o'tish hozirgi kunda eng samarali usullardan hisoblanadi. O'quvchilarni shu materiallar orqali tasavvur olamini kengaytiribgina qolmay, balki shu mavzuni chin dildan his qilish imkoniyatini beradi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, fonetika bo'limini o'qitishda AKTdan ijodiy foydalanish nafaqat o'quvchilarda o'qishga qiziqish, fanni o'rganishga motivatsiyasini oshirish va ayrimlar uchun biroz zerikarli bo'lgan fonetika bo'limi yanada qiziqarli jarayonga aylantirishga yordam berishi, shuningdek, kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishi, bundan tashqari, o'quv jarayonining reproduktiv faoliyatining ulushini qisqartirishi hamda umuman muhim omil sifatida o'rin tutishi namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, elektron ta'limiy resurslarning ko'pchiligi o'quvchilarning mustaqil bilim egallashiga, malaka orttirishiga, o'zbek tilini yanada chuqurroq o'rganish uchun intilishni rag'batlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, AKT o'quvchi-talaba yoshlarni muntazam ravishda bilim va malakalarini oshirishga undovchi muhim omilga aylanadi. Mazkur omil zamon bilan hamqadam, yetuk mutaxassis shaxs sifatida muvaffaqiyatli inson bo'lishni maqsad qilgan har bir inson uchun juda zarurdir.

Foydalangan adabiyotlar:

1. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyadova T. "O'zbek tili o'qitish metodikasi" . - Toshkent.: "Yangi asr avlodi" ,2006
2. Muxitdinova X. Til ta'limida videomateriallar qanday uyg'unlashadi // Til va adabiyot ta'limi. - Toshkent, 2015. - № 8.

O'ZBEKISTONDA XALQ O'YINLARINING NOMLANISHIDA ONOMASTIK QONUNIYATLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Hamidova Nigora Urinovna
Navoi Davlat Konchilik Instituti
"O'zbek va chet tillar" kafedrasi katta o'qituvchisi
nigora_1967@mai.ru
998913375434
Mardonov Akmal Ahatovich
Navoi Davlat Konchilik Instituti
Konchilik fakulteti 2-kurs talabasi
badboy@gmail.com
9980323552

Annotasiya: Ushbu maqolada insoniyat ongli ravishda tilni bilishni boshlagandan, narsalar, hodisalar, voqealar va xalq o'yinlariga nom bera boshladilar. Xalq o'yinlarining nomlari - bu asosiy aloqa vositasi sifatida yuritiladi, xalq o'yinlarining nomlari har doim ko'proq ma'noni anglatadi, ma'lum bir ma'noga ega bo'lganligi ko'rib chiqilgan.

Kalit so'z: onomastika, xalq o'yinlari, ta'lim, milliy, rivojlanish

Xalq o'yinlar - bu an'anaviy bayramlar yoki milliy taqvim bayramlarida boshlang'ich o'yin turlari bo'lib, hozirda ular etno-madaniy festivallar va musobaqalar shaklida o'tkazilib kelinmoqda. Bundan tashqari, bunday tadbirlar davomida folklor jamoalarining chiqishlari, hunarmandchilik va etno-oshxona taomlari yarmarkalari ham o'tkaziladi. Ularning hammasi o'z nomlariga va ma'nolariga ega.

"Xaiq o'yinlar" nomi "an'anaviy turmush tarzi" tushunchasining hosilasi sifatida paydo bo'ladi va "an'anaviy madaniyat" va "an'anaviy bayramlar" tushunchalarining ajralmas qismidir bo'lib qoladi.

Xalq oyinlari o'zi nima? Xalq o'yinlari har doim barcha jamiyatlarda tarbiyaviy vazifani bajargan. Ta'limning boshqa turlaridan farqli o'laroq, xalq o'yinlarida bu jarayon oson va raqobat shaklida kechadi. Ularning yordamida jismoniy va aqliy rivojlanish mumkin. Qoida tariqasida, xalq o'yinlari hamma uchun ochiq va shuning uchun ular ta'limning eng demokratik turi hisoblanadi. Shunday qilib, xalq o'yinlarida onomastik nomlarni o'rganish mavzusi bu boshqa ob'ektlar orasida o'zi nomlagan ob'ektni ajratib ko'rsatish uchun xizmat qiladi.

Xalq o'yinlarning onomastik nomlarining tasnifi ikki belgi - etnik va taqvimga asoslanadi. O'yinlarning onomastik nomlarining etnik holati marosim va semiotik xususiyatlar bilan belgilanadi. O'yinlarning taqvim holati ular o'tkaziladigan milliy bayramlar bilan belgilanadi. Va bu ularning sport nomlarida tubdan farqli ekanligini bildiradi. Xalq o'yinlari nomlari dasturi taqvim va etnik holatlarga qarab tuzilgan.

Xulosa qilib aytganda, xalq o'yinlarni nomlash xalq o'yinlarni rivojlantirish bilan shug'ullanadi, shuningdek, madaniyat, sport, ta'lim va xalqaro aloqalar sohasidagi munitsipal, mintaqaviy va davlat hokimiyati va idoralari mutaxassislarining umumiy madaniy va kasbiy vakolatlarini kengaytirish maqsadida ta'limda "Xalq o'yinlarini onomastik nomlash" kursi dasturi ishlab chiqildi. U xalq o'yinlari ishtirokida mamlakatimiz bir qator joylarida amalga oshirilmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. Levashov E.A. Geografik nomlardan olingan sifatlar lug'ati. - M., 1991 yil
2. Murzaev E.M. Ommabop geografik atamalar lug'ati. - M., 1991 yil.
3. Kilasov A.V. An'anaviy o'yinlar va etnosport: umumiy tasniflash // Jismoniy madaniyat nazariyasi va amaliyoti, 2014 yil.
4. Staltman V.E. Onomastik leksikografiya. - L .: Fan, 1991 yil.

INSON KAMOLOTINI TA'MINLOVCHI ENG YAQIN DO'ST

Xamrayeva Munisa,
Navoiy viloyat Navbahor tuman 10-maktab
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola asrlar o'tsada zavol bilmas, ohanrabo misol kitobxon qalbini o'ziga rom etib kelayotgan bebaho, durdona asarlar esa bugungi kun yoshlari tarbiyasi uchun suv va havodek zarur ekanligi haqida tahliliy fikrlar yoritilgan. O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasi orqali maqola mavzusi yoritilgan.

Kalit so'zlar: badiiy adabiyot, yozuvchi, roman, qissa, hikoya.

Inson ma'naviy olamini boyitadigan, nutqini o'stiradigan, fikrlash qobiliyatini shakllantiradigan, kitobxonning hayotda o'z o'rnini topishiga zamin hozirlaydigan bebaho inju bu badiiy adabiyotdir. Badiiy adabiyotning mahsuli - asar. Asarning bahosini uning salmog'i va badiiy yuki belgilaydi. Asrlar o'tsada zavol bilmas, ohanrabo misol kitobxon qalbini o'ziga rom etib kelayotgan bebaho, durdona asarlar esa bugungi kun yoshlariga suv va havodek zarur. Bebaho asar-qalblarning ehtirosi, ma'nolar xazinasi, tafakkur durdonasi, nafosat jozibasi. Qalb ehtirosining shunday latif namunalarini yaratib, adabiyot dunyosining eng muhtasham qasrlariga kitobxon muxlislarni yetaklagan nafis tuyg'ular kuychisi, komillik bunyodkorlari bo'lmish ijodkorlarning beqiyos merosi kitoblar olamining noyob namunalari sanaladi. Ana shunday yetuk ijodkorlar ro'yxatini o'zbek adabiyoti va jahon adabiyoti vakillari misolida uzoq davom ettirish mumkin bo'lgani holda ayrim ijodkorlarning sara asarlari xususida fikr yuritmoqni joiz deb hisobladim.

Taniqli ijodkor, o'zbek adabiyotining mashhur vakili, mohir yozuvchi sifatida sermahsul qalam tebratgan yozuvchi O'tkir Hoshimov o'zining "Dunyoning ishlari" qissasini 1981-yil yozadi. O'ndan ortiq roman va qissalar, bir-biridan ta'sirchan ko'plab hikoyalar, bir necha hayajonli dramatik asarlarni o'zbek adabiyotiga, qolaversa, muxlislar e'tiboriga havola etgan ijodkor O'zbekiston xalq yozuvchisi unvoniga sazovor bo'lgan edi. Adib biz tahlil etayotganimiz - "Dunyoning ishlari" qissasida eng ezgu, eng samimiy tuyg'ularni trannum etadi, eng e'zozli zot - Ona haqida hikoya qiladi. Ona haqida asarlar bisyor. Lekin bu qissani qalbingiz qonib, yuragingiz yonib o'qiysiz. Asarni o'qir ekansiz, undagi tasvir mahorati, ifoda bayonining mo'jazligi, asar tilining nihoyatda ravonligi tez fursat ichida sizni o'ziga sehrlab qo'yadi. Uning qalbi ummondek cheksiz, mehri quyoshdan qaynoq, qadri tog'lardan baland, himmati osmondan yuksakroqdir. Onalar qarshisida har bir zot bo'yin egadi, ta'zim bajo keltiradi. Ona insonni bu yorug' jahonga keltirishga sababchi bo'ladi, uni tarbiya qiladi, dunyo tilsimotlaridan xabardor etadi. Demak, onalar nafaqat jismimizni ulg'aytiradi, balki ruhimizni ham yuksaltiradi. "Dunyoning ishlari" asari har biri mustaqil voqealar tasvirlangan hikoyalardan tashkil topgan.

Qissaning barcha hikoyalari tafsilotlarga boyligi bilan kishi yodida saqlanib qoladi."Iltijo" deb nomlangan bobida esa insonning ona oldidagi farzandlik burchi hech qachon to'lab bo'lmas qarz ekani nihoyatda ta'sirchan ifodalanadi. "Dunyoning ishlari" asari, chin ma'noda, inson ruhiyatini poklovchi, uning ma'naviyatini yuksaltiruvchi asardir. Shu bois qissani o'qiganimizda qalbimizni bir-biriga tutash iliq va beg'ubor hislar chulg'ab oladi. Bu his o'z onamizga va umuman, onalarga bo'lgan mehr hissi. Zero, onasi bor inson dunyodagi eng baxtiyor va eng badavlat insondir. Qissadan shuni uqib olamizki,biz uchun aziz va muhtaram onalarimizni hamisha qadrlashimiz va xizmatiga shay turmog'imiz lozim ekan.

Jahon adabiyotining zabardast vakillaridan biri Chingiz Aytmatovning sermahsul ijodi ham kitobxonlar nigohini band etgan sara asarlardir. Uning asarlarida eng ezgu insoniy tuyg'ular tasvirlanadi.

Ezgulik! Uni har kim o'zi istagan rangda ko'radi. Olijanoblik, mehr-oqibat, g'amxo'rlik, samimiylik, bag'rikenglik, kamtarlik. Bu ezgu xislatlar qatorini uzoq davom ettirish mumkin. Ana shunday ezgu tuyg'ularni o'zining o'nlab asarlarida mohirona tasvirlab, butun dunyo kitobxonlarining tafakkuri va ruhiyatini larzaga keltira olgan yozuvchi Chingiz Aytmatov yaratgan bebaho asarlar - "Jamila", "Momo yer", "Oq kema", "Alvido, Gulsari", "Asrga tatigulik kun" kabilar dunyoning 165 tiliga tarjima qilingan. "Oq kema" qissasi 1970-yilda yozilgan bo'lib, u 7 qismdan iborat. Insonlar uchun so'nggi paytlarda tanqis bo'lib borayotgan halollik, olijanoblik, o'zgalar haqiga xiyonat qilmaslik, boylikka ruju qo'ymaslik, tabiatni, jonivor-u o'simliklarni asrash va mehr-oqibat tuyg'ularini tarannum etgan bu asarni o'qiganingiz sayin qalbingizga yorqin bir yorug'lik misol singib boraveradi.Qissa qahramoni yetti yoshli bola bo'lib, u hayotda mehr ko'rmagan, uning bobosidan boshqa suyanadigan odami, yaxshilik qilishi mumkin bo'lgan kishisi yo'q. Shu bois u hayotda ko'rmaganlarini xayolda yaratib, izlaganlarini ramziy timsollardan topishga urinadi.

Bola asarda o'zgacha tasvirlangan bo'lib, beg'ubor, pokiza tuyg'ular unga hamroh bo'ladi. Asar qahramonlarining o'ziga xosligi hamda ramziy obrazlarning tasvirlanishi muallif mahoratining namunasidir. Qissani o'qir ekansiz, eng achinarli va kitobxon qalbini larzaga soluvchi tug'yon shuki, asar so'ngida tasvirlangan Ona bug'uning so'yib, so'ng nimtalanish voqeasi bolaning katta odamlar o'rtasida adolat, ezgulik, olijanoblik yo'qligi borasida qat'iy xulosaga kelishiga va uning halokatiga sababchihb bo'ldi. Butun qirg'iz xalqining avlodlarini dushmanlardan omon saqlab, ularni shu zaminda, shu paytgacha yashab kelayotganiga sababchi bo'lgan Ona bug'uni avaylab - asrash lozimligi to'g'risidagi sevimli ertakni aytib bergan bobosining ham hattoki o'z gapiga xilof ish qilayotganini ko'rgan bolaning o'zga ishonadigan ertagi va suyanadigan odami qolmagan edi.

Asar o'zining badiiy qimmati, salmoqdor yuki, tilining ravonligi, tasvir mahoratining yuksakligi bilan o'zgacha uyg'unlik kashf etadi. Yozuvchi ushbu asari ila insonlar qalbining gavhari bo'lgan, yaxshilik libosiga yo'g'rilgan ezgu fazilatlarni bugungi kunda odamlar osongina va loqaydlarcha qo'ldan chiqarib yuborayotgani xususida bong urayotganga o'xshaydi. Asarda hayot haqiqatini jamlagan shunday purma'no fikrlar keltiriladiki, bu yozuvchi tafakkurining mahsuli, desak mubolag'a bo'lmaydi. "Ey, bo'tam, hofizlar hamd-u sano o'qishda bahslashsa, qanday yaramaslik, ular qo'shiqchidan qo'shiq kushandasiga aylanishadi". Qarang-a, qo'shiqni chiroyli aytishda emas, balki hamd-u sano o'qishda bahslashayotgan hofizlar, dabdababozlik ketidan yuguruvchi kishilar tanqid ostiga olingan. Yoxud "Boylik takabburlikni, takabburlik telbalikni tug'diradi. Pul hukmron bo'lgan joyda ezgu so'zga o'rin yo'q, go'zallikka o'rin yo'q" degan ibora ham asar qahramonlari Ona bug'u avlodidan bo'lgan qirg'iz qabilalari tanlagan yo'lning noto'g'riligini isbot etuvchi inkor etib bo'lmas haqiqatdir. Men ana shu ezgu tuyg'ularni tarannum etg'uvchi bu asarni ezgulik sari chorlovchi sado degim keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: "O'zbekiston" 2017.484 bet
2. Hoshumov O'. "Dunyoning ishlari" qissasi.-T, 2001.
3. Yo'ldoshev. J. Usmonov.S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar.- T.:O'qituvchi, 2004.
4. Bozorov E., Musurmonova O.A. O'qituvchi ijodkorligi davr talabi. - T.:O'qituvchi.1991.

TIL O'RGANISHDA ZAMON TALABLARIGA MOS TEXNOLOGIYALARDAN OQILONA FOYDALANISH

Xamroqulova Maxmudaxon Yunusaliyevna
Xovos tuman 8-maktab o'qituvchisi
E-mail: xov8maktab.umail.uz
Mamatqulova Rahima Abdug'aniyevna
Xovos tuman 4-maktab o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda talabalarni ingliz tiliga o'rgatishning yo'llari haqida fikr yuritilgan. Asosiy e'tibor ingliz tili darslarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish hamda xorijiy tilning gaplarida tarjimalarga qaratilgan.

Tayanch so'zlar: ta'lim jarayoni, axborot texnologiyalari, masofaviy ta'lim, lingvomadaniyat.

Ta'lim muassasalarida zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini qo'llab, xorijiy tillarni o'qitish, shu tillardan erkin so'zlasha oladigan mutaxatassislarni tayyorlash uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Hozirgi kunda "Texnologiyalar asri" deb nomlanuvchi, o'tmish kunlaridan tubdan farq qiluvchi murakkab va o'ta shiddatli bir zamonda ilg'or texnologiyalarning inson kundalik turmush tarzida ajralmas bo'lakga aylangan, global va axborotlashgan davrda yashamoqdamiz. Ayni shu davr bizni bugungi zamon bilan har tomonlama hamnafas bo'lishga undamoqda. Bu borada, ayniqsa, xorijiy til yo'nalishida tahsil olayotgan talaba yoshlarga chet tillarini mukammal darajada o'rganishlari, bu tilda erkin muloqot yuritishlari va shu yo'l orqali jahon svilizatsiyasi yutuqlaridan boxabar bo'lish singari vazifalar yuklanmoqda. Chunki, qaysi sohada faoliyat yuritmaylik, albatta, xorijiy tilning sohadagi ahamiyati naqadar ulkan ekanligini his etamiz. Bu fikrimizning isboti sifatida esa oddiy maktab o'qtuvchisini olishimiz mumkin. Ular qaysi fan mutaxassisi bo'lishmasin, eng kamida A2-B1 darajasida ingliz tilini o'rganishlari va o'tayotgan fanlarini bevosita ingliz tili bilan bog'lagan holda yetkazib berishlari kerak. Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, bugungi davrda xorijiy tilni o'rganish - davlat siyosati darajasiga ko'tarilmoqda. Shu o'rinda aytib o'tishimiz kerakki, bugungi axborotlashgan davrda, xorijiy tilni yuqori darajada o'zlashtirishda zamonaviy texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, ilg'or texnologiyalarning beminnat yordami tufayli birinchidan, o'qtuvchining mashaqqatli muammolari bartaraf etilsa, ikkinchidan, o'rgatilayotgan o'quv materiallari talabalarga yaxshiroq tushunish imkonini beradi. Fan sohasining faol vakili sifatida esa, bevosita texnologiya vositalaridan unumli foydalanish - bizning dastlabki vazifamizdir.

Negaki, bugungi kunda yaratilgan zamonaviy texnologiyalar nafaqat bizni, balki o'sib kelayotgan yosh avlod siyosiy bilimini oshirishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Xorijiy til ta'limida yuqori sifat va samaradorlikka erishishda ayni shu texnologiyalarning o'rni beqiyos. Bu jarayonda talabalar an'anaviy dars uslubidan yiroq bo'lgan holda innovativ loyihalarga asoslangan ya'ni kompyuter - proyekt, video - proyektrlar va shuningdek, audio - eshitish usuli bilan ta'minlangan sifatli dars manbayiga ega bo'lishlari mumkin. Hammamizga ma'lumki, xorijiy til darslari ko'p hollarda visual ya'ni ko'rish vositasida tushunish usuli orqali o'rgatiladi. Bunda mavzuni keng yoritish maqsadida, dars mavzusiga taaluqli bo'lgan video - rolikdan foydalaniladi. Bunday darslarni tashkil etishda esa bevosita texnologiya vositalariga murojaat qilishimizga to'g'ri keladi.

Shu o'rinda texnologiya yordamida erishgan yutuqlarimiz borasida so'z yuritsak. Hozirgi kunda samaradorlikni yanada oshirishga, oliy ma'lumotga ega malakali mutaxassislarni soni bir qancha barobarga oshishiga xizmat qilayotgan omil bu - masofaviy ta'limdir. Ushbu ta'lim turini o'qish istagida bo'lgan yoshlarga qanchalik ko'p afzal tomonlari borligi hech birimizga sir emas. Sababi, kundan kunga yoshlar orasida masofaviy ta'lim yuqori suratlarda ommalashib bormoqda. Eng asosiysi, o'qish istagida bo'lgan yoshlar dunyoning istalgan nuqtasiga masofadan o'qitish tizimi orqali bog'lanib, nufuzli universitetlarda tahsil olishga muvaffaq bo'lishmoqda.

Bu ta'lim turidan butun jahon miqyosida foydalanilayotganligi - uning tajribali kadrlar tayyorlashda naqadar samara berayotganligidan dalolat beradi. Xorijiy til yo'nalishida ta'lim oluvchi talaba sifatida aytishim mumkinki, yosh avlodni yuksak salohiyatli, shijoatli hamda ma'naviy jihatdan yetuk qilib tarbiyalashda, ularni bugungi zamon talablariga mos texnologiyalardan oqilona foydalanishga erishishimiz - bizning oliy maqsadimizdir. Zero, vatanimiz kelajagi biz yoshlar qo'lida. Shuningdek, yoshlarni ma'nan yetuk bo'lib ulg'ayishida bevosita o'qituvchining roli ham katta ekanligini alohida ta'kidlashlash joiz. Buning sababi, xorijiy

tillarni o'qitishda va o'rganishda ba'zi lingvomadaniy muammolarga duch kelmoqdamiz. Bu borada birinchi navbatda, ingliz tili o'qituvchilaridan xushyor bo'lish talab etiladi. Misol uchun deyarli barcha ta'lim muassasalarida o'quv materiali sifatida turli nashriyotlar tomonidan chop etilgan kitoblardan foydalaniladi. Ushbu kitobdagi ba'zi mashqlar borasida to'xtalib o'tmaslikni iloji yo'q. Ko'pgina matnlarda Amerika, Buyuk Britaniya borasida "I like America", "you can be what you want", "the thing I like best is the independence "va" nobody tells me what to do" mazmunidagi gaplarni guvohi bo'lamiz. Bir qaraganda, bu gaplar oddiy so'zlardek tuyulsada, uning mazmuniga jiddiy e'tibor berib jiddiy yondashilsa, o'zbek mentalitetiga yot bo'lgan tushunchalarni anglashimiz mumkin. Bunday lingvomadaniy muammolar borasida shu kabi holatlarni ko'plab keltirishimiz mumkin. Bular esa o'zbek farzandi sifatida hech birimizni tashvishga solmasligi mumkin emas.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, bugungi kunda birgina chet tili bilan bog'liq bo'lgan sohalarda yoshlarimiz ana shunday ulkan imkoniyatlardan samarali foydalanmoqdalar, biror bir soha bilan shug'ullanish davomida, uning salbiy oqibatlarini ham hisobga olishimiz kerak bo'ladi. Yaratilgan sharoitlardan unumli foydalanib, faoliyatimiz davomida yuqori samaradorlikka erishishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. Jafaraliyev. A. "Chet tilni masofadan turib o'qitish?" mavzuidagi bitiruv malakaviy ishi. Namangan - 2014.
2. Lynch, Tony. 1996. Communication in the Language Classroom. Walton Street, Oxford: Oxford University Press.

TA'LIM TIZIMIDA INTEGRATSIYALASHGAN DARSLARINI TASHKIL ETISH

Xamroyeva Maftuna
Navoiy viloyat Navoiy shahar 12-sonli AFCHO'IM
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqola o'quvchilarning hayotiy kompetensiyalarni muntazam egallab borishlari uchun ularga mavjud imkoniyatlardan to'g'ri foydalanish yo'l-yo'riqlarini tushuntirib borish o'qituvchining muhim vazifalaridan hisoblanishi hamda o'quvchilarga bilim berishda o'qituvchi dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda mustaqil ishlashlariga alohida e'tibor berishi lozimligi haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: intellektual, internet, integratsiya, metod, usullar, esse,

Bugunning zamonaviy o'qituvchisi ? intellektual salohiyatga ega, axborot texnologiyalari, kompyuter va internetdan samarali foydalana oladigan inson bo'lishi kerak. O'quvchilarni "ommaviy madaniyat" tahdidan himoya qilish, milliy g'oya, umuminsoniy va milliy qadriyatlar to'g'risidagi bilim va tasavvurlarini boyitish, tarixiy tafakkurini kengaytirishda tarix va adabiyot darslari muhim ahamiyatga ega.

Ta'limning muhim talablaridan biri o'quvchi yoshlarni erkin, mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. Agar o'quvchi mustaqil fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi ko'ngildagidek bo'lmaydi. Fanlararo integrallashuv jarayonida o'quvchida mustaqil fikrlash darajasi ortib boradi. O'quvchilarning hayotiy kompetensiyalarni muntazam egallab borishlari uchun mavjud imkoniyatlardan to'g'ri foydalanish yo'l-yo'riqlarini tushuntirib borish o'qituvchining muhim vazifalaridan hisoblanadi. Ushbu vazifalarni o'quvchilarga o'rgatishda o'qituvchi dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda mustaqil ishlashlariga alohida e'tibor berishi lozim. O'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishning metodik usullari xilma-xildir. Mustaqil ish sinfdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida ham bajariladi:

- mustaqil ishlarning o'quvchilar aqliy faoliyati bilan bog'liqligi;
- mustaqil ishlarning aniq maqsadli bo'lishi, ularning bajarilish shartlari;
- o'quvchilarni fikrlashga, izlashga undash;
- mustaqil ish bajarish, ijodiy ish yozish;

O'qituvchi qo'llaydigan metod va usullar o'quvchining fikrlash qobiliyati o'sishida muhim ahamiyatga ega. Hozirda dars jarayonini faollashtirish uchun o'quvchilar bilan ishlashda muammoli dasturlardan, izlanuvchan metodlardan, amaliy mashg'ulotlarda ishchan va pedagogik o'yinlardan ko'proq foydalanish lozim.

Tarix, adabiyot darslarini o'tishda tarixiy mavzuni turli xil metod, usul, vositalar bilan ochib berish, masalan, guruhda ishlash, muammoli vaziyatlar yaratish, qiyosiy tahlil, interfaol usullardan foydalanish mumkin. O'quvchilarning tarix va adabiyot darslarida fikrlash qobiliyati bilan bog'liq malaka va ko'nikmalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- tarix va adabiyot darslarida tarixiy bilim beruvchi manbalarni tahlil qilish, tarixiy voqea va hodisalardagi eng asosiy muhim jihatlarni ajratib olish, tarixiy tushunchalarga ta'riflar berishga o'rgatish;
- tarixiy hodisalarning joylarini aniqlash, tarixiy xaritani tilga kiritish.
- tarixiy voqealar va hodisalarni taqqoslash, qiyoslash;
- axborotlar, ma'ruzalar, referatlar tayyorlash, kichik badiiy-tarixiy asarlarni tahlil etishga o'rgatish;
- tarixiy tafakkurning vujudga kelishi bilan bog'liq bo'lgan ana shu malakalarni takomillashtirb borish o'quvchida erkin fikrlash qobiliyatining o'z-o'zidan shakllanishiga olib keladi. Shuning uchun tarix, adabiyot darslarida o'quvchi shaxsini shakllantirishda bahs-munozara darslarini tashkil qilish muhim ahamiyatga ega. Bahs o'quvchida fikrlash, mustaqil mushohada yuritish qobiliyatini rivojlantirishga chorlaydi. Bahs jarayonida o'quvchilarni bir-birlarining fikrlarini hurmat qilishga o'rgatish ham muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida o'zaro hamkorlikni tarkib toptirish, avvalo, o'sha jarayonni insonparvarlashtirish, do'stona muhit yaratishni taqozo etadi. Bebaho milliy qadriyatlarimiz bo'lmish o'rta asr allomalarining pedagogik qarashlari, ma'naviyat durdonalari, hodisalar, hikmatli so'zlar va o'zbek xalq maqollarida bu borada purma'no fikrlar bildirilgan.

O'quvchilarning fan asoslarini chuqur va mustahkam o'zlashtirishlariga erishish, qo'shimcha o'quv adabiyotlari, ko'rgazmali adabiyotlar, ko'rgazmali vositalar yordamida mustaqil ishlarni tashkil etish, belgilangan mavzular bo'yicha kuzatish va tajribalar o'tkazish, o'quvchilarning qiziqish va bilimlarini o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan ta'limni tashkil etish, ularning ijodiy qobiliyatini, mustaqil va mantiqiy fikrlashini rivojlantirish ilmiy dunyoqarashini shakllantirish

kasbga yo'llash, o'qishni jismoniy va aqliy mehnat bilan uzviy bog'lash maqsadida sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'tkaziladi.

Tarix va adabiyot darslarida mustaqil ishlarni samarali tashkil etish maqsadida quyidagilar tavsiya etiladi:

- tarix va adabiyot darslarida ekskursiyalarni tashkil etish hamda o'quvchilarning ekskursiya yuzasidan esse yozishlarini tashkil etish;
- tarix, adabiyot fanlari bo'yicha to'garak a'zolari tomonidan Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ma'naviy-ma'rifiy meroslarini o'rganish bo'yicha ijodiy ishlar, ma'ruza va referatlar tayyorlash hamda ijodiy qobiliyatlarini namoyon etish maqsadida buklet, xaritalar, yozma ishlar ko'rgazmasini tashkil etish.

Xulosa shundan iboratki, darsdan tashqari mashg'ulotlarda mustaqil ishlarni bajarish jarayonida o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish uchun imkoniyatlar yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Azbarov Yu.T. Bolalarni sevish san'ati. T.:O'qituvchi.1991. 138-b.
2. Azizxo'jayeva N.N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. -T.: TDPU. 2000. 52.b.
3. Imomnazarov M., Eshmuhammedova M. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. T.: 2001.
4. Qilichev E. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Buxoro: 2005-yil
5. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari.-T, 2001.

ENGLISH PRONUNCIATION IS EXTREMELY DIFFICULT

Xasanova Nozima Nasimjanovna,
an English teacher of Namanagan region,
Uychi district, school № 40
tel: +998945057788

Annotation
This article is about English pronunciation which is extremely difficult to learn. It touches on the phonetics of the English language and its correct pronunciation.
Key words:difficult, pronunciation, foreign, intonation, training, mistakes, correct

Pronunciation training is a software requirement, because without it, it is impossible to master all types of speech activity in a foreign language, including speaking and reading aloud. The initial stage of the first year of learning a foreign language is the most responsible for the teacher, since it largely determines the success of further education. Learning any language begins with setting the correct pronunciation. If you don't pay enough attention to your pronunciation at the beginning of training, then it will be more difficult to correct mistakes and improve your pronunciation. Although this is possible with regular classes, correct tactics and perseverance. During a conversation with the other person, you need to understand what they are saying, and for them to understand you, you must speak with the correct intonation. Only one correct pronunciation and good articulation is not enough, people hear intonation first. With poor development of speech skills, you will never be able to ensure that the interlocutor understands well what you want to say to him, and you in turn understand what he wants to tell you. Therefore, the development of correct pronunciation is a mandatory element of language education. Only by working out everything together: correct intonation, good articulation; learning the correct pronunciation of words, learning to distinguish the sounds of a foreign language by ear, you can consider your task of mastering spoken speech solved. In many textbooks, we see the entire phonetic course in the first Chapter and only in the following ones everything else. There are textbooks in which phonetics is given in each lesson. What is more effective, to practice pronunciation at the beginning of training or to do it evenly during the entire period of training? This question cannot be answered unequivocally. If you focus on phonetics at the beginning of your training, you will lose time that you could have already learned to speak simple words. The theory that explains and describes articulation is not simple, and learning it is boring and time - consuming, so it can completely turn away from learning English. If you do not practice pronunciation at all, then it will be very difficult to catch up, since the load will increase as you learn the language. Still, the best option for teachers is to work on pronunciation and understanding speech by ear during the entire language course, but you need to work on this at different stages in different ways. When teaching pronunciation, she advises using an analytical-imitative approach, in which sounds that are subject to special processing are separated from a coherent whole and explained on the basis of an articulation rule; this is the analytical part of the work. Then these sounds are included again in the whole, which is organized gradually: syllables, words, phrases, phrases, and spoken by students after the sample, imitated. Articulation rules are approximated. For conscious imitation, G. V. Rogova recommends regular phonetic exercises, for which you should use valuable content material: songs, rhymes, aphorisms, poems, Proverbs and sayings. The phonetic side of this material should be carefully worked out. Traditionally, phonetic charging is performed at the first stage of the lesson and takes about 7-10 minutes of training time. Students are presented with a sample of the sound in isolation in a syllable, in a word, and in a phrase, and then in reverse order. The teacher accompanies the demonstration of the sound with comments: he reminds students of the peculiarities of articulation of a particular sound, draws their attention to the phonetic processes accompanying the pronunciation. Sounds and samples are usually presented in a recording or with the teacher's voice. The material for phonetic exercises is selected in accordance with the goals of communication. Most often, especially at the initial stage of learning English, we use counting, rhyming, tongue twisters, Proverbs, sayings, riddles, etc. Phonemic Phone-charging is the practice of pronouncing a specific sound in a different environment. First, the sound is presented in isolation, the teacher using gestures explains or resembles its articulation, and then begins working out the sound in a different environment in the following sequence: in isolation - in a word - in a phrase - in a phrase. For example, the sound [r]. [r] right - That's right! wrong - That's wrong! Is it right? Is it wrong? It is right! It is wrong! Who is right? Who is wrong?

Peter is right. Peter is wrong. It is advisable to use a tape recorder and record students on tape so that they can compare their pronunciation with the original and strive for it. For example, the sound [r]. [r] right - That's right! wrong - That's wrong! Is it right? Is it wrong? It is right! It is wrong! Who is right? Who is wrong? Peter is right. Peter is wrong. It is advisable to use a tape recorder and record students on tape so that they can compare their pronunciation with the original and strive for it.

In conclusion we can say that learning the correct English pronunciation is extremely difficult. Without a correct pronunciation, the communicative function of the language is not possible. Knowledge of languages today promises tempting prospects not only in career terms, but also in personal terms. Speaking fluently, for example, in English, you can easily go anywhere in the World and not be afraid of being misunderstood. You can also make new interesting acquaintances, thereby enriching your own cultural knowledge, and strengthening friendships across the planet.To achieve all of this will help learning the pronunciation of the English language and a personal perseverance in achieving this goal.

References:

1.Kelly, Gerald. 2006. How to Teach Pronunciation. Malaysia
2.Ramelan, 1999. English Phonetics. Semarang: IKIP Semarang Press.
3.Syafei, Anas. 1988. English Pronunciation: Theory and Practice.

THE DOCUMENTARY FEATURES OF THE NOVELS BY NORMAN MAILER AND TRUMAN CAPOTE.

Khidirova Mukhlisa Alisher qizi, Uzbekistan State World Languages University, the 1st year student of Master's Department
Tashkent city, Yakkasaray district
+99894 642 9299, muhlisahidirova@gmail.com

Annotation

The current article is devoted to the study of the characteristics of documentary in Modern American literature. The features and evolution of a documentary novel are emphasized through the initial works of American authors, for instance, Norman Mailer, Truman Capote are considered to be the pioneering documentary novel writers in the Modern American literature.

Key words: documentary novel, Norman Mailer, Truman Capote, genre, factuality, real facts.

It is already known that the documentary novel that commonly entered the American literary scene in an updated version during the 1960s was accompanied by the emergence of the journalistic - literary (essentially American) phenomenon of New Journalism.

As Leonora Flis argues, these narratives still can be called as mimetic discourse, but we cannot interpret mimesis as a neutral, direct transformation of empirical reality into an art form. For whether it may be a documentary or metafictional novel, there is an undeniably certain point of view that shapes the reality illustrated in the work. In other words, it may be dealt with a subjective interpretation of a portrayed situation or event. [2, 2010]

As mentioned by Mas'ud Zavarzadeh, a writer and researcher to describe an emerging documentary novel's characteristics, in The Mythopoetic reality (1976), he interestingly claims that the only limitations that are imposed on the nonfiction novelist are that of the medium, the book he considers the documentary novel as inclusive and non-selective, for the novelist does not select elements of his experience in order to project a total perspective on life. [7,1976, 89]

Furthermore, according to the ideas of Flis, some of the most typical features that can serve as proof of inter-relativity or overlapping between documentary narratives and metafictional texts can be of intertextuality, plurality of truths, self-reflexiveness of the narrative, the use of parody and irony, reliance on a proto-text, deliberate anachronisms and the tendency towards the evaluation of the past events.

Considerably, the proto-text can either be a historical character or a story to a national literary or cultural principle in The Armies of the Night by Norman Mailer which was written in 1968, he describes the march of intellectuals on the Pentagon to the protest the war in Vietnam, which the author claims as "an obscene war, the worst war the nation had ever been in", as well as Truman Capote, in his novel In Cold Blood inclines as his proto-text the murder of the Clutter family more precisely.

It should be noticed that, in his public viewpoint and in his writing style Mailer was one of the initial writers of the description of adocumentary novel.

In order to corroborate this tendency, his own assertion may be restated that, he did not create a thoroughgoing, true account of Gary Gilmore's execution portrayed in a massive sphere (over a thousand pages) in The Executioner's Song (1979). In this literary work Mailer employs a full range of novelistic devices, mainly the techniques of dramatization and simultaneously he considers and receives the impossibility of pursuing objective truth in his writing, providing explanation how "two accounts of the same episode would sometimes diverge and that in such conflict of evidence, the author chose the version that seemed most likely, for it would be vanity to assume he was always right." [8, 1998]

Prior to The Executioner's Song, Mailer's outstanding effort at creating a non-fiction novel was The Armies of the Night (1968), subtitled History as a novel/ The novel as history on behalf of the Anti-Vietnam War march in October 1967, in which Mailer himself took part. In order to make his novels more believable he used the transcripts from tapes and movies made of his own participation in the event in Washington. Presumably, Flis mentioned that The Armies of the Night is a book of highly metaphorical literary journalism that employs a dual, schizophrenic narrator. The author uses the third-person narration, as well as, a"split" narrator, Mailer, the participant, and Mailer, the commentator.

Connectively, the external sphere of reference, clarifies the empirical datais the taskof the Participant and usually he deals with it.Meanwhile, the scribe relies on the external issues and reveals the participant's

implicit reflections to them. Consequently, in Zavarzadeh's notions "the reformer immediately brings to the narrative that larger ring of the actual, while the private scribe registers the inner circle of subjective reality." [7,1976]

Documentary novels can in reality, be defined as a very ordinary possible swift response to the "hyperreal modern culture of "simulacrum", displaying as a kind of metafiction, overwhelmingly, some analogues about these understandings, it may be recollected, despite the fact that documentaries appear to be the exact opposite, especially due to their use of realistic narrative techniques.

In conclusion, it can be summarized that a documentary novel is one of the most significant genres in the Modern American literature, since it is more complicated, reliable and surely, factual, which is its pivotal characteristics.

References:

1. Литература США в 70-е годы XX века. Издательство "Наука". Москва 1983.
2. Leonora Flis. The documentary novel and its many theories. Newcastle on Tyne, UK. Cambridge Scholars Publishing, 2010.
3. Mas'ud Zavarzadeh. The Mythopoetic Reality: The Postwar American Nonfiction novel. University of Illinois Press. 1976.
4. Norman Mailer. The Executioner's Song. New York. Vintage International Edition,1998.

CHET TILLARNI O'QITISHDA KOMPYUTER TEXNOLIGIYALARDAN FOYDALANISH

Xojimurodova Nigora Anvar qizi - Sirdaryo viloyati
Boyovut tumani 50-maktab ingliz tili fani o'qituvchisi
Tel nomer:+998945880309
Jo'raboyeva Mahfuza Salimqulovna - Sirdaryo viloyati
Boyovut tumani 38-maktab ingliz tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o'quvchilarga ingliz tili fanini o'rgatishning yo'llari haqida fikr yuritilgan. Asosiy e'tibor ingliz tili darslarida zamonaviy axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanish, dars mashg'ulotlarida video va audio ma'lumotlar foydalanish o'quvchilarga ingliz tili fanini oson va tez o'zlashtirishlariga yordam berishga qaratilgan.

Tayanch so'zlar: ta'lim jarayoni, axborot kommunikatsiya, animatsiyalar, internet ma'lumot, videofilm, kinofilm, audio.

Til organish jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarning kompyuter texnologiyalari bilan uyg'unlikda tashkil etilishi va shu asosida multimediya darsliklarining yaratilishi, til o'rganishni tobora osonlashtirmoqda, hamda dars mashg'ulotlarini qiziqarli o'tishiga sabab bo'lmoqda. Dars jarayonida turli texnik vositalaridan foydalanib darsni tashkil etish mumkin, lekin kompyuter ekranida ajratib berilgan namunaviy misollar o'quvchining xotirasida yaxshi qoladi. Ana shunday vaziyatlarda integratsion jarayon vujudga keladi, ya'ni o'quvchi chet tilidan bilim, ko'nikma va malakalarini kompyuter vositasi bilan ishlash orqali rivojlantirib boradi. Og'zaki nutqni rivojlantirish uchun kompyuterda turli sohalarga oid kommunikativ vaziyatlarni yaratish mumkin. O'tilgan mavzular yuzasidan har xil dialog va filmlarni namoyish qilish lozim. Namoyish qilinadigan vositalar o'quvchi yoshi va bilim saviyasiga mos bo'lishi zarur. O'quvchi o'zbek va xorijiy tillarda bolalar uchun yaratilgan elektron darslik va interaktiv o'yinlarning mohiyatini tushunib yetishi uchun, o'qituvchi darsga tayyorlanayotgan paytda namoyish etiladigan til materialini qaysi birini yoki qachon ko'rsatilishini emas, balki unda izohlanadigan g'oyani o'quvchilar ongiga yetkazish usullarini o'ylashi zarur. O'qituvchi har bir darsga tayyorlanar ekan, namoyish etiladigan interaktiv o'qitish usulini oldindan tayyorlab, namoyish uchun qancha vaqt ajratish kerakligini, uni tez tushunish yo'llarini ishlab chiqishi lozim bol'adi.

Chet tillarni o'qitishda grammatikaning o'rni muhimligini barcha chet tili o'qituvchilari yaxshi biladi. Demak, biror bir grammatik mavzuni kompyuter texnologiyasi asosida o'rgatishning afzalligi shundaki, bunda jadvallar qoidalarning mazmuni murakkab bo'lsa, uni qayta-qayta namoyish qilib mukammal o'rganish imkoniyatini beradi. Bunday holatlarda o'quvchilarning kommunikativ suhbatlashish qobiliyati o'sib boradi. O'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani, ya'ni suhbatga kirisha olish qobiliyatini o'stirishda texnik vositalardan foydalanishning o'rni beqiyosdir. Kommunikativ kompetensiyani shakllantirish nutq faoliyatiga o'zgarish jarayonida nutq faoliyati usullarini o'rgatuvchi kommunikativ topshiriqlar, kompyuter vositalari yordamida tashkil etilishi kutilgan natijani beradi. Masalan, maktab darsliklarida o'quvchilar chet tili fanidan o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarda tanish so'zlardan foydalangan holda kundalik faoliyati haqida qisqacha ma'lumot bera olishi, namunalar asosida dialoglar tuza bilishi, o'z fikrini suhbat davomida bildira olishi kerak. Bu ko'nikmalarni hosil qilishda kompyuterdan foydalanib turli hayotiy vaziyatlarni ko'rsatish va ana shu vaziyatlarda faol ishlatiladigan so'z va iboralar hamda ularni qo'llash bo'yicha topshiriqlar berish mumkin.

Ana shu materiallar asosida so'z, tovush, til shakllari, talaffuz me'yorlarini qanday bo'lsa shunday qabul qilish, yodlab olish va qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Masalan, nemis tilida qo'shma so'zlar ko'rinishida bo'lgan "xona" so'zini ko'rib chiqadigan bo'lsak, bunda kompyuterda quyidagi grammatik qurilmalar namoyish etiladi.

- der gast+das zimmer= das gastzimmer;
- der patent+ das zimmer= das patentzimmer
- der arbeit+ das zimmer= das arbeitszimmer

Bunda fe'l va sifatlar bilan ham"das zimmer" so'z bog'lanib keladi. Ingliz tilini o'rgatishda o'quvchilarga til materiallaridan biri she'rni yod olishga o'rgatish uchun kompyuter ekranida biror bir she'r namoyish etiladi. Namoyish etiladigan she'r o'quvchilarning yosh xususiyatiga mos bo'lishi lozim.

One, two, three on the tiptoes,

One, two, three on the tiptoes,
One , two, three turn around,
Clap, clap, step aside.

She'rni yod olish uyga vazifa qilib beriladi. Bundan tashqari, chet tillarni o'qitishda yangi mavzular bo'yicha slayd paketlarini tayyorlash, elektron multimediya darsliklarini yaratish, elektron lug'at, audiodasturlar, elektron lingofon kurslari, bir yozuvdan ikkinchi yozuvga o'girish dasturlari, kabi dasturlarni qo'llash o'quvchilarning internet tarmog'idan to'g'ri foydalangan holda mustaqil ta'lim olishlarini ta'minlash mumkin. Bu usullar har qanday chet tilini o'rganishda qo'l keladi va ta'lim tizimining samaradorligini oshiradi.

Dars davomida o'quvchilar beriladigan til materiallarini o'qib tushunishi mumkin, ammo, o'sha beriladigan topshiriqni magnitafon orqali tinglab, televizor yoki kompyuter vositalari yordamida ko'rib tushunsa, ularning tilni o'zlashtirishlari bir muncha oson kechadi. Bilim olish asosan kitob orqali amalga oshirilgandagi kamchilikni yo'qotish uchun o'rganilayotgan tilda so'zlashayotganlarni ko'proq tinglash, bu kamchiliklarni osonroq bartaraf etishga yordam beradi. O'quv materialini tanlash, taqsimlash va taqdim etishda didaktik vositalarga asoslanib, osondan qiyinga,, tanishdan-notanishga, boshlang'ich bosqichdan davom etish bosqichiga, aktiv va passiv vokanulyarni egallashga alohida e'tibor beriladi

Bugungi kunda barcha o'quv yurtlarida texnik vositalardan foydalanilmoqda, lekin bu vositalardan to'g'ri va unumli foydalanilsa, ular o'quvchilarning til boyligini oshiradi, talaffuzini silliqlaydi va ravon qiladi, hamda tinglab tushunish qobiliyatini rivojlantiradi. Buni ta'lim amaliyoti jarayonlarida quyidagi usullar misolida ko'rib chiqamiz.

Videoroliklarni namoyish qilish orqali tilni tushuntirish. Videoroliklardan, film tomosha qilishdan foydalanishning asosiy afzallik tomonlari shundaki ,unda o'quvchi kitobdan o'qiganidan ko'ra ko'proq ma'lumot oladi. Darsda filmning kerak bo'lgan dialogik parchasi ajratib olinadi va bir necha bor o'quvchilarga namoyish etiladi. So'ng o'sha ko'rilgan film matni avvaldan tayorlangan varaqlarda tarqatilib yoki doskaga yozilib yana bir marta ko'rib chiqiladi. Keyin film matnidan grammatik qurilmalar o'rganiladi. So'zalr kitobdan yodlanganda uning yozilishigina esda qoladi. Hamma ham uni bir deganda o'zlashtira olmaydi, so'z ishlatib turilmasa xotirada qolmaydi. Ekran orqali ko'rishganda esa o'z ona tilida so'zlayotgan odamning nutqi, madaniyati, o'zining tutishini o'quvchi ko'radi va his qilish orqali qabul qilingan ma'lumotlar esdan chiqmaydi. Filmni ko'rib bo'lgandan so'ng o'qituvchi o'quvchilarga ko'rilgan film yuzasidan har xil topshiriqlar beradi. Masalan: O'quvchidan nechta yangi so'zlarni eslab qolganligini, nechta sifat ayta olishini, nechta fe'l qatnashganligini va hokazo. Albatta bunday topshiriqlar asosida ko'rilgan film o'quvchi ongida mustahkam o'rin egallaydi. Bizga ayonki, bunday metod va usullar yordamida nutq yaxshi rivojlanadi. Ikkinchi bir usul lingofon sistemasidan foydalanish. Bunda o'qituvchi biror bir matnni o'quvchilarga lingofonda eshittiradi va shu asosda tushirib qoldirilgan so'zlar o'rni to'ldiriladi, hamda tinglagan matn mazmuni so'zlab beriladi. O'quvchilarning suhbatlashish qobiliyatini rivojlantirishda kompyuter ekranida mavzuga oid har xil dialoglardan foydalanish mumkin. Masalan, biz quyida namoyish etadigan dialoglardan namunalar shular jumlasidandir.

1-dialog: Phone call -Hello,
-Hello may I speak to Saida please?
-Yes, just a minute....Saida it's for you.
-Hello,
-Hi, this is me Rustam. Would you like to go to the cinema today?
-Thanks for yor inviting me, I'm glad to hear this.
-Good, I'll ring you around 6:30 -Fine, I'll be ready.

2-dialog: Time -What time is it?
- It's a quarter to seven,
- Aren't we supposed to be at Dilbar's house by seven?
-Yes we are ready, let's go.

Ingliz tilini o'rganish davr talabidir. O'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda dialogik va monologik nutqning ahamiyati katta. Ana shunday usullar doimiy ravishda darslarda qo'llanilsa, qiynalmasdan so'z ma'nosini tushunish darajasiga erishiladi va nutq rivojlanishi erkin yo'lga qo'yiladi. Texnik vositalardan foydalanishning bunday usullari o'quvchilarning bilish tafakkurlarini charxlaydi, ularning til o'rganishdagi o'ziga bo'lgan ishonchlarini mustahkamlaydi. Bu usullar ta'lim tizimida har qanday chet tilini o'rganishda qo'l keladi va ta'lim tizimida samaradorlikka erishiladi.

Foydalanilgan adabioyotlar:

1. N.Q.Xatamova, M.N.Mirzayeva "Ingliz tili darslarida qo'llaniladigan interfaol usullar" (uslubiy qo'llanma). Navoiy 2006 yil.
2. M.Xoldorova, N.Fayziyeva, "Chet tilini o'qitishda yordamchi vositalardan foydalanish" Toshkent.

TDPU 2005 yil.
3. www."Ziyonet".uz, www.pedagog.uz tarmogidagi ma'lumotlar.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA FRAZEOLOGIZMLARNING SEMANTIK-GRAMMATIK VA USLUBIY XUSUSIYATLARI

Ortiqov Eldor
Nizomiy nomidagi TDPU Termiz filiali o'qituvchisi
Xolliyeva Aziza
Nizomiy nomidagi TDPU Termiz filiali talabasi

Annotatsiya
Frazeologizmlarning turli tillar doirasida qiyosiy o'rganish,ularning nutqdagi umumiylik dialektikasini yoritish,frazeologik birliklarning ma'nosini,uning funksional uslubiy xususiyatlarini ochib berish,leksik-semantik va grammatik xususiyatlarini ochib berish,ingliz va o'zbek tillarida qiyosiy tahlil qilish.
Kalit so'zlar:frazeologiya,semantik-grammatik xususiyat,frazeologik birliklar

Frazeologik birikmalar asosan so'zlar birikmasidan iborat,boshqacha aytganda,frazeologizmlar tilning alohida birligi bo'lib,tuzilishiga ko'ra erkin bog'lanma yoki gapga teng,to'liq yoki qisman semantic qayta shakllangan obrazli,turg'un so'z birikmaslarini o'z ichiga oladi.Frazeologizmlarning aksariyati ingliz tilida ham,boshqa tillarda ham xalq tomonidan yaqratilgan,ularning mualliflari ma'lum emas,kelib chiqish manbalari aniq emas.Shu ma'noda frazeologik olim Kunin ingliz tili frazeologizmlarining ko'pchiligining muallifi noma'lum bo'lib,ular xalq tomonidan yaratilgan degan fikrlarni asosli ravishda ko'rsatib o'tgan.Frazeologizmlar birdan ortiq so'zlardan tashkil topgan,ma'no va shakl jihatdan turg'un bo'lgan so'zlar bog'lanmasidir.

"Frazeologiya " atamasi yunoncha "frama"-ifoda,nutq o'rami so'zidan olingan.Ibora tarkibidagi so'z mustaqil ma'noga ega emas.Ibora so'z yig'indisining ko'chma ma'nosiga asoslanadi.Shuning uchun uning tarkibidagi bir necha so'z bir butunligicha gap bo'lagi vazifasida keladi:Ko'z ochib- yumguncha necha ming piyoda va suvoriy kishilar paydo bo'ldi.(A.Qah.)Ko'z ochib-yumguncha iborasining ma'nosi "juda tez"va gapdagi vazifasi -payt holi.Frazeologik ma'no ibora tarkibidagi biror so'zning ko'chma ma'nosiga asoslanishi (shirin so'z,acchiq gap,ishning ko'zi,gapning tuzi) yoki tarkibidagi qismlarning umumiy ma'nosiga tayanib ko'chma ma'no ifodalashi mumkin(og'zi qulog'ida,bel bog'lamoq,og'iz ochmoq,tili tutildi,temirni qizig'ida ur).Yoxud tarkibidagi qismning ma'nosiga mutlaqo aloqasi bo'lmagan ma'no anglatadi(boshi osmonga yetdi,tepa sochi tik bo'ldi,yulduzni benarvon uradi,yuragiga qil sig'maydi).

Iboraning ham so'z kabi shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turi mavjud:

1. Ko'p ma'noli ibora.Birdan ortiq ma'noga ega bo'lgan ibora ko'p ma'noli ibora deyiladi:Bosh ko'tarmoq: 1)"sekin sog'aymoq"; 2)"sekin qaramoq"; 3)"qo'zg'olon qilmoq"; o'ziga kelmoq: 1)"sekinlik bilan tushunmoq" 2)"sekinlik bilan sog'aymoq"; ko'zi ochildi: 1)"qoqilib tushundi"; 2)"ko'rdi".
2. Omonim ibora.Bir xil qism (so'z) dan tuzilgan,ya'ni shakli o'xshash,ammo ma'nosi har xil bo'lgan ibora omonim ibora deyiladi:uyni boshiga ko'tarmoq -onasini boshiga ko'tarmoq.
3. Sinonim ibora.Shakli har xil,ma'nosi bir-biriga yaqin bo'lgan ibora sinonim ibora (frazeologik sinonim) deyiladi:toqati toq bo'lmoq-sabr kosasi to'lmoq;yaxshi ko'rmoq-ko'ngil bermoq;terisiga sig'madi-boshi osmonga yetdi.
4. Antonim ibora .Qarama-qarshi ma'no ifodalovchi ibora antonim ibora (frazeologik antonym) deyiladi:ko'kka ko'tarmoq-yerga urmoq;qo'li uzun-qo'li kalta.

Ingliz tilida frazeologizmlarning grammatik xususiyatlari

Ingliz tilida iboralarning bir nechta turi bo'lib,ularning har birini tarjima qilishda alohida yondashuv talab etiladi.Birinchi turdagi so'z birikmasi sifat+ot turi.Agar ingliz tilidagi free educational institution birikmasini olsak,free so'zi institution so'zi bilan bog'liq emas,bu degani ba'zi hollarda sifatlar otning xususiyatlari va sifatidan tashqari u bilan bog'liq tushunchani ham ifodalashi mumkin.Ingliz iboralarning yana bir xususiyati otni aniqlab kelgan sifat tushirib qoldirilgan hollar ham uchraydi.Masalan,dry pruning iborasini olaylik.

Bu iboraning so'zma-so'z tarjimasi"quruq butash"bo'ladi.So'z birikmasining ma'nosi daraxt shoxlari quruq bo'lgan paytda qilingan butashni ifodalaydi.jarayonida so'z birikmalarining semantik hamda tuzilish xususiyatlarini hisobga olish lozim.Bunda birinchi navbatda otni tarjima qilib olish tavsiya etiladi, chunki qanday aniqlanmish qo'llanilmasin hammasi otni aniqlab keladi va ot gapda eng muhim ma'noni ifodalaydi.Tarjimonning keyingi vazifasi gapdagi ma'no guruhlarini ajratib olish hisoblanadi.Metaforaga asoslangan ma'no ko'chish aniq va oydindir.Masalan:to look a gift horse in the mouth (odamni tanqidiy tekshirish),to ride the high horse (o'zini yuqori tutish),a big bug (ahamiyatli odam). To kick the bucket ,red tape yoki aravani quruq olib qochmoq,nog'orasiga o'ynamoq kabilar tildagi tayyor lug'aviy birliklardir.

Frazeologik ma'noning hajmi leksik ma'noning hajmiga nisbatan keng,murakkab bo'ladi.Masalan:a hord

nut to cruck -a very difficult problem.Boshida yong'oq chaqmoq-o'rta darajada azoblanmoq.Ingliz tilida dengiz bilan bog'liq turli xil idiomalar mavjud.Masalan:to drop the pilot(uchuvchi xizmatlaridan bosh qaytarish)-yaxshi maslahatgo'ydan bosh tortmoq ma'nosida.

Baker so'zi nonvoy deb tarjima qilinadi.Ingliz turmushining ba'zi bir tomonini ko'rsatadi.Masalan:the baker's dozen -shayton dyujini.

Pull devil,pull baker-qo'g'irchoqli tomosha bilan bog'liq ibora,bo'lka sotuvchi bilan shaytonning mushtlashish sahnasidan kelib chiqqan.The cobbler must stick to his last frazeologik birligi etikdo'z etikdan yuqori bo'lmasin frazeologik birligi bilan teng kelyapti.Ingliz tilidagi ot oldidan kelgan aniqlanmish o'zbek tilida ham shu tartibda tarjima qilinadi:

A cheap ticket -arzon chipta, an expensive word-ifodali so'z .

Ingliz tilidagi aniqlanmish va ot o'zbek tiliga izohlovchi orqali tarjima qilinishi mumkin:his millionaire friend-uning millioner do'sti.Too many cooks spoil the broth ingliz frazeologizmlarining ekvivalenti bo'lib o'zbek tilida"bakovul ko'paysa osh sho'r bo'ladi" frazeologizmi hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki,frazeologik birliklar mehnat faoliyatini ,siyosiy tuzilishini aks ettiradi.Ingliz tilidagi maqol va matallar chegarasiz.Ingliz va o'zbek tillarida frazeologik birliklarning tahlili shuni ko'rsatadiki,bu tillarning maqol va matallari mazmuni bo'yicha xilma-xil xalqlar hayotining hamma tomonlarini qamrab oladi.Frazeologik birliklar badiiy asoslarning ta'sirchanligini oshirishda,ularda milliy mentalitetni shakllantirishga xos xususiyatlar ifodalangan bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Antrushina English Lexilocology
2.Haydarov,Choriyeva Ingliz tilida frazeologik birliklarning semantik-grammatikva uslubiy xususiyatlari
3.Narimonova Frazeologik iboralarning tarjimasi
4.Yo'ldoshev "Frazeologizm qo'llash mahorati"
5.Kunin "Zamonaviy ingliz tili frazeologik birliklari".

TOHIR MALIK ASARLARIDA ARGO HAMDA JARGON SO'ZLAR

Dildora Xolmirzayeva
Pop tumani, 11- umumta'lim maktabi,
oliy toifali ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi
tel: +998934974154

Аннотация:
Мазкур мақолада Tohir Malik asarlarida argo va jargon so'zlardan o'rinli foydalanganligi misollar bilan ochib berilgan. Qaysi maqsadlarda ishlatilganligi aniq izohlangan.
Kalit so'zlar: argo, jargon, sotsiologiya, umumxalq tili.

Bugun biz shunday jamiyatda, zamonda yashayapmizki, ijtimoiy fan sohalari ancha nisbiy xarakterga ega bo'lib bormoqda. Bunday fanlarga sotsiolingvistika ham misol bo'la oladi. U sotsiologiya va tilshunoslik fanlarining tutash joyida rivojlanayotgan sohadir. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"da "Sotsiolingvistika (lot. soctios - jamiyat va lingvistika) - tilshunoslik, sotsiologiya (jamiyatshunoslik) , ijtimoiy psixologiya, etnografiya fanlari tutashmasida rivojlanuvchi va tilning ijtimoiy tabiati, uning ijtimoiy vazifalari, ijtimoiy omillarning tilga ta'sir ko'rsatish mexanizmi hamda tilning jamiyat hayotida tutgan o'rni bilan bog'liq ko'plab muommolarni o'rganuvchi ijtimoiy- nazariy soha"deyilgan.

Haqiqatan, sotsiolingvistika tilshunoslik yo'nalishidagi fan bo'lib, ijtimoiy munosabatlarda tilning tutgan o'rnini, til taraqqiyotini va tilning vazifaviy jihatlarini hamda jamiyat til uchun, til esa jamiyat uchun xizmat qilishini o'rganadi.Sotsiolingvistikaga shakllanish, qurilish, taraqqiyot nuqtayi nazaridan tilning ijtimoiy shartlanganligi, "tilning jamiyatga, jamiyatning tilga tasirini" o'rganuvchi fan sifatida qarala boshlandi.

Bugungi kunda iste'dodli xalq yozuvchisi Tohir Malik asarlarida sotsiolingvistik tahlilning ko'plab namunalarini uchratamiz. Yozuvchining asarlarida asosan jamiyatning sotsial qatlamlaridan bo'lmish - o'g'rilar, qimorbozlar tili, ya'ni argo, jargon so'zlarni kuzatamiz.Argo va jargon so'zlar fransuzcha so'zdan olingan bo'lib, biror ijtimoiy guruhning o'ziga xos, boshqalar tushunmaydigan yasama tiliga aytiladi. Argo va jargon so'zlarni qo'llovchi kishilar guruhi turli-tuman bo'lgani uchun argo va jargon so'zlar ham kelib chiqish xarakteriga ko'ra turlicha bo'ladi. Masalan, o'g'rilar argosi, savdogarlar argosi, qimorbozlar argosi, kisovurlar argosi.Umumxalq tilidan farq qilib, biror ijtimoiy guruh o'rtasida yaratilgan va ularning talablarini ifodalovchi maxsus so'z va iboralar jargonlar hisoblanadi. Jargonlarning eng xarakterli belgisi o'zaro so'zlashuvni boshqalardan maxfiy sir tutishdir. Shunga ko'ra jargonlarning yaratilish yo'llari ham ko'pincha tilning so'z yasash sistemasiga to'g'ri kelmaydi. Ular o'ziga xos sun'iy, shartli so'zlardir. Jargonlar ko'pincha tildagi so'zlarning tovush tomonining o'ziga yarasha, so'zlarni buzib qo'llash, boshqa tillardan so'z o'zlashtirish va tildagi mavjud so'zlarga ma'no berish yo'lib bilan hosil qilinadi. Bundan tashqari bu ijtimoiy jargonlar salbiy ahamiyat kasb etganligi uchun argo deb ham yuritiladi. Masalan, loy, soqqa, kusok, qurug'i (pul); tuz (aqlli) kabi qimorboz o'g'rilar argosi. Vey bratan, man o'zim borganman. Soqqa yo'g'idi, qarzga bergan. (I k, B. 45) Sen bu o'yinda ikkita xatoga yo'l qo'yding. Birinchisi - akademikni "tuz" deb bilding (I k, B. 206). Argo va jargonlar shevaga xos so'zlarni qo'llash va laqab qo'yish bilan ham bog'liq bo'ladi. Badiiy asarda qahramonlar portretining ayrim qirralarini ochib berishga muvofaq bo'ladi. Masalan, Juda go'zal! Hosil - laycha. Asadbek - o'q ilon! Qardosh, sen ayt-chi, agar laycha akkillab g'ashni keltirsa, o'q ilon chaqib o'ldirishi mumkinmi?(III k. B. 220)

Misollarga nazar tashlaydigan bo'lsak, Asadbek va Hosilboyvachchaning laqablaridan, ularning kuch-qudrati, qanday odam ekanligini bilib olishimiz mumkin. Kesak polvon xonaga kirib, Qilich bilan so'rashib olgunicha 1-2 daqiqa vaqt o'tdi.(I k. B. 65) Asadbekning o'ng qo'l a'yonlaridan bo'lgan Haydarga bu laqab qaddi-bastiga qarab emas, balki o'g'irlik qilib yurganida, pul bor deb o'ylab, belbog'idan kesak chiqqani uchun berilgan. Yana xarakter xususiyatida ham muhim masalalarga kesak ushatishday yengil qarashi kuzatiladi.

Bo'tqa xo'jayin tikilib turgan nuqtaga qarab joni chiqib ketgudek bo'ldi. (I k. B. 68) Bo'tqa Asadbekka qarashli videobar egasi Kenjaning laqabi. Bu nom uning o'ta gavdaliligi uchun berilgan.

Bilasanmi, ustozim kim? - Akademik! Xongrey shunday deb ko'rsatkich barmog'ini faxr bilan havolatdi. (III k. B. 251) Asardagi "Akademik" laqabini Zelixonga Xongrey bergan. Bunga sabab - u puxta o'ylab olib, so'ng ishga kirishar edi. Shuning uchun ham asardagi eng kuchli to'daboshi Xongrey uni o'ziga ustoz deb biladi. Argo va jargonlarning biror guruh yoki tabaqa doirasida paydo bo'lishiga qarab ikkiga ajratish mumkin:

a) professional argo-jargonlar;

b) ijtimoiy argo-jargonlar.

Professional argo va jargonlarga biror kasb-hunar kishilari orasida ishlatiladigan maxsus so'zi iboralar

kiradi. Bu xil argolar va jargonlarning paydo bo'lishi, odatda, ishlab chiqarish ixtisosi, mehnatning umumiyligi va ba'zan turmush madaniyat tarzlari bilan ham bog'liq bo'ladi. Masalan: - Avvalgi direktoriga, bitta-ikkita plotyanni berib, qolganini komissionkada sottirar ekan.(III k. B. 304). Bu gap asardagi Kesakpolvonning qizi Monika nutqidan olingan. Monika sartaroshxonada ishlayotgani uchun shu sohaga oid so'zlar uning nutqida ishlatilgan.

Argo va jargonlarning qo'llanuvchi guruhlari turlicha uyushadilar. Qiziqishlariga, o'rganib qolgan odatlariga qarab birlashgan guruhlarga xos jargonlar, xususan, ichuvchilar tilida: - Oqidanmi yo qizilidanmi, xo'jayin? - O'ldirsa ham qizili o'ldirsin.(I k. B. 53). Yuqoridagi misolda qizili, oqi deganda vino, aroq spirtli ichimliklari ko'zda tutilyapti.Yoshlariga, jinslariga ko'ra birlashgan guruhlarga xos argo va jargonlar. Buni biz talabalar orasida ham kuzatishimiz mumkin. Bundan tashqari badiiy asarlarda ikki turdagi jargonlar uchraydi:

Badiiy jargonlar - tarixiy asarlarda davr ifodasi, ma'lum guruh nutqini individuallashtirish sifatida qo'llanadi. Zamonaviy jargonlar - zamonaviy asarlarda ham hozirgi tilimizdagi kichik ijtimoiy guruhlarga oid so'zlar qahramonlar xarakteri, saviyasini ko'rsatish uchun qo'llaniladi. Masalan: Bek akangiz cho'tal oladigan gadolar oilasidan emaslar. (II k. B. 251). Misoldagi cho'tal so'zi mafiyaga - qimorbozlarga xos jargon bo'lib, "Shaytanat" asarining markaziy qahramoni Asadbekka nisbatan aytilgan. Shuningdek ayrim obrazlar jargonga xos maxfiy so'zlar bilan nomlangan. Masalan: G'ilay hech tab tortmay uyni alg'ov-dalg'ov qilib Zelixonning xazinasini qidirgandi. (II k. B.358). Jalol shilimshiq Elchinning vajohatiga qarab "baribir o'ldiradi", - deb o'yladi. (II k. B. 123).

Ayrim qahramonlar nutqini individuallashtirish uchun jargon so'zlar ishlatiladi. Bunda ko'pincha o'zbek tiliga o'zlashgan boshqa tilga xos so'zlar qo'llaniladi. Jargon so'zlar ayrim hollarda shevaga xos so'zlar bilan ham uyg'unlashadi. Albatta, badiiy asarda jargonga oid so'zlar muallif nutqidan emas, balki qahramonlar nutqidan beriladi: - Choydan oling, bugun oddix bo'lsa, shoshib qayoqqayam borasiz. (I k. B. 69, videobar egasi nutqidan)

Ba'zi badiiy asarda jargonlar qahramonni qaysi guruh vakili ekanligidan xabar bersa, ayrimlari uning ruhiy ahvolini, xarakterini ochishga yordam beradi. Albatta jargonlar biror guruh yoki tabaqalar doirasida paydo bo'ladi. Lekin ular uzoq yashamaydilar, guruh yoki uyushgan to'dalar yo'qolishi bilanoq jargon so'zlar iste'moldan chiqadi. Ba'zilari adabiy tilga o'zlashib ketadi.

Argo va jargon so'zlar tilning iste'mol doirasi chegaralangan leksikaga kirsa ham o'zbek tilini boyitishda ularning qaysidir tomondan ahamiyati muhim.

Argo va jargon so'zlar bizga asarni o'qish yoki o'rganish jarayonida asar qahramonlarining qaysi tuzum, davr guruh yoki tabaqa vakili ekanligini aniqlashimizda yordam beradi.

Adabiyotlar ro'yhati:

1.Мирзиёев Ш.М. "Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш-юрт тараққиёти ва халқ фаровонлиги гарови" мавзусидаги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. - Т.: "Ўзбекистон", 2017. 48

2.Ишмухамедов Р.Ж., Юлдашев М. Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар.- Т.: Ниҳол, 2013, 2016.

3. Иноятов У.И., Муслимов Н.А., ва бошқ. Педагогика: 1000 та саволга 1000 та жавоб. 2012 й. Тошкент, "Илм-Зиё" нашриёти. 12 б.т.

4.Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси (ўқув қўлланма) -Т. Муҳаррир. 2011.

5. Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб...// Ўзбек тили ва адабиёти, 2012. - 5-сон, 3-16-бетлар.

6. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 8-jild. Toshkent, 2004. 26-bet.

ZULFIYA ISROILOVA HAYOTI VA IJOD YO'LI

Xo'jayeva Malika
Xorazm viloyati Hazorasp tumani
XTB ona tili va adabiyot fani metodisti
xsariyev91@gmail.com Tel: +998975106445

Annotatsiya: Ushbu maqolada shoira Zulfiya Isroilovaning yozgan sheriy to'plamlari, o'qigan va ishlagan joylari, safarlari, tarjimalari, uning nomiga ta'sis qilingan mukofotlar va shoiraning hayot yo'li tasvirlangan.
Kalit so'zlar: sheriy to'plamlar, Zulfiyaxonim, Hamid Olimjon, shoira, journalist, urush, tinchlik, sog'inch.

O'zbek she'riyatining otashnafas shoiralaridan biri, inson ruhiyati dunyosining betakror kuychisi Zulfiya Isroilovani bilmaydigan, uning biror she'rini yod olmagan o'quvchi topilmasa kerak. Sevimli shoiramiz o'z she'rlari bilan bizlarni nafosatga, ezgulikka oshno etib, oppoq tong sari yetaklab, qalb xarorati bilan isitib kelmoqda.

Shoira Zulfiya Isroilova 1915- yilning 1-martida Toshkent shahrida Isroil temirchi oilasida tug'ildi. 1922-yildan 1931-yilgacha maktabda, so'ng 1931-1934-yillar orasida qizlar bilim yurtida tahsil oldi. Mehnat faoliyatini juda erta boshlagan shoira deyarli bir umr jurnalistika va nashriyot sohasida ishladi. U 1935-1938-yillarda Til va adabiyot instituti aspiranti, 1938-1948-yillar mobaynida Bolalar nashriyoti muharriri, O'zbekiston davlat nashriyoti bo'lim mudiri, 1953- yilgacha "Saodat" jurnalida bo'lim mudiri, 1953- yildan to 1980-yilga qadar, salkam o'ttiz yil davomida, shu jurnalning Bosh muharriri lavozimida ishlab keldi. Mashhur o'zbek shoiri Hamid Olimjonning turmush o'rtog'i, o'ziga xos she'riyati bilan minglab kitobxonlar qalbini rom etgan iste'dodli shoira Zulfiya 1996-yilning 1-avgustida vafot etdi.

Uning ilk she?ri 1931-yilda "Ishchi" gazetasida bosilgan. Dastlab 1932-yil "Hayot varaqalari" she?rlar to'plami nashr etilgan. Shundan keyin uning "Temiroy" (1934), "She?rlar", "Qizlar qo'shig'i"(1939) she?riy kitoblari e?lon qilingan. Zulfiya she?riy ijodining porlashi "Uni Farhod der edilar" (1943), "Hijron kunlarida" (1944) va "Hulkar" (1947) to'plamlari bilan bog'liq. Ayniqsa, Hamid Olimjonning bevaqt vafotidan keyin (1944) yozilgan, ruhiy silsilalar va qalb iztiroblari bilan to'la she?rlari Zulfiya ijodida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lganidan darak beradi. U shaxsiy fojeasi tasviri orqali ikkinchi jahon urushidan katta talafot va yo'qotishlar bilan chiqqan xalqning dard va alamlarini ifodaladi.

1940-yillar oxirida e?lon qilingan Sovet davlatining san?at va adabiyot to'g'risidagi qarorlari o'zbek adabiyotiga ham katta zarar keltirdi. Zulfiya pessimistik kechinmalar kuychisi sifatida ta?na toshlari ostida qoldi. Shundan keyin u, boshqa qalamkash birodarlari singari, "davr g'oyalari" ni ifodalovchi she?rlar yozishga o'tdi. Lekin ko'p o'tmay, o'zbek ayollari hayotini yaxshi biluvchi shoira va jurnalist sifatida dugonalari haqida she?r va publitsistik maqolalar yozdi, ularni ijtimoiy faollikka chaqirdi, insoniy haq-huquqlarining poymol bo'lmasligi uchun kurashdi.

1950-yillarning 2-yarmida u Osiyo va Afrika yozuvchilarining tinchlik va xalqaro birdamlik shiori ostida o'tgan harakatida faol qatnashib, jahonning ko'pgina mamlakatlarida bo'ldi. Hindiston, Misr, Yaponiya va qo'shni respublikalarga qilgan safari shoira ijodida chuqur iz qoldirdi. "Mushoira", "O'g'lim, sira bo'lmaydi urush", "Qozog'iston o'lanlari", "Men chizolmagan surat" singari she?rlari Zulfiyaga shuhrat keltirdi. Zulfiya she?rlarida tasvir etilayotgan hayot ko'lami kengayib, ijodiga xorijiy xalqlar hayoti manzaralari ham kirib keldi. 1970-yillardan boshlab uning ijodidagi milliy hayot tasvirida yangi ranglar kamalagi paydo bo'ldi, haqqoniylik va his-hayajon kuchaydi. "O'ylar" (1965) she?riy guldastasi bilan boshlangan voqelikni falsafiy idrok etish tamoyili "Visol" (1972), "Yillar, yillar..." (1975) she?riy kitoblarida davom etib, shoira ijodida chinakam badiiy yuksalish davri boshlanganini namoyish etdi. U yana doston janriga qaytib, ustoz Oybekning so'nggi safariga bag'ishlangan "Quyoshli qalam" (1970) dostonini yaratdi. Ayni paytda shoira bolalarga bagishlangan turkum she?rlar ham yozdi ("Lolaqizg'aldoq", 1975).

Zulfiya hayotining muhim bir qismini Hamid Olimjonning adabiy merosini o'rganish va nashr etish ishiga bag'ishladi. Ana shu jarayonning uzviy qismi sifatida u shoirning "Semurg' yoki Parizod va Bunyod" dostoni asosida qo'g'irchoq teatri uchun "Semurg'" pyesasi hamda "Zaynab va Omon" operasi librettosini yozdi.

A.S.Pushkin, M.Y.Lermontov, N.A. Nekrasov, M.Voqif, L. Ukrainka,

M.Dilboziy, S. Kaputikyan, E.Ognetsvet, Mustay Karim, Amrita Pritam,

Y. Bagryana va boshqalarning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Uning asarlari ko'plab chet tillarda, shuningdek, qardosh turkiy xalqlar tillarida nashr etilgan. Zulfiya xalqaro Javaharlal Neru (1968), "Nilufar" (1971) mukofotlari hamda Hamza nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti (1970) laureati. Shuningdek, u

Bolgariyaning "Kirill va Mefodiy" (1972) ordeniga sazovor bo'lgan.

O'zbekiston hukumati atoqli shoiraning madaniyatimiz taraqqiyotidagi katta xizmatlarini e?tiborga olib, Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta?sis etdi. Toshkent shahridagi va viloyatlardagi ko'chalarga uning nomi berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maktab o'quv darsliklari.
2. www.ziyonet.uz
3. https://uz.wikipedia.org

BANK VA MOLIYA SOHASIDAGI TERMINLARINING KELIB CHIQISHI

Aqmoral Xudayberdiyeva
O'zDJTU, Lingvistika yo'nalishi 2-bosqich magistranti
Telefon:+998(99)8947752
maral.xudayberdiyeva@gmail.com

Annotatsiya: Iqtisodiyot sohada bozor munosabatlariga o'tish oqibatida atamashunoslikda butunlay yangidan yangi qatlamlar va so'zlar paydo bo?lishiga olib keldi. Mamlakat aholisiga ko'rsatilayotgan moliyaviy va bank xizmatlarining kengayishi bilan bevosita bog'liq holda ko'plab atamalar respublika aholisining kundalik hayotiga kirib kelmoqda. Shuningdek, dunyoning ko'plab davlatlari bilan bir qatorda Yaponiya davlati bilan ham iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi natijasida, tabiiyki, yapon tilida bank va moliya sohasidagi yangi atamalar paydo bolmoqda. Ushbu maqolada bank va moliya atamalarining kelib chiqishini ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: atama, bank termini, omonat mablag'i, bank, moliya, kredit

Atama - ma'lum fan yoki hunar sohasiga oid tushunchalarni qayd qilish, saqlash va bu sohada to'plangan bilim, tajriba, texnika mahorat va malakani boshqalarga berish vositasidir. Shuning uchun, ilm-fan, texnika ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi atamalarning nazariy va amaliy qiymatini oshiradi.

Har bir tilning tarkibini tashkil etuvchi leksik neologizmlarning aksariyati- atamalardir. Atamalar ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lgan. Masalan, saving money-omonat mablag'i, money invest-pul investitsiyasi, bank transfer- bank o'tkazmasi, bank account- bank hisob raqami kabilar.

Xalq faoliyatining aynan qaysi jabhalarida yangi atamalarning paydo bo'lishi aniqlashtirish zamonaviy jamiyatning asosiy manfaatlarnini anglashga yordam beradi. Asosiy tematik guruhlar asosida faoliyatning ustuvor yo'nalishilari sifatida mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ishbilarmonlik, ilmiy-texnik aloqalarning o'ziga xosligini osongina aniqlashtirish mumkin.

Senior /junior accountant- bosh/kichik buxgalteriya
Budjet cut- byudjet qisqarishi
Day loan market- kunlik kredit bozori
Currency in circulation- muoladagi valyuta

Bank atamasini ko'p funksiyali moliya institute sifatida aniqlash mumkin,uning asosiy funksiyalari sifatida kredit berish,investitsiya qilish, hisob raqamlarda pul mablag'larini saqlash, naqd pul va qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarini bajarish kabi vazifalarini ko'rsatib o'tish mumkin. "qisqa muddatli kredit" va uzoq muddatli kredit" kabi atamalari ingliz bankining yirik aksiyadorlik tijorat bankning ochilishi natijasida paydo bo'lgan. Bundan tashqari, sanoatning rivojlanishi najitasida "agio", "remittance", "rebate"kabi bir so'zli atamalar, balki "balance sheet"-balans, "approved budget"- tasdiqlangan byujet,"legal rate of interest"-foizning qonuniy qiymati kabi terminologik iboralarining paydo bo'lishiga olib kelgan. Shuningdek,

tender" atamasi bank va moliya sohasiga bir qator ma'no birliklari bilan kirib kelgan. "Transfer" so'zi esa avval moliya atamashunosligiga, so'ngra bank xizmatlari atamasi sifatida qo'llanib keladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bank va moliya sohasidagi atamalarning paydo bo'lishi turli davrlarga bog'liq. Hamda turli xil banklarning paydo bo'lishi bilan atamalar ham paydo bo'lib, ularning ishlatilishi kengayib, turli xil iboralarni paydo bo'lishiga ham sabab bo'lgan.

FOYDANALIGAN ADABIYOTLAR

1. Аверьянова Л.В. и др. Международные банковские расчеты.- М.:Филология,1998.
2. Дианова Г.А. Термин и понятие : проблемы эволюции: Дисс…автореферат,-М,1996
3. Даниленко В.П. Русская терминология: Опит линвистического описания. - М.: Наука, 1977.
4. www.ziyonet.uz

JAHON TILLARI QAYSILAR:INGLIZMI YO FARANG?

Xudayberganova Gavhar Jumanazarovna
Xorazm viloyati shovot tumanidagi 28-maktabningoliy toifali
fransuz tili o'qituvchisi
Telefon:+998914260665
Gavharoy28@inbox.uz

Annotatsiya:Mazkur maqolada jahon tillari va ularning bugungi kundagi jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Chet tillarni o'rganish, 1875-qaror , fransuz, nemis tili, horijiy til, rus tili, ingliz tili, yangi inglizlar", tarjimonlar.

Mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardanoq O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunini hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish doirasida chet tillarga o'qitishning kompleks tizimi, ya'ni uyg'un kamol topgan, o'qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikaning jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuviga yo'naltirilgan tizimi yaratildi. Bu borada "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1875-qaror hukumat qarori qabul qilinganligi fikrimiz dalilidir. Ammo bu qarorni faqatgina ingliz tili deb yoppasiga barcha ta'lim maskanlarida o'qitilishi menimcha unchalik yaxshi samara bermaydi… Chunki, horijda maktabni bitirayotgan o'quvchi 4 ta horijiy tilni biladi … Biz esa borini ham unutib faqatgina bitta tilga bog'lanib qoldik. Ma'lumki, fransuz, nemis tilidagi ko'pchilik so'zlar inglizchaga o'xshaydi. Shuningdek, bu tillar juda mashhur va ko'p joylarda qo'llaniladi. Meni tashvishga solgan narsalar, bular yoshlarimizga nemis va fransuz tillarining o'qitilish darajasi o'ta susayib, mavqei pasayib ketganligidir. Bir zumgina o'ylab ko'ringchi, siz yashab turgan hududingizda avvallari qancha nemis va fransuz tilini o'rgatuvchi maktablar bor ediyu hozir qanchasi bor? Masalan men 40-50 yoshlilar orasida ko'p eshitaman, men nemis tili o'qiganman, men fransuz tili o'qiganman, degan so'zlarni, demak oldinlari ushbu tillar chet tillar qatorida o'qitilgan ekan. Hozirgi kunlarda esa sanoqli maktablardagina esa fransuz va nemis tillari o'qitiladi. Xo'sh ushbu tillarning jahonda ahamiyati qanday? Nimaga ularni o'rganmaslik kerak?! … Bu kabi savollarga javob topishga harakat qilaylik…Dunyo miqiyosida har ikki til ham jahonda katta e'tiborli tillaridan hisoblanib jahon tillaridan deb tan olingan. Statistik ma'lumotlariga qaraganda dunyo bo'yicha ingliz tilida 600 mln, rus tilida 260 mln, nemis tilida 130 mln, fransuz tilida esa 220 mln kishi so'zlashadi. Bundan ko'rinadiki, ushbu 4 tilning jahonda ahamiyati katta. Bizda esa rus tili va ingliz tiliga e'tibor joyida: ammo qolgan ikkalasi haqida bunday deya olmaymiz…Bu ikki tilning bilgichlari tomonidan ko'plab alohida xususiyatlarini eshitamiz, jumladan fransuz tili dunyodagi eng chiroyli va yoqimli tillardan deyishsa, nemis tilini o'rganish va qo'llash juda oson deya maqtashadi. Nemis va fransuz tillari o'tgan asrlarda dunyo tillari deb tan olinib madaniyatlilik belgisi sanalganligini quyidagi aforizmlarda ham ko'rishimiz mumkin: muhabbatingni fransuz tilida, nafratingni nemis tilida izhor qil…

Ma'lumki, har yili Jaxon tillari va Milliy universitetlarda va viloyatlar markazlaridagi ba'zi Universitetlarda ushbu tillar uchun fakultetlar ochilgan, pedagogika institutlarida ham bittadan guruh 25 ta talaba qabul qilishadi.Har yili ingliz tili kabi yuzlab yosh kadrlar chiqmayotgan bo'lsa ham har holda bitirib chiqyaptiku, bu yoqda mehnat qilib kelayotgan mutaxassislar ham bor, ular qaysi tilda dars berishadi? Ushbu tillarni bitirib kelgan o'qituvchilarga dars berish muammosi, katta qilib chet tillarni o'qitishni takomillashtirish bo'yicha, deb qo'yilgan 1875-qarorni faqat ingliz tiliga chiqarilgan deb o'ylaguvchi direktorlar negadir nemis va fransuz tili o'qituvchilariga dars berishga unamaydi. Sabab qilib esa ota-onalar bolasini ingliz tilini o'qishini istashini ro'kach qilishadi, ularning tushunchasi bo'yicha, agar maktabni ingliz tiliga o'girmasa, ota-onalar bolasini boshqa maktabga olib ketarmish, ahvol shu darajaga keladiki, maktablarda, hatto ingliz tili mutaxassisi bo'lmasada direktorlar ingliz tili "o'tuvchi" sinflar ochib tashlashyapti. 4 yilllik oliy ta'limni o'rniga 4 oylik qayta tayyorlash kursini tugatgan "yangi ingliz"lar soni kundan-kun ortib, sevib o'rgangan tillari qolib yang o'rgangan tillarida amal-taqal dars berishyapdi…Ma'lumotlarga qaraganda, O'zbekistonga keladigan turistlar soni bo'yicha fransuzlar bir, nemislar ikkinchi o'rinda ekanligini hisobga olinsa, yaqin yillarda fransuz va nemis tillaridan gid va tarjimonlar yetishmay qolishi mumkin, Yana bir jihati, yurtimizda fransuz va nemis hamkorlar bilan ko'plab qo'shma korxonalar ochilgan bo'lib ushbu korxonalar uchun ham tarjimonlar o'zimizdan yetishib chiqishi shart, chunki muzokaralarda tarjimonning o'zingizniki bo'lishi sizning katta yutug'ingiz bo'lishini katta tadbirkorlar juda yaxshi bilishadi. Avvalo maktab dasturlarini qayta

ko'rib chiqib ingliz va rus tili bilan birgalikda ikkinchi yoki uchinchi til sifatida ushbu nemis yoki fransuz tillarini ham qo'shimcha til fani sifatida qo'shish lozim. Shundagina qaysi tilni tanlar ekan, deya muammo paydo bo'lmas edi, nemis tili va fransuz tili mutaxassisi bo'lib maktabga kelgan yosh kadrlarimiz qayta ingliz tili mutaxassisligiga o'qishga majbur bo'lishmas edi. Mayli, maktab o'quvchilarimiz bitirguncha butunlay ushbu fanlarni o'rganisha olmas (rus yoki ingliz tilidan ham juda qoyillatishayotgani yo'qligini ko'rib turibmiz) lekin boshlang'ich ma'lumotlar va umumiy bilimlarni yetkaza olsak, ushbu fanlar bilan qo'shimcha shug'ullanish orqali bo'lsa ham to'liq o'rganadigan darajadagi qiziqish va hohish uyg'otishga xizmat qilar edik. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'quvchilarimizning til o'rganishga ishtiyoqlari kuchli, faqat ushbu yoshlarimizning til o'rganish harakatlarini barcha imkoniyatlarimizni kuchaytirib davlat miqyosida qo'llab-quvvatlashimiz kerak. Chet tilini o'rganish deganda faqat bitta ingliz tilini emas, balki, rus, fransuz, nemis tilini ham nazardan qochirmasligimiz lozim…Zero,til bilgan dil biladi. Yuqorida aytilgan 4 tilni mukammal bilgan insonlar qolgan chet tillarni o'rganishlari ham oson bo'ladi va dunyo xalqlari o'rtasidagi do'stlik ko'priklarini mustahkamlashga salmoqli hissasini qo'shuvchi insonlarga aylanadilar…

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Z.Abdushukurova, H. Yusupova va boshqalar "Voyage en France" Umumta'lim maktablarining 6- sinfi uchun darslik.Toshkent, "O'zbekiston",2009

O'ZBEK TILI SHEVALARINING FARQLANISHI. XORAZM VA QASHQADARYO SHEVALARI MISOLIDA.

Hakimova Mastura
Nizomiy nomidagi TDPU Termiz filiali o'qituvchisi
Xurramova Matluba
Nizomiy nomidagi TDPU Termiz filiali talabasi
+99899 018 74 99
beauty.of.heart@mail.ru

Annotatsiya

Qayerda yashashidan qatiy nazar o'zbek millatiga mansub barcha odamlar tomonidan ishlatiladigan til milliy o'zbek tili deb yuritiladi.Milliy til o'z tarkibiga sheva,so'zlashuv nutqi,jargonlar, vulgarizm,varvarizm kabi guruh so'zlarni qamrab oladi.Hamma tilning o'ziga hos xususiyatlari va o'ziga hos laxja va shevalari bo'ladi.Manashu sheva va laxjalar orqali biz shu hudud anana va qadriyatlari bilan tanishamiz. Ushbu maqolada turli hudud vakillarining chiroyli shevalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Lahja, sheva, so'zlashuv nutqi, jargonlar, vulgarizm, varvarizm, dialekt.

Shevashunoslik qo'shma so'z bo'lib,sheva forschada so'zlashish, ovoz, til kabi ma'nolarni bildiradi,shunos esa bilish,o'rganish demakdir.Shevashunoslik maxalliy shevalar va ularning yigindisi bo'lgan laxjalarni o'rganish haqidagi fandir.O'zbek shevashunosligi O'zbekistonda mavjud bo'lgan hamma laxja va shevalarni o'rganadi.O'zbek shevashunoslik fani O'zbekiston davlati zaminidagi laxja va shevalarni o'rganish bilan bir qatorda, boshqa qardosh qo'shni respublikalar xalqi tilining turli laxja va shevalarini ham o'rganadi.Turkiya, Saudiya Arabistoni, AQSH va boshqa bir qancha chet mamlakatlarda ham o'zbeklar yashaydilar.Ularning shevalarini o'rganish bilan ham o'zbek shevashunosligi shug'ulllanadi.Shevalar tarixiy jihatdan va hozirgi holati nuqtayi nazaridan o'rganiladi.Shunga ko'ra, shevashunoslik tarixiy shevashunoslik va tasviriy shevashunoslik deb ikkkiga bo'linadi.Olimlarning fikrlariga ko'ra,Toshkent-Farg'ona shevalari o'zbek milliy tiliga asos bolgan Toshkent shevasi milliy tiliga asos qilib olingan deganda,koproq uning fonetik xususiyatlari, xususan uning unlilari hisobgaolinadi.

Xorazm shevasi.A.K.Borokovning fikrlari : ,,Xorazm shevalarining lug'ati tilshunoslarda va tarixchilarda aloxida qiziqish tug'dirmog'I kerak.Janubiy Xorazm shevalari haqidagi bizning ma'lumotimiz hozirgacha haqat fonetika va morfologiyaga doir qisqa faktlar bilangina cheklanib qolmoqda.Mazkur shevalarning leksikasida ko'pgina faktlar borki,ular Xorazm shevalarining murakkab tashkil toppish tarixini aniqlashda madad berajaklar".

Xorazm viloyatida til jihatdan bir-birlaridan ancha farq qiladigan 2 guruh sheva vakillari yashaydi.Biz Xorazmning janubiy qismidagi o'zbek shevalarini o'g'uz guruppa shevalari (asosan Xiva, Xonqa, Xozorasp,Yangiariq,Shovot,Bog'ot rayonlarining shevalari) deb atadik.Xorazmning shimoliy qismidagi o'zbek shevalarini qipchoq guruppa shevalari (Yangibozor,Gurlan,Mang'it rayonlarining shevalari) deb yuritdik.Xorazmda kishi nomlarini qisqartirish usuli ko'p jihatdan markaziy o'zbek shevalaridagi usuldan farqlanadi.Xorazmdagi ikki sheva uchun ham hos bo'lgan va odatda adabiy tilda uchramaydigan so'zlar ham anchagina miqdorni tashkil qiladi: yap(anhor), arna(kattaroq ariq),atiz(ekin maydoni), dalar(to'sin), oymoq(angishvona), sulgin(qirg'ovul), sazk(saksavul) va boshqalar.

O'zbek dialektologiyasining yirik mutaxassisi professor E.D.Polivanov bir vaqtlar yozgan edi: ,,Sobiq SSSR dagi turk tillarining birontasi ham shevalararo o'zbek tili singari bu qadar keskin farqlanmaydi,demak, sobiq SSSR birorta turk tili ham shu qadar spesifik, dialectal turlilik xususiyatiga ega emasdir". Bu esa,tabiiy,adabiy til uchun biror dialektni asos qilib olish masalasini nihoyat darajada og'irlashtiradi". Professor Polivanovning bu mulohazasi o'zbek tilining Xorazm shevalariga nisbatan ham to'g'ridir. Xorazm o'zbeklarining tili haqida,ayniqsa o'g'uz shevalari haqida eng ilig' ma'lumotni mashxur Venger olimi German Vamberi beradi.

Adabiy tilda	Xorazm tilida
Baliq ovi	Ag’
Opa-singil	Apaya
Kapalak	Gevelek

Fotixa	Lazm
Juvoldiz	Temen
Dugona	Chiqon
G’isht	Karvuch
Buzoqcha	O’jak
Qirg’ich	Sixak
Kelin oyi	Biye

Qashqadaryo shevasi. Qashqadaryo qipchoq shevalarining leksik jihatdan ham oraliq va shahar tip shevalari leksikasidan ajralib turadigan o'zigaxos xususiyatlari bor.Qipchoq gruppasidagi shevalarigamansub elat, turli urug' va qabila vakillari o'zining kelib chiqish va taraqqiyot tarixi, kasb-hunar,mashg'uloti va urf - odatlari,tabiat va sharoitga munosabatlari, ayrim predmet va voqea hodisalarning turlicha nomlanishi bilan shaharda,shahar atrofida va unga yaqin punktlarda yashovchi axolidan ma'lum darajada farqlanadi.Bu shevalar leksikasidagi o'ziga xos xususiyatlar dastlab mana shu sohalardagi farqlarni ozmi-ko'pmi o'zida aks ettiradigan bir qator so'z va terminlar,so'z birikmalarining ishlatilishida ko'rinadi. Chunonchi:

a)kasb-hunar,mutaxassislik va mashg'ulotga oid: kogen, jayg'ich,qor,qallig';

b)urf-odat,rasm-rusm va marosimlarga oid : qarata,mirzaqur,jesir,jalaq-qizatar;

v)uy-ro'zg'or,kiyim-kechak va oziq-ovqatlarga oid: jirmach,g'olcha,uvuz,meyek,sutmola;

g)hayvonlar,parrandalar,hasharotlar va o'simliklarga oid: sag'an,chuv,burg'i,enchidir,qozg'aldaq,shuvoq,jizillovuq;

d)qarindosh -urug' va kishi organizmiga oid: ene,jezze,ezuv,eke(amakiga murojat),suqqol,barbay;

e)va boshqa sohalarga oid hamda turli voqea-hodisalarga oid: kelpen,nag'ar,anqa,tomanna,osa,narman va hakozalar.

Qashqadaryo shevalari bo'yichato'plangan materiallar shuni ko'rsatadiki,bu hududdao'zbektilining qipchoq va qarluq-chigil-uyg'ur lahjalariga qarashli vakillar ancha qadimdan yonma-yon yashab, doimiy ravishda o'zaro munosabatdavamuomaladabo'lib kelganlar.Bu jihatdan qipchoq dialekti vakillari bilan shahar axolisi o'rtasidagi uzluksiz aralashuv protsessi va tillarning bir-biriga ta'siri,assimilyalashuvi uzoq bir necha asrlik tarixgaega.Qashqadaryodagi qipchoq vaoraliq shevalari solishtirilgandao'z moxiyatigako'ra, bittakatagruppaga birlashadi.Lekin bularning lingvistik xususiyatlari sinchiklab o'rganilganda o'zida ayrim juziy fonetik, morfologik va leksik belgilarning mavjudligi bilan o'zaro bir-biridan farqlanadigan shevalar borligi ko'zga tashlanadi.

Qashqadaryo shevasiga xos so’zlar
Gummik-sovliq sutini emmagani bois o’sishdan qolgan qo’zi
Ko’ktirnoq-ziqna,xassis kishi
Roy-bahor
Nag’ar-nam
Kekene-palakka tushadigan zararli hasharot
G’arma-bug’doyni tuyib qilingan quyuq ovqat
Elepe-o’t bilan boqilgan qo’y
Burrek-somsa
Belle-belkurak bilan yer ag’darmoq
Naymit-pishiq-puxta kishi

Xulosa qilganda, o'zbek leksikologiyasining ayrim masalalarini hal qilishda va umuman lingvistik jihatdan,ayniqsa so'zlarning o'zaro munosabatini belgilash Xorazm shevasida foydalaniladigan so'zlarning ko'proq qaysi shevaga yaqinligi va taxminiy miqdorini aniqlash,ulardagi asl ma'noning saqlanishi,o'zgarishi,taraqqiyoti,ma'nodagi ko'chish va siljishlarni har tomonlama taxlili to'g'risidagi muammo

va masalalar yoritib berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:
1.O'zbek tilining Xorazm shevalari-Fattoh Abdullayev.
2.Yuqori Qashqadaryo o'zbek shevalari-Bolta Jo'raev.
3.O'zbek shevashunosligi-Nazar Rajabov.
4.Ziyo.net.
5.Kutubxona.UZ.

ADABIYOT DARS MASHG'ULOTLARIDA DIDAKTIK VOSITALARDAN FOYDALANISH

Xusenova Munira,
Navoiy viloyati Nurota tumani 32-maktab
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiyot darslarida o'rgatilayotgan mavzuning o'quvchilar uchun yanada tushunari va esda qolarli bo'lishi uchun tayyorlangan ko'rgazmalarning sifati, ko'zda tutilgan maqsadlarga mosligi, qulayligi va ulardan to'g'ri foydalanish mashg'ulotlar samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi muhimligi haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: mutaxassis, metodik, dars, ko'rgazma, g'azal.

Dars jarayonida innovatsion usullardan foydalanish, har xil jadval va sxemalar ham o'quvchilar bilimini mustahkamlash bilan birga ularning adabiy-estetik rivojlanishlarida omil bo'lishi shubhasizdir. Tinglash bilan aloqador ko'rgazmalilik ham alohida mavqega ega. Asarni, xususan she'riy asarlarni to'liq tushunish uchun adib yaratgan tovushli obrazlarni eshitish, his qilish va baholash ham nihoyatda beqiyos ahamiyatga ega.G'afur G'ulom, Oybek, Hamid Olimjon, Erkin Vohidov, AbdullaOripovlarning ovozlari yozilgan audioyozuvlar, Alisher Navoiy, Bobur, Ogahiy, Muqimiy, Furqat g'azallari bilan aytiladigan qo'shiqlar plastinka va magnit tasmalarni bugun o'qituvchilarimiz ko'p qiyinchiliksiz topishi mumkin bo'lgan va amaliyotda ko'p qo'llaydigan manbalardir.

Musiqa va badiiy-ifodali o'qish adabiyot o'qitish jarayonida o'qituvchilar faolligini oshirishda ijobiy ahamiyat kasb etadi. Musiqalarning adabiyot darslaridagi zaruriyati ba'zan nihoyatda ochiq seziladi. Masalan, quyi sinflarda ertak va dostonlarni, xalq qo'shiqlarini faqat eshitish emas, balki xalq baxshilari, laparchilari, qo'shiqchilarining ijrosini kuzatish ham maroqli va ta'sirliroq bo'ladi. Ammo ko'rgazmalilikning asosiy narsa emas, balki "ikkinchi darajali" material ekanligini ham esdan chiqarmaslik lozim.

Har qanday sifatli va zamonaviy texnik vositalar ham bevosita muloqot nuqtai nazaridan o'qituvchi nutqining o'rniga teng kelolmaydi. O'qituvchi o'zi matnni o'qiganida istagan vaqtda uni uzishi, tegishli zaruriy izoh va tushuntirishlar berishi, o'quvchilardan so'rashi mumkin. Bugina emas o'qituvchi va o'quvchilarning ifodali o'qishi mutlaqo boshqacha samara beradiki, buni aktyor yoki tajribali ijrochi tomonidan amalga oshirilgan harakat natijasida erishishi mumkin emas. Shuni unutmasdik kerakki, aktyor ijrosi ko'pgina ustunliklarga ega, ammo u o'qituvchi va o'quvchi o'qishini siqib qo'yadigan yoki chegaralaydigan bo'lsa, buning oqibatida o'quvchining ijodiy-ijrochilik qobiliyati susayib ketishi mumkin. Demak, har qanday ko'rgazmalilikda bo'lgani singari, eshitish bilan bog'liq ko'rgazmalilikda ham o'qituvchi tegishli pedagogik va metodik talab va me'yorlarga amal qilishi shartdir.

Kino va televideniyaning imkoniyatlari nihoyatda katta. Uni maxsus izohlash zarurati yo'q. Unda ham ko'rish ham eshitish ko'rgazmaliligi mavjudki, ular obrazlarning makon va zamonda qayta gavdalantirishi bilan adabiy voqelikning asl holiga ancha yaqin manzarani yarata oladi. Shuning uchun ham ulardan o'quv maqsadlarida foydalanish imkonlari ham kelajagi ham katta. Ammo ulardan foydalanishdagi murakkabliklar ham kam emas. Xususan, teleko'rsatuvlar muddati va davomiyligi, tabiiyki o'qituvchiga mutlaqo bog'liq emas.

Kino ssenariylar orasida yozuvchi tarjimai holi (Abdulla Qodiriy, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Zulfiya, Oybek) bilan bog'likliklari, ekranlashtirilgan asarlar mavjud. Tabiiyki ularning ko'pi bir necha qismlardan iborat. O'qituvchi ularning hammasidan emas, balki bevosita dars maqsadi va vazifasiga bog'liq qismlardagina foydalangani maqsadga muvofiq bo'ladi.

Adiblar yashagan joylar bilan bog'liq kinoekskursiyalardan ham shu xilda foydalanish o'rinli bo'ladi. Ularning ayrimlaridan sinfdan tashqari ishlarda foydalanish ham samarali bo'ladi. Hozirgi paytda doimo yangilanib turadigan teledarslar ham qo'shimcha imkoniyat sifatida nazarda tutilishi mumkin.

Adabiyot o'qituvchisi ko'rgazmalilikning qaysi turidan va qanday holatda, shuningdek, qay miqdorda foydalanishini aniq belgilab olishi shart. U darslar tizimi yoki bir darsning muayyan qismi bo'lishi mumkin. Garchi metodik ko'rgazmalilikdan yakunlovchi darslarda mahoratli o'qituvchi undan istalgan dars tipi vadarsning istagan qismida foydalanish mumkin.

Masalan, Erkin Vohidov lirikasini o'tishda "O'zbegim" qo'shig'ni tinglash sinfda Erkin Vohidov poeziyasi ruhini hosil qilishda muhim o'rin tutishi mumkin.

Asarni o'rganishning yakunlovchi bosqichida qiyosiy yo'nalishdagi topshiriqlarni berish ko'proq tarqalgan.

Zero bu usul asar mohiyatini, obrazlar xarakterini, so'z san'atini o'ziga xos xususiyatlarini yorqinroq va chuqurroq anglashda eng sermahsul hisoblanadi. Asarni to'laroq idrok etish adabiyotga yaqin bo'lgan san'at asarlarida foydalanishdan oldin o'quvchilar dastlab asar haqida elementar bo'lsa-da tasavvurga ega bo'lishi lozim. Adabiyot darslaridagi ko'rgazmalilik oxirgi maqsad emas, balki vositadir. Shunga ko'ra o'quvchi kino yoki rasmni ko'rib, kuy yoki qo'shiqni tinglab bo'lganidan keyin unga shunday savollar berilishi lozimki, bu topshiriq va savollar o'quvchini badiiy asar ichiga olib kirishga, badiiy obraz yoki tasvir mohiyatini chuqurroq anglashga, so'zning ta'sir kuchini yaqqolroq his etishga yordam bersin.

Yana bir muhim holat shundaki ko'rgazmali qurollarni yaratishga o'quvchilarning o'zlarini jalb etish ham muhimdir. Bunda faqat nusxa ko'chirish emas, balki jiddiy ijodiy mehnatni talab qiladigan ko'rgazmalar yasash o'quvchining umumiy badiiy estetik tayyorgarligiga ham jiddiy ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Yo'ldoshev J, Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. -T.: O'qituvchi, 2004. -104 b.
2. Qozoqboy Yo'ldosh. Yoniq so'z. -T.: Yangi asr avlodi, 2006. 448 bet.
3. Qodiriy. Mehrobdan chayon. -T.: Adabiyot va san'at, 1974.
4. Qodiriy. O'tgan kunlar. -T.: Sharq, 2014.

"DEVONU LUG'OTIT TURK" ASARIDA QO'LLANGAN MAQOLLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI".

Yangiboyeva Jumagul Sharofitdinovna
Farg'ona viloyati Bag'dod tumani
53-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
+98916795714

Tezisda tilda yillar davomida shakllangan ma'naviy me'rosning aks etishi, unda paremalarning tutgan o'rni, xususan paremalar tarkibiga kiruvchi maqollar orqali xalqning madaniy qarashlari, urf-odatlarining namoyon bo'lishi haqida so'z boradi. Bu boradagi mulohazalar Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida qo'llangan maqollar orqali izohlanadi.

Kalit so'zlar: Til, parema, maqol, semema, ma'naviy meros, turkiy xalqlar, saban-ko'klam.

Til aloqa-munosabat, hissiy ta'sir vazifasini bajarish bilan bir qatorda ma'lumotlarni to'plashga ham xizmat qiladi. Tilda ming yillar davomida shakllangan ma'naviy me'ros, madaniy yodgorliklar bilan birga, xalqning turmush madaniyati, dunyoqarashi, urf-odati, madaniy saviyasi ham aks etadi. Bugungi ijtimoiy jarayon, xalqaro iqtisodiy-siyosiy munosabatlar, texnik taraqqiyot, axborotlar oqimi tilga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Xalqaro munosabatlar, ijtimoiy o'zgarishlar natijasida kirib kelayotgan yangi so'z va terminlar tilimizni boyitmoqda. Shuning barobarida, tilimizdagi milliy ruhni, o'ziga xoslikni, o'zbek tilining turkiy tillarga xos jozibasini asrash ehtiyoji tug'ilmoqda. Bu o'rinda tilning madaniy qarashlar, urf-odat, an'analar, tarixiy fonetik, leksik, grammatik o'zgarishlarni o'zida namoyon qiladigan barqaror birikmalar - paremalarni tahlil qilishning ahamiyati kattadir.

Paremalarning asosini tashkil etuvchi maqollar xalq turmush tajribasi, tafakkuri asosida yuzaga keladi. Turkiy tillardagi maqollarda inson tafakkuri, ruhiyati, dunyoqarashi, yashash tarzi, madaniy saviyasi o'z ifodasini topadi.

Turkiylar dunyoning turli hududlarida keng tarqalgan, o'z madaniy qarashlari, urf-odat, an'analariga ega bo'lgan xalqlar birligini ifoda etadi. O'rta Osiyo hududida yashaydigan turkiy xalqlarda Sharq mamlakatlariga xos axloqiy-ma'naviy qarashlar, madaniy munosabatlar o'z ifodasini topadi. Sharqona madaniyat namunalari, milliy qadriyatlar, urf-odat, an'analar eng qadimiy etnomadaniy xususiyatlarni o'zida aks ettiruvchi turkiy paremalarda, maqol va matallarda o'z ifodasini topgan. Turkiy xalqlar maqollarida turkona mentalitetning barcha qirralari aks etar ekan, ayni paytda, Sharq xalqlari dunyoqarashining namoyon bo'lishi ham shubhasizdir. Har birida voqea-hodisa, jarayonga nisbatan muayyan xulosa bayon etilgan turkiy xalqlar maqollarida Sharq xalqlariga xos axloqiy-madaniy, ijtimoiy-falsafiy qarashlar mujassamlangan.

"Devonu lug'otit turk" da uchraydigan maqollarga nazar tashlaydigan bo'lsak, ular tarkibidagi har bir so'z bugungi kunda qaysidar turkiy xalqlar lug'at boyligida saqlanib kelayotganini ko'rishimiz mumkin. Masalan, "Sabanda sandrish bo'lsa, ortkunda ertish bo'lmas" maqolining izohi "Yer haydash vaqtida puxtalik bo'lsa, xirmonda u cho'zilmaydi" deb beriladi. Ijtimoiy hayotga nazar tashlaydigan bo'lsak, xirmon vaqti kuz fasliga to'g'ri keladi, yer haydash vaqti, ekin ekish payti esa bahorga. Demak, bu o'rinda saban leksemasi bahor, ko'klam ma'nolarini anglatmoqda. Shuningdek, tatarlarda "Sabanto'y bayrami bo'lib, u aynan bahorda nishonlanadi. O'zbeklarda esa bahorda Navro'z kutib olinadi. Bu ikkisi ham bahor ayyomi bo'lib, bayram ahliga va butun xalqqa shod-xurramlik ulashadi.Demak, tatarlar Sabanto'yidagi saban so'zi va "Sabanda sandrish bo'lsa, ortkunda ertish bo'lmas" maqolidagi saban so'zi aynan bir ma'noga ega bo'lib, har ikkisi ham bahor mavsumini ifodalab keladi.

Mahmud Koshg'ariy qo'llagan maqollar mavzu jihatdan shu qadar boy, shu qadar keng, shu qadar rang - barangki, ularda ijtimoiy hayotning eng murakkab muammolaridan tortib oilaviy hayotning eng kichik urf - odatlarigacha, oddiy axloqiy me'yorlardan tortib kishilar hayotidagi mayda - chuyda nuqsonlargacha, falsafiy dunyoqarashdan tortib eng kichik jonivorlarning xususiyatlarigacha o'z in'ikosini topgan. Qisqasi, tabiat va jamiyat hayotining biror bir sohasi yo'qki, u maqollarda o'z aksini topmagan bo'lsin.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Koshg'ariy M. Devonu lug'otit turk. I tom. T.: Fan, 1960
2. .Xalilova Z. Xalq maqollarining semantik- struktur tahlili: magis. diss. avtoref. Farg'ona, 2012.

T.QAYÍPBERGENOVTIŃ "MAMAN BIY ÁPSANASÍ" ROMANÍNDAǴÍ FRAZEOLOGIZMLERDIŃ SINTAKSISLIK XÍZMETI HAQQÍNDA

Yerejepova Zamira Duzelbayevna
Nókis qalası, 9-sanlı mektep oqıtıwshısı
Qaraqalpaqstan Respublikası, Nókis qalası
z.erejepova@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada yozuvchi T.Qayipberganovning "Maman biy afsonasi" romanidagi frazeologizmlarning sintaktik – ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol xizmatida qo'llanilishi o'rganilib, misollar yordamida dalillangan. Badiiy asarning tilida frazeologizmlarning o'rni, vazifasi, badiiy so'z ustasining xalq tilidagi frazeologizmlardan foydalanishidagi mahorati ko'rsatib o'tilgan.

Аннотация. В статье рассматривается использование фразеологизмов в романе Т.Кайипбергенова «Легенда о Маман бий» в качестве синтаксического: подлежащее, сказуемое, определение, дополнение, обстоятельство и доказывается с помощью примеров. Показаны роль и функция фразеологизмов в языке художественного произведения, мастерство писателя в использовании фразеологизмов.

Kalit so'zlar: qoraqalpoq tili, leksikologiya, frazeologizm, lug'at, uslubiyat, ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol.

Ключевые слова: каракалпакский язык, лексикология, фразеологизм, словарь, стилистика, подлежащее, сказуемое, определение, дополнение, обстоятельство.

Qaraqalpaq tiliniń frazeologiyası boyınsha usı waqıtqa deyin sistemalı túrde jazılǵan arnawlı miynetler joq. Bul tarawda tek qaraqalpaq tili frazeologiyasınıń ayırım máseleleri haqqında prof. E.Berdimuratovtıń "Házirgi zaman qaraqalpaq tili. Leksikologiya" (Nókis, 1994) atlı miynetin atap kórsetiwge boladı. Sońınan frazeologizmlerdiń sózliklerde beriliw máseleleri S.Nawrızbaeva tárepinen arnawlı izertlendi [1]. G.Aynazarova qaraqalpaq tilindegi teńles eki komponentli frazeologizmlerdi monografiyalıq baǵdarda úyrendi, kandidatlıq dissertaciya jaqladı hám oqıw-metodikalıq qollanbasın baspadan shıǵardı [2]. Sonday-aq frazeologiyalıq sózlikler dúzildi [3]. Degen menen, qaraqalpaq tili frazeologiyasınıń házirge deyin jeterli dárejede izertlenilmey kiyatırǵan máseleleri kóp. Soǵan qaramastan, B.Yusupovanıń [4], Q.Paxratdinovtıń [5], J.Táńirbergenovtiń [6] taǵı basqalar qaraqalpaq til frazeologiyasınıń rawajlanıwına ózleriniń salmaqlı úleslerin qosıp kelmekte.

Frazeologizmlerden máni ótkirligi, obrazlılıqtı, hár qıylı stilistikalıq boyawlardı tabamız. Olar kórkem shıǵarmalarda obrazlı til qurallarınıń xızmetin atqaradı. Sonıń ushın da, kórkem sóz sheberleri milliy tildiń ǵáziynesi dep bahalanatuǵın bul sóz dizbeklerinen keńirek paydalanıwdı máqset etedi. Bul haqqında X.Qojaqmetova bılay jazadı: "Frazeologizmler – kórkem shiǵarma tilin janlandıratuǵın, astarlap kórkem etip súwretlewdiń tildegi tayar quralı. Bular - xalıq danalıǵınıń úlgileri menen suwǵarılǵan obrazlı oylaw tiliniń úlgisi"- dep durıs anıqlama beredi [7].

Xalıq danalıǵına suwǵarılǵan til marjanların belgili jazıwshı T.Qayıpbergenov ta óz oy eleginen ótkerip, sheberlik penen shıǵarmalarında paydalanǵanın kóremiz. Jazıwshı xalıq tiliniń frazeologiyalıq ǵáziynesin geyde óz qálpinde sinonim retinde qollanadı, geyde jańǵırtıp, sol úlgi menen jańadan dizbekler payda etedi. T.Qayıpbergenov "Maman biy ápsanası" romanında xalıq tilindegi frazeologizmlerdiń ishinen kereklilerin tańlay otırıp, múmkinshiligine qaray olardı túrlendiredi. Óziniń bayanlap otırǵan waqıyasına baylanıslı frazeologizmlerdiń stillik boyawın kúsheytip, atqaratuǵın xızmetin quramalılastıradı.

Baslawısh bayanlawısh penen júdá tıǵız baylanısıp keledi. Óytkeni onıń mánisi, xızmeti, ornı bayanlawısh arqalı konkretlesedi. Qaraqalpaq tilinde baslawıshtıń tiykarǵı grammatikalıq forması - ataw sepligi. Baslawısh bárqulla dara sózlerden emes, al qospa sózlerden de, sóz dizbeginen de bola beredi. Mısalı, *Sonsha júk kóterip sharshaǵan bolsa da, muńaymaǵan bala aldında úskini quyılıwı naqolay kórindi me, Maman da kúlimledi*.(21-b). *Sonda qanday azap shegip jatqanımdı til jetkerip aytıw múmkin emes. (11-b)*

Bayanlawısh gáptegi shólkemlestiriwshi grammatikalıq element bolıp, ol gáptiń mazmunın anıqlaydı. Sebebi, gáptiń gáp bolıwındaǵı tiykarǵı shártleriniń biri usı bayanlawısh kategoriyasınıń bolıwı arqalı xarakterlenedi. T.Qayıpbergenovtiń romanında : *Mamandı kórse, jawatuǵın bulıttay túneredi, lekin*

jawmaydı.(9-b). Átteń, bul niyeti aqırına shekem iske aspadı.(9-b). Kópten kútken ármanıma qanat pitip, tezirek qashıwdıń, ózim menen qosa Persiyalı bende nashardı qutqarıwdıń ǵamın jey basladım.(11-b). Házir patsha da basqa, ullı Pyotr birinshiniń bel qızı Elizaveta desem, meni tıńlar qulaq bolmadı.(12-b). Nelikten de shayıqtıń kewli buzıldı, lekin kózinen jas shıǵarmadı.(17-b).

Tolıqlawısh - bas aǵzalardan dúzilgen jay gáplerdiń strukturasın keńeytip, tolıqtırıp, is-háreket obyektin bildiretuǵın gáptiń ekinshi dárejeli aǵzası. *a) Tuwra tolıqlawısh. Maman ákesiniń záńgisine mańlayın tiygizip súyip, soń quyashqa qarap, waqıt tayalıp qalǵanın bildi de, juwırıp ketti.(6-b). Tili gúrmelmegenlerdi óz qálewinshe jazalaydı.(9-b). Musılmanshılıq tártip boyınsha sózden utılǵanın moyınlap, Kuzma Borodinniń ayaǵına jıǵılmaqshı edi, ózin tuttı.(13-b). b) Qıya tolıqlawısh. Bul qos atlınıń sırtqı kórinisleri ǵana emes, ómir jolları da eki qıylı bolǵan menen, 1723-jılǵı junǵarlar shabılıwınan "aq taban shubırındı" atanıp, gúzde jarılǵan sobıq úpelegindey toz-toz bolǵan qaraqalpaq eliniń Sirdárya tómenine qaray ıǵısqan toparı menen birge kóz jas tógisip, olardıń basına túsken awır júkke teń iyin tiresip, iyin tutqan adamlar.* (5-b). *Adamlardıń kóz jasların tógiwden saqlanıw kerek.(15-b).*

Anıqlawıshlar gáptegi sintaksislik xızmeti jaǵınan ózi anıqlaytuǵın aǵzanı hártúrli belgiler boyınsha anıqlaydı: túr-túsin, sının, kelbetin, sanın, sapasın, kólemin, muǵdarın, formalıq, háreketlik t.b. belgilerin bildiriw arqalı anıqlap keledi. T.Qayıpbergenov romanında: *Sadaǵań keteyin batırımızdıń bir kemisi,-jılqı minez adam.(7-b). Maman bul jabayı, biraq bir adamnıń balasınday, awız birlikli jetimlerdiń jartı ılashıǵına olar menen aralasa talasıp kirdi. (16-b). Biraq, Orazan batır usaǵan ójet, kótere kókirek bolmasın.(20-b). Allayarǵa oylassam, onıń "bendelerdi tawıqtıń basın jegen adam bosatadı" dep, ózi kóz jas tógip júrip, basqalardıń kóz jasına rehim etpegeni qalay? (21-b). Bul ójet biylerdiń háreketlerine bawırı qamılǵan shayıq sırtqı kóriniske shıdamay, olardı oyatıw máqsetinde "óhó-óhó" dep jóteldi.(23-b).*

Pısıqlawısh – is-háreket procesiniń isleniw usılın, sapasın, waqıt, orın, muǵdar, sebep, máqset, shárt hám qarsılaslıq belgilerin bildiretuǵın gáptiń ekinshi dárejeli aǵzası. Pısıqlawıshtıń mánisi, tiykarınan, is-háreketke qatnaslı konkretlesedi. Sonlıqtan olar, kóbinese feyilden bolǵan bayanlawıshtıń mánisin keńeytip, túsindirip keledi. Mısalı, *Maman ákesiniń záńgisine mańlayın tiygizip súyip, iyilgen kúyinde shayıqtıń izde kiyatırǵan at qosshısı da ótip ketkenshe, ushınan sınǵan qazıqtay búgiliwi menen qos atlı kózden ǵayıp bolǵansha turdı, soń quyashqa qarap, waqıt tayalıp qalǵanın bildi de, juwırıp ketti.(6-b). ...kishi ulım Pyotrdiń súyegi qatıńqırasa, Voronej degen qalaǵa aparıp, aǵash ustalarına, yaǵnıy teńiz, okeanlarda júzetuǵın keme, korablller soǵıwshılarǵa shákirtlikke beremen.(12-b). –Bir kese chay ishim túwe, kirpik qaqqansha dúnyada adam payda bolıp, dúnyadan adam ketedi.(24-b).*

Biz qarastırǵan jazıwshı T.Qayıpbergenovtiń "Maman biy ápsanası" romanında frazeologizmlerdiń bári de shıǵarma tiline kórkemlik qosıp, onıń tásirli bolıwı ushın xızmet atqarıp tur. Sóz sheberi hárbir frazeologizmdi puqtalıq penen paydalanıw arqalı shıǵarma tiliniń tásirli hám kórkem bolıwına erisedi. Romanda, ulıwma kórkem shıǵarma tilinde obrazlılıqtı ashıp beriwde frazeologizmlerdi óz ornında qollana alıw – Tólepbergen Qayıpbergenovtiń ullı jazıwshı sıpatında onıń stillik sheberligin de kórsetedi.

ÁDEBIYATLAR:

Наурызбаева С.Т. Типы именных фразеологических единиц каракалпакского языка и их отражения в каракалпакско-русском словаре. АКД. -М., 1967.

Айназарова Г. Караіалпаі тилинде теңлес еки компонентли фразеологизмлер.-Нөкис, 2005. 61 б.

3. Ешбаев Ж. Јараіалпаі тилиниң іысіаша фразеологиялыі сөзлиги. -Нөкис, 1985; Жумамуратов Т. Русско-каракалпакский фразеологический словарь для школьников. -Нукус, 1985.

4. Юсупова Б. Јараіалпаі тилиниң фразеологиясы. Оіыґ іолланба. –Тошкент: Тафаккур іаноти, 2014.

5. Пахратдинов Ј., Бекниязов Ј. Јараіалпаі тилиниң фразеологиялер сөзлиги. –Нөкис: Јараіалпаістан, 2018. 160 б.

6. Táńirbergenov J. Qaraqalpaq tilinde feyil mánili frazeologiyalıq sinonimlerdiń strukturalıq ózgeshelikleri haqqında//ÓzRIA Qaraqalpaqstan filialınıń "Xabarshı" jurnalı, 2011, №1; Klassik shayırlar shıǵarmalarında eki komponentli feyil mánili frazeologizmler haqqında// "Ámiwdárya" jurnalı. 2013, №5, 107-109 b.

7. Јожаіметова Х. Фразеологизмдердиң көркем әдебиетте іолданылуы. -Алматы, 1972. 54 б.

YAPONI TILIDAGI SON BILAN BOG'LIQ 4 IEROGLIFLI IBORALAR VA ULARNING TUTGAN O'RNI

Yoqubova Maftuna
ToshDSHI Yaponshunoslik fakulteti 2-kurs magistranti
+998909303369
y.maftuna1994@gmail.com

Anatatsiya
Bu maqola yapon tilidagi son bilan bog'liq 4 ieroglifli iboralarning kelib chiqishi va uning tutgan o'rniga bag'ishlangan. Yana mazkur maqolada yapon tilidagi son bilan bog'liq 4 ieroglifli iboralar yordamida uning milliy madaniyati, tili va tarixida o'ziga xos o'rin tutuvchi jihatlari yoritilib berilgan.
Kalit so'zlar: ibora, 4 ieroglifli iboralar, til, madaniyat

Insonlar o'rtasidagi munosabat asosi tildir. O'zaro muloqotda, xat yozganda, o'z fikrlarini bayon qilganda tildan foydalanamiz. Bu kabi qobiliyat yoshlikdan singdirilib kelinadi. Kundalik hayotda, bilimni kengaytira borish bilan, o'z o'y-fikrlarini ta'sirli qilib yetkazishda so'z boyligi va iboralarini ishlata oladigan bo'ladi. Shu jarayonda o'ylamagan holda, ko'plab iboralarni ishlatganimizni bilmay qolamiz. Bunday iboralardan foydalanish nutqni go'zallashtirib, unga chuqur ma'no qo'shib, suhbatdoshga fikrni tushunarli yetkazib berishda juda muhim sanaladi. Yapon tadqiqotchisi Morita (1966) "Frazeologizmli uslub kundalik turmushda tabiiy holda ishlatilinadi, ammo ularning ishlatilishi va tushunilishi bu, boshqa-boshqa narsalardir" deganidek, farqli madaniyat ichida tarbiya ko'rgan chet ellik yapon tili o'rganuvchilari uchun frazeologizmlarning ma'nosini tushunish juda ham qiyin hisoblanadi. Bu frazeologizmlarning o'ziga xosligi bilan aloqador holat hisoblanadi. Yapon tilini o'rganayotgan talabalar yapon tili darajasini yaxshilab, yapon xalqining iboraviy psixologiyasi va fikrlashini tushunish uchun, iboralarni to'gri o'rganib, ulardan to'g'ri foydalana olishlari juda muhimdir. Frazeologizmlarning ma'nosi to'g'ri tushunilmasa, o'rinsiz joylarda foydalanib qo'yish, suhbatdoshga nisbatan noto'g'ri javob qaytarib qo'yish mumkin ya'ni frazeologizmlar dialog va gaplarning ma'nosini tushunish uchun muhimdir. Lekin, odatda frazeologizmlarni o'zlashtirish o'rganuvchilar uchun qiyin masala hisoblanadi. Ona tilisi o'zbek tili bo'lgan yapon tili o'rganuvchilari uchun ham frazeologizmlarni o'zlashtirish qiyin hisoblanadi. Boshqa bir tilni chet tili sifatida o'rganish vaqtida, frazeologizmlarni ajrata bilish muommosi ham mavjudligi va ikki mamlakat frazeologizmlari bir-biridan keskin farq qilishi ham tabiiy albatta.

Ma'lumki, frazeologizmlar xalq ma'naviy xazinasining boy durdonalaridan hisoblanadi. Ularda jamlangan aniq, yorqin va boy ma'no nutqni sermazmun, ta'sirchan, ravon qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq iboralarining o'ziga xos xususiyatlarini faqat badiiy adabiyot materiallari asosidagina o'rganib qolmasdan, gazeta materiallari asosida ham qisman tadqiq qilingan va bu boradagi ishlar davom ettirilmoqda. Bu esa frazelogizmlarning o'ziga xos tomonlarini yoritish, uning imkoniyatlarini ochishda katta yordam beradi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, badiiy uslubga xos iboralarning o'rni bilan ishlatilmasligi, takrorga yo'l qo'yishga olib keladi. Shuning uchun ham mualliflarning ko'pchiligi ularga ijodiy yondashib, mazmunini saqlagan holda, ularga yangi vazifalarni yuklash maqsadida o'zgartirishga harakat qilishadi. Lekin bu har doim ijobiy natija beravermaydi. Ba'zan tilimizdagi frazeologik birliklar tarkibidagi so'zlarni ekspressivlikni oshirish maqsadida badiiy uslubga xos so'zlar bilan almashtirish yoki aksincha so'zlashuv nutqiga xos so'zlar bilan almashtirish ayrim kamchiliklar bilan birgalikda yutuqlarga erishishga ham olib keladi. Bunday holat maqolada ifodalanayotgan fikrning ekspressivligini ta'minlash o'rniga iboraning ekspressiv-stilistik qimmatini oshiradi yoki aksincha.

「四字熟語」(yojijyukugo) atamasi yapon tilidagi 4 belgi, ya’ni ieroglifdan tashkil topgan ibora bo’lib, tshqi ta’sirsiz yuzaga kelgan nisbiy yangi tushunchadir .1985-yildan boshlab 「四字熟語」(yojijyukugo) -4 ieroglifli ibora atamasi qo’llanilib kelinmoqda. Ushbu atama Xitoy tilida 「成語」(seigo) deb nomlanadi va bir nechta istisnolardan tashqari 4ta harfdan iborat.

Aslida, 「四字熟語」(yojijyukugo) Xitoy Xan sulolasining iboralar sistemasi sanaladi. Biroq, qadimdan 4 ieroglifli iboralar idioma sifatida yapon tili va adabiyotida ham keng foydalanib kelmoqda. Bundan tashqari, 4 ieroglifli iboralar insonlarga kuchli ta’sir qiladi, shuning uchun u tez-tez hujjatlarda sarlavha sifatida keltiriladi. Yaponiyada 4 ieroglifli iboralar to’liq tashkil etilgan bo’lib, gazeta, nutq va munozaralarda keng qo’llaniladi .

1990-yil yapon tilining rivojlanish davridan beri 4 ieroglifli iboralarni o’rganuvchi yoshlarning soni ortib bormoqda. Yuqori mazmunni ifodalovchi gaplarni 4ta ieroglifda bayon etilishi yoshlarni 4 ieroglifli

iboralarni o'rganishlariga bo'lgan qiziqishlarining sabablaridan biridir .

Hozirgi kunda 4 ieroglifli iboralarning topishmoqlari ham juda mashhur. Masalan, so'zlarning asl ma'nosi aytilsa, shu ma'noni ifodalaydigan 4 ieroglifli iborani topish kerak boladi.

『日中語彙研究』jurnalining 6-soniga ko'ra, yapon tilidagi 4 ieroglifli iboralar bo'yicha, 1942-yil Embriol davri, 1970-yil Tadqiqot davri, 1980, 1990, 2000 yillar Rivojlanish davrlaridan beri tadqiqotlar olib borilmoqda.

Ingliz tadqiqotchisi Grib Diananing 2016-yil 『動儀付けにおける四字熟語の活用』(Dinamik mashqda 4 ieroglifli iboralardan foydalanish) nomli ilmiy ishida yapon maktablarida ieroglif o'qitish metodlarida 4 ieroglifli iboralardan foydalanish kishi motivatsiyasi uchun samarali ekanligini tasdiqlagan.

Yapon tadqiqotchisi Teiyutaka Irotobining 2014-yildagi 『日本漢語における四字熟語化』(Yapon-Xitoy tiliga tegishli 4 ieroglifli iboralarning o'zgarishi) nomli ilmiy ishida 4 ieroglifli iboralarning paydo bo'lish nuqtai nazari, birikmalarning tashkil bo'lishining asosiy sabablari, ma'no yo'nalishlarining o'zgarishi va ieroglif ifodalarining o'zgarishini ochib berish masalalari qo'yilgan.

Yapon tili o'rganuvchilarining 4 ieroglifli iboralarda xatoga yo'l qo'yishlarining katta sabablaridan biri 4 ieroglifli iboralarni ishlatish ko'lamini chuqur tushunmagan ekanliklaridadir .

O'zbek tilidagi sonlarga oid iboralarda asosan butun sonlarning ishtirok etishini kuzatishimiz mumkin. Masalan,

- Ming marta eshitgandan, Bir marta ko'rgan avzal.
- O'nta bo'lsa, o'rni boshqa.

Sumomo Kanouning 2012-yildagi 『日中両言語における数字を含む四字熟語の対照研究』(Yapon tilidagi sonlar bilan bog'liq 4 ieroglifli iboralarni taqqoslash) ilmiy ishida 4 ieroglifli iboralarda metafra orqali ma'no o'zgarishi "1" dan "10" gacha bo'lgan sonlarda keng kuzatilishi masalasi ochib berilgan.

Bundan ko'rinib turibtiki, yapon tilidagi 4 ieroglifli iboralarda ham asoson butun sonlar bilan bo'gliq iboralar ko'p ekanligini bildiradi.

Biz til va madaniyat munosabati yuzasidan yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalarga tayanib, mazkur tadqiqotimizda yapon tilidagi son bilan bog'liq 4 ieroglifli iboralar yordamida uning milliy madaniyati, tili va tarixida o'ziga xos o'rin tutuvchi jihatlarni tadqiq qilishga harakat qildik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. 森田良行（1966）が慣用表現の主題を調査
2. Abdusaidov A. Gazeta tilida frazeologizmlar. Samarqand: SamDU nashri
3. 朝日新聞 1999年6月28日
4. 奥平&和田 (1991)『新刊の紹介ー四字熟語ひとくち話』
5. 字野哲人 （1965）『国語漢和辞典』研究社

THE ROLE OF ICT IN TEACHING ENGLISH

Yuldasheva Nilufar No'monjonovna,
an English teacher of Namangan region,
Naryn district, school № 38
tel: 97 4265514

Annotation

This article is about using ICT in a classroom which is as a tool for language learning has a lot more benefit. It gives stimulus to undertake the tasks that the students may otherwise avoid. In an ICT enabled language learning class, the students would conduct the activities on the computer software platform and they will not have any sorts of hesitations or inhibitions. It would make repetitive tasks more interesting and would have content which could be in multimedia formats.

Key words: ICT, role, tool, multimedia, computer, use, learning, motivation

Данное задание выполняет большая часть класса. С определением понятия "квадрат" ни у одного ученика не возникло проблемы. Также хорошо учащиеся справились с определением понятия "уравнение", допустили ошибки несколько учеников. А вот с пунктом В) у многих учеников возникли проблемы. Кроме правильных ответов "прямоугольник" и "четырехугольник" ученики также отвечали "квадрат", "многоугольник". В связи с чем возникла путаница, какое слово выбрать на первый и второй пропуск Данный пример позволяет нам сделать вывод, что ученики не имеют достаточных знаний о математических понятиях. Изучив педагогический опыт учителей по формированию математических понятий, в качестве педагогического инструмента развития логического мышления и формирования математических понятий учащихся 3 класса, мы выбрали ежедневное проведение "логических пятиминуток". "Логические пятиминутки" проводились во время урока, после изучения и закрепления новой темы. При проведении пятиминуток формировалось знание и понимание математических понятий. Первостепенной задачей, которую мы поставили перед собой - формирование, уточнение представлений о са-мом понятии. Особенный интерес

вызвало у детей занятие в форме математической сказки. Они быстро вспомнили понятие прямоугольника, назвали существенные признаки прямоугольника, сформулировали определение, изготовили модель прямого угла. Наблюдения за работой учащихся и анализ результатов проведенной работы по формированию математических понятий позволил выявить положительную динамику. Проведенное работа позволила сделать вывод, что необходимым элементом урока математики являются задания - "логические - пятиминутки". Эффективность заданий "пятиминуток" обусловлена еще и тем, что они предусматривают использование игровых моментов, а дети успешнее обучаются в игровой деятельности, проявляя при этом интерес к учению. Небольшие соревнования - пятиминутки, работа в парах привели к положительному результату.

По результатам проведенного исследования можно сделать вывод, что при специально организованной дополнительной работе по формированию математических понятий можно добиться улучшения результатов.

Литература:

1. Артёмов А. К. Изучение математических понятий в начальных классах: Методические рекомендации. - Пенза, 1987-20 с.

2. Кондрашенкова Т. А. "Специфика методики изучения логики при подготовке учителя начальных классов", Подготовка учителя начальных классов: опыт, проблемы, перспективы: Сборник научных трудов. Выпуск 4. - Смоленск: СГПУ, 2002. - 160 с.

ИСАЖОН СУЛТОН ҲИКОЯЛАРИДА ИЖОДКОР УСЛУБИНИНГ АЙРИМ ЖИҲАТЛАРИ

Зоирова Диёра Абдужалиловна
СамДУ, Филология факультети магистанти
Телефон: 998 97 910 89 27
nasimasaidzoda@mail.ru

Аннотация: Мақолада ҳозирги адабий жараённинг забардаст вакилларидан бири Исажон Султоннинг "Қайдасан, жаннат" туркум ҳикоялари таҳлилга тортилган. Ижодкорнинг ҳикоянавислик маҳорати тадқиқ этилган.

Калит сўзлар: ҳикоя, И.Султон, услуб, портрет, маҳорат, шакл.

Исажон Султон ҳозирги адабий жараён ҳикоянавислигига муносиб ҳисса қўшаётган ижодкорлардан бири. Адиб ҳикоялари ўзининг шакли, мазмуни ва унда айтилаётган фикрларнинг янгилиги билан ҳам аҳамиятли. Ижодкорнинг "Боғи Эрам" китобидан ўрин олган "Қайдасан, жаннат" туркуми "Ёғоч кавуш", "Тошкелинчак" ва "Шамолли кеча" деб номланган учта ҳикояни ўз ичига олади. Ҳикоялар мавзу жиҳатидан ранг-баранг бўлиб, ҳар бир ҳикояда муаллиф маҳоратининг турли қирралари акс этган. Ҳар учала ҳикояда қаҳрамон фожеасининг акс эттирилиши ҳикояларни бир туркум остига жамлаган эса-да, бу фожеалар турли шакллар ва воситаларда намоён бўлади.

"Ёғоч кавуш" ҳикояси муаллиф тилидан ҳикоя этилади. Ундаги воқеалар Қадимги Хитойда бундан бир минг уч юз йил аввал содир бўлган дейилсада, тасвирланган воқеа, қаҳрамонлар ҳолати ва кечинмалари барча даврларга бирдек дахлдор. Унда бир қашшоқ деҳқон - отанинг фарзандига муҳаббати, унга бахт яратишда ожизлиги ёритилган. Муаллиф ҳикоя бошиданоқ ўқувчи билан мулоқотга киришади, унга ҳикоя ҳақидаги ўз фикрини билдиради: "Бу - ҳаёт шафқатсизлиги ҳамда меҳрибон ота ҳақидаги ҳузунли бир ҳикоядир"[2,220]. Шундан сўнг қаҳрамоннинг портрети чизилади. Муаллиф унинг ташқи қиёфасини тасвирлайди, қаҳрамон ҳаракатлари орқали эса унинг аянчли ва оғир турмуши кўринади. Муаллифнинг қаҳрамон портретини яратишдаги маҳорати диққатга сазовор. У деталлар орқали қаҳрамон ҳолатини тасвирлашга ҳаракат қилган. Ҳикоя қаҳрамони Хуан-Шининг оёқяланг юриши, овқатни хёнг деб аталган бутанинг баргида ейиши кабиларда қаҳрамон турмушининг нақадар оғирлигига ишора этилади.

Тушкун кайфиятда бошланган ҳикояда секин-аста кайфият ўзгара бошлайди, қаҳрамон ҳаёти фақат қора ранглардан иборат эмас, унинг турмушига мазмун ва ёруғлик бахш этувчи бир жиҳат бор. Бу унинг қизи. Бироқ, Хуан-Ши қизининг тақдири ҳақида ўйлар экан, ҳикоядаги туйғу яна қуюқлашиб, бахтсизлик ортиб боради. Энди қаҳрамон китобхон кўз олдида нафақат моддий жиҳатдан аянчли, балки маънавий дунёсининг ҳам тубанлишиб боради. Қизининг ўзи каби қашшоқ яшашини истамаган Хуан-Ши уни шоличи бойга хотинликка беришни кўзлайди. Унингча, хотинлари кўп, семиз, кўзларини ёғ босиб кетган бойнинг хотини бўлиш шолипояда меҳнат қилиб кун кўришдан афзалроқ эди. Унинг бу нияти қанчалик тубанлик бўлса, уни амалга ошириш режаси бунданда оғирроқ. Бойга кичкина, оёқлари ҳам кичкина қизлар ёқади деб эшитгач, қизининг оёқларига ёғоч кавуш кийдириб қўяди. Қизининг азобидан ўзи ҳам оғринсада, қизининг тақдирини бошқа тарзда ўзгартиришга имконсиз ота ёғоч ковуш билан қизини ўн уч ёшга етказади. Бу қизининг азоблардан қутулиш, бойга узатиш палласи эди. Қадимги Хитойда аёллар оёғининг кичик бўлиши улар гўзаллигининг белгиси ҳисобланганлиги, бунинг учун улар ёшлигидан ёғоч кавуш кийиб юрганлиги кўпчиликка маълум, ҳикояда бу деталнинг бир бечора қиз ҳаётида қўлланилиши асар таъсир доирасини ниҳоятда кенгайтириш баробарида китобхонни мақсадга эришиш учун танланадиган йўл, унинг қай даражада тўғрилиги ҳақида фикрлашга ундайди.

Муаллиф бойни Шолибой дея номлаган. Бу унинг шоличи бойлигини билдириши кўриниб турибди, И.Султон бу билан Шолибой ночор халққа зулм ўтказиб, уларни эрта-кеч тинимсиз меҳнатга мажбурлаган золим, ҳукмрон табақаларнинг умумий образи эканлигига ишора қилади. Муаллиф унинг портретини яратар экан, асосан, уни ҳарактлари ёки бошқа персонажлар билан муносабати орқали очиб беради. "Гавдасини кўтаролмагани учун уни аравада олиб юришар...", "Шолибой бир амаллаб тахтидан тушиб, алпанг-талпанг қадам ташлаб улар олдидан ўта бошлади...", "Шолибой тўхтаб, у тарафга ўгирилди. Шунда Хуан-Ши унинг бўйни бурилмаслигини, балки бугун гавдаси билан ўгирилишини пайқади..."[2,224]. И.Султон ушбу қаҳрамонни тасвирлар экан, уни реал ва табиий гавдалантиради. Қаҳрамонни қандай бўлса шундайлигича кўрсатишга интилади,

у муаллиф сифатида қаҳрамон характерига муносабат билдирмайди. Хуан-Ши билан бойнинг суҳбатида Шолибой қанчалик жирканч ва ёқимсиз бўлса-да, унинг олий табақа вакилларига хос бўлган қирралари кўринади. Ниҳоят, бой қизни қабул қилмади. Бир қараганда китобхон учун бу ижобий якун, ахир қари, семиз, бесўнақай, кўпхотинли бой қашшоқ бўлсада, ўн уч ёшли, софдил ва беғубор қизалоқнинг тенги бўла олмайди. Бироқ бу гапни эшитгач ҳаётнинг шафқатсизлигига дош беролмаган Хуан-Шининг аҳволи, маънавий қиёфаси тобора ожизланиб боради. Унинг учун бу фожеа эди. Қизини бойга бера олмаган, унинг ҳаётини озгина бўлсада яхшилай олмагани, бечора қизчанинг чеккан азоблари бесамар кетгани...буларнинг барчаси бирлашиб Хуан-Шини таслим қилди. Воқеалар ривожи шу ерда ниҳоясига етади. Ҳикояда эпилог тарзида қизнинг кейинги ҳаёти ҳам қисқача ёритилган. Унинг учун отасидан қолган ягона ёдгорлик - ёғоч кавушлар барча нарсадан азиз бўлиб қолади. Чунки болалик беғубор хотираларида у қизини ҳаммадан гўзал бўлишини хохлаган отасининг меҳрибонлиги рамзи эди.

Ҳикояда қаҳрамоннинг маънавий қиёфаси ва ижтимоий аҳволини боғлиқликда ёритиш буюк рус адиби Чехов ва ўзбек ҳикоянавислигининг забардаст вакили Абдулла Қаҳҳор услубини ёдга солади. Муаллиф ҳикоя орқали инсон қанчалар аянчли аҳволда яшаса ҳам инсонийлигини йўқотмаслиги лозимлиги, маънавий ожизлик барча фожиаларнинг асоси эканлигини кўрсата олган.

"Қайдасан, жаннат" туркумига киритилган кейинги ҳикоя "Тошкелинчак" ҳикояси бўлиб, у асар қаҳрамонларининг бири тилидан ҳикоя қилинади. Ҳикоячи бевосита барча воқеаларнинг гувоҳи ва хулосаловчиси ҳисобланиб муаллиф воқеаларга аралашмайди, муносабат билдирмайди. Юқоридаги ҳикояда қаҳрамоннинг ҳам ижтимоий ҳам маънавий ожизлигини кўрган бўлсак, бу ҳикояда аксинча, ҳикоя қаҳрамонининг муҳаббат туфайли тобора маънавий оламининг юксалиб боришини гувоҳи бўламиз.

Ҳикоя қаҳрамон Назарнинг портрети билан бошланади. Ҳикоячи ўз тенгдошлари билан солиштириш асносида унинг характерини очиб беради. "У жўрабошимиз бўлиб, ҳаммамиз нима деса итоат қилардик. Чунки ақлда ҳам, кучда ҳам бир поғона баланд турардида. Бизлар чиқолмайдиган дарахтлар устига бирпасда ўрлаб кетарди, баланд шохлари орасида кўринмай, ахийри қуш полапонини ёки тухумни олиб тушарди"[2,227]. Назар қанчалик безори бўлса-да, ота-онаси билан муносабати бошқа болаларга ўрнак қилиб кўрсатилади. Барча ишда олдинда бўлган қаҳрамонга тенгдош йигитлар ҳавас қилар эдилар. Ҳикояда кутилмаганда қаҳрамоннинг ҳаракатлари ҳам ички дунёси ҳам ўзгариб қолиши дастлаб китобхонга нотабиийдек туюлади. Унинг ўзгариши ҳам бошқалар билан муносабатида ва қишлоқдошлари тилидан баён қилинади. Қаҳрамон нутқи орқали руҳиятидаги эврилишлар очиб берилади. Ҳикояда Ишқ туфайли қаҳрамоннинг ўзгариб қолиши, жунунсифат, одамлардан яккаланиши, Уммугулсум оиласининг Назар хонадонидан нисбатан тўқроқ эканлиги, қишлоқ аҳлининг унга муносабати ва севгилисининг ити билан боғлиқ манзаралар, умуман олганда ошиқлик ҳолати "Лайли ва Мажнун" достонини ёдга солади. Ишқ изтироблари, асосан, Назарда кечади. Уммугулсумнинг ҳам унда кўнгли бўлса-да, бу Назардаги каби ёлқинланмайди. Хусусан, Назарнинг "Ахир, мен сен билан битта бўлиб қолганманку, қандай қилиб кетай...", "...ичим сен билан лиммо-лим тўлган-ку" каби жумлаларнинг Мажнун сўзларига ҳамоҳанглиги яққол сезилади. Шунингдек, ҳикояда мумтоз адабиёт ва халқ достонларига хос яна бир хусусият кўзга ташланади. Бу қаҳрамон ҳолатига мос лирик парчаларнинг келтирилиши. Шеърий парчалар Уммугулсумнинг тўйи муносабати билан киритилган бўлса-да, улар барчаси олисдаги ошиқ Назарнинг ҳолати, ишқ изтиробларини акс эттиради. Исажон Султон ҳикояларида халқ оғзики ижодидан унумли фойдаланилади. Турли ривоят ва афсоналарга мурожаат этилади. Бу ҳикояда ҳам ўз севгилисига ета олмай тошга айланиб қолган келинчак номи билан боғлиқ Тошкелинчак деб аталадиган қаровсиз жой тилга олинади. Бу жой ҳам ошиқ ҳолатини янада кенгроқ ёритишга йўналтирилади. Уммугулсумнинг вафоти Назарни чинакам Мажнунга, афсонага айлантиради. Ҳикояда Назар ва Уммугулсум муҳаббатининг фожеавий якунлашининг сабабларидан бири авом халқ деб кўрсатилгандек. Хикояни шартли икки қисмга бўлиш мумкин. Биринчиси Уммугулсумнинг тўйигача бўлган воқеалар, иккинчиси тўйдан кейинги жараёнлар. Бутун қишлоқ то тўйга қадар уларнинг муҳаббатига қаршилик қилган бўлсалар, тўйдан сўнг аёллар "Ҳаҳ қизгина-я, ота-онангни гапларига қарамасдан, шу Назарга тегиб қўяқолсанг, осмон узилиб, ерга тушармиди..." каби гапларни айтадилар. Ҳикоянинг якуни ва хулосаси ҳам ўзига хос бўлиб, ҳикоячининг китобхонга мурожаати билан тугайди.

Туркумга кирувчи "Шамолли кеча" ҳикоясида фольклор мотивларидан фойдаланиш ва пейзаж яратиш маҳорати диққатни тортади. Халқ эртакларида кўп учрайдиган ўгай она ва эзилган фарзандлар мотиви асосида яратилган ушбу ҳикоя жуда таъсирчан. Урушиб сўкмаса-да, ҳадеб зорланиб нолийверадиган ўгай она сабаб бувисиникига отланган ака-сингилнинг болалик хаёллари, қўрқувлари, эшитган эртак ва ривоятлари таъсирида шамолли кечада тўқайдан ўтиш даҳшатлари ҳаётий

тасвирланган. Ҳикояда яратилган пейзажнинг ишончли ва таъсирли эканлигининг яна бир сабаби муаллифнинг болалик хотираларидир. У ўзи туғилиб ўсган Фарғонанинг Риштон туманидаги қишлоқларидан бирида бу каби шамолли кечаларнинг кўп бор гувоҳи бўлган, ҳикоядаги ака-сингил каби унинг кўнглида ҳам турли қўрқинчлар кечганлиги, шубҳасиз. Ҳикоядаги жонли тасвир орқали китобхон ҳам ака-сингил билан қадамба-қадам одимлайди, уларнинг бувисиникига эсон-омон етиб боришини кутади. Бироқ сингилнинг ярим йўлда қолиб кетганини англагач яна даҳшатли тўқайга қайтади. Ака билан уни излашга тутинади.

Хулоса қилиб айтганда, Исажон Султоннинг "Қайдасан, жаннат" туркум ҳикоялари муаллифнинг энг сара ҳикояларидан бўлиб, уларда ҳикоячилигимизда эришилган кўплаб ютуқлар давом эттирилган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш.Тошкент-2008.
2. Исажон Султон. Боғи Эрам.Тошкент-2015

БЛОГЕРСТВО КАК СРЕДСТВО САМОВЫРАЖЕНИЯ

Ибрагимова Нагина
Преподаватель Университета журналистики
и массовых коммуникаций Узбекистана
Телефон: (90)9870349
naginamaratovna@mail.ru

Аннотация. Рассмотрено влияние средств массовой коммуникации на становление личности молодого человека на примере блогерство как средства его самовыражения в условиях глобально развертывающейся искусственной среды. Показано как позитивное, так и негативное влияние этой деятельности на процесс личностного самоутверждения. Дано теоретическое обоснование гармонии между отличаемыми крайностями.

Ключевые слова: молодой человек, социализация, блог, блогосфера, виртуальная реальность, средства массовой коммуникации, самореализация, модель общества, ноосфера.

Каждое практическое словосочетание есть отражение мировоззрения и позиции автора, и не просто взгляда, а именно сложного и комплексного понимания им окружающего мира, его личностного мировоззрения. Важно отметить и то, что язык - это не только художественное сообщение, но и эстетическое обобщение действительности.

При выражении автором своей мысли в языке происходит своеобразная творческая эволюция, которая реализуется по цепочке: событие - авторская рефлексия на него - язык и стиль рефлексии (т.е. произведения) - восприятие этой рефлексии массовой аудиторией. Язык и стиль - это коммуникационные категории, которые стоят между автором и аудиторией. Это выражение автора, отражающее его личность, но в то же время адресованное аудитории, настроенное на нее.

Можно высказать следующую гипотезу - междуклассическим и современным языками медиа есть огромная разница, которая обусловлена особенностями нынешнего этапа развития человеческого сообщества. Скажем более точно - классическим мы называем язык медиа до интернета, телеграмм, инстаграм и другие каналы массовой информации, т.е. тот язык печати, радио и телевидения, к которому мы привыкли. Можно сказать более точно - современный язык медиа есть язык индустриального периода, который длился приблизительно два с половиной века. Конечно, он не был одинаков на всем протяжении этого времени. Но тем не менее он имел какую-то стабильность, характерную для перечисленных видов медиа. А сейчас набирает силу и становится господствующим язык информационной эпохи, который заметно трансформируется относительно предшествующего ему языка.

Относительно таких важный теоретических категорий, как язык, поэтика и жанровость языка современных медиа мы можем привести следующую обобщающую мысль. Информационный век коренным образом меняет все - общение людей как истоки их сознания и мировоззрения, создаваемые художественные и публицистические произведения, их восприятие аудиторией и т. д. Он повлиял на ряд элементов поэтики произведения, которые в итоге преобразовались под влиянием нового времени.

В то же время известно, что у журналистских произведений нет такой теории поэтики, как у литературоведения, поэтому анализ изменений журналистских произведений с данной точки зрения весьма затруднен. В связи с этим специалисты, как правило, не говорят о поэтике журналистских произведений, тем более они не говорят о поэтике блогерских произведений. Но если бы такой разговор состоялся, то можно было бы отметить, что в информационное время поэтика журналистских произведений в условиях блогерства заметно изменилась бы, а точнее, какие-то её части изменились бы меньше, а какие-то больше, например, жанры произведений.

В данном плане было бы важно обратить внимание на следующее характерное замечание профессора Кубанского государственного университета Г.М.Соловьева: "Говоря же об аспектах языкового вкуса и речевого поведения в рамках медиатекста, надо отметить, что в настоящее время они отражают те изменения в языке массовой коммуникации, которые традиционно оценивались как отклонения и ошибки. Так, на наш взгляд, при отображении факта в современном медиатексте □ все более очевидна экспансия таких языковых форм как жаргон и просторечие" (3, 114). Такое разрушение произошло во многих группах языка и превратилось чуть ли не в свою противоположность, а

говоря точнее, во вседозволенность. Происходит организация новых языковых соотношений и связей: 1) между блогером и событием; 2) между событием и произведением; 3) между произведением и аудиторией; 4) между формой и содержанием произведения.

Таким образом, феномен адаптации языка и стиля переживает три этапа: 1) адаптация внутри автора; 2) адаптация, содержащаяся в изложенном тексте; 3) адаптация аудитории к тексту (эта адаптация исходит из требований аудитории). Каждая адаптация имеет свои закономерности и состоит из своих внутренних этапов.

ЛИТЕРАТУРА

1. Гришанина А.Н. Сетевые СМИ: возможности творческого мышления // Журналистская профессия в системе цивилизации и культуры в информационном постиндустриальном обществе: мат. межд. научно-практич. конф. 19-20 ноября 1012 г. Под ред. М.Г.Боровик, Г.С.Мельник. СПб: СПб институт гуманитарного образования. ООО "Книжный Дом", 2012. Статья с.196-198, цитата С.196.

2. Чимаров С.Ю. Новые медиа в современной массовой коммуникации // Журналистская профессия в системе цивилизации и культуры в информационном постиндустриальном обществе: материалы международной научно-практической конференции 19-20 ноября 2012. Под редакцией М.Г.Боровик, Г.С.Темник. СПб СПб институт гуманитарного образования. ООО "Книжный Дом", 2012. 264с. Статья с.83-85. Цитата С.84

3. Соловьев Г.М. "Информационно-психологическое воздействие жаргона и просторечия в рамках современного медиатекста // СМИ в современном мире. Петербургские чтения. Материалы 50-й международной научной конференции. Ответственный редактор С.Т.Корконосенко СПб, филологический факультет СПбГУ, 2011, 257с., статья с.113-115, цитата С.114:

РОЛЬ ВНЕКЛАССНЫХ МЕРОПРИЯТИЙ ПО РУССКОМУ ЯЗЫКУ И ЛИТЕРАТУРЕ

Исаева Гулчехра
учительница средней школы №10 г. Чирчика
Телефон:+998949437846

Ключевые слова: внеклассная работа, учебно-воспитательный процесс, формы, методы и приемы внеклассной работы.

Аннотация: В данной статьи освещается методика проведения внеклассных мероприятий по русскому языку и литературе в национальной школе.

Будущее настоятельно требует от нас "повернуть школу к личности" в корне изменить стратегию народного образования, а значит - и существующую теорию обучения, которая должна быть нацелена на формирование активной, сильной личности, способной смело разработать стратегию поведения, осуществлять нравственный выбор и нести за него ответственность, т.е. личность саморазвивающуюся и само реализующуюся.

Необходимо отметить, что развитие познавательного интереса является задачей, которая должна быть первостепенной на протяжении всего обучения в школе. Правильно организованная внеклассная работа в национальных школах способствует пробуждению у учащихся интереса к русскому языку, воспитывает у них любознательность, зоркость к фактам и явлениям языка, помогает повысить речевую культуру школьников.

Внеклассная работа- это не дополнительные занятия, не работа с отстающими учениками, не консультации, проводимые во внеурочное время с целью ликвидации пробелов в знаниях учащихся. На внеклассных занятиях учащиеся получают в интересной и занимательной форме новые сведения о языке, о закономерностях его грамматического строя, упражняются в совершенствовании навыков русской речи. Внеклассная работа позволяет соединить познавательной и занимательной и овладеть прочными знаниями, а предпосылкой этого является интерес. Стойкий познавательный интерес формируется при сочетании эмоционального и рационального обучения. Поэтому включение внеклассных мероприятий делает процесс обучения интересным, способствуют преодолению трудностей в освоении материала.

Ученик должен идти в класс с охотой, с желанием работать весь урок. Без этого невозможно получение знаний. И для нас, словесников, естественно стремление искать (и находить) новые эффективные приемы и средства обучения с тем, чтобы повысить грамотность учащихся, более успешно решать образовательные и воспитательные задачи. В этом помогает, конечно же, внеклассная работа, которая является неотъемлемой частью всей учебно-воспитательной работы школы. Продолжая и подкрепляя классные занятия, она в то же время отражает присущую только ей специфику в содержании, организационных формах, методах и приемах реализации стоящих перед нею задач.

Внеклассная работа строится на добровольных началах при равном праве участвовать в ней как хорошо знающих предмет учащихся, так и слабо обучающихся. Особую активность приобретает индивидуальный подход к детям: учет их интересов и запросов, опора на их инициативу и самостоятельность, стимулирование любознательности и познавательной активности. Каждое предложение, замечание, пожелание учащихся выслушивается, обсуждается, принимается к сведению и действию.

Связь внеклассной деятельности с работой в классе заключается в том, что знания, полученные учащимися на уроках русского языка и литературы, являются базой для внеклассного общения. Система внеклассных занятий складывается в соответствии с системой занятий на уроках. На них учащиеся вырабатывают идейные, нравственные и эстетические взгляды, нормы, концепции, делают выводы, сопоставляют и обобщают факты.

Определяя содержание внеклассных занятий нельзя не учитывать, что именно интересует учащихся, какие проблемы привлекают их, прежде всего.

С помощью опроса изучаются интересы детей. По направленности интересов можно выделить три группы:

1. Интересы направлены на изучение языковых явлений и русской литературы (дети желают расширить свои представления о жизни и творчестве писателей, времени создания произведений и

т.д.);

2. Одаренные дети (их объединило научно-творческое общество);
3. Творческие личности, пробующие себя в журналистике, поэзии и прозе.

В заключении необходимо отметить, что образовательные и воспитательные задачи внеклассной работы по русскому языку и литературе в национальной школе достигается соблюдением специфических принципов организации внеклассной работы, соответствием содержания внеклассной работы интересам учащихся и их языковой подготовленности.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Пути развития у школьников 5-8 классов интереса к урокам русского языка/ М.Б.Баранов - М: Просвещение, 1965.
2. Виды внеклассной работы по русскому языку/ Сост. М. М. Морозова -М.: - Просвещение, 1968.
3. Внеклассная и внешкольная работа по русскому языку и литературе в национальной школе/ Подред.К.В.Мальцевой, М.Н.Борисовой,- М.: Просвещение, 1982.
4. Воспитание творческого читателя: Проблемы внеклассной и внешкольной работы по литературе /Под ред. С.В. Михалкова, Т.Д. Полозовой. - М., 1981.
5. Методика преподавания русского языка в национальной школе: Учеб. Пособие/ JI.3.Шакирова, Л.Г.Саяхова и др.:- JL: Просвещение, 1990.
6. Педагогическое содержание и лингводидактический характер внеклассной работы по русскому языку в нерусской школе/ Н.М .Шанский//Русский язык за рубежом - 2002- № 2- С. 66-68 .

"ДВУХЧАСТНЫЙ ДНЕВНИК" ПРИЕМ ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ КАК ОДИН ИЗ СОВРЕМЕННЫХ ИННОВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ В МЕТОДИКЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ЛИТЕРАТУРНОГО ЧТЕНИЯ

Исакжанова Зульхумор Аббасовна
Учитель русского языка и литературы
средней школы № 3 Уйчинского района
Наманганской области
тел:+998939428084

Аннотация: в данной статье рассматриваются вопросы использования современных инновационных технологий на уроках русского языка и литературы. Также рассматриваются вопросы формирования основных компетенций при изучении русской литературы.

Ключевые понятия: креативность, компетенция, инновация, интерактивный метод, технология, компетентностный подход.

Критическое мышление - это способность анализировать информацию с позиции логики, способность ставить новые вопросы, вырабатывать разнообразные аргументы, принимать независимые, продуманные решения. Критическое мышление - отправная точка для развития творческого мышления, синтеза, анализа, доказательств и обобщения.

Одним из приемов технологии развития критического мышления является "Двухчастный дневник" - одна из наиболее удобных и эффективных форм осмысления прочитанного текста.

Современный школьник должен получить не только знания, но и умение применять их на практике, ориентироваться в нестандартных условиях. На уроках литературы обучающийся должен уметь работать с текстом, а для этого необходимы творческий подход к решению проблем, умение задавать вопросы, обобщать, интегрировать информацию. Но, к сожалению, у учащихся мотивация к предмету снижена, что приводит к поверхностному, формальному чтению. Таким образом, возникает проблема: современное образование требует развития информационной компетенции, а у большинства школьников культура работы с текстом низкая. В чем причина этого? Как повысить познавательный интерес учащихся к литературе?

Современного ученика чрезвычайно трудно мотивировать к познавательной деятельности, к поиску пути к цели в поле информации и коммуникации. Происходит это потому, что дети часто испытывают серьёзные затруднения в восприятии учебного материала по всем школьным предметам. Причина этого - в недостаточно высоком уровне развития мышления и, прежде всего, критического. А это очень важно для человека в современном мире, который входит в новый век с новым обликом познавательной культуры, для которой "человек репродуцирующий" - понятие, в сущности, устаревшее и неинтересное. Кроме воспроизводящей деятельности существует и другой род деятельности, именно деятельность комбинирующая или творческая.

На сегодня существует больше ста стратегий критического мышления, и учителя каждый год придумывают все новые и новые методы обучения, делятся опытом друг с другом на семинарах и международных конференциях по критическому мышлению.

Одной из форм такой работы является двухчастный дневник.

Двухчастный дневник - педагогический прием, развивающий письменную речь. Дает возможность исследовать текст, письменно выразить свое понимание прочитанного. Предлагаем текст для прочтения. После ознакомления с текстом, просим разделить тетрадный лист вертикальной чертой на две части. В левой части дневника записывают те моменты из текста, которые произвели на них наибольшее впечатление, вызвали какие-то воспоминания, ассоциации с эпизодами из их собственной жизни, озадачили их, вызвали протест или, наоборот, восторг, удивление.

Что мне известно по данной теме?	Что нового я узнал из текста?

Проводя подобную работу, учитель вместе с учениками старается продемонстрировать все процессы зримо, чтобы потом ученики могли этим пользоваться.

Вот пример такой работы на уроке по роману М.Ю.Лермонтова "Герой нашего времени":

Фразы из текста, которые произвели наибольшее впечатление (согласие, протест или непонимание)	Комментарий. Что заставило меня сомневаться? Почему? Какие мысли и ассоциации у меня возникли?
Я как безумный выскочил на крыльцо, прыгнул на своего Черкеса	Я согласен с тем, что Печорин называет себя безумным, ведь такое поведение несвойственно герою.
Я молился, проклинал, плакал, смеялся… нет, ничто не выразит моего беспокойства, отчаяния!..	Я сомневаюсь, разве Печорин может испытывать такие чувства?
При возможности потерять ее навеки Вера стала для меня дороже всего на свете – дороже жизни, чести, счастья! Бог знает какие странные, какие бешеные замыслы роились в голове моей	Не понимаю, почему он боится потерять Веру?
я упал на мокрую траву и как ребенок заплакал.	Почему Печорин заплакал как ребенок?

Список использованной литературы:

1. Бермус А.Г. Проблемы и перспективы реализации компетентностного подхода в образовании. / / РГПУ. - Ростов на Дону, 2007.
2. Загашев И.О., Заир-Бек С.И. Критическое мышление: технология развития. - СПб: Издательство "Альянс "Дельта", 2003. - 284с.
3. Зимняя И.А. Ключевые компетенции - новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. - № 5. - 2003.- с. 22-27.

ГРАДУОНИМИЯНИНГ ЛЕКСЕМА ВА ФРАЗЕМАЛАР СИНОНИМИК ПАРАДИГМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШИ

Азамжон Ихтиёров,
Фарғона Давлат Университети,
II курс магистранти
Телефон: +998905500277
ziyayevlazizxon007@gmail.com

Аннотация

Ушбу мақолада нафақат фразема ва фразема, балки лексема билан фраземаларнинг синонимик парадигмаларни шакллантира олиши, бунда лексема маънони меъёрда, фразема эса муайян образ орқали кучли, ёрқин ифодалаши хусусида фикр юритилади.

Таянч сўз ва иборалар: фразема, лексема, меъёр, миқдор ўзгариши, сифат ўзгариши, синонимия.

Маълумки, миқдор ўзгаришларининг сифат ўзгаришларига ўтиши - диалектиканинг муҳим қонунларидан бири бўлиб, унга кўра, ривожланиш мураккаб жараён, тараққиётда аввал миқдор, сўнгра сифат ўзгариши содир бўлади. Борлиқдаги нарса-ҳодисаларнинг ривожланиши дастлаб, миқдор ўзгаришидан бошланади [2; 51]. Миқдор ўзгариши маълум бир меъёр чегарасига етгач, сифат ўзгариши рўй беради. Масалан, сувни 0 даражагача совутсак, муз ҳолати, юз даражада қиздирсак буғ ҳолатига келиши ёки кундуз куни ёруғлик камайиб бориб маълум меъёрга етганида кеч бошланади яъни янги сифатни келтириб чиқаради. Ушбу қонун бизга тилнинг ривожланиш жараёнини тўғри тушуниш, тил ва нутқ ҳодисаларини тўғри англаш имконини беради.

О.Бозоров градуонимия ҳодисасини тил қонуни мақомида эканлигини тўғри таъкидлайди. Унинг фикрича, градация ёки даражаланиш нарса-ҳодисалардаги миқдор ўзгаришларининг тадрижий ўзгариши, аста-секин шакл (бир нарсанинг турли шакллари, ҳолатлари) ёки янги сифат (бошқа предмет) касб этилишининг онгда (тафаккурда) инъикос этилиши ва шу асосда тил қонунига айланишидир [1; 28]. Тилдаги градация қонуни амалиёти натижасида тил механизми ёки лисоний бирликлар ва уларнинг парадигмалари шаклланади. Тилдаги градация қонунининг мазмунини тушуниш учун фалсафий нарса (предмет), белги, хусусият, меъёр, миқдор, миқдорий ўзгариш ҳодисаларини ва уларнинг ўзаро муносабатини диалектик мантиқ нуқтаи назаридан англамоқ зарур.

Градуонимик қаторда белгининг ошиб ёки камайиб боришида миқдор ўзгаришларининг сифат ўзгаришларига ўтиши қонуни амал қилса, градуонимик занжирнинг икки чекка учи маълум бир белгининг тасдиғи билан бирга, бир-бирини инкор этишида инкорни инкор қонуни намоён бўлади ҳамда бир-бирини инкор этувчи (антонимик муносабатда турган) лексемаларнинг бир етакчи лексема (доминанта) атрофида бирлашиб, бир луғавий маъновий қаторни - парадигмани ташкил этишда қарама-қаршилик-лар бирлиги ва кураши қонуни воқеланади [3; 172].

Синонимик муносабат нафақат фразема ва фразема, балки лексема билан фразема орасида ҳам бўлиши мумкин. Бунда лексема маънони меъёрда, фразема эса муайян образ орқали кучли, ёрқин ифодалайди. Лексема ва фразема орасидаги синонимик муносабат сифат, равиш ва феъл туркумларида учрайди. Ҳар бир туркумдаги синонимик муносабат муайян семантик кўламга (гуруҳга) мансуб бўлади. Қуйида лексема - фраземали синонимияни шу нуқтаи назардан тавсифлаймиз.

Шахснинг кайфияти, сезгирлик ҳолатини ифодаловчи лексема ва фраземалар орасида градуонимия асосида синонимиянинг шаклланиши: хурсанд - оғзи қулоғида - ўз терисига сиғмай кетмоқ - ўзини еттинчи осмонда ҳис қилмоқ [4; 248]; (хурсанд, хушвақт, шод, хуррам, хушнуд, масрур, сарафроз, [4; 216] хафа - юрагига қил сиғмайди [4; 268]; ҳушёр - ер тагида илон қимирласа биладиган, хомуш - қовоғидан қор ёғади [4; 252].

Кишининг руҳий ҳолатлари, феъл-атвори, инсонийлик (одамийлик) даражаси, меҳнатга муносабати кабиларни ифодаловчи лексема-фраземаларнинг градуонимия асосида синонимия ҳосил қилиши: мўътадил (нейтрал) ва ижобий бўёқ (коннотация) билан: мард - юрагида ёли бор [4; 268]; уддабурон - юлдузни бенарвон урадиган [4; 287]; сахий - қўли очиқ [4; 301]; шўх - ерга урса кўкка сакрайди [4; 81]; ювош - қўй оғзидан чўп олмаган [4; 295]; салбий бўёқ (қўшимча маъно билан): хасис - қишда қор сўраса ҳам бермайдиган [4; 252]; муғомбир - илонни ёғини ялаган [4; 113]; эпашанг - тепса тебранмас [4; 295]; анқов - оғзинг қани деса қулоғини кўрсатадиган [4; 200]; қўрқоқ - қуён юрак [4; 304]; бўшанг - оғзидан ошини олдирадиган [4; 190]; ландовур (ҳеч бир ишни уддалай олмайдиган) - аммамнинг бузоғи [4; 26]; Лапашанг, лаванд (лаванг), эпашанг,

бўшанг, ландовур, ношуд, сўтак, бўш-баёв, латта [4; 133].

Эстетик баҳо ифодаловчи лексема-фразема муносабатида кучли - кучсизлик асосида синонимликнинг шаклланиши: чиройли - бир қошиқ сув билан ютиб қўядиган [4; 44]; истарали - истараси иссиқ, юлдузи иссиқ [4; 115]. Жисмоний ҳолат ифодаловчи лексема-фразема семантикасида градуонимия орқали синонимиянинг вужудга келиши: озғин - эти суягига ёпишган [4; 262]; камқувват - бурнидан тортса йиқиладиган, бурнига чертса йиқиладиган (58 - бет); бақувват - тоғни талқон қиладиган [4; 236].

Ҳаётни яхши билмаслик, фаолият малакасига эга эмасликни англатувчи семантикада кучайтириш орқали лексик-фраземик синонимиянинг ҳосил бўлиши: тажрабасиз - она сути оғзидан кетмаган [4; 201].

Кишиларнинг ижтимоий табиати, ҳамкорлигини ифодаловчи: иноқ - ораларидан қил ўтмайди [4; 193] ; аҳил - апоқ - чапоқ [4; 28].

Ақлий ҳолат ва ақл билан амалга оширадиган ҳолатни ифодаловчи лексема, фраземаларда градуонимия билан синонимия ҳосил қилиши: тентак - мияси айниган [4; 181] ; осон - хамирдан қил суғургандай [4; 247].

Дуч келиш, учратиш ҳолатини ифодаловчи лексема+фраземаларнинг кучли-кучсизлик асосида синонимия ҳосил қилиши: камёб - анқонинг уруғи [4; 27]. Пайт белгисини ифодаловчи лексема, фраземада интенсификация/-деинтенсификация орқали синонимия ташкил этилиши: қадимий - дақёнусдан қолган, алмисоқдан қолган [4; 28].

Юқорида феъл кесимли гап шаклидаги фраземалар семантикаси асосидаги синонимияни кучли-кучсизлик белгиси нуқтаи назаридан алоҳида тавсифлаган эдик. Энди сўз бирикмаси шаклидаги таянч сўзи феълдан иборат бўлган фраземаларга эътибор қаратамиз. Ҳоким қисми феълдан иборат бўлган фраземалар, асосан, мураккаб тушунчага эга бўлган ва шу асосда фразеологик маъно шаклланган. Тўғри, кўп ҳолатларда феъл кесим кенгайиб кетса, гарчи эга мавжуд бўлмаса ҳам, бу типдаги конструкциялар гап шаклга яқинлашиб, ўхшаб қолади. Зеро содда гап турлари ичида бир бош бўлакли, тўлиқсиз каби эга иштирок этмаган турлар ҳам мавжуд. Хуллас, гап шакл ва сўз бирикмаси шаклидаги фраземалар мазмуни ўзининг салмоғи, образ миқдорига кўра фарқ қилади. Қуйида сўз бирикмаси шаклидаги фраземаларнинг градуонимия асосида синонимик парадигмалар ҳосил қилишини уларнинг семантик кўлами (турлари) мисолида кўриб чиқамиз.

Улар ижобий ва салбий коннотацияга эга бўлиши мумкин. Киши руҳий ҳолатини ифодаловчи лексема ва фраземалар семантикасининг градуонимия орқали синонимия ҳосил қилиши: хурсанд бўлмоқ - дўпписини осмонга отмоқ [4; 77]; хурсанд бўлмоқ - кўнгли тоғдай кўтарилмоқ [4; 152]; ёқтириб қолмоқ - юрагидан урмоқ [4; 269]; севинмоқ - оғзининг таноби қочди - оғзи қулоғига етди - боши кўкка етди [4; 203]; суюнмоқ - елкасидан тоғ қуламоқ [4; 78]. Шунингдек, психик ҳолатнинг кучсизланиши ва психик ҳолатга кучсиз даражада эга бўлмоқ семантика-ларида: тинчланмоқ - ўпкасини босиб олмоқ [4; 284]; мизғимоқ - кўзи илинмоқ [4; 136].

Салбий баҳо бўёқли руҳий ҳолат, жараён ифодаловчи лексема, фраземаларнинг кучли-кучсизлик асосида синонимия ҳосил қилиши: уялтириб қўймоқ - юзини ерга қаратмоқ - уят-номусдан бош кўтара олмай диган бўлиб қолмоқ [4; 264]; сиқилиб кетмоқ - юраги қон бўлди - юрак бағри хун бўлди (276 - бет); куйинмоқ - ичи ачимоқ - раҳми келмоқ [4; 116]; қўрқиб кетмоқ - кайфи учмоқ - капалаги учмоқ [4; 124]; ранжимоқ - кўнгли қолмоқ [4; 172].

Кишига ижобий баҳо бериш, номақбул ҳаракати учун чора кўриш ҳаракатларини ифодаловчи лексема, фразема семантикаларидаги градуонимия орқали синонимик қаторларнинг вужудга келиши: мақтамоқ - кўкка кўтармоқ - кўкларга кўтармоқ [4; 151]; жазоламоқ - терисига сомон тиқмоқ [4; 227]; жазоламоқ - бурнини ерга ишқамоқ [4; 57]; жазоламоқ - онасини учқўрғондан кўрсатмоқ [4; 192]. Шунингдек, турли семантик тур (гуруҳ) ларга кирувчи: ҳайдаб юбормоқ - думини тугиб юбормоқ [4; 71]; танқид қилмоқ - пўстагини қоқмоқ [4; 209]; тузалмоқ - ёстиқдан бош кўтармоқ [4; 89]; лақиллатмоқ - қўйнини пуч ёнғоққа тўлдирмоқ [4; 209]; енгмоқ - бир чўқишда қочирмоқ [4; 44]. Лексема, фраземалардаги синонимик муносабат ҳам улардаги кучли-кучсизлик коннотацияси асосида шаклланган.

Градуонимия асосида шаклланган лексема - фразема синонимлар равиш сўз туркумида ҳам учрайди. Иш-ҳаракатнинг ҳолатини билдирувчи лексема, фразема семантикасида кучайтириш маъноси синонимик қаторни вужудга келтиради: қўққисдан - томдан тараша тушгандай [4; 235]; зимдан - енг ичида [4; 70]; тез - оёғи олти, қўли етти [4; 188].

Лексема-фразема орасидаги синонимик муносабат миқдор билдирувчи лексема, фразема маъноларидаги кучли-кучсизлик маънолари асосида ҳам бўлиши мумкин: озгина - икки оғиз [4; 70]; оз - дарёдан томчи [4; 70].

Пайт маъноли: бир пасда - кўз очиб юмгунча - киприк қоққунча қаторидаги синонимия ҳам жуда интенсификатори асосида вужудга келган .

Шундай қилиб, лексик сатҳдаги лексема ва фраземаларнинг таҳлили шуни кўрсатдики, уларнинг шаклланишида муайян белгининг кучли-кучсизлик, ортиқ-камлик даражалари иштирок этади. Юқоридаги таҳлиллардан келиб чиқиб, шуни хулоса қилиш мумкинки, тилларда градуонимия ҳодисаси лексик бирликлар махсус тизимини, яъни лексик парадигмасини шакллантира олиши умумлисоний қонуниятдир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. - Тошкент: Фан, 1995. 132 б.
2. Каримов И. Фалсафа фанидан маъруза матнлари.Тошкент: Янги аср авлоди, 2004. 131 б.
3. Менглиев Б. Ҳозирги ўзбек тили. - Тошкент: Tafakkur Bo'stoni, 2018.- Б. 172.
4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. - Тошкент: Ўқитувчи, 1978. - 405 б.

РАЗВИТИЕ КУЛЬТУРЫ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ КАК МЕТОД РАБОТЫ ПО РУССКОМУ ЯЗЫКУ

Казакова Гулчехра Абдусаламовна,
Учитель русского языка и литературы средней школы
№ 53 Туракурганского района Наманганской области
тел: 939428084

Аннотация: в данной статье рассматриваются вопросы развития речи учащихся на урока русского языка . также приводятся образцы упражнений по развитию речи

Ключевые понятия: развитие речи, современный подход, виды упражнений сочинение, сообщение, синквейн

Развитие речи учащихся является важнейшей задачей обучения русскому языку. Над данной проблемой педагоги работают в течение многих лет. За это время накоплен дидактический материал, подготовлены методические разработки уроков, обобщен опыт работы передовых учителей по избранной теме. В 2017 году утвержден новый государственный образовательный стандарт общего среднего образования Республики Узбекистан. Цель государственного образовательного стандарта - в свете социально-экономических реформ, проводимых в стране, воспитать в системе общего среднего образования духовно совершенную и интеллектуально развитую личность, учитывая передовой опыт развитых зарубежных стран, а также достижения науки и современные информационно-коммуникационные технологии. На основе непрерывности и преемственности образования в Республике Узбекистан, приоритета личности и интересов учащегося и в соответствии с возрастными особенностями учащихся формируются ключевые компетенции.Одна из ключевых компетенций - коммуникативная компетенция, т.е. прочное овладение родным и каким-либо иностранным языком и его эффективное применение в различных сферах и ситуациях общения; соблюдение норм речевого этикета; способность к социальной адаптации, умение работать в сотрудничестве . Развитие данной компетенции у учащихся предполагает развитие культуры устной и письменной речи.Остановлюсь на формах работы по развитию речи. Они достаточно многообразны:

- сочинение, где ребенок рассказывает о себе и о своих близких, носящее, так сказать, исповедальный характер;-это описания природы, различных её уголков;-творческое изложение, где учащийся не только излагает текст, но и рассуждает о нем, делает из него выводы;-сочинения по картине, причем картины могут быть любых жанров, и очень хорошо, если они будут созвучны изучаемому в этот момент литературному материал;- сочинение публицистического характера;-сочинения собственно-литературные, то есть посвященные произведениям по внеклассному чтению или изучаемым в классе, со сравнительной характеристикой персонажей;-сочинения с грамматическими заданиями.Кроме того, любой вид развития речи может проходить и как письменная работа, и как устное выступление, так как психологические навыки устной и письменной речи различаются между собой. А школа должна дать их гармоническое сочетание. Практически каждый ученик затрудняется больше или в устной, или в письменной речи. Облегчает устную речь отсутствие боязни сделать ту или другую ошибку на письме, зато процесс обдумывания текста, незаметный в моменты письменной работы, может заставлять отвечающего спотыкаться, болезненно замедлять его речь.В каждом классе выделяется, по меньшей мере, одна тема, которая требует к себе наиболее пристального внимания.

Мои ученики очень любят слушать сказки на лингвистические темы и пробуют сочинять их сами. Понимание учащимися той или иной орфограммы через грамматическую сказку гораздо глубже, прочнее, нежели понимание, полученное из сухих строчек учебника. Не сразу все удавалось, но со временем творения ребят стали получаться весьма интересными и поучительными.

На уроках развития речи предоставляю учащимся возможность опробовать свои силы не только в прозе, но и в стихах. Конечно, далеко не все стихотворные попытки можно назвать стихами, но для меня важно то, что у школьников возникло желание "попробовать своё перо".Некоторые ученики хорошо усвоили такую стихотворную форму, как синквейн - пятистишие, по содержанию отвечающее изучаемой проблеме. Что же такое развитие речи? Если иметь в виду работу по русскому языку, то развитие речи означает практическое усвоение учеником различных сторон языка: произношения, словаря, синтаксического строя, связной речи. С точки зрения учителя, работа над речью означает

применение таких методов и приемов, которые помогли бы учащимся активно овладеть указанными сторонами языка. Таким образом, занятия по развитию речи - это многосторонняя работа учителя по языку, направленная на то, чтобы ученики овладели не только грамматической теорией и орфографическими навыками, но в процессе речевой практики овладели и умением правильно произносить слова, выбирать нужные слова и правильно употреблять их в речи, строить предложения и связную речь.

Итак, цель уроков развития речи - сформировать у учащихся способность к самовыражению в речи, потребность в практическом владении навыками аргументированной, ясной, выразительной речи, выработать уважительное отношение к слову, бережное с ним обращение, наконец, потребность в разнообразных знаниях, в постоянном их пополнении и конечно развитие коммуникативной компетенции школьников.

Список использованной литературы

1. Белобрыкина О.А. Речь и общение. - Ярославль, 1998.
2. Методика развития речи на уроках русского языка./ Под ред. Т.А. Ладыженской. - М., 1997.

НАВОИЙ "ХАМСА"СИ ВА УНИНГ ҚЎЛЁЗМАЛАРИНИ ЎРГАНИЛИШИ

Карабаева Ҳилола
Тошкент давлат шарқшунослик институти магистранти
Телефон:+998(90)3496941
shokirova.96.96@mail.ru

Аннотация: Ушбу мақолада Алишер Навоийнинг "Хамса"си, мавжуд достонларнинг шуҳратланишига алоқадор жиҳатларни қамраб олган. "Хамса" ҳақидаги Навоийнинг замондошлари ва шогирдларининг илиқ фикрлари ҳам ўз аксини топган. Шунингдек Алишер Навоий ўз ижодий меросида 26 мингдан ортиқ луғат бойлигидан фойдаланганлиги ҳақида ҳам айтиб ўтилган. Шу аснода Навоий асарлари бўйича тузилган кўпчилик луғатлар тўғрисида маълумотлар келтирилган. Алишер Навоий "Хамса"сининг Ўзбекистонда сақланаётган қўлёзмалари борасидаги изоҳлар баён қилинган. Алишер Навоий "Хамса"сини ўрганган олимларнинг назаридан четда қолган масалаларни кенг жамоатчиликка ёритиб бериш мақсади илгари сурилган.

Калит сўз: "Хамса", Навоий асарлари луғати, "Панж Ганж", "Макорим ул-ахлоқ", "Бадойиъ ул-луғат", қўлёзма, луғат, миниатюра, "Садди Искандарий", қўлёзма нусха, хамсанавислик, навоийшунослик, хамсашунослик.

Алишер Навоий "Хамса"сига қизиқиш у ёзилган даврдаёқ бошланган. Бу унинг ўша пайтданоқ шуҳрат топганидан далолат беради.

Хондамир "Макорим ул-ахлоқ" асарида (1501 йил) Навоий "Хамса"си тўғрисида шундай ёзади: "Гўзал сифатли амирнинг манзум асарларидан бири туркий "Хамса" бўлиб, 27 минг байтни ўз ичига олади. Шайх Низомийнинг "Панж ганж"и муқобилида тузилган. Бу китобда нозик маънолар ва гўзал фикрлар жойлаштирганлар." Хондамир ушбу сўзида Навоий "Ҳамса"сининг туркий тилда экинлигига алоҳида эътибор бериб, у ҳам унинг ҳажмни таъкидлаб ўтади.

Алишер Навоий ўз ижодий меросида 26 мингдан ортиқ луғат бойлигидан фойдаланган. Бу буюк даҳо мана беш асрдан ошибдики асарларидаги чуқур фалсафий мушоҳадакорлик, маъно-моҳиятнинг кенг кўламлиги ва назмий меросидаги фасоҳат денгизининг бепоёнлиги билан жаҳон аҳлини ҳайратга солиб келади. Шунинг учун унинг асарларини ўрганиш, хусусан, "Хамса"ни ўрганиш кенг тарқалиб, навоийшунослик ва хамсашунослик каби фанларни вужудга келишига туртки бўлгани бежиз эмас. Алишер Навоий асарларини шу жумладан, "Хамса"ни ўрганиш учун махсус луғатлар ҳам тузилган. Луғат тузиш ишлари ҳам Навоий яшаган даврдан бошлангани, мақолам аввалида келтирганимдек, унинг "Хамса"сини ўрганиш ўша даврдан бошланганини исботи ҳисобланади. Навоий ҳаётининг сўнгги йилларида унинг асарлари асосида "Бадойиъ ул-луғат" (тузувчи Толеъ ал-Иймоний ал-Ҳиравий), бир оз кейинроқ "Луғати Навоий" яратилади. 1560-йилда Алойи бинни Муҳибий "Ал луғат ун-Навоийят вал истишҳодат ул-чиғатиоият" ("Навоий луғати ва чиғатой тили далиллари") луғатини тузади. Бу ва яна бир қанча луғатлар ҳамда манбаларга таянган ҳолда Навоий "Ҳамса"сини ўрганиш бугунги кунгача давом этиб келмоқда. Айниқса ХХ асрдан кейин Навоий "Хамса"сини ҳар жиҳатдан ўрганиш ишлари авж олиб кетган. Аввло, Алишер Навоийнинг "Хамса"си қўлёзмалари нусхалари ўрганилди.

Навоий ҳаётлигида кўчирилган "Хамса"нинг 4 та қўлёзма нусхаси бизгача етиб келган.

Навоий "Хамса"сининг энг тўлиқ ва нозик қўлёзма нусхалари бизгача етиб келган. Ҳиротлик машҳур котиб Абдужамил Навоий томонидан ёзилган "Хамса"нинг битган қисмларини пешма-пеш оққа кўчириб борган. Ана шу қўлёзма Ўзбекистон Фанлар академиясининг Абу Райҳон Беруний номли Шарқшунослик институтида 5018 рақамли инвентарь билан сақланади.

"Хамса"нинг Навоий ҳаёт пайтида (1492-1493 йиллар) кўчирилган бошқа бир нусхаси Султонали Машҳадий қаламига мансубдир. Бу қўлёзма ҳам бизгача етиб келган ва ҳозир Санкт-Петербургдаги Салтиков-Шчедрин номидаги давлат кутубхонасида сақланади.

Уни илмий талқин қилиш, ўрганиш кучайиб кетган бу даврда кўплаб илмий тадқиқот ишлари олиб борилиб, "Хамса"нинг қўлёзмаларига таянган ҳолда унинг илмий-танқидий матнлари яратилди, унинг насрий баёнлари китоблар ҳолида халққа тақдим этилди ва бир қанча дарсликлар чоп этилди. Шундай ишлардан бири, Навоий "Хамса"сининг насрий баёнлари ҳам Тошкентда бир неча бор босиб чиқарилишидир. 1960 йили "Хамса"нинг Порсо Шамсиев тайёрлаган тўла танқидий матнини ЎзФА нашриёти чоп этган.

Слушание (аудирование) - разновидность речевой деятельности, тесно связанной с устной речью, хотя слушать можно и озвученную письменную речь. Слушание - это смысловое восприятие звучащей как говоримой, так и озвученной письменной речи.

Чтение - один из видов речевой деятельности. Характерной особенностью чтения является осмысление зрительно воспринимаемого текста с целью решения определенной коммуникативной задачи: распознавание и воспроизведение чужой мысли, содержащейся в нем, в результате чего читатель определенным образом реагирует на эту мысль. Следовательно, с помощью чтения человек реализует возможности так называемого опосредованного общения: восприятие и понимание текста свидетельствуют о взаимодействии читателя с автором текста, о сложных мыслительных процессах, сопровождающих его осознание. Восприятие текста и активная переработка информации - вот основные компоненты чтения.

Таким образом, на уроках русского языка и литературы в школе необходимо больше внимания уделять образной стороне речи учащихся; разрабатывать такую систему работ, которая будет способствовать сознательному употреблению изобразительных средств в собственной речи.

Литература:
1. Ковалев В.П. Языковые выразительные средства русской художественной прозы.-М.,2004.
2. Ясинская С.Г. Секрет художественного слова. Тропы//Русская словесность. 2001 №5

ЖУРНАЛИТИКАДА ФАКТНИНГ ТУТГАН ЎРНИ ВА ТАЪСИР ЭФФЕКТИ

Сеитназарова Гулжаҳан Суханатдиновна,
Ўзбекистон журналистика ва оммавий коммуникациялар университети,
2-босқич таянч докторанти (PhD),
Тел: +99890 652 38 73
e-mail: guli_09.92@list.ru

АННОТАЦИЯ: Мазкур мақолада журналистик материалнинг асоси ҳисобланган факт ва унинг журналистикада тутган ўрни, таъсир эффекти ҳақида сўз боради. Шунингдек, журналистик асарда қўлланиладиган факт турлари ва уларнинг хусусиятларига тўқталган.

Калт сўзлар: факт, ҳужжатли факт, гносеологик факт, илмий ва кундалик фактлар.

Журналистикада ҳақиқатни ишончли акс эттиштиришнинг энг самарали йўли - фактларни тўғри танлаш ва уларга мавзуга хос тарзда талқин бериш ҳисобланади.

Одатда, журналистлар атрофимизда юз бераётган турли характердаги, турли кўринишдаги фактлардан унумли фойдаланишади. Сабаби, фактлар ҳар қандай вазиятда ҳам муҳим аҳамият касб етади. Улар орқали аудитория ижтимоий ҳаётнинг ҳақиқий панорамасини, тасвирларини, деталларини илғай олади.

Журналист ахборот тўпланиши ва тарқатилишини ташкил қилиш ва назорати учун масъул ҳисобланади. Унинг интернет ва ижтимоий тармоқларидаги маълумотларга таяниб тўплаган ахборотини "ҳақиқатга мос" келади деб, текширмасдан аудиторияга етказиши нотўғри бўлади.

Шу ўринда айтиб ўтиш жоизки, журналистик асарда фактлар билан бир каторда муаллиф позицияси, нуқтаи назари ва фикрлари ҳам берилади. Аудитория асар билан танишаётганда ноаниқлиқга дуч келмаслиги учун, журналист фактларнинг аниқ, тиниқ ва ишончлилигини, шунингдек, уларнинг бир-биридан фарқини ажрата олиш имконини таъминлаши лозим.

Бугунги ўқувчи, томошабин ва тингловчи жуда зийрак, улар ўз хатосини тан олиб тузатадиган ОАВ ва журналистларга ишонадилар. Айниқса онлайн ахборотда хатони тузатиш ўта муҳим аҳамиятга эга. Чунки мақола дунёга тарқалган бўлади. Нотўғри ахборот адолатсизлик ҳақидаги шикоятларга сабаб бўлиши, туҳмат ва бўҳтон ҳақидаги айбловларга ҳам етаклаши мумкин. Хатони тузатиш эса - қаерда қандай хато кетганини маълум қилиш ва унинг ўрнига тўғриланган ахборотни эълон қилиш ҳисобланади. Демак, журналист ҳатто энг оддий фактни ўрганишда синчковлик ва масъулият билан ёндашиши муҳим. Бу журналист фаолиятининг асосий мезони бўлиб қолаверади.

Журналистикада фактлар қуйидагича бўлиши мумкин:

"- ҳужжатли факт, яъни фактлар борлиқни, реалликни, бўлган воқеани акс эттириши. Чунки, амалга оширилган ҳар қандай журналистик ҳаракати, реал фактга, унинг мавжудлигига, рўй бергани ҳақидаги изоҳларга муҳтож.

Журналистикада фактларнинг манбалари кўпгина турларга бўлинади: гувоҳлар (воқеани ўз кўзи билан кўрганлар) ҳужжатлар, ҳақиқий жараён (кузатиш) ва бошқ.;

- гносеологик факт - журналистнинг борлиқни ўрганиб, унинг асарида фактлар ёрдамида қайд этилган мафкуравий, фалсафий ёки илмий-услубий нуқтаи назар. Бу - жиддий фикрлаш далолатидир, чунки бу ерда журналистнинг илмий ёндашуви ва назарий тасаввурга эга бўлиши кўринади;

- журналист концепциясига мос факт - бу ўрганилаётган объект ҳақидаги фактик ва журналист ғоясига мос маълумот (баъзан "илмий фактлар" деб юритилади). Одатда, уларни текшириш учун турли хил манбалар қўлланилади. Концепционизм тизимли ёндашувни талаб қилади, чунки бунда факт "фикрлар, шарҳлар, қўшимча маълумотлар ва тарихий манбалар" билан боғлиқ" .

Воқеаларни объектив ёритиш фактларга қатъий риоя қилишни англатади. Ижодкор фактларни келтириш билан чекланмайди, у уларни шарҳлайди ва уларга ўз баҳосини беради.

Журналистлар учун объективлик - ҳис-тўйғуларни имкон даражада камайтириб, фикрларни фактлардан ажратиб кўрсатадиган жараён. Яъни, объективлик фактларни ва ҳодисаларни холисона, аниқ ёритишни англатади.

Фактларнинг ҳақиқийлигига ишонч ҳосил қилиш учун журналист биринчи навбатда, улар қайси манбалардан олинганлиги, маълумот етказувчи қандай мақсадларни кўзлаётгани, шунингдек, илмий ва кундалик фактлар ўртасидаги фарқларни аниқлай олишлари керак.

Илмий фактларга асосланган материаллар мунтазам равишда бериб бориладиган нашр мавзуси

ҳисобланади. Чунки, журналистик материалларда илмий фактларни қўллаш жуда қулай. Яъни, унда оддий баённотдан батафсил қоидаларга ўтилади. Сабаби, барча илмий далилларнинг асосий хусусияти -аниқлиқ ва ишончлиликда. Шунинг учун журналистлар ўзларининг материалларида бунга тез-тез мурожаат қилади.

Илмий фактлар билан бир қаторда, журналистлар ўзларининг материалларида атрофимизда юз бераётган турли характердаги кундалик фактлардан унумли фойдаланишади. Кундалик фактлар инсоннинг дунёни англашдек муҳим жараёнда катта аҳамият касб етади. Бундай фактлар одамларининг бевосита тажрибаси, муайян ҳодисаларга бўлган ёндашуви ва бошқалар ҳақида гапириши учун зарур бўлганда ишлатилади. Кундалик фактларнинг аҳамияти шундаки, улар орқали ижтимоий ҳаёт ҳақиқатларини кўра оламиз.

Хулоса сифатида шуни айтиш жоиз, бугунги замонавий медиалар янгиликларни бирон бир далил, қисқа анонс ёки рақамларда акс эттириш амалиётига ўтиб бормоқда. Ҳар қандай ижтимоий аҳамиятга молик воқеалар ахборот воситаси бўлиши мумкин. Шунинг учун ҳам, материал тайёрлаётганда журналистнинг қайси фактни бериш ёки бермаслик ҳақидаги тўғри танлови муҳимдир.

ПЕРСОНАЖЛАР НУТҚИДА "КЎНГИЛ" СЎЗИГА АСОСЛАНГАН ИБОРАЛАР СЕМАНТИКАСИ

Қаҳрамон Собиров
Хоразм вилояти халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш ҳудудий маркази, катта ўқитувчи
Телефон:+998995054855
s_kahramon@umail.uz

Аннотация. Мақолада "кўнгил" сўзи қўшилиб таркиб топган иборалар персонажлар нутқида кучли услубий маъно англатиш воситаларидан бири эканлиги таҳлилга тортилган.

Калит сўзлар: ибора, семантика, драматургия тили, персонаж нутқи, кўнгил, англаш, кўчма маъно.

"Кўнгил" сўзи қўшилиб таркиблашган иборалар анчагинадир. Масалан, "кўнгил бермоқ", "кўнгил қўймоқ" иборалари "яхши кўрмоқ" иборасига синоним, "кўнгил совумоқ" эса антоним бўлиб келади. Персонажлар нутқида бу ибораларнинг вариантлари ёки турли хил ўзгаришга учраган шакллари кўриниш бериши мумкин. Масалан, Комил Яшиннинг "Ўлим босқинчиларга" драмаси қаҳрамони Оксана Қамбарга "менинг кўнглимга киринг, туйғулари туйғуларимга ҳамоҳанг бўлган биргина йигит, биргина меҳрибон киши борки, у ҳам бўлса сизсиз", дейди. Бу ерда "кўнгилга кирмоқ" ибораси севмоқ маъносини беради ва худди шу маънони англатишда "яхши кўрмоқ" ибораси билан синонимлашади. Комил Яшиннинг "Офтобхон" драмаси персонажларидан бири Мадумар: "Ҳо, ҳо, ҳо, оғайнилар, Ўғилойнинг кўнгиллари Хушназар акада экан", дейди. "Кўнгил...да" ибораси севганлик маъносини бериб, юқоридаги иборалар билан синоним қаторини ташкил этади. Ушбу драмада Темиржоннинг урушдан қайтиб келиш саҳнаси бор. У Офтобхонга бир қўлидан ажралганини таъкидлайди. Шунда Офтобхон унга бундай гап айтишга йўл қўймайди. "Мен то танимда жоним бор, сизни деганман", дейди. Демак, ибораларда бундай: "...ни демоқ" моделида шаклланув ҳам юқоридаги ибораларга синоним ҳосил қилади.

"Яхши кўрмоқ" иборасининг антоними "ёмон кўрмоқ" дир. Бу ибора билан синонимик қаторда таркибида "кўнгил" сўзи келган иборалардан "кўнгил совумоқ" ибораси турадн. У персонажлар нутқида турли грамматик шаклларда учрайди ва бу маънони ҳар хил даражадаги оттенкаларда намойиш этади. Абдулла Қаҳҳорнинг "Аяжонларим" драмасида Бўстон нутқида бу иборанинг ўзига хос бир кўриниши келтирилган ва у персонаж руҳиятини, ўз руҳияти билан боғлиқ ниятини яхши ифода этади. Масалан:

Бўстон. Каримжоннинг кўнглини кундан-кун совутаётибман. Лекин бу ишни аста-секин қилиш керак, қизиб турган кўнгилга бирдан совуқ сув сепсанг, чатнайди.

Бу ерда драматургнинг маҳорати шундаки, анъанавий халқ иборасини оғзаки нутқ шаклига солиб фойдаланиб қолмасдан, унинг асосида оригинал ибора ҳам яратган. Эътибор берсангиз, "кўнгил совутмоқ" ибораси гап таркибига эркин "томир отиб" жойлашган. Бу гапни қуйидагича трансформациялашган бирикмаларга ажратиш мумкин: 1. Каримжоннинг кўнгли. 2. Кўнглини совутмоқ. 3. Кундан-кун совутмоқ. 4. Кўнглини кундан-кун совутмоқ. Кейинги "қизиб турган кўнгилга бирдан совуқ сув сепсанг, чатнайди" ибораси оригинал топилган ибора бўлиб, сўзловчи нутқининг мантиқийлиги ва образлилигини таъминлайди.

"Кўнгил" сўзининг "овламоқ" феъли билан бирикишидан ҳосил бўлган ибора тинчитиш, таскин бериш маъносини англатади. Бу ибора персонажлар нутқида одамлар ўртасидаги муносабатларни тасвир этиб кўрсатишга хизмат қилади. Масалан, "Офтобхон" драмасида Жума: "Тоқатингизга балли-е, Офтобхон. Бирининг кўнглини энди овласангиз, иккинчиси устингиздан дод дейди", дея мулоҳаза билдиради. Бу ерда Офтобхоннинг одамлар билан ишлашда катта бардош соҳиби эканлиги иборалар орқали тасвир этилган.

Ўзбек драматургиясида "кўнгил" сўзи асосида ҳосил бўлувчи иборалар персонажлар нутқини индивидуаллаштириш, эмоционал салбий ва ижобий баҳолашни, сўзловчиларнинг ўзаро салбий ва ижобий муносабатларини кўрсатиш, ифода таъсирчанлигини оширишга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. Т.: Ўқитувчи, 1978. 406 б.
2. Раҳматуллаев Ш. Нутқимиз кўрки. Т.: Фан, 1970. 58 б.

АРАБ ТИЛИДА ОМОНИМЛАР

Сирожиддин Сотволдиев,
стажёр-ўқитувчи, Ўзбекистон халқаро ислом академияси
sirojiddinsotvoldiyev454@gmail.ru +998901682710

Аннотация: Араб тилида ёки ёзувида битилган манбаларни тадқиқ этаётган матншунос-манбашунос қатор қийинчиликларга дуч келади. Жумладан, бир хил ёзиладиган, бироқ турлича талаффуз қилинадиган сўзлар - омонимлар, паронимлар ва сўз вариантларининг хусусиятларини билиш манбашунос учун жуда муҳим.

Араб тили ва ёзуви тарихига назар ташланса, унинг инсоният тамаддунидаги ўрни ва ўзига хос тараққиёт йўли, бошқа тилларда учрамайдиган лексик, морфологик ва синтактик хусусиятлари қисман намоён бўлади. Жумладан, умумий тилшуносликнинг шаклдош-талаффуздош (الْمُشْتَرَكُ اللَّفْظِيّ – al-mushtarak^{u} al-lafẓiyy^{u}) сўзлар – омонимлар, паронимлар ва сўз вариантларини ўрганувчи соҳаси ҳам араб тилида ўзгача бўй кўрсатади. Бунда нафақат талаффуз, балки ёзув хусусиятлари ҳам ҳисобга олинади.

Хулосалар етарли бўлса-да, ҳозиргача шаклдош-талаффуздош сўзлар бўйича якдил тўхтамга келинмаган. Бу борада тилшунослар икки гуруҳга бўлинганлар. Биринчи гуруҳ Ибн Дуруставайҳ *(Taṣ'ĥīĥ^{u} al-faṣīĥ^{i} wa sharhih^{i}. –Al-Qāhirat^{u}, 2004. - Ṣ.124)* бошчилигидаги олимлардан иборат бўлиб, улар бу тил ҳодисасини кўпмаънолилик (полисемия) билан изоҳлайдилар. Иккинчи гуруҳ – Сибавайҳ ва у билан ҳамфикр тилшунослар «al-mushtarak^{u} al-lafẓiyy^{u}» ҳодисаси дунёнинг саноқли тилларига, шу жумладан араб тилига ҳам хос эканини таъкидлаб, унинг белгиларини аниқ кўрсатиб берадилар.

«Al-mushtarak^{u} al-lafẓiyy^{u}» ҳодисасига бугунги араб тилшунослигининг ёндашуви эътиборлидир. Классик наҳв мактабларидан фарқли ўлароқ, замонавий араб тилшунослиги барча йўналишларда жаҳон тилшунослигининг умумий қоидаларига тобора интилиб бормоқда. Буни тилшунослик терминларининг қўлланилишида ҳам кўриш мумкин. Хусусан, ҳозирги вақтда омоним, пароним ва вариантдошлик ҳодисаларига алоҳида-алоҳида таъриф берилиши ва тадқиқ этилиши ҳам бу фикрни тасдиқлайди.

Масалан, пароним сўзларга доктор Муборак Муборак бошчилигида тузилган «Mu'jam^{u} al-muṣtalaḥat^{i} al-alsuniyyat^{i}» номли терминология луғатида қуйидагича таъриф берилади:

«Mushtarak^{u} al-jadhar^{i} رِدْجَالْ كَرَتَ مُشْ(паронимлик) бир сўзнинг бошқа бир сўз билан ўзак таркибида ўзаро мос келиши бўлиб, бироқ улар бошқа-бошқа маъноларни ифода этади» *(Mu'jam^{u} al-muṣtalaḥat^{i} al-alsuniyyat^{i}. –Bayrūt: Dār^{u} al-fikr^{i} al-lubnāniyyat^{i}. –Ṣ.213.)*. Омонимия атамаси эса «Тилда товуш ва ёзув томони бир хил бўлиб, аммо турлича, бир-бирига боғлиқ бўлмаган маъно ифодаловчи сўзлар»га нисбатан қўлланмоқда.

Араб тили лексемасидаги шаклдош-талаффуздош сўзларнинг бадиий қийматини балоғат усталари яхши англаганлар. Улардан бири Абдулқоҳир Журжоний бўлиб, ўз вақтида: «Омонимларни нутқда қўллаш суҳбатдошни чалғитишга, гўё уни алдаётгандек ёки ниманидир яшираётгандек тутишга, нутқни икки маъноли бўлишига хизмат қилади», – деб ёзган эди.

Замонавий тилшуносликда омонимлар қуйидагича тасниф қилинади:

I. Тўлиқ омоним اُمُالتَّ سُنَجِ ْ(ال – al-jinās^{u} at-tāmm^{u}) . Бунда икки ва ундан ортиқ сўз ҳарфлар сони, уларнинг талаффуз ўрни, диакратик белгилари билан бир хил бўлади, лекин турли лексик маънони билдиради.

Араб тилшунослари тўлиқ омоним (al-jinās^{u} at-tāmm^{u}) ҳам 2 хил бўлишини таъкидлайдилар. Бу хилларнинг ҳар бири яна бир неча қисмларга тақсимланади:

1. Тўлиқ-содда омоним (الْاسُنَجِ ِالتَّمُ يْعُ مُ بِكَرَ – al-jinās^{u} at-tāmm^{u} ghayr^{u} murakkab^{in}):

А) Тўлиқ-содда-ўхшаш омоним نَاجِالْ اُمُالتَّ لاَثِمُالْ – al-jinās^{u} at-tāmm^{u} al-mumāthil^{u}) – бундай омонимлар ўзак таркибида ҳарфлар сони, тури ва ҳатто сўз туркуми (исм, феъл, ҳарф) жиҳатидан умумийликка эга бўлади.

Б) Тўлиқ-содда-ўхшаш бўлмаган омонимлар نَاجِالْ اُمُالتَّ يفَوِتَسْمُالْ – al-jinās^{u} at-tāmm^{u} al-mustawfá). Бундай омонимлар фонетик ва график ўхшашлиги, ўзак ҳарфлари сони ва талаффузи бир хиллиги билан характерланади, бир сўз туркуми доирасида эмас, балки турли сўз туркумлари ўртасида юзага келади.

2. Тўлиқ-бирикмали омоним (الجِنَاسُ التَّامُّ مُرَكَّبٌ – al-jināsu at-tāmmu murakkabun) – бу хил омонимлик бир мустақил маъноли содда сўз ва бирикма ўртасида юзага келади. Бунда бирикма бир сўз ва бошқа бир сўзнинг бир қисми жамланмасидан иборат бўлиши ҳам мумкин.

Тўлиқ-бирикмали омоним 4 турли бўлади:

А) Тўлиқ-бирикмали-ясама омоним (الجِنَاسُ التَّامُّ مُرَكَّبٌ المَرْفُو – al-jināsu at-tāmmu murakkabun al-marfuw). Бунда бир сўз бошқа сўзнинг бир қисми билан бирга яхлит олинганда, бошқа бир сўзга омонимлик ҳосил қилади.

Б) Тўлиқ-бирикмали-ўхшаш омоним (الجِنَاسُ التَّامُّ مُرَكَّبٌ المُتَشَابِهُ – al-jināsu at-tāmmu murakkabun al-mutashābihu). Бунда бир сўз бутун бирикма билан ҳам ёзилишда, ҳам талаффузда омонимлик ҳосил қилади.

В) Тўлиқ-бирикмали-боғланган омоним (الجِنَاسُ التَّامُّ مُرَكَّبٌ المَلْفُوفُ – al-jināsu at-tāmmu murakkabun al-malfūfu). Омонимларнинг бу ўзига хос тури бўлиб, бунда бир мустақил маъноли сўз бошқа бир сўз бирикмаси билан талаффузда ўхшаш бўлади, бироқ ёзувда кичик фарқ кўзга ташланади.

Г) Тўлиқ-бирикмали-тўқилган омоним (الجِنَاسُ التَّامُّ مُرَكَّبٌالمُلَفَّقُ – al-jināsu at-tāmmu murakkabun al-mulaffaqu). Бу хил омонимлар бирикмалар (конструкциялар) ўртасида кузатилади.

II. Тўлиқ бўлмаган омоним (الجِنَاسُ غَيْرُ التَّامِّ – al-jināsu ghayru at-tāmmi) – бундай омонимларнинг ўзак таркибидаги бир ёки бир неча ўринларида муайян фарқ бўлиши мумкин. Бу фарқ ўзак ҳарфларининг сонида, ёки уларнинг талаффузида, ёки диакратик белгиларида кузатилиши мумкин, худди шунингдек, маъносида ҳам. Шу фарқлар асосида араб тилшунослари тўлиқ бўлмаган омонимнинг бир неча турларини ажратиб кўрсатадилар:

1. Сўзнинг талаффузи ва диакратик белгилари билан фарқ қилувчи омонимлар. Бу навни қадим куфий хатининг имло қоидалари билан боғлаб тушунтириш тўғрироқ бўлар эди. Куфий хатида ёзувда ҳарфнинг диакратик белгилари, сўзларнинг қисқа унли ҳаракатлари ўз ифодасини топмайди. Демак, шу хусусиятларни ҳисобга олганда, талаффузи ва диакратик белгилари билан фарқни намоён қилувчи омонимлар икки хил бўлади:

А) Тўлиқ бўлмаган-таҳриф омоним (جِنَاسٌ تَحْرِيفٌ – jināsun taḥrīfun) – сўзма-сўз таржима қилинса, «нотўғри талаффуз» демакдир. Аслида бу ўринда бирор сўзни ҳақиқий нотўғри талаффуз қилиш эмас, балки ёзилиши бир хил, аммо ўқилганда қисқа унли ҳаракатлар ҳисобига бир-биридан муайян тарзда фарқланувчи сўзлар назарда тутилмоқда.

Б) Тўлиқ бўлмаган-тасҳиф омоним (جِنَاسٌ تَصْحِيف – jināsun taṣḥīfun) – сўзма-сўз таржимаси «нотўғри ёзилиш» бўлиб, бу турда икки сўзнинг ўзак таркибидаги ҳарфлар ўз диакратик белгилари билан фарқ қилиши кузатилади.

2. Тўлиқ бўлмаган омонимларнинг иккинчи хили ўзак таркибидаги ундош товушларнинг талаффузи асосига кўра қисмларга ажратилади:

А) Тўлиқ бўлмаган-музореъ омоним (الجناس المضارع – al-jināsu al-muḍari') – ўзак таркибида талаффузи ўхшаш, махражи бир-бирига яқин ундош товушлар мавжуд сўзлар ўртасида кузатилади.

Б) Тўлиқ бўлмаган-лоҳиқ омоним (الجناس اللاحق – al-jināsu al-lāḥiqu) – бундай сўзларда асосий фарқни келтириб чиқараётган ундош товушлар ҳосил бўлиш ўрнига кўра бир-биридан тубдан фарқ қилади.

Мухтасар айтганда, зикр этилганлардан араб тилида шаклдошлик ҳодисаси бўйича қуйидаги хулосаларга келиш мумкин:

– шаклдошлик (омонимия ва паронимия) ва кўпмаънолилик (полисемия) бошқа-бошқа ҳодисалар бўлиб, ҳар иккиси ҳам «al-mushtaraku al-lafẓiyyu» мавзусининг қамров доирасига киради ва шу йўналишда ўрганилади;

– замонавий тилшуносликда омонимларнинг тўлиқ (الجناس التام – al-jināsu at-tāmmu) ва тўлиқ бўлмаган (الجناس غير التام – al-jināsu ghayru at-tāmmi) турлари ажратилади. Бу турлар ҳам ўз ўрнида бир неча навларга таснифланади. Тўлиқ омоним (الجناس التام – al-jināsu at-tāmmu)нинг содда, содда-ўхшаш, содда-ўхшаш бўлмаган, бирикмали, бирикмали-ясама, бирикмали-ўхшаш, бирикмали-боғланган, бирикмали-тўқилган навлари бор. Тўлиқ бўлмаган омоним (الجناس غير التام – al-jināsu ghayru at-tāmmi) эса ўзаро талаффузи ва диакратик белгилари билан фарқ қилувчи, таҳриф, тасҳиф, музореъ-лоҳиқ каби навларга ажратилган.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Tavfīqu Muḥammadun Shāhinun. Al-mushtaraku al-lughawiyyu: naẓariyyan wa taṭbīqan. –al-

Qāhiratu: Maktabatu Wahbata, 2007. – 397 ṣ.

2. ‘Umar ‘Ahmad Mukhtār. Al-mu’jam^{u} al-mawsū’iyy^{u} li-alfāẓ^{i} al-Qur’ān^{i} al-karīm^{i} wa qirā’ātih^{i}. - Ar-Riyāḍ^{u}: Suṭūr^{u} al-ma’rifat^{i}, 2002. – 1504 ṣ.

3. Jalāl^{u} ad-dīn^{i} as-Suyūṭiyy^{u}. Al-mazhar^{u} fī ‘ulūm^{i} al-lughat^{i} wa ‘anwā’ihā. –Bayrūt: Al-maktabat^{u} al-’asriyyat^{u}, 2004– 651 ṣ.

4. ‘Abd^{u} al-Qāhir^{i} al-Jurjāniyy^{u}. ‘Asrār^{u} al-balāghat^{i}. –Bayrūt: Dār^{u} al-kitāb^{i}, 2001. – 120 ṣ.

5. ‘Ibn^{u} Durustawayh. Taṣ’ĥīĥ^{u} al-faṣīĥ^{i} wa sharhih^{i}. –Al-Qāhirat^{u}, 2004. – 599 ṣ.

6. ‘Aliyy^{un} ‘Abd^{u} al-Wāḥid^{i} al-Wāfiy. ‘Ilm^{u} al-lughat^{i}. –Bayrūt: 2007. – 236 ṣ.

7. Sibawayh^{i}. Al-kitāb^{u}. 4 mujallad. –Al-Qāhirat^{u}: Maktabat^{u} al-Khanajī, 2008. – 446 ṣ.: 432 ṣ.; 662 ṣ.; 494 ṣ.

8. Al-Mubarrid^{u}. Ma-ttafaqa lafẓah^{u} wa-’khtalafa ma’nāh^{u}. –Bayrūt: Dār^{u} al-’ilm^{i}, 2006. – 225 ṣ.

9. Ibn Manẓūr. Lisan^{u} al-‘arab^{i}. 2-jild. –Bayrut: Dār^{u} Ṣādir, 2009 – 646 ṣ.

FIZIKA DARSLARIDA VIRTUAL LABORATORIYA ISHLARIDAN FOYDALANISH.

T.Jumaniyozova-Xorazm VXTXQTMOXM
"Aniq va tabiiy fanlar metodikasi "kafedrasi
fizika fani o'qituvchisi.
G.Shomuratova-Shovot tuman 5-maktab fizika fani o'qituvchisi.
Тел 99-967-29 -77

Annotatsiya. Fizika darslarida amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda virtual laboratoriya ishlaridan foydalanishning ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Tayanch tushunchalar: pedagogik texnologiya, virtual laboratoriya, zamonaviy dars, an'anaviy dars, innovatsion yondashuv, asos, pedagogik texnologiyaning falsafiy, ko'rgazmalilik, tarqatma.

Yosh avlodga ta'lim - tarbiya berish, ularni mamlakatimiz kelajagini barpo etuvchi barkamol insonlar qilib voyaga yetkazish bevosita murabbiy ustozlarga bog'liq. Buning uchun o'qituvchi o'z bilimi, kasb mahoratini oshirib borishi, ta'lim tarbiyaning ilg'or usullaridan foydalana bilishi, pedagogik va axborot texnologiyani dars jarayoniga olib kirishi, har bir darsni ilmiy asoslashi, darsning moddiy texnik jihozini belgilashi, axborot vositalaridan foydalanishi va nihoyat o'z ustida ishlashi lozim.

Hozirgi kunda taraqqiyot barcha fanlarga nisbatan yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda,chunki hozirgi o'quvchi yoshlarning ruxiy rivojlanish darajasi ortgan davrga nisbatan fan va texnologiyalar hamda iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishlarni inobatga olgan holda keskin o'zgarganligi isbot talab qilmaydi.

Shu o'rinda, fizika fanini o'qituvchi va o'quvchiga yetkazishning samarali vositalaridan biri, bu laboratoriya ishlarini kompyuterlar yordamida bajarishdir. Amaldagi Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturida 27 ta laboratoriya ishi kiritilgan. Shu laboratoriya ishlarining ko'pchilik qismini, shu jumladan fizikaning mexanika bo'limidagi jismlarning zichligini aniqlash; Arximed qonunini o'rganish; harakat miqdorining saqlanish qonunlarini o'rganish; jismlarning erkin tushish tezlanishini aniqlash; Nyutonning II qonunini va Guk qonunini tajribada o'rganish; tinch va sirpanish ishqalanish koeffitsiyentlarini o'rganish; matematik mayatnik yordamida erkin tushish tezlanishni aniqlash va x.k.larni kompyuterda bajarish mumkin. Virtual laboratoriya ishining mohiyatini "Matematik mayatnik yordamida erkin tushish tezlanishini aniqlash" ishini bajarish misolida ko'ramiz.

Nazariy qism: Matematik mayatnikka ta'rif berilib, mayatnikning uzunligi L deb, uning tebranish davri T, Tomson formulasi

$T = 2\pi\sqrt{\frac{L}{g}}$ (1) bilan aniqlanadi, bu yerda g – erkin tushish tezlanishi.



(1) formuladan $g = \frac{4\pi^2 L}{T^2}$ (2) kelib chiqishi ko'rsatiladi.

Ishining maqsadi: Matematik mayatnik uzunligining har xil qiymatida, mayatnikning tebranish davrini aniqlab, erkin tushish tezlanishi g - ning qiymatini aniqlash, mexanik tebranishlar haqida olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash.

Tajribamodeli Kompyuter monitorigakerakli asbob - uskunalar, uchun ipgaosilggan matematikmayatnik, sekundomer, mayatnik uzunligini o'zgartiradigan moslama, tajriba bajarilishini ta'minlaydigan tugmachalar joylashtirilgan. Matematik mayatnik uzunligini moslama yordamida 40-70sm oraligida o'zgartirish mumkin.

Tajribaning bajarilishi:

1. Tegishli tugmachayordamidamayatnikipi uzunligi kerakli uzunlikkao'rnatiladi.
2. "Tajribani boshlash" tugmachasi bosiladi. Shu vaqtda mayatnik tebrana boshlaydi.
3. Biror nuqtani tanlab olib (masalan, 1 - rasmdagi V - nuqta), shu nuqtaga mayatnik kelganda, sekundomerning "Start" tugmachasi bosiladi. Mayatnikning 10 marta to'la tebranishidan keyin, sekundomer "Stop" tugmachasi yordamida to'xtatiladi va sekundomer ko'rsatkichi yozib olinadi. Ushbu qiymatni to'la tebranishlar soni 10 ga bo'lgandan keyin mayatnikning davri T aniqlanadi.

4. (2) formula yordamida g - ning qiymati hisoblanadi.
5. 2-4 bandlar mayatnik uzunligining besh xil qiymatlari uchun takrorlanadi.
6. Olingan natijalar yordamida quyidagi jadval to'ldiriladi:

Tajriba	***L, m***	***g, m/s²***
1		
2		
3		
4		
5		

7. Tajriba natijalari asosida tajriba xatolarini hisoblanadi.
8. Laboratoriya ishi bajarilishi to'g'risida hisobot tayyorlanadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, kompyuterlashtirilgan virtual laboratoriya mashg'ulotlarining maqsadi, faol ta'lim olish jarayoniga o'quvchilarni jalb qilish, ularda bilim va izlanish, malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish, fizika bo'yicha o'quv materialini o'zlashtirishdan iborat. Bu ishda kerakli asbob uskunalar kompyuter monitorining o'zida joylashtirilgan bo'lib, tegishli tugmachalarni bosish orqali harakatga keladi.

Xulosa qilib aytganda, virtual laboratoriya ishlarini bajarish o'quvchilarning bilim malakalarini ongli ravishda o'zlashtirishga, fikrlash qobiliyatini va fizika faniga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishga, mehnat malakalarini tarbiyalashga, kuzatuvchanlik hissiyatini va kompyuteridan foydalanish malakasini oshirga yordam beradi.

Foydalangan adabiyotlar

1.Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - T., Nizomiy nomidagi TDPU, 2009.

2.Ochilov M. "Yangi pedagogik texnologiyalar" /Qo'llanma. -Qarshi: Nasaf, 2000.

3.Usmonov Q., Sodiqov M. O'zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). Akademik litsey va kasb-hunar kolejlari uchun darslik. -T.: Sharq, 2002, 2003, 2011.

ЧЕТ ТИЛИ МУЛОҚОТИНИНГ ПСИХОЛОГИК ВА МЕТОДИК ОМИЛЛАРИ

Шодия Ташпулатова
Фарғона шаҳар, ФарДУ 1-курс магистранти
Телефон: +998999922777
shodiyaismoilova@yandex.com

Аннотация

Ушбу мақолада чет тили ўқитишнинг асосий мақсади ўқувчиларнинг ўзаро фикр алмашувига, эркин мулоқотга ўргатишдир. Ҳозирги вақтда чет тили дарсининг энг муҳим босқичи ўрганилаётган тилда гапира олиш, ўқувчилар ўзаро мулоқот ўрната олиши деб қаралмоқда.Чет тилида мулоқот ўрната олиш талаффузга, лексик ва грамматик материалга, фикрни ёзма баён қилиш, ўзгалар нутқини тинглаб тушуниш, ўқиб тушуниш каби нутқ фаолияти турлари билан узвий боғлиқдир.

Аннотация

На этом статье идёт речь о том как важно обучать учащийся свободно общаться с друг другом и обменятся мыслям. И о том как можно интегрировать навыки изучение в обучение английского языка. Эти навыки- читать, слушать, писать и говорить. Применение методы в обучение английскому языку интегрировав навыки очень приемлемо для студентов при общение с друг другом. Для это нам необходимо лексические и грамматические материалы.

Annotation

The goal of this article is to identify the integration of the four skills of the English language - reading and listening comprehension, written and oral expression -in lessons of Higher education observing the way in which they are taught to determine if the application of the Integrated-skill Approach affects or not the learners performance during instruction. It is in consideration to this that the aim of this investigation is to identify the integration of the four skills of the English language in a non -native speaking classroom, and the way in which these skills are developed for students of English.

Kalit so'zlar: Коммуникация технологиялари, касб-ҳунар сирлари, имконият, тадбиқ этмоқ, идрок қилиш, фаҳмлаш.

Ключевые слова: Коммуникативные технологии, тайны профессионального качества, возможность, использовать, понять, соображать.

Key words: Communicative technics, secrets of professions, opportunities, to use, understand, to guess.

Биз биламизки, ҳар бир жамиятнинг келажаги унинг ажралмас қисми бўлган таълим тизимининг қай даражада ривожланганлиги билан белгиланади. Шу жумладан, мамлакатимизда ҳам ёшларнинг замонавий таълим олиши, ахборот коммуникация технологиялари ва касб-ҳунар сирларини пухта ўзлаштирилиши, ҳорижий тилларни ўрганиши учун барча шароит ва имкониятлар яратилган.

Бугунги кунда ҳорижий тилларни, ҳусусан,инглиз тилини ўрганиш глобал алоқа воситаси сифатида ёшларнинг келажакда ўқиш ва касб соҳаларида юксак билимга эга бўлишлари учун замин яратади. Ёшларимиз чэт элда таълим олиш ва ўз малакаларини ошириш имконига эга бўлдилар. Хорижий тилларни эгаллаш буйича маҳсус замонавий талабларга жавоб берадиган дастурлар ишлаб чикилмоқда ва шунга кура бу бошлангич таълимдан бошлаб амалга оширилмоқда. Куплаб ёшларимиз чэт эл фуқаролари билан турли эркин суҳбат қуриш, уларнинг маданиятлари ҳақида маълумот олиш имкониятига эга бўлмоқдалар.

Чет тили ўқитишнинг асосий мақсади ўқувчиларнинг ўзаро фикр алмашувига, эркин мулоқотга ўргатишдир. Ҳозирги вақтда чет тили дарсининг энг муҳим босқичи ўрганилаётган тилда гапира олиш, ўқувчилар ўзаро мулоқот ўрната олиши деб қаралмоқда.Чет тилида мулоқот ўрната олиш талаффузга, лексик ва грамматик материалга, фикрни ёзма баён қилиш, ўзгалар нутқини тинглаб тушуниш, ўқиб тушуниш каби нутқ фаолияти турлари билан узвий боғлиқдир. Чет тилида тўғри талаффуз қила олмай, лексик ва грамматик материални тушунмай туриб, фикрни ёзма баён қила олмай, тинглаб тушуна олмай мулоқотга киришиш мумкин эмас. Ҳар қандай методни қўллашда биринчи навбатда ўқувчининг хотираси, диққати, қобилияти, ўзлаштириш даражаси каби сифатларга эътибор қаратиш лозим. Мулоқотни ўргатишда психологик ва методик омиллар жуда муҳимдир.

Хорижий тилда фикрни оғзаки баён қилиш анча мураккаб жараёндир. Бунда тил материалини таниш, идрок қилиш, фаҳмлаш ва уни нутқ жараёнда қўллаш каби нутқ дастурларини бирданига бажаришга тўғри келади. Шу ўринда чет тилида мулоқотни ўргатиш жумлаларни хотирада сақлаб қолиш, идрок қилиш, зарур вазиятларда фикр билдира олиш, хато қилиб қўйишдан чўчимаслик

каби психологик омилларга ҳам боғлиқ бўлади. Барчамизга маълумки, чет тилида мулоқотни ўргатиш жуфт нутқ ва якка нутқ шаклида амалга оширилади. Масалага психологик ва методик нуқтаи назаридан қарайдиган бўлсак, бу нутқ турларига ўргатишнинг психологик ва методик ҳусусиятлари турлича эканлигини кўриш мумкин.

Жуфт нутқ бир мавзу доирасида ташкил қилинса, суҳбатдошлар ўртасида ўзаро фикр алмашинилади, мавзуга оид салбий ва ижобий фикрлар, тугалланган ва тугалланмаган фикрлар баён этилади. Якка нутқ жараёнида эса мавзу мантиқан якунланган, бир неча жумлалардан, нутқ вазиятларига таянилмаган нутқ фаолияти бажарилади. Чет тили мулоқотини ўргатишда қуйидаги методик ва психологик талабларга риоя қилиш мақсадга мувофиқдир. Масалан: нутқ материалининг ахборот шаклида бўлиши, ўқувчиларнинг нутқ фаоллигини рағбатлантирувчи усуллардан унумли фойдаланиш, гапиришни ўргатишда ҳар бир ўқувчининг индивидуал хусусиятларини ҳисобга олиш, нутқ мавзусининг долзарблиги ва қизиқарли бўлиши, ўқувчиларнинг нутқ фаолиятини ташкил қилиш имкониятларидан фойдаланиш, интернет, баҳс, мунозара, муҳокама, ўқувчиларнинг мулоқот лаёқатини шакллантириш.

Чет тилида мулоқотни ўргатишда ҳар бир ўқувчининг фаол ўқув фаолиятини таъминлайдиган, эркин фикр билдира оладиган ижобий психологик муҳит яратиш мумкин. Бундай мулоқот пайтида ўқувчилар ўзларини ўзлари танқид қилишларидан, хато фикр билдиришдан чўчимасликка ўргатилади. Ўрганувчилар гуруҳлараро мулоқотга киришсалар, ўзаро дўстона, беғараз ёрдам, ўзаро ҳамкорлик рўй беради. Маълумки, нутқ тез ва секин бўлиши мумкин. Одатда, тингловчи учун чет элликлар тез гапирадиганга ўхшаб туйилади. Бунга сабаб тингловчи эшитаётган нутқини такрорлашга улгурмайди. Натижада тинглаётган киши учун нутқ тушунарсиз ва тез бўлиб туйилади. Бироқ, нутқ тезлиги кўп жиҳатдан сўзловчининг хусусияти ва кайфиятига боғлиқ. Шундай экан, тил ўргатишда ўрганувчининг руҳий ҳолати ҳам муҳим аҳамиятга эга. Хулоса қилиб, шуни айтиш мумкинки, ўқувчиларнинг тил тажрибасини бойитиш учун уларнинг чет тили ва она тили бўйича тиллараро билимларни бойитиш, уларни билиш, тил ўрганишга қаратилган малакаларини шакллантириш орқали эришиш мумкин.

Чет тилини ўрганишда сўз бойлиги катта ахамият касб этади. Лексикани методик тайёрлаш тадбири методистлар томонидан бажарилгач, унинг натижалари бевосита ўқитиш амалиётига жорий этилади. Ўргатишга тайёрланган лексик материал юзасидан дарсда ва бошқа машғулотларда муаллим иштироки ва раҳбарлигида ўқувчилар лексик кўникмаларни эгаллайдилар. Бунда биринчи босқич янги сўз билан танишишдан бошланиб, иккинчи босқичда лексика нутқ жараёнида қўллана бошлайди. Учинчи босқичда эса ўрганилаётган сўз нутқ фаолияти турларида, малака таркибида ўзлаштирилади. Мазкур босқичда ўқувчи сўзни нутқда мустақил ишлата олишни ўрганади. Ўзлаштирганлик кўрсаткичи лексикани нутқда эркин қўллай олиш ёки таниб олишдан иборатдир. Фикр баён этиш ва тушунишда ўқувчи сўзни бемалол қўлласа, ёки таниб олса, бу лексик кўникмаларни шакллганлигидан далолат беради.

Ҳулоса қилиб айтганда ҳозирги ривожланаётган даврда, дунёда рўй бераётган ўзгаришлар, янгиликларни билиш учун албатта чэт тилини билиш лозим.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Гак В.Г. Семантическое структура слова как компонент семантической структуры высказания. - В книге: Семантическая структура слова. Москва: Наука, 2003, с 230-239.
2. Charles Morris. "Foundations of the theory of things", Chilly, 1938.
3. Махмудов Н. Педагогика. Тошкент: Ўқитувчи, 1984, 176 б.
4. Никитин М.В. Лексическое значения слова. Москва,1983.
5. British Council (2012) Changing perceptions of skills, Conference Reports and Recommendations, p.19-20 January, 2012 Tunisia, Accessed October 24,2012 at http://www.britishcouncil.org

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ КОМПЬЮТЕРА НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА ПРИ РЕАЛИЗОВАТЬ ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННОГО ПОДХОДА В ОБУЧЕНИИ

Файзуллаева Насиба Норкуловна,
русского языка и литературы школы №18
Нуратинского района Навоийской области

Аннотация: Знание иностранного языка дает молодежи возможность приобщиться к мировой культуре, использовать в своей деятельности потенциал обширных ресурсов глобальной сети Интернет, а также работать с информационными и коммуникационными технологиями и мультимедийными средствами обучения. Данная статья посвящается именно этим вопросам.

Ключевые слова и понятия: модернизация образования, новая форма, содержание, традиционный вид деятельности, потребности, приобретать, межкультурный диалог, реакция, реагировать, оптимальное решение, возникающие проблемы, ресурс, глобальная сеть, Интернет.

Задачи модернизации образования не могут быть решены без оптимального внедрения информационных технологий во все его сферы. Использование информационных технологий дает толчок развитию новых форм и содержания традиционных видов деятельности учащихся, что ведет к их осуществлению на более высоком уровне. В результате преобразований, происходящих в нашей республике, процесс обучения русскому языку сегодня может развиваться с учетом потребностей людей и приобрести более ощутимую практическую и коммуникативную направленность. Подготовка человека к общению на изучаемом языке сегодня приравнивается к подготовке к межкультурному диалогу. Соответственно, практика обучения русскому языку должна оперативно реагировать на это обстоятельство и выработать пути оптимального решения возникающих проблем.

На данном этапе в современном обществе все более возрастает роль иностранных языков. Знание иностранного языка дает молодежи возможность приобщиться к мировой культуре, использовать в своей деятельности потенциал обширных ресурсов глобальной сети Интернет, а также работать с информационными и коммуникационными технологиями и мультимедий-ными средствами обучения.

В последние годы все чаще поднимается вопрос о применении новых информационных технологий. Это не только современные технические средства, но и новые формы преподавания, новый подход к процессу обучения. Использование мультимедийных средств помогает реализовать личностно-ориентированный подход в обучении, обеспечивает индивидуализацию и дифференциацию с учетом особенностей детей, их уровня обученности, склонностей. Изучение русского языка с помощью компьютерных программ вызывает огромный интерес у учащихся. Часто на уроках русского языка процесс вовлечения учащихся в устную речь по различным темам бывает неинтересным. При работе с использованием компьютеров это исключено, так как необходимые на уроках наглядность и ситуации на мониторах вполне реальны - "изображения" движутся, разговаривают по-русски, задают вопросы и т.д. Некоторые учителя могут спросить: а не превратится ли урок при этом из творческой работы в нечто развлекательное? Нет, так как, чтобы получить при работе с компьютером хорошую оценку, ученику приходится творчески работать. Он делает все с радостью а учителю приходится приобретать необходимые электронные учебники и делать подборку по ним нужных ситуаций, а также распечатку дополнительных вопросов и текстов и перенос их на все компьютера, чтобы в определенный момент на уроке учащиеся могли сесть за определенные компьютера, найти и открыть нужную папку в "Моих документах", выполнить, например, тест по аудированию или чтению. Это большой труд, но себя оправдывает. Радость познания - вот что дает использование компьютеров на уроках. А это, в свою очередь, вместе с развитием мышления ведет к развитию инициативной речи.

Работа с компьютером не только способствует повышению интереса к учебе, но и дает возможность регулировать предъявление учебных задач по степени трудности, поощрение правильных решений. Кроме того, компьютер позволяет полностью устранить одну из важнейших причин отрицательного отношения к учебе - неуспех, обусловленный непониманием материала или проблема в знаниях. Именно этот аспект и предусмотрен авторами многих компьютерных обучающих программ. Сейчас имеется большое разнообразие современных мультимедийных учебников, где можно найти достаточно упражнений для учащихся всех возрастов и разных знаний.

Применение компьютерных презентаций на уроках позволяет ввести новый лексический, страноведческий материал в наиболее увлекательной форме, реализуется принцип наглядности, что

способствует прочному усвоению информации. Самостоятельная творческая работа учащихся по созданию компьютерных презентаций как нельзя лучше расширяет запас активной лексики.

Таким образом, правильно организованная работа учащихся с компьютером может способствовать в частности росту их познавательного и коммуникативного интереса, что в свою очередь будет содействовать активизации и расширению возможностей самостоятельной работы обучаемых по овладению русским языком, как на уроке, так и во внеурочное время.

Литература:

1. Полилова Т. А. Внедрение компьютерных технологий. ИЯШ, №6, 1997., с 2-7.
2. Потапова Р.К. Новые информационные технологии и филология. СПБ., 2004.

МОДАЛЛИК ТАРКИБИГА КИРУВЧИ УЯТ КОНЦЕПТИНИНГ ЛИНГВОКУЛЬТОРОЛОГИК ТАҲЛИЛИ

Мунира Хамдамова Бадриддин қизи
АДУ филология факультети III босқич талабаси
Телефон: +998905401030
munira1226@mail.ru

Аннотация: ушбу мақола модаллик таркибига кирувчи уят концептининг лингвокультурологик таҳлилига бағишланган.

Калит сўзлар: антропоцентрик назария, модаллик категорияси, уят тушунчаси, лингвокултурология.

Ҳозирги кунда философия, культурология, лингвистика ва лингвокультурология каби соҳаларда инсонни тўлиқ тарзда ўрганиш тенденцияси сезилмоқда, унинг табиатига, ташқи кўринишига, ички дунёсига, менталитети ва бошқа хусусиятларига бўлган қизиқиш ортиб бормоқда. Шунингдек, инсон феноменини тушуниш табиий фанлар ёрдамида эмас, балки табиий тиллар ёрдамида амалга ошади, мазмунидаги қарашлар ҳам мустаҳкамланиб бормоқда. Тил эса ўз навбатида, инсоннинг ички дунёси билан боғланган ҳолда юзага чиқади. Инсон ички дунёси - бу ментал дунё. "Менталликдан ажраб бўлмайди. У жуда ҳам реалдир [2, 27]."

Тил ва инсон бир-бири билан чамбарчас боғлиқ, демак, тил инсонга хос бўлган барча ҳис-туйғуларни ифодалаб кела олади. Грамматикада ушбу ҳодиса модаллик категорияси термини билан юритилади.

Модал структура ўзида модалликни, эмоционалликни ва баҳо каби қатор хусусиятларни акс эттиради. Биз ушбу тадқиқотимизнинг объекти сифатида эмоционаллик қурилмалари таркибига кирувчи уят концептини танладикки, у ўзида маданий ментал бирликни намойиш этади.

Культурологик жиҳатдан уят ўзига хос, маданиятниг ички оламида шаклланувчи, ахлоқий меъёрларга амал қилган ҳолда юзага чиқувчи психопаралингвистик восита ҳисобланади. Уят концепти остида когнитив жараён ётади ва у ҳар бир инсоннинг "Мен"ида индивидуал тарзда юзага чиқади, ўз миллати, халқи маданиятидан келиб чиққан ҳолда шаклланиб боради.

Лингвистикада уят концептини ўрганиш борасида Арутюнов, Степанов, Апресян, Баженов, Григорян, Лазарид, Шмелев рус тили материаллари асосида, Дженкова немис тили материаллари асосида ва Калинина инглиз тили материаллари асосида тадқиқотлар олиб борганлар.

Уят концептини ифодалаш учун хизмат қилувчи фреймлар - қизармоқ, хижолат бўлмоқ, ўнғайсизлик, ноқулайлик, изза бўлмоқ, номус, иснод - мазмунан қуйидаги семаларни юзага чиқариш учун хизмат қилади:

1) доминант сема (ҳиссиёт);
2) ҳиссиёт сабаби (ўз қилмиши, хулқ-атворининг нотўғрилиги, ножўялигининг иқрори);
3) интенсификаторлик (кучли хижолатлик ҳисси);
4) ҳиссиётнинг қарама-қарши хусусияти;
5) ҳиссиётнинг физиологик жиҳатдан кечинмаси [1, 234].

Уятни икки хил жиҳатдан ўрганиш мумкин эканлиги ҳақида қарашлар мавжуд:

1. Морал (маънавий) жиҳатдан (Д.Осьюбел атамаси);
2. Деонтик (ахлоқий) жиҳатдан (А.Д.Шмелев атамаси).

Ўзбек тилида "Уят - ўз қилмиши, ноўрин хатти-ҳаракатидан хижолатлик ҳисси, номус [3, 314]" каби маъноларни ифодалаш учун хизмат қилади. Демак, уят концепти остида икки хил доминант маъно ётади. Биринчиси - хижолатлик ҳисси, иккинчиси эса номус ва иснод кечинмалари.

Барча халқ ва миллат ўзига хос тарзда уят концептини коммуникация жараёнида юзага чиқаради. Уят билан боғлиқ бўлган ҳолат русларда асосан дин билан, хитой ва японларда миллий анъаналар билан боғланган. Уят концептининг барча миллат учун хос бўлган қуйидаги характеристикасини келтиришимиз мумкин:

1. Уят инсон учун морал белги сифатида;
2. Уят ҳисси кечинмасининг интенсификаторлиги инсон онгига моддий зарардан кучлироқ маънавий таъсир ўтказувчи асорат сифатида;
3. Уят инсоннинг ҳаёт кечириши учун ҳалал берувчи фактор сифатида [1, 234].

Таъкидлаб ўтишимиз жоизки, айрим ҳолларда хушомад ва уят концептларининг юзага чиқиши кетма-кетликни ташкил этади. Шундай ҳолларда уларни бир-бири билан боғлиқ бўлган категория

сифатида талқин этишимиз мумкин.

Юқорида келтирилган ахборотларни хулоса қилиб айтадиган бўлсак, уят концепти инсон тафаккури билан боғлиқ бўлган, унинг ахлоқий-маънавий дунёсига таъсир ўтказувчи, турли вазиятларда унинг хатти-ҳаракатларини тартибга солувчи бирлик ҳисобланади. Ушбу концептни лингвокультурологик жиҳатдан тадқиқ этиш шуни кўрсатдики, ҳар бир миллат ўз шаклланиш ва ривожланиш тарихига эга ва уларнинг дунёқараши, маданияти, анъаналари, ташқи оламдан бўладиган таъсирларга жавоб реакцияси ўзига хос ва индивидуалдир.

Адабиётлар:

1. Антология концептов. Том 3. Дженкова Е.А. Стыд и вина. Волгоград: Парадигма, 2006. С. 234.
2. Прист С. Теории сознания. - М.: Идея-Пресс, 2000. - С.27
3. Ўзбек тилнинг изоҳли луғати // У ҳарфи - Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008. Б. 314.

ПРОБЛЕМА ФОРМИРОВАНИЯ ПОЛНОЦЕННОГО НАВЫКА ЧТЕНИЯ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ.

Хамиджанова Феруза Ибрагимовна,
учитель русского языка и литературы №7 ДИМИ,
Чустского района Наманганской области
тел:+998939428084

Аннотация: в данной статье рассматриваются вопросы формирования навыка чтения в начальной школе. Также представлены образцы разнообразных речевых упражнений для формирования навыков чтения учащихся начальных классов

Ключевые понятия: навык, чтение, выразительное чтение, интонация, выразительность, речевые упражнения

Действующие программы по русскому языку для начальных классов выдвигают целую систему мер, повышающих культуру устной речи школьников. Так, в объяснительной записке к программе по русскому языку для начальных классов настойчиво проводится мысль о ведущей роли развития устной речи. Умения в области письменной речи должны вырабатываться на основе развития устной речи. Необходимо также обратить внимание на составление планов, устных и письменных высказываний детей, на их умение говорить и писать по составленному плану. В программе неоднократно упоминается о развитии умения воспринимать речь на слух, слушать рассказывание или чтение учителя, соблюдать интонацию не только при чтении, но и при передаче содержания прочитанного и рассказывании. С первых шагов пребывания в школе дети учатся отвечать на вопросы, спрашивать, выражать свои впечатления и мысли, рассказывать о результатах своих наблюдений, учатся выразительно читать стихотворения, рассказывать сказки. В частности, все больше укрепляется взгляд на интонацию как необходимое грамматическое средство оформления предложения. Кроме того, выразительное чтение рассматривается как особое искусство. Выразительное чтение становится одним из видов эстетической деятельности школьников.

Однако и в настоящее время речь школьников страдает многими недостатками. Все или почти все в практике сводится к технике речи, тогда как главное, определяющее лежит в содержании высказывания. Необходимо работу над языком осознать как серьезную и важную работу по изучению и воспитанию.Кроме того, непременной принадлежностью уроков развития речи, помимо всего прочего является выработка техники речи, так как нечеткая речь отличается смазанностью звуков, неясной дикцией, недостаточной ясности согласных и гласных. Работа над речью должна ставить своей задачей и развитие фонетической четкости.

Анализируя недостатки речи школьников, современная методика русского языка указывает, что уроки чтения должны сделать язык учащихся более тонким, взыскательным, что необходимо использовать в школьном обучении различные методические приемы: слушание чтения мастеров слова, различные виды пересказов прочитанного, выразительное чтение учителя и детей. В таком широком плане эта задача и ставится перед современной школой. На учителя возлагается сложная обязанность научить языку, т. е. передать новому поколению наш язык, обогатить словарный запас детей, научить выражать мысли и чувства.

Совершенствование речи школьников - далеко не единственная задача выразительности чтения. Слушание художественного произведения в чтении учителя, поможет младшему школьнику понять идейное содержание произведения, а работа детей над текстом читаемого, порождает вдумчивое отношение слов помогает понять богатство и красоту русского языка, эмоционально воспринять художественные образы произведения, ощутить их эстетическое воздействие.

Методика обучения русского языка рекомендует опережающее развитие устной речи. В связи с этим перед учителем ставится задача проводить разнообразные речевые упражнения в устной речи: словарные, синтаксические, композиционные и интонационные. Трудность здесь заключается в комплексности обучения звучащей речи: обучать интонационной речи приходится сразу, одновременно, от звуков и фонем до выразительности речи. И чем раньше дети получат представление об интонационной выразительности речи, тем прочнее они успеют практически овладеть ею. К тому же многие умения и навыки, относящиеся к звуковой стороне речи,

усиливаются только в раннем возрасте (дикция, орфоэпия). Трудности обучения интонационной выразительности не должны останавливать учителя. В развитии речи интонационная работа играет очень большую роль: при правильно поставленном обучении речь детей становится живой, непринужденной, вызывает у них желание совершенствовать ее.

Биз маданий бойликларнинг халқлар ўртасида алмашинуви тобора авж олиб бораётган даврда яшамоқдамиз. Замонавий маданият ютуқлари билан бир қаторда, бу алмашинувда халқ оғзаки ижодиёти ҳам борган сари муҳим ўрин эгаллаб бормоқда. Маданиятлар ўртасидаги муносабатнинг энг муҳим шаклларидан бири таржимадир. Таржима халқларнинг бир-бирини англаши, бир-бири билан ўзаро муносабатлар ўрнатиши ва маънавий бойишининг муҳим воситаси ҳисобланади. Таржима тилида асл матннинг миллий хусусиятларини етказиб бериш ва шу билан бир вақтда бадиий таъсирнинг яхлитлигини сақлаб қолиш учун тилшуносликка оид билимларнинг ўзи етарли бўлмайди. Бунда миллий анъаналарга кириш бориш ва маданиятнинг илдизи ҳамда бош манбаси бўлмиш фольлордан бошлаш зарур бўлади.

Халқ эртакларини таржима қилиш ўз олдига ўзига хос алоҳида вазифани қўяди. Бу вазифа асл манбани "қайта ишлаш"дан иборат бўлиб, бошқа тилда сўзлашувчи матнни осон тушуниши ва бу матн унда ноаниқ ёки мураккаб тасаввурларни ўйғотмаслиги лозим бўлади. Бироқ, асл манбани "қайта ишлаш" аслиятнинг мазмунини мувофиқ равишда акс эттирувчи тил воситаларини излаб топиш билангина чекланиб қолмайди. Бу жараён эртакнинг тузилиши ва анъанавий формулалардан хабардор бўлиш заруратини ўз ичига олади. Аслият мазмунини бошқа тил воситалари билан ифодалаш белгиланган чегаралардан ташқарига чиқишни ҳам тақозо қилади, чунки таржимон аслият тилини билиш билан бир қаторда, асарни яратган халқнинг маданияти, турмуш тарзи ва урф-одатларини ҳам билиши зарур. Бусиз таржима қилинаётган матннинг миллий ўзига хос моҳиятини ўқувчига етказиб бериш, унинг янглиш ёки юзаки қабул қилинишини четлаб ўтишнинг иложи йўқ. Бошқача қилиб айтганда, эртаклар таржимасида барча жиҳатларни, яъни тилга оид ва оид бўлмаган жиҳатларни ҳам ҳисобга олиш лозим. Бунда, миллий хусусиятнинг тўлақонли акс эттирилиши маданий жиҳатдан мувофиқ таржиманинг мажбурий шарти ҳисобланади. Бироқ, таржимада миллий колоритнинг барча кўринишларини акс эттиришнинг имкони ҳам, зарурати ҳам йўқ. Таржимага фақат халқ руҳияти ва ҳаётининг ўзига хос тавсифи ва моҳиятини кўчириб ўтиш лозим.

Эртак бошида келадиган ўзбекча ва инглизча формулаларни таржима қилишнинг алоҳида жиҳатларини кўриб чиқайлик. Энг умумий жиҳатлар бўйича, бу формулаларнинг бир-биридан фарқи шундан иборатки, ўзбекча формулалар инглизча формулаларга қараганда тузилиши ва функционаллиги бўйича ранг-барангроқ бўлиб, жанрнинг муайянлиги билан ҳам ажралиб туради. Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, ўзбек эртаклари одатда мавжудлик формулалари (масалан, Бир бор экан, бир йўқ экан, бир чол билан кампир бор экан) билан бошланади. Инглиз эртаклари эса одатда вақт формуласи билан бошланади (энг кўп тарқалган вариант - once upon a time ва once). Бошланғич формулаларнинг ўқувчиларда эртак оламига олиб кирувчи таниш тасаввурларни уйғота оладиган эквивалентини топишга интиладиган таржимонлар эртаклар бошланишида келадиган формулаларнинг бу хусусиятларини эътиборга оладилар. Ўзбек эртакларининг инглиз тилига таржимасини кўриб чиқайлик.

Аслият	*Таржима*
Бир бор экан, бир йўқ экан, чол билан кампир бўлган экан, лекин уларнинг фарзандлари йўқ экан.	*Once there lived an old man and his old wife and they had no children.*
Бир бор экан, бир йўқ экан, бир подшоҳ бор экан, унинг уч ўғли бўлган экан.	*Once upon a time there was a padishah, and he had three sons.*

Иккинчи мисолдаги гапда once upon a time вақт формуласи мавжуд, бу эса инглиз анъанасига тўлиқ мос келади ва бу таржимани функционал жиҳатдан мувофиқ деб тан олишимиз мумкин. Биринчи мисолдаги гапда эса once формуласи биринчи келади, бу формула одатда инглиз эртакларида қаҳрамонларнинг мавжуд бўлиш формуласидан кейин келади, шу сабабли таржима қуйидагича кўриниш олиши керак: There once lived an old man…

Инглиз эртаклари бошида келадиган формулаларнинг ўзбек тилига таржимасини кўриб чиқайлик.

Аслият	Таржима
Once upon a time there was a boy…	*Бир бор экан, бир йўқ экан, бир бола бўлган экан...*
In Bamborough Castle once lived a king…	*Бир бор экан, бир йўқ экан, Бамборо қасрида бир қирол яшаган экан...*

Шундай қилиб, аксарият таржималарда эртаклар бошида келадиган мавжудлик формулалари биринчи ўринга олиб чиқилади, бу эса ўзбек эртагининг анъаналарига мос келади ва энг кўп тарқалган there was инглиз мавжудлик формуласи энг кўп тарқалган Бор экан, йўқ экан, ... бўлган экан ўзбек мавжудлик формуласи билан таржима қилинади.

Тадқиқотларнинг кўрсатишича, эртаклар бошида келадиган формулаларни етказишда, мос ибораларнинг муайян семантикаси тўғри келмаган тақдирда ҳам, асосан таржима қаратилган маданият тилининг функционал жиҳатдан эквивалент формулаларидан фойдаланилади. Бундай ёндашув таржиманинг бегона тилда табиийроқ янграшини таъминлайди ва ўқувчиларда таниш таассуротларни уйготади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. - Т.: Ўқитувчи, 1990. - Б. 4-14.

2. Холмирзаева С.Ш. Ўзбек халқ эпосидаги бадиий шартлиликнинг ўзига хос хусусиятлари. Филол. фанлари номзоди ... дисс. - Т., 1990.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КУЛЬТУРЫ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА И ВО ВНЕУРОЧНОЕ ВРЕМЯ

Эргашева У.Б.
учитель русского языка и литературы специализированного государственного образовательного учреждения для незрячих учащихся Навоийской области

Аннотация: Данная работа посвящается развитию речи учащихся, которая является одной из актуальных проблем методики преподавания литературы и русского языка. Не владея связной речью, трудно стать активным участником общественной жизни, интересным собеседником. Задача учителя - развивать речь учащихся используя различные методы и способы обучения.

Ключевые слова и понятия: развитие речи, влияние, интерес, связная речь, словарная работа, речевые упражнения, эффективность, систематически, целенаправленно, речевая культура, сформулировать.

Развитие речи учащихся - одна из актуальных проблем методики преподавания литературы и русского языка. Известно, что хорошо развитая речь оказывает непосредственное влияние на обучение детей не только языку, но и всем учебным дисциплинам, являясь показателем интеллектуального развития. Трудно стать активным участником общественной жизни, интересным собеседником, не владея связной речью.

В системе работы над развитием речи используются разные группы приемов и типов речевых упражнений, включающих словарную работу, работу над словосочетанием и предложением, логическую работу и носящих тренировочный характер. Используются разнообразные виды сочинений.

Использование различных типов речевых упражнений и словарной работы развивают речевую деятельность учащихся, обогащают словарный запас. Развитие речи учащихся будет эффективным при условии, если на уроках русского языка систематически и целенаправленно используются разнообразные речевые упражнения.

Современная система работы по развитию речи учащихся выделяет в качестве основной задачу формирования умений воспринимать и воспроизводить текст и сознательно создавать собственное высказывание в устной и письменной форме. Для решения данной задачи рекомендуют создавать речевые ситуации, которые максимально приближены к естественным условиям общения. В этом случае повышается речевая активность учащихся, обеспечивается высокая мотивация в обучении.

Совершенствуя речь учащихся, большое внимание следует обращать на такие факты, как логика, точность, ясность, выразительность и правильность речи. Точность речи предполагает умение ученика не только умело передать факты наблюдения, но и найти наилучшие языковые средства. Из этих требований вытекает и совершенствование культуры речи учащихся.

Активизируя интерес учащихся к предмету в целом, развивая речевую грамотность на уроках и во внеклассной работе, а также целенаправленно и системно используя разнообразные способы развития устной речи, можно качественно повысить уровень сформированности речевой культуры учащихся.

Но важнейшими условиями успешной работы по развитию устной речи на уроках русского языка и во внеурочное время, на мой взгляд, являются:

- многообразие применяемых способов, направленных на развитие устной и письменной речи;
- осуществление преемственной связи между учебной и внеурочной
- деятельностью по развитию речи учащихся как в содержании изучаемого материала, так и в способах его подачи;
- системная работа над обогащением словарного запаса учащихся.

Таким образом, в соответствии свышеизложенным, можно сформулировать рекомендации учителям и студентам педагогического направления.

-систематически проводить лексическую работу на всех уроках в начальной школе;

-проводить работу со словом по всем направлениям: над обогащением, активизацией, уточнением словаря, соблюдая при этом все требования к речи;

- целесообразно использовать разнообразных приемов для эффективного усвоения значения новых слов детьми (подбор синонимов, антонимов, словообразовательный анализ, работу с толковым словарем, объяснение в контексте и т.д.);

- уделять особое внимание изобразительно - выразительным средствам языка на уроках русского языка: эпитетам, сравнениям, метафорам, т.к. они делают речь ребенка яркой, выразительной;
- использовать в своей педагогической деятельности различные виды упражнений творческого характера, побуждая детей к осознанному употреблению новых слов.

Литература:

1. Казарцева О. М. Культура речевого общения: теория и практика обучения. - М.: Наука, 2001.
2. Капинос В. И. Развитие речи: теория и практика обучения. - М.: Наука, 2001.

ИНГЛИЗ ТИЛИНИ ЎҚИТИШДА ГРАММАТИК ТАРЖИМА МЕТОДИ

Ю.Мамажонова, Наманган вилояти
Норин тумани 23-мактаб ўқитувчиси
тел: (93)-982-38-32

Аннотация: мақолада инглиз тилини ўрганиш ва ўқитишда грамматик таржима методидан фойдаланишнинг аҳамияти ёритиб берилган.

Калит сўзлар: таълим, педагогика, инглиз тили, луғат, грамматика.

Ҳозирги кунда мактабгача таълим тизимида ва умумтаълим мактабларида чет тилларини, хусусан инглиз тилини ўргатишнинг инновацион усулларини қўллаш орқали ўқитиш муҳим аҳамият касб этмоқда. Педагог-ўқитувчиларни ташаббуслари ва янгиликлари асосида айнан барча таълим тизимида мазмун ривожланиш кузатилади. Шунингдек, умуман таълим тизими ривожига ижобий таъсир кўрсатади. Бир сўз билан айтганда, инновация маълум бир фаолият майдонидаги муаммони ечиш учун янгича ёндашув демакдир.

Мамлакатимизда Ўзбекистон Республикасининг "Таълим тўғрисида"ги Қонунини ҳамда Кадрлар тайёрлаш миллий дастурини амалга ошириш доирасида чет тилларга ўқитишнинг комплекс тизими, яъни уйғун камол топган, ўқимишли, замонавий фикрловчи ёш авлодни шакллантиришга, Республиканинг жаҳон ҳамжамиятига янада интеграциялашувига йўналтирилган тизим яратилмоқда.

Шу билан бирга, чет тилларни ўрганишни ташкил қилишнинг амалдаги тизимини таҳлил этиш шуни кўрсатмоқдаки, таълим стандартлари, ўқув дастурлари ва дарсликлар замон талабларига, хусусан, илғор ахборот ва медиа-технологиялардан фойдаланиш борасидаги талабга тўлиқ жавоб бермаяпти. Таълим асосан анъанавий услубларда олиб борилмоқда. Таълим тизимининг барча босқичларида чет тилларни узлуксиз ўрганишни ташкил қилиш, шунингдек, ўқитувчилар малакасини ошириш ҳамда замонавий ўқув-услубий материаллар билан таъминлаш янада такомиллаштирилишини тақозо этади.

Чет тили ўқитиш методикаси ёш фанлардан бири ҳисобланиб, унинг пайдо бўлганига тахминан 200 йил бўлган бўлсада, фанда чуқур изланишлар олиб борилди. Жамият ривожлана бориши билан доимо янги методлар вужудга келиши муқаррар эканлигини эътироф этмоқда.

Хорижий тилларни ўраниш ва ўргатишда шу кунга қадар бир неча методлар қўлланилганлиги барчага маълум. Улар хорижий тилларни ўқитишда узоқ вақт қўлланилиб келинган ГТМ (Грамматик-таржима методи), БМ (Бевосита методлар), АЛМ (Аудиолингвал метод), АВМ (Аудиовизуал метод) ва бугунги кунда хорижий тилларни ўрганиш ва ўргатишда кенг қўлланилаётган КМ (Коммуникатив методикадир).

Немис услубшуноси профессор Герхард Нойнер ўзининг "Чет тил ўқитиш методлари" китобида грамматик таржима методлари Европада XIX асрда француз ва инглиз тилларини гимназияларда ўқитиш учун қўлланил-ганлигини, намуна сифатида гимназияларда ўқитиладиган қадимги грек ва лотин тиллари хизмат қилганлигини, замонавий "тирик" чет тиллар "ўлик" тиллар (алоқа воситаси сифатида фойдаланилмайдиган ва фақат ёзма равишда мавжуд бўлган) бўлиши лотин ва грек тилларини ўқитиладиган метод асосида ўргатилганлигини ёзади1.

Грамматик-таржима методида грамматикага катта эътибор берилган. Грамматик ўқув материали мажмуасининг асосини ва уни ўзлаштириб олиш таълим мақсадининг асосини ташкил қилади. Ким грамматикани эгаллаб олса чет тилини эгаллаган ҳисобланган. Таржимага ҳам алоҳида ўрин берилган. Ким тўғри таржима қила олса, демак у чет тилини билган ҳисобланган.

Агар биз ГТМ асосида яратилган дарсликларга назар ташласак, дарсликда дастлаб бирон-бир мавзуга оид матн берилган. Матнга тегишли бир ёки иккита машқлар берилган. Машқлар эса қуйидагилардан иборат бўлган: Матнни ҳикоя қилиб беринг ёки саволларга жавоб беринг, тарзида. Матнни тўла оғзаки нутққа олиб чиқиш учун оддийдан мураккабга йўналтирилган машқлар мавжуд бўлмаган. Сўнгра маълум грамматик қоида берилган. Барча машқлар эса грамматик қоидага йўналтирилган. Машқлар кетма-кетлик даражасига ҳам мутлақо эътибор берилмаган. Бундан ташқари грамматик таржима методида ўқиш ва ёзишга катта эътибор берилган. Чет тилларини ўрганиш орқали ўзга маданият таълимий бойликлари ва қадриятлари билан танишиш ва уларни ўз маданий ҳаётида тадбиқ қилиш орқали инсон шахснинг ривожланиб боришини алоҳида таъкидламоқ лозим.

Инглиз тили дарсларида ўқувчилар оғзаки нутқини ривожлантиришда янги педагогик технологиялардан самарали фойдаланиш, ўқувчи-ёшларларга маълумот бериш ва у билан боғлиқ

маълумотларни инновацион усуллари, воситаларини бериш ўқувчилар нутқини ривожланитиришда катта аҳамиятга эга.

Хулоса қилиб айтганда, инглиз тили дарсларини ўқитишда грамматик таржима методи орқали ўқувчи-ёшлар айрим маълумотларга эга бўлиши мумкин, лекин дарсдан сўнг мустақил равишда изланишга ундайши натижадаси кўпроқ янги маълумотларни билиб оладилар. Шунингдек, бу дарс ўқувчиларга инглиз тилида муҳим ҳисобланган ўқиш, мавзуга оид атамаларни ёд олиш имкониятини ҳам беради.

Адабиётлар:

1. Н.Азизхўжаева. Педагогик маҳорат ва педагогик технология. Тошкент, 2015 й.
2. А.Исмаилов. Инглиз тили амалий курсидан Ўқув-услубий мажмуа. ЎзДЖТУ, 2011 й.

ПЕДАГОГИКА ВА БОШҚА ФАНЛАР ЎРТАСИДАГИ ИНТЕГРАЦИЯ

Юлчиев Бахтияр, Сирдарёвилояти,
Сирдарётумани 39 мактабжисмонийтарбияукитувчиси
СаидоваУмида,Сирдарёвилояти,
Сирдарётумани 39 мактабкимёфаниукитувчиси

Abstract: The article discusses problems of educational processon teaching,there were given the ways for integration pedagogical technologies into the learning process.

Key words: pedagogical process, educational process, group work, purposes of observations .

Таълим-шахсни ривожлантириш ва шакллантириш учун шарт-шароитлар яратишга қаратилган мақсадли жараён. Ўқитиш-махсус ташкил этилган, мақсадга мувофиқ жараён бўлиб, унда ўқувчилар билим, кўникма ва малакалар тизимини ўзлаштирадилар, табиий қобилиятларни ривожлантириш, ижтимоий ва шахсан аҳамиятли сифатларни шакллантириш юз беради. Педагогик жараён ўқитувчи ва ўқувчиларнинг махсус ташкил этилган ўзаро муносабатлари, унда шахсни тарбиялаш, тарбиялаш, ривожлантириш ва тарбиялаш вазифалари ҳал етилади. "Таълим" ва "тарбия" тушунчаларидан олинган бўлиб," ўз-ўзини тарбиялаш "ва" ўз-ўзини тарбиялаш" тушунчаларидир. Ўз-ўзини тарбиялаш-инсоннинг билимларни қидириш ва ўзлаштириш билан боғлиқ мақсадли ишидир. Ўз-ўзини тарбиялаш инсоннинг онгли ва мақсадга мувофиқишлаши керакли хусусиятлар, фазилатлар ва хатти-ҳаракатларни шакллантиради. Ҳар қандай фан назария, фундаментал билимлар тизимидир. Педагогик назария-педагогик воқеликнинг тегишли томонларини тасвирлаш, тушунтириш, башорат қилиш ва ўзгартириш вазифаларини бажарадиган педагогик ҳодисаларнинг зарурий мақсади ва табиий хусусиятлари ҳамда боғланишлари ҳақидаги буйруқли билимлар тизими. Педагогик гипотеза-педагогик воқелик ҳодисалари ҳақида ҳали маълум илмий фактлар, қонуниятлар ва усуллар ёрдамида тушунтирилмаган ва шунинг учун текширишга бўйсундирилган назарий тахминдир. Ҳар қандай педагогик гипотеза маълум метод ва методлар ёрдамида синалади, улар одатда методлар деб аталади. Усул (юнон тилидан. Методос йўли, тадқиқот йўли) педагогик муаммони ҳал этиш йўлидир. Педагогика фанининг методлари: - назарий (интерпретация, тушуниш, анализ, синтез, идеаллаштириш, моделлаштириш, аналогия, индукция, дедукция, таққослаш, умумлаштириш, даражалаш, таснифлаш, монографикусулвабошқалар.);

-эмпирик (кузатиш, контент-анализ, тажрибани ўрганиш, эксперимент, сўров ва бошқалар.); - социометрик (рейтинг, миқёс, қутбли Profil усули, тестлар ва бошқалар.). Ҳар қандай фан билим элементлари бўлган ва воқеликка, реал амалиётга айнан мос бўлган далилларни ўрганади. "Факт" атамаси одатдаги маънода содир бўлган нарсани англатади. Ҳар бир педагогик факт кузатилиб ўрганилади, унинг бошқа фактлар билан алоқаси ўрнатилади, сўнгра улар умумлаштирилади, тизимлаштирилади, маълум бир назария позициясидан келиб чиқиб оқланади ва шундагина илмий билимнинг ажралмас қисмига айланади. Шундай қилиб, педагогика фани ўзаро боғланган ва унинг яхлитлигини таъминловчи ўз таркибий элементларига эга. Педагогика қуйидаги сифат хусусиятларига эга: - инновация (педагогикада янги) - педагогик амалиёт эҳтиёжларига жавоб бўлиб, унда ҳамма нарса янгиланади: педагогик фаолиятнинг мақсади ва вазифалари, қадрият йўналишлари, таълим ва тарбияга янгича муносабат, таълим мазмуни ва уни сифат жиҳатдан такомиллаштириш йўналишлари, педагогик муносабатларнинг шакл ва усуллари. Педагогика бошқа фанлар билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, улар ўртасида бир неча турдаги боғланишлар мавжуд. Педагогика ва бошқа фанлар ўртасидаги турли хил боғланишларга оид мисолларни кўриб чиқамиз. Масалан, таълим социологиясидан олинган "ижтимоийлашув" атамаси педагогика фанига хос бўлган ўзига хос мазмунни очиб беради: "педагогик жараённинг ижтимоий назорат қилинадиган ва мақсадга мувофиқ ташкил этиладиган шароит ва вазиятлари жараёни." Ўзаро таъсир: аввалги бир томонлама муносабатлардан фарқли ўлароқ, бу турдаги муносабатлар икки томонлама. Масалан, педагогика ва фалсафа ўртасидаги муносабат. Педагогика нафақат фалсафа ютуқларидан кенг фойдаланади, балки фалсафа педагогик тадқиқотларда аниқланган қонуниятларни умумлаштириш учун амал қилган ҳолларда педагогика соҳасидаги илмий ютуқлардан ҳам фойдаланади. Ўзаро таъсир: мулоқотнинг бу тури мураккаб тадқиқотларга хос бўлиб, унда ҳар бир фан педагогик ҳодиса (жараён) нинг маълум бир жиҳатини кўриб чиқади, бу ҳақда янги билимлар олиш керак, масалан, психологик-педагогик тадқиқотлар, хусусий методик тадқиқотлар ва бошқалар. Педагогика фани бундай тадқиқотларда бирлаштирувчи тамойил вазифасини бажаради: илмий тадқиқотнинг мақсади ва йўналишини белгилаб беради,

умумлаштирувчи хулосаларни шакллантиради. Интерпенетрация: педагогика ва бошқа Фанлар ўртасидаги бундай боғланишлар бир фаннинг етакчи ғоялари, позициялари ва хулосалари асосида янги тушунча ва парадигмалар ҳосил қилиниб, бошқа фаннинг янги тармоқлари вужудга келади. Интерпенетрация, масалан, педагогика ва фалсафа учун хосдир. Ҳар қандай педагогик тадқиқот муайян фалсафий назария ёки тушунчага асосланади. Шу билан бирга педагогик ғоялар деярли барча фалсафий тушунчаларга органик равишда "тўқилади". Комплементарлик: бу турдаги муносабатлар кўпинча педагогика ва психология ўртасида, психологик-педагогик илмий фанлар тизими доирасида юзага келади. "Комплементарлик" атамаси одатда "комплементарлик", "ўзаро ёзишмалар" деб таржима қилинади. Бир фандан олинган маълумотлар бир-биридан олинган маълумотларни тўлдирганда, бир неча фандан олинган маълумотлар мозийдан бўлгани каби, воқеликнинг ягона суратини ҳосил қилганда қўшимча муносабатлар пайдо бўлади.

СИНТАКТИК ҚУРИЛМАЛАРНИНГ МАТН ПРАГМАТИКАСИДАГИ ЎРНИ

Мадаминова Мухаббат Сотволдевна
АДУ таянч докторанти (PhD)
muhabbat madaminova@mail.ru
Телефон: +99894-3884448

Аннотация. Ушбу мақолада ўзига хос синтактик қурилма - ундалмаларнинг лексик-грамматик табиати асосида нутқий мулоқот жараёнидаги лингвопрагматик хусусиятлари субстанциал ёндашув асосида тадқиқ қилинди.

Аннотация. В этой статье на основе содержательного подхода исследованы лингвистические особенности процесса речевого общения,основанные на лексико-грамматической природе конкретного синтаксического аппарата-гласных.

Abstract. In this article,the linguistic features of the speech communication process based on the lexical-grammatical nature of the specific syntactic device-vowels were studied on the basis of a substantive approach.

Калит сўзлар: Pragmalingvistika, undalma, struktura, predmet, kommunikant, sintaktik qurilma, nutq.

Ключевые слова: Прагмалингвистика, подтяжка, структура, предмет, коммуникант, синтаксическое устройство, речь.

Keywords: Pragmalingvistics, exclamation point, structure, predicate, communicant, syntactic device, speech.

Нутқ адресант мақсадини адресатга таништирувчи асосий омил сифатида нутқий ифодани шакллантирувчи (адресат) ва уни қабул қилувчи (адресат) ўртасидаги мулоқот воситаси, яъни мураккаб ва ўзига хос ташкил этилган онгли фаолият шаклидир. Мулоқот жараёнидан, албатта, маълум бир мақсад кўзланади. Мақсад эса прагматик омилларнинг лисоний ҳодисалар билан уйғунлашуви натижасида рўёбга чиқади. Шу маънода "лингвистик прагматика тилшуносликнинг янги соҳаси сифатида нутқ субъектининг ички мақсади билан боғлиқ яширин пропозицияларни ўрганади."[4,47].

"...гап таҳлилида тор маънодаги синтактик доирадан чиқиш ва ушбу ҳодисанинг дискурсив-прагматик табиатини ўрганиш лингвистик тадқиқотларни янги поғонага олиб чиқди."[2].Шу тариқа синтактик қурилмаларнинг матн прагматикасидаги ўрни ва ролини тадқиқ қилишга эҳтиёж кучайди.

Маълумки, таркибида ундалма, кириш ва киритмалар, ажратилган бўлаклар, ундовлар қатнашган гаплар мураккаблашган содда гаплар ҳисобланади. Бундай гаплар ҳам шаклий, ҳам мазмуний жиҳатдан мураккаблашади. Ундалма, кириш ва ундовлар ифодалаган муносабат гап орқали ифода ланаётган синтактик вазият билан сўзловчи ўртасидаги муносабатдир. Бундай муносабат "субъектив муносабатни ифодалайди".[1,98-99]. Мураккаблашган содда гаплардаги бундай муносабат гапнинг мазмунини кенгайтиради. Ундалмалар ундаш муносабатини, киришлар модал муносабатларни ифодаласа,[1,98-99] ундовлар сезиш ва таъсирланиш муносабатини ифодалайди[3].

М.Қосимова ундовларни ҳам субъектив муносабат билдирувчи интродуктив алоқа[1] га киришувчи, яъни синтактик алоқага киришмайдиган, фақат мазмуний томондан боғланадиган бирликлар қаторида тадқиқ қилади. А.Нурмонов ва А.Р.Сайфуллаевларнинг бу борадаги ишларида масалага тўғри ёндашилганини эътироф этган ҳолда, яна бир лисоний бирлик - ундовлар эътибордан четда қолдирилганини таъкидлайди. Бу ўринда ундов сўзларнинг ундалма таркибида келиши назарда тутилмайди. Ундов сўзлар, кўпинча, гапда кириш сўзга ўхшаш вазифа бажариб, ундов бўлиб келади. Бундай ундовлар гап мазмунига эмоционал бўёқ бериб, унинг прагматик ҳолатини ўзгартириши мумкин.[Қаранг: Қосимова М.Бадиий нутқ индивидуаллигининг лингвистик хусусиятлари (Тоғай Мурод асарлари асосида)].

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Т., Ўқитувчи, 1995 й.
2. Сафаров Ш.Тилшуносликнинг навбатдаги вазифалари//Хорижий филология. №3, 2016 й.
3. Қосимова М.Бадиий нутқ индивидуаллигининг лингвистик хусусиятлари (Тоғай Мурод асарлари асосида). ФФН дисс. Т., 2007 й.
4. Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. Т., Академнашр,2013й .

ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕВОДА ТОПОНИМОВ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ.

Лутфуллина Альфия Ахмадфаридовна, преподаватель английского языка
Кокандский государственный педагогический институт.
Телефон: +998916943323
alifiya_91@mail.ru

Аннотация.

В статье рассматриваются основные приемы перевода имен собственных: транскрипция, гипо-гиперонимический перевод, уподобление, перифрастический (описательный, дескриптивный, экспликативный)перевод, калькирование.

Ключевые слова: топоним, транскрипция, транскрибирование, гипо- гиперонимический перевод, калькирование.

Топонимы распространены как в картах, туристических гидах, дорожных указателях так и в художественных текстах. Имя собственное выполняют роль географического указателя и лексической единицы, которая семантику заложенную автором.

В.С.Виноградов, определял, что в ситуациях, где имена собственные выполняют свои обычные функции, внутренняя форма этих слов, как правило, не воспринимается: " ею пренебрегают, так как, даже если смысл этой формы вполне ясен, ей не вменяются в речи характеристические, оценочные функции, хотя потенциальная оценочность в таких словах всегда сохраняется".

С.Влахов и С.Флорин в книге "Непереводимое в переводе" пишут о том, что "некоторые реалии обладают и признаками имен собственных, другие стоят на границе между обеими категориями, и не менее правильно было бы сказать, что многие из имен собственных в ряде случаев могут быть и реалиями". В текстах имена собственные и слова реалии имеют схожие черты, так как способны передавать исторический или национальный колорит. Но все таки существует различие с орфографической стороны, с прописной буквы пишется имя собственное (топоним), со строчной - реалия. Также некоторые реалии имеют собственное значение (семантику) и по этому признаку их можно было бы приравнять к "значащим" именам собственным.

С.Влахов и С.Флорин не совмещают эти две категории, так как каждая из них это "самостоятельный класс безэквивалентной лексики", который обладает своими признаками и приемами передачи семантики при переводе.

По выводу С.Влахова и С.Флорина , В.С. Виноградов привел список, состоящий из пяти приемов перевода слов реалий.

1.Транскрипция. Транскрибированные слова сопровождаются сносками. Частое транскрибирование иноязычных слов, которое называет реалии, ведет к потере национального колорита и портит русское повествование ненужными экзотизмами.

2. Гипо- гиперонимический перевод. "Для этого способа перевода характерно установление отношения эквивалентности между словом оригинала, передающим видовое понятие-реалию, и словом в языке перевода, называющим соответствующее родовое понятие, или наоборот. Иногда переводчики варьируют оба указанных приема. Сначала они транскрибируют слово-реалию, а затем при следующем появлении его в оригинале переводят гиперонимом".

3. Уподобление. Данный прием и гипо-гиперонимический перевод очень похожи, но разница между ними в том, что "уподобляемые слова скорее называют понятия, соподчиненные по отношению к родовому понятию, а не подчиненное и подчиняющее понятие, как было в предыдущем случае".

4. Перифрастический (описательный, дескриптивный, экспликативный) перевод. В этих случаях соответствия устанавливается между словом или фразеологизмом оригинала и словосочетанием перевода, объясняющим его смысл. Перифраза тоже нередко совмещается с транскрипцией, заменяя подстрочный комментарий и делая более естественной и соответствующей оригиналу переводную авторскую речь.

5. Калькирование. Этот прием характерен не для передачи значений слов-реалий, то есть общеупотребительных слов в определенной национальной общности, а при воссоздании индивидуально-авторских неологизмом, когда переводчик, соперничая с автором, придумывает столь же выразительные, как в оригинале, окказиональные слова. К калькированию прибегают и

при переводе пословиц и поговорок, когда в силу различных причин необходимо сохранить не только их смысл, но и их образно-смысловую основу. Структурно-семантическое калькирование иноязычных слов часто применяется в переводах научной литературы.

При анализе трудов нескольких авторов на тему перевода топонимов в тексте, мы приходим к выводу, что при их переводе переводчик руководствуется особенностями контекста и опирается на уже имеющиеся примеры переведенных имен собственных.

Список использованной литературы.

1. Вернигорова В.А. Перевод реалий как объекта межкультурной коммуникации. Молодой ученый, 2010№3(14) С. 184-186.
2. Виноградов В.С. Введение в переводоведение (Общие и лексичекие вопросы). М.: Издательство института общего и среднего образования РАО, 2001.224с.
3. Влахов С.И., Флорин С.П. Непереводимое в переводе. М.: Высшая школа, 1986. 416с.

"BODA KELTIR CHUN QUYOSHTIN□" G'AZALI TAHLI.

Dilnoza Akramova
Jizzax Davlat Pedagogika Instituti talabasi
+998946469295
Z.Mamadaliyeva
Jizzax Davlat Pedagogika Instituti f.f.n,dots.

Annotatsiya: Ushbu maqolada G'azal mulkining sultoni Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-ma'oniy" kulliyotining "Bado'e ul-vasat"debonidan o'rin olgan, an'anaviy yetti baytdan iborat ushbu g'azal tahlili keltirilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Xazoyin, ma'oniy, bado'e, musalsal, g'azal, rindona, soqiy, may, mayxona, mug'bachcha,b oda, keltur, chun, quyoshtin, chekti, maxfiy, jom, subh, erur, jomi, nishot, ichmakka, xush, hangom, subh.

A.Navoiyning "Xazoyin ul-ma'oniy" kulliyotining "Bado'e ul-vasat"debonidan o'rin olgan, an'anaviy yetti baytdan iborat ushbu g'azal shaklan musalsal va mazmunan rindona g'azallar sirasiga kiradi.

"Musalsal g'azal-baytlari o'zaro zanjirli bog'lanish hosil qilib,matlada qo'yilgan mavzu silsilaviy tarzda rivojlanib boradi va maqtada xulosalanadi".

"Rindona g'azal-bunday mavzuli g'azallarni 2 qismga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq.Birinchi qismdagi g'azallar, orifona mazmundagi rindona g'azallar bo'lib, ular tasavvufiy ta'limot bilan bog'liq hisoblanib,bunda soqiy,may,mayxona, mug'bacha istelohlari ko'chma, ya'ni majoziy ma'noni ifodalab, ustozi komil, pir, oriflar suhbatgohi kabi ma'nolarni ifodalaydi. Ikkinchi qism soqiyga xursandchilik ulashuvchi sifatida murojaat etish, may va boda obrazlariga esa xursandlik va shodumonlik keltiruvchi hayotbaxsh manba sifatida qarash ustivor bo'lgan g'azallardir".

Bunday g'azallar ulug' fors shoirlari Hofiz Sheroziy, Xusrav Dehlaviy va umuman romantik adabiyot ta'siri sifatida Navoiy ijodida ham o'ziga xos o'rin egallaydi. Ushbu g'azal rindona g'azallarning 1-turiga kiradi va lirik qahramonning soqiyga murojaati bilan boshlanadi.

Boda keltur, chun quyoshtin chekti maxfiy jom subh,
Kim, erur jomi nishot ichmakka xush hangom subh.

Tong jomi quyoshdan ajrab chiqqanligi sababli, ya'ni tong otganligi uchun may uzat. Tong vaqti xursandchilik jomini ichadigan paytdir.

G'azalning birinchi bayti lirik qahramonning murojaati bilan boshlangan. Lirik qahramon boda keltirishlarini so'ramoqda. Bu o'rinda boda ilohiy ishq timsolidir.

U shunday bodaki, go'yo quyoshmonand. Quyoshdek qizdiruvchi, oshiq ko'nglida yorug'lik nurlarini taratuvchi. Mayning quyoshga qiyoslanganligining boisi, quyosh ko'zni qamashtiruvchi, uning nurlariga tob berish mushkul. Xuddi shunday quyoshmonand may ham kishining butun vujudini olovdek yondiradi. Quyosh o'z harorati, ziyosi bilan olamni munavvar etganday, orif qalbi ham oshiqlarni xushnud eta oladi. Bu o'rinda quyoshga o'xshash mayni ichish oshiqni orif bilan yaqinlashtiradi. Oshiq orifning ko'ngil ko'zi bilan o'z ma'shuqini ko'ra boshlaydi. Oshiqning muddaosi ham aynan mana shu. Oshiq ayni sahar chog'ida jomi nishot ya'ni xursandchilik mayini ichmoqchi. Ilohiy ishqni shimirish bu Haqqa yetish. O'zlikdan kechib, Alloh ishqida devona bo'lgan oshiq uchun bundanda yuksak martaba bo'lmaydi. Oshiq uchun yana bir yangi tong otishining o'zi bir mo'jiza. Oshiq soqiyga murojaat etib mana shu yangi tong otganligi uchun ham, bahonada butun koinotni,ma'shuqni yana ko'rish umidi paydo bo'lganligi uchun ham may keltirishlarini so'raydi.

Matlada boda, jom so'zlari, quyosh, subh so'zlari orqali tanosub san'ati yuzaga kelgan. Jomi nishot so'zida esa isteora she'riy san'atini ko'rishimiz mumkin. Isteora -arabcha "qarz olish" ma'nosida. Isteora 2 narsa o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanadi.Tashbehdan farqli ravishda o'xshatish vositasi va o'xshatish sababi qo'llanmaydi.

Oshkora bodai gulrang ichmak xushturur,
Chun nihon aylar kavokib gullarin gulfom subh.

Qizil mayni oshkora ichmoq yoqimlidir. Xuddi yulduzlar gullarini yashirgan gulrang tongda.

Ikkinchi baytda lirik qahramonning may ichish ishtiyoqi shu qadar kuchayadiki, u bu mayni ochiq oshkora hammaning ko'z o'ngida ichishni xohlaydi. Oshiq endi otayotgan gulrang tongda qizil mayni ichish ishtiyoqida yonmoqda. Oshiq aynan qizil tongda qizil rangli may ichmoqchi. Mana shu otgan gulrang tongda oshiqning orzu-istaklari, maqsadi, muhabbati yashamoqda. Shu go'zal tong oshiqqa yangi umid uchquni, bu tongga yetishganlikning o'zi katta baxtdir. Gul qanchalik chiroyli bo'lsa, otayotgan tong ham xuddi gul kabi go'zal. Uning rangi ham qizg'ish,gul rangida. Bu tongda ilohiy ishq yo'g'rilgan gulrang mayni ichish oshiqqa

haqiqiy baxt nishonasi bo'lib ko'rinmoqda. Bu o'rinda bejizga subh istelohi qo'llanilmagan. Subh bu tong payti, erta tong. Subh va tong so'zlari o'zaro ma'nodosh bo'lsada, lekin ular o'rtasida birozgina farq seziladi. Tong oddiygina o'zimiz bilgan sahar. Subh esa oddiy sahar emas, endi tong otayotgan vaqtdagi erta sahar. Samoda yulduzlar o'zlarini yashirgandan keyingi dastlabki holat subhga tegishli. Oshiq mana shu subhning go'zalligini his etib, uning holatini tomosho qilmoqda.

Siymbarlarkim saboxat birla tutqaylar qadah,

Ne balo xushtur tulu etkanda siym andom subh.

Kumushbadan ma'shuqalarning go'zallik birla qadah tutishlari tongning kumush rangida jilolanishiga o'xshaydi.

Tong otishi, yorug'lik paydo bo'lishi lirik qahramon nazdida eng yoqimli hodisa. Bu o'rinda tulu etmoq birikmasi ko'rinish, chiqish, yoritish ma'nolarini ifodalab kelgan. Aynan mana shu yorug'lik uning qalbini nurafshon etmoqda, unga ishq otashidan bir cho'g' tashlamoqda. Oshiq qalbida tug'yon urayotgan ishq shunday qudratga egaki, oshiq bu holatdan mast,sarxush. Uningcha yorug'likning har bir zarrasi unga kumushbadan ma'shuqa bo'lib ko'rinmoqda. Bu go'zallar uning atrofida parvona. Oshiqqa ishq mayini to'latib bermoqdalar. Bu bilan oshiqning muhabbati yanada alangalanib bormoqda. Yorga yetishish ishtiyoqi unga huzur bag'ishlaydi. Ilohiy ishq ko'ngliga jo bo'lgan oshiq uchun yorga bo'lgan muhabbat ,butun insoniyatga, koinotga bo'lgan muhabbat tarzida akslanadi. Oldingi baytda subh gul rangida ya'ni qizg'ish tusda edi. Endi esa u kumush rangida jilolanmoqda. Oshiq ko'z o'ngida tong shunday go'zal va nafis harakatlar qilmoqdaki, o'sha subh xuddi kumushbadan ma'shuqalar singari tovlanib, har xil tusga kirib oshiq hayolini o'g'irlamoqda.Bu tong shunday nafis ko'rinmoqdaki, go'yo oshiqqa o'z ma'shuqasi kelib qadah tutmoqda. Subhning oshiqqa bu qadar chiroyli ko'rinishi sababi subh oshiq ko'z o'ngida xuddi o'zi kabi oshiqlik harakatlarini qilmoqda. Bu ishi bilan subh oshiq ko'nglini xushnud etib, unga yorug'lik, go'zallik ulashmoqda.

Baytdagi siym, siymbar so'zlari ishtiqoq san'atini yuzaga keltirgan. Ishtiqoq san'ati orqali bir o'zakdan bo'lgan so'zlar ifodalanadi. Yana oppoq tongni kumushbadan ma'shuqaga o'xshatish orqali tashbeh san'ati, siym andom birikmasi orqali isteora san'ati ko'zga tashlanadi. Siymbarlar, saboxat, siym, subh so'zlari esa tavze'-tovushdoshlikni namoyon etgan. Subhning harakatlanishi natijasida esa tashxis-shaxslantirish she'riy san'ati kelib chiqqan.

Sarg'ayib ashkin to'kib, mendek yaqo chok aylamish,

Bir nihoni mehr ila to bo'ldi beorom subh.

Sarg'ayib ko'zyosh to'kib, men bechoradek yoqasini yirtmoqda. Chunki tongda bir pinhon quyoshni ko'rib beqaror bo'ldi.

Mazkur baytda oshiqning ahvoli qolgan baytlardagidan yaqqolroq ko'zga tashlanadi. Lirik qahramon nuqtai nazari bilan qaraganda subh yor hajrida shu darajaga yetdiki, ma'shuq ishqida kuyib, yonib, rangi ro'yi sarg'aydi.Tinmayin ko'zyosh to'kib, o'zini bilmas darajaga yetdi. Kiyimlarini yirtib, telba oshiqqa aylandi. Demak, oshiqning qalbi shunchalik tashnaki, uning ko'z o'ngida subh go'yoki shunday harakatlanmoqda. Ilohiy ishq hammaga ham nasib etavermaydi. Qaysiki ko'ngilga uning bir zarrasi tushsa, o'sha ko'ngil bunga dosh berolmay qolishi mumkin. Bizning lirik qahramonda ham xuddi shunday vaziyat. Uning qalbiga tushgan uchqun tobora alanga olib boryapti. Endi uni o'chirish, oshiqni o'ziga qaytarishning sira imkoni yo'q. Sababi u mana shu ishq bilan tirik. Subh tong payti bir pinhon quyoshni ko'rdi. Lirik qahramonning bunchalik azob chekishiga, o'zini qiynashiga sabab ham o'sha quyosh. Quyosh mahbub timsoli. Subh esa unga oshiq. Quyoshning nurlari mahbubning sifatlaridir. Uning har bir zarrasi subhning oromini o'g'irlaydi. Xuddi shuningdek oshiqning ko'ngliga tushgan zarra ham ma'shuqning birgina sifati edi. Oshiq mana shu kichik zarradan shuncha behol bo'lmoqda. Quyoshning birgina zarrasiga dosh berish shunchalik qiyin. Quyoshning o'zini ko'rishning iloji bormikin?! Bunga oshiq tob bera olarmikin?! Lekin oshiqning istagi asl quyoshni, ya'ni yorning o'zini ko'rish, visolga yetish orzusida. Quyosh butun olamni yoritib, qizdirayotganidek, ilohiy ishq ham oshiq ko'nglini yoritib, qizdirmoqda.

Mazkur baytda subhning xuddi oshiq singari sarg'ayib, ko'zyosh to'kishi, yoqasini yirtishi, quyoshni ko'rib beorom bo'lishi tashxis she'riy san'atini yuzaga chiqargan. Bu orqali lirik qahramon o'z ahvoliga ishora qilmoqda.

Vahki, ul subh uzoru shomi zulf anduxidin,

Yig'laram to subh shom, afg'on tuzub to shom, subh.

Taajjubki, uning yorug' chehrasi va qora sochining g'amida to erta-yu kech yig'layman. Tongda ham go'yo qorong'udek nola chekaman.

Oshiq o'z holini bayon qilishda davom etmoqda. Yorning yorug' chehrasi va qora sochi ishqida tinimsiz, kecha-yu kunduz yig'lashini bayon etmoqda. Tasavvufda yorning yuzi ilohiy diydor, soch esa yorga yetishishdagi qiyinchiliklarni ifodalaydi. G'azal boshidan buyon ko'rinib turibdiki, oshiq ilohiy diydorni istaydi. Unga dunyoviy hech narsaning qizig'i yo'q. Oshiq bu yo'lga kirdimi, endi oxirigacha kurashmoqchi. Sababi ma'shuqning

sochi ishq yo'lidagi qiyinchiliklar ekan, ularni yengib o'tish oshiq uchun sharafli. Bu qiyinchiliklar oshiqning muhabbatiga zarracha daxl etolmaydi, balki bu muhabbatni kamolotga yetkazadi. Oshiq esa bunday to'siqlarni ishq yo'lida birma-bir bosib o'tadi. Bu uni qiynashi mumkin, lekin unga huzur bag'ishlaydi. Oxir oqibat ko'ngli taskin topadi.

Baytda uzor va zulf so'zlari orqali ya'ni yuz va soch so'zlari vositasida tanosub san'atini, subh va shom, subhi shom va shomi subh so'zlari orqali esa tazod san'atini kuzatishimiz mumkin. Aynan shomi subh va subhi shom birikmalari orqali tardi aks-teskari qilib takrorlash san'ati yuzaga kelgan.

Daxr gulzorida har tun chekkali jomi sabux,
Yetkurur tong bulbuli faryodidin payg'om subh.

Dunyo gulzorida har kuni kechqurun tongda ichiladigan mayni ichish, ul quyoshning nolasidan xabar bergani uchun uni sog'inib ichiladi.

Lirik qahramon aslida tongda, ayni subh chog'i ilohiy may ichishni xush ko'radi. Ammo kechqurunlari ham may ichishni kanda qilmaydi. Uning qiladigan ishi kecha-yu kunduz ilohiy ishq ramzi bo'lgan mayni ichish. Shu orqali ilohiy diydorni istash, uni sog'inish, bir on bo'lsada yoddan chiqarmaslik. Oshiq chin ma'noda quyoshga qiyoslangan ilohga oshiq. Shu bois uning ko'ziga subh oshiq kabi harakat qilayotgandek, quyosh unga ma'shuqlik shartlarini bajarayotgandek tuyuladi. Lirik qahramonning kechqurunlari ertalab ichiladigan mayni ichishi oshiqqa o'z quyoshi, ya'ni ma'shuqining xabarini beradi. Uning ahvolini esga soladi. Mayda ma'shuqning tajallisi ko'rinadi. Qachonki oshiq may ichishni boshlasa, yorini ko'rish istagining kuchliligidan. Chunki sog'inchning mavjudligi oshiq qalbini ilohiy ishq egallab olganligidan dalolat beradi.Shu bois ham oshiq takror-takror may ichishni xohlayveradi.

Subhi vasl ummididin o'ldi, Navoiy shomi hajr,
Anga ne sud o'zgalarga hosil etsa kom subh.

Navoiy visol tongini umid qilib, hijron tunida o'ldi. Boshqalarning murodi hosil bo'lganligidan unga endi nima foyda.

Maqtada lirik qahramon o'z-o'ziga murojaat qilmoqda. Shu paytgacha oshiq qanchadan-qancha qiyinchiliklarni yengib o'tdi. Bularning hammasini mahbub jamoliga yetish, uning visolidan bahramand bo'lish uchun qilgan edi. Hijron azobi esa oshiq yuragini battar o'rtab, qalbidagi ishq otashini yondirdigina emas, balki alanga oldirdi. Oshiq bejizga tinimsiz may ichishga ruju qo'ymadi. Mana shu may oshiqning butun borlig'ini, hayoti-yu xayolini bandi etdi. Oshiq shunchalikka yetdiki, qizil may bo'lmasa yasholmaydigan bo'lib qoldi. SHunday ekan, erta-yu kech mahbubni sog'inib may ichish oshiq muhabbatini albatta, eng yuqori darajaga yetkazgan edi.

Xulosa. Xulosa qilib shularni aytib o'tish kerek, oshiq kecha-yu kunduz yorning visolini istab, ya'ni ilohiy ishqqa yetish ishtiyoqida ming marta o'lib tirildi. U mana shu harakatlarini, o'zining oshiqlik mashaqqatlarini subhda ko'rdi. Ko'rdi-yu unga maxliyo bo'lib qoldi. Chunki subh ham quyosh ishqida yonmoqda edi. Bularning bari oshiq xayolida tasavvur etildi. Oshiqning subhga bo'lgan mehri yanada kuchaydi. Mana shu subh go'yo oshiqning istaklari ro'yobidek ko'ringan edi. Ammo agar bunday bo'lmasa, go'zal tong oshiqning orzusini emas, boshqalarning foydasiga xizmat qilsa, bundan oshiqqa nima foyda?! Lirik qahramonning bor umidi, xohishlari shu visol tonggida edida. Oshiqning hijron tunida o'lmasligi uchun subh ham oshiqlik ahdini buzmasligi darkor. Oshiqning istagi ham shu ilohiy ishq yo'lida sobit qolish va oxir-oqibat mahbub visolidan bahramand bo'lish. Maqtadagi subhi vasl va shomi hajr so'zlari tazod she'riy san'atini yuzaga chiqargan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Olimov S, Ahmedov S, Qo'chqorov P, 8-sinf adabiyot darsligi,Toshkent-2014.
2. Komilov N "Tassavvuf", Toshkent -2009.
3. "Navoiy g'azallari uchun qisqacha lug'at",Toshkent,O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, "Fan" nashriyoti.

TADQIQOT.UZ
ТОМОНИДАН ТАШКИЛ ЭТИЛГАН

"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР" МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 14-КЎП ТАРМОҚЛИ ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

(3-қисм)

Маъсул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Эълон қилиш муддати: 31.03.2020

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амир Темур пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000